


**M.A.Askarov, A.S.Rafikov,
D.O.Abdusamatova**

POLIMERLAR FIZIKASI VA KIMYOSI



**“Excellent Polygraphy”
Toshkent – 2020**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT
INSTITUTI**

M.A.Askarov, A.S.Rafikov, D.O.Abdusamatova

POLIMERLAR FIZIKASI VA KIMYOSI

Darslik

5320400 – Kimyoviy texnologiya (to'qimachilik sanoati),
5320400 – Kimyoviy texnologiya (qog'oz sanoati) ta'lif
yo'nalishlari uchun tavsiya etilgan.

**Toshkent
“Excellent Polygraphy”
2020**

UO'K: 544.777(075.8)

KBK: 24.7ya73

A83

Polimerlar fizikasi va kimyosi [Matn] : darslik / M.A.Askarov,
A.S.Rafikov, D.O.Abdusamatova. –Toshkent: “Excellant Polygraphy”.
2020. 293 bet.

ISBN 978-9943-6248-1-8

Taqrizchilar:

I.A. Nabiyeva – TTYeSI, “Kimyoviy texnologiya” kafedrasи professori, t.f.d., prof.

O.S. Maksumova – Toshkent kimyo-texnologiya instituti professori, k.f.d., prof.

Ushbu darslik bilim sohasi:300000– Ishlab chiqarish-texnik soha; ta’lim sohasi: 320000– Ishlab chiqarish texnologiyalari; ta’lim yo‘nalishlari: 5320400 – Kimyoviy texnologiya (to‘qimachilik sanoati), 5320400 – Kimyoviy texnologiya (qog‘oz sanoati) uchun “Polimerlar fizikasi va kimyosi” fan dasturi asosida tayyorlangan. Undan texnika oliv o‘quv yurtlarining boshqa bakalavriat yo‘nalishlari talabalari ham foydalanishlari mumkin. Darslik 14 bobdan iborat bo‘lib, polimerlar fizikasi va kimyosining asosiy tushunchalari, polimerlarning sinflanishi, ularning tarkibi, tuzilishi, olinish usullari, fizik, kimyoviy va mexanik xossalari, polimerlarning eritmalarini va ularning xossalari, polimerlarning molekulyar massasi va polidispersligi, ularni qayta ishlash, plastmassalar, rezina va kauchuk, kimyoviy tolalar, polimerlarning to‘qimachilik va yengil sanoatda qo‘llanilishi bo‘yicha nazariy materiallarni o‘z ichiga oladi.

UO'K: 544.777(075.8)

KBK: 24.7ya73

ISBN 978-9943-6248-1-8

©“Excellent Polygraphy”, 2020
© M.A.Askarov va boshqalar, 2020

24882/3

SO'Z BOSHI

Bugungi kunda dunyo miqyosida “polimer materiallariga bo‘lgan ehllyoy 300 mln. tonnadan ortiq bo‘lib, shundan polietilen 37%, polipropilen 26%, polivinilxlorid 18% ni tashkil etadi. Termoelastoplast kompozitsiyalarning dunyo bo‘yicha yalpi ishlab chiqarish hajmi yiliga 3 mln. tonnadan ziyod bo‘lib, sintetik va sun’iy polimer materiallar iste’molidagi ularning ulushi 65-67% ga yetgan”¹.

Jahon miqyosida polimer materiallarni qayta ishlash va qo‘llash orqali kimyoviy va aralash tolalar, iplar, maxsus to‘qimachilik mareriallari, poyabzal detallari, sintetik charm mahsulotlari ishlab chiqarish tobora kengayib bormoqda. Mamlakatimizning kimyo sanoati, to‘qimachilik, yengil va poyabzal tarmog‘i korxonalarining mavjud quvvatlarini yangilash, tuyyorlanadigan mahsulotlar turini ko‘paytirish hamda assortimentini kengaytirish borasida, shuningdek, xaridorgirligi bo‘yicha raqobatbardoshligi va yuqori sifat ko‘rsatkichlarini ta‘minlash yo‘nalishlarida muayyan natijalarga erishildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi² dasturiga muvofiq, “sanoatni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, mahalliy xomashyo manbaalarini qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni jadallashtirish, ichki va tushqi bozorni prinsipial yangi ishlab chiqarilgan import o‘rnini bosuvchi raqobatbardosh milliy xalq iste’mol mollari bilan ta‘minlash va iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beruvchi zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish” vazifalari aniq belgilab berilgan.“Milliy iqtisodiyotimizni mustahkamlash, yurtimizni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish uchun oldimizda hali ko‘plab vazifalar turibdi”³. Jumladan, to‘qimachilik va yengil sanoat tarmogi oldiga “xomashyoni qayta ishlash, yuqori qo‘silg‘un qiymatli tayyor mahsulotni ishlab chiqarish va eksport qilish bo‘yicha yagona kompleks sifatida, shu jumladan, sanoat kooperasiyasini kengay-

¹www.ey.com/ru/ru/idustries/oil: www.arpet.ru

²“2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

³O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 22-dekabr 2017-yil. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. 44 b.

tirish va qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarida tadqiqotlar o'tkazish asosida tarmoqni barqaror rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish; tarmoqning zamonaviy rivojlanish tendensiyaning hisobga olgan holda to'qimachilik sanoati sohasida kadrlarga bo'lган real ehtiyojni va ularni tayyorlashning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash, mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirishda ishtirok etish, ushbu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish¹ hamda "Mamlakatimizda charm va mo'yna xomashyosini chuqur qayta ishlash asosida eksportga yo'naltirilgan tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi va turlarini kengaytirish, shuningdek, aholini mahalliy ishlab chiqarilgan sifatli va arzon poyabzal hamda charm-attorlik mahsulotlari bilan ta'minlash; Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti tuzilmasida charm-poyabzal sohasi muhandis-texnik xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv markazini tashkil etish; 2018/2019 o'quv yilidan boshlab Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida "Charm va mo'ynadan ishlangan mahsulotlar texnologiyasi va ularni yaratish". "Texnologiyalar va uskunalar: charm va mo'yna, qorako'l", "Texnologiyalar va uskunalar: poyabzal va charm-attorlik mahsulotlari" ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash² vazifalari qo'yilgan.

"Polimerlar fizikasi va kimyosi" fanini bilish hozirgi vaqtida turli sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarning ijodiy samarali ishlari uchun zarurdir. Bu fanni o'rganish muhimligi shu bilan belgilanadi, to'qimachilik va yengil sanoatda ishlataladigan, kelib chiqishiga qarab tabiiy va sintetik tabiatga ega bo'lган hamma tolasimon materiallarning asosi polimerlardir. Shuning uchun ham bakalavrlar bu fanning asosini egallamasdan turib kelajakda to'qimachilik materiallari texnologiyasi sohasida samarali faoliyat ko'rsata olmaydi. Umumiy va organik kimyo, fizikaning ba'zi bir bo'limlari ushbu fanning nazariy asosini tashkil etadi.

Polimerlar quyi molekulyar birikmalarining xossalardan tubdan farq qiladigan, o'ziga xos xususiyatlар kompleksi bilan xarakterlanadi. Tex-

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 14-dekabrdagi PF-5285 sonli Farmoni.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 3-maydag'i PQ-3693 sonli Qarori.

nologik jarayonlarga ilmiy yondashish “Polimerlar fizikasi va kimyosi” fanini yetarli darajada o‘zlashtirishni taqozo etadi. Bu holat so‘nggi yillarda to‘qimachilik va qog‘oz sanoati, yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishslash va texnologiyasi yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarning polimerlar va polimer kompozitsiyalariga murojaat etayotganliklarida ham o‘z isbotini topmoqda. Bakalavrular yuqori molekulyar birikmalarning tarkibi, tuzilishi, olinishi, ularning kimyoviy va fizikaviy xossalari haqidagi aniq tasavvurga ega bo‘lishi kerak.

Fanning maqsadi – polimerlarning va ular asosida olingan polimer materiallarning tuzilishi va xossalarni o‘rgatish va yuqori molekulyar birikmalarning asosiy tushunchalari haqida hozirgi zamon ma‘lumotlaridan foydalanib bilim berish, talabalarda mantiqiy va amaliy ko‘nikmalar hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifalari:

– polimerlar fizikasi va kimyosi fanining asosiy tushuncha va qonunlarini talabalarga mukammal o‘rgatish va ulardan texnologik jarayonlarni rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilishda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;

–to‘qimachilik va yengil sanoatda qo‘llaniladigan birikmalarning tuzilishi va xossalarni izohlash;

– polimerlar fizikasi va kimyosi fanining nazariy asoslarini hozirgi zamon rivojlanish yo‘llari bilan bog‘liq holda, ularning fan va texnikadagi ahamiyati haqida bilim berish va shu sohada talabalarni mantiqiy xulosalar chiqarishga o‘rgatish;

– polimerlarning sintezi va xossalari bo‘yicha kimyoviy tajribalar ni kimyoviy idishlar, reaktivlar va qurilmalardan foydalanib bajarishga o‘rgatishdan iborat.

Darslikni nashrga tayyorlash Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti “Kimyo” kafedrasi professori, k.f.d., prof. A.S.Rafiqov tomonidan bajarilgan. Darslikni tayyorlashda kitob mualliflaridan tashqari kafedra o‘qituvchilari – M.M.Zubaydullayeva, N.R.Kadirova faol qatnashdilar. Kitob haqidagi fikr va mulohazalaringizni asrafikov@mail.ru elektron manzilga yuborishingizni so‘raymiz.

I BOB.


“POLIMERLAR FIZIKASI VA KIMYOSI” FANINING MAZMUNI, PREDMETI, ASOSIY TUSHUNCHALARI

1.1. Polimerlarning tirik tabiatdagи roли va ularning kimyoviy materiallar sifatida ahamiyati

Polimerlar – yuqori molekulyar birikmalardir. Odatda, molekulyar massasi 500 dan bir necha milliongacha bo‘lgan moddalar yuqori molekulyar birikmalar hisoblanadi. Molekulyar massasi 500 dan 5000 gacha bo‘lgan moddalar xossalari jihatidan quyi molekulyar birikmalarga ham, yuqori molekulyar birikinalarga ham o‘xshamaganligi uchun rasman oligomerlar deb ataladi.

Yuqori molekulyar birikmalar molekulalari o‘lchamlarining kattaligini nazarda tutib, ko‘pincha, ularni makromolekulalar deb, yuqori molekulyar birikmalar kimyosini esa makromolekulalar kimyosi deb yuritiladi. Yuqori molekulyar birikmalar kimyosi bir necha yuz va minglab atomlardan tuzilgan makromolekulalarning kimyoviy xossalarni, tuzilishini, sintez va tahlilini, ularda kuzatiladigan qonuniyatlarni o‘rganadi.

Yuqori molekulyar birikmalar tarkibidagi elementlarning xususiyatiga qarab organik va anorganik polimerlarga bo‘linadi. Organik yuqori molekulyar birikmalar, chunonchi, o’simliklar organizmining asosiy tarkibiy qismini tashkil qiluvchi selluloza, kraxmal, lignin, pektin moddalar jonli tabiatning asosini tashkil qiladi. Hayvonlar organizmidagi oqsillar, garmonlar, fermentlar va shu kabilar yuqori molekulyar moddalardir. Paxta va kanop tolalarining qimmatli xususiyatlari ularning polisaxaridlardan – sellulozadan tashkil topganligida bo‘lsa, sabzavot va donlarning ozig‘lik xususiyati ularning tabiiy polimer – kraxmaldan tashkil topganlidadir. Demak, o’simliklar dunyosi tabiatda yuqori molekulyar birikmalar hosil qiluvchi qudratli manbadir. O’simliklarda polisaxaridlar, pektin moddalar va lignin biologik jarayonlar natijasida hamma vaqt hosil bo‘lib turadi. Bu jarayonda asosiy xomashyo karbonat angidrid bo‘lib, undan murakkab kimyoviy o‘zgarishlar – fotosintez natijasida yuqori molekulyar birikmalar paydo bo‘ladi:



Fotosintez jarayonida quyosh nurlari energiyasi ko'plab yutiladi. Bu energiya kimyoviy energiyaga aylanib, yuqori molekulyar birikmalar hosil qilishga sarflanadi. O'simliklar dunyosining ahamiyati ham shundaki, ular kimyoviy energiyani toplash bilan tabiatda uglerod elementi muvozanatini saqlab turadi. Shuningdek, hayvonlar organizmi ham yuqori molekulyar birikmalardan, asosan, oqsil moddalardan tashkil topgan. Muskul, teri, soch, pay, shox, tirnoq va shu kabilar aminokislotalardan sintez qilingan oqsillardan iboratdir. Shunday qilib, o'simlik va hayvon organizmlarining hayoti yuqori molekulyar birikmalarning hosil bo'lishi, turdan – turga o'tishi va parchalanish jarayonlari bilan uzlusiz bog'liqdir.

Texnikada ko'p miqdorda ishlatiladigan organik yuqori molekulyar moddalardan eng muhim, sifatida tabiiy kauchukni ko'rsatish mumkin. Hozirgi zamон texnika taraqqiyotida kauchuk va rezinasiz hech bir sohani, ayniqsa, transport, aloqa va poyabzal sanoatini deyarli rivojlantirib bo'lmaydi.

Jonli tabiatda organik yuqori molekulyar birikmalarning ahamiyati qanchalik katta bo'lsa, jonsiz tabiatda anorganik yuqori molekulyar birikmalarning ahamiyati shunchalik kattadir. Yer sharining asosiy qismi kremniy, alyuminiy kabi yuqori valentli elementlarning oksidlaridan iborat bo'lib, ular o'zaro birikkan holda makromolekulalar hosil qiladi. Mineral jinslar, asosan, ana shu makromolekulardan tashkil topgan. Bularning ichida kremniy oksid polimerlari asosiy o'rinni egallaydi, uning miqdori yer qobig'ida 50–60 foizni tashkil etadi. Tabiatda kremniy, asosan, kremniy oksididan tashkil topgan polimer holida yoki murakkab yuqori molekul-yur silikatlar, ko'pincha, alyumosilikatlar holida uchraydi. Chunonchi, kvars ko'pchilik tog' va qum jinslarni tashkil qiluvchi kremniy angidridning polimeridan iboratdir.


Kimyo fanining nazariy va amaliy yutuqlarini chuqur o'rganish yuqori molekulyar birikmalarning muhim xususiyatlarini bilib olishga imkon berdi. Masalan, moddalarning molekulyar massasi ortishi bilan molekulalarning harakatchanligi kamayib boradi, bu esa jismning fizik-kimyoviy xossalariiga tubdan ta'sir ko'rsatib, erish, suyuqlanish, bug'lanish, kristallanish va deformatsiyalanish xossalarni o'zgartirib yuboradi. Turli moddalar kimyoviy reaksiyalarga kirishish uchun faqatgina bir-biri bilan bog'lanib qolmay, balki o'zaro diffuziyalyanishi ham shartdir. Quyi molekulyar birikmalarda molekulalarning harakatlanishi va o'zaro diffuziyalyanishi osonligidan ular kimyoviy reaksiyalarga tez va oson kirishadi. Aksincha, yuqori molekulyar birikmalarda makromolekulalarning katta-


ligi tufayli, ular o‘zaro sust diffuziyaalanadi, shuning uchun ham kimyoviy reaksiyalarga juda sekin kirishadi, ba’zan esa mutlaqo kirishmaydi. Shunday makromolekulalardan tashkil topgan jismlargina yer yuzida bo‘ladi-gan fizik va kimyoviy o‘zgarishga uzoq vaqt davomida bardosh bera olishi mumkin.

Yer yuzida quyi va yuqori molekulyar moddalar to‘xtovsiz ravishda bir-biriga aylanib turadi. Tabiatda polimerlarning hosil bo‘lishi va parchalanish jarayonlarining uzluksiz almashinib turishi moddalarning kimyoviy harakatining eng muhim va o‘ziga xos xususiyatidir. Quyi molekulyar birikmalardan yuqori molekulyar birikmalarning hosil bo‘lishi va ularning parchalanishi natijasida qaytdan quyi molekulyar moddaga aylanishi moddalarning kimyoviy xossalarini o‘zgartiribgina qolmay, balki ularning energetik holatini va massasini ham o‘zgartirib, umuman, tabiatning rivojlanish jarayonini amalga oshiradi.

1.2. Yuqori molekulyar birikmalar kimyosidagi asosiy tushunchalar

Yuqori molekulyar birikmalar (YUMB) yoki polimerlar deb tarkibida takrorlanib keluvchi yuzlab, minglab elementar bo‘g‘inlari (ayrim bo‘lak-chalari) bo‘lgan, molekulyar massasi katta bo‘lgan moddalarga aytildi. Yuzlab, minglab va undan ortiq atomlarning o‘zaro kovalent bog‘lar bilan birikishidan hosil bo‘lgan yuqori molekulyar birikmaning molekulasini makromolekula(yirik molekula) deyiladi. Masalan, selluloza makromolekulasining tuzilishi:





Tabiyy kauchuk: $[-CH_2 - CH = C - CH_2 -]_n$

CH_3

Polietilen: $(-CH_2 - CH_2 -)_n$

Ko'pchilik tabiiy va sintetik polimerlarning makromolekulalari ko'p marta takrorlanadigan bir xil elementar bo'g'inlardan tashkil topgan bo'ladi:

$\sim A - A - A - A - A - A \sim$ yoki $\sim (-A -)_n \sim$

« n » indeks makromolekuladagi elementar bo'g'inlar soniga teng bo'lib, odatda, yuqori molekulyar birikmaning *polimerlanish darajasi P* ni ifodalaydi.


Polimerlanish darajasi, *polimerning molekulyar massasini [M (polimer)] elementar bo'g'ining molekulyar massasiga [M(elementar bo'g'm)] nisbatiga teng bo'ladi:*

$$P = \frac{M(\text{polimer})}{M(\text{elementar zveno})}$$

Bundan polimerning molekulyar massasi uning elementar bo'g'inining molekulyar massasi bilan polimerlanish darajasining ko'paytmasiga tengligi kelib chiqadi.

Polimerlar quyi molekulyar birikmalardan olinadi. Polimerlarni sintez qilishda ishlataladigan quyi molekulyar birikmalar *monomerlar* deb ataladi.

Shuni ham aytish kerakki, barcha yuqori molekulyar polimerlar munrazam takrorlanuvchi bir xil monomer bo'g'inlardan tashkil topmaydi, ba'zi yuqori molekulyar birikma makromolekulasidan elementar bo'g'ini ajratib olish mumkin emas, chunki bunday makromolekula kimyoiviy tarkibi jihatidan bir-biridan farq qiladigan va turli tartibda joylashgan elementar bo'g'inlardan tashkil topgan bo'ladi.



Masalan:

$\sim A - A - B - A - B - B - A - B - A - A - B \sim$
yoki

$\sim A - B - B - C - A - C - C - B - A - B - B \sim$

Bu yerda A, B va C – kimyoviy tarkibi turlicha bo‘lgan elementar bo‘g‘inlar. Shunday nomuntazam tuzilgan yuqori molekulyar birikmalariga oqsil, lignin, sintetik birikmalardan ko‘pchilik sopolimerlar misol bo‘la oladi.

Tarkibi va tuzilishi jihatidan bir xil, ammo molekulyar massasi (polimerlanish darajasi) har xil bo‘lgan makromolekulali birikmalar polimergomologik qatorni tashkil qiladi. Amalda har qanday yuqori molekulyar birikma o‘zining makromolekulalari uzunligi bo‘yicha murakkab polimergomologik qatorlardan tashkil topgan bo‘lib, ularni muayyan baracha usullar bilan bir xil molekulyar massaga ega bo‘lgan aniq fraksiyalariga ajratish imkoniyati topilgan. Shuninguchun ham odatda polimerning molekulyar massasiga taqsimlanish funksiyasi qo‘srimcha ravishda beriladi. Taqsimlanish funksiyasi 1 gramm polimerdag‘i ma’lum molekulyar massaga ega bo‘lgan makromolekulalar miqdorini ko‘rsatadi.

¹<http://www.psclc.ws/russian/index.htm>


Struktur izomerlar polimer makromolekulasida monomer bo'g' inlarning bir-biriga nisbatan qanday holatda birikkanligini xarakterlaydi. Odatda bunday birikishlar uch xil bo'ldi.

1) "boshga-bosh" 2) "boshga-dum" 3) "dumga-dum"

Agar $CH_2=CHX$ tipidagi monomerlarning CH_2 guruhi ni "bosh" va CH_2X guruhi ni "dum" deb hisoblasak, yuqorida aytilgan uch xil birikish quyidagi shaklni oladi:

$n CH_2=CH \rightarrow -CH_X-CH_2-CH_2-CH_X-$	"boshga-bosh" birikish
$n CH_2=CH \rightarrow -CH_X-CH_X-CH_X-CH_2-$	"dumga-dum" birikish
$n CH_2=CH \rightarrow -CH_2-CH_X-CH_2-CH_X-$	"boshga-dum" birikish"

"Boshga - dum" tipida birikkan 4 bo'g'inli zanjir namunasi:



1. X - o'rinosarlar asosiy zanjir tekisligining faqat bir tomonida joylashgan.



2. X - o'rinosarlar asosiy zanjir tekisligining har ikki tomonida joylashgan.

1.3. Polimerlar haqidagi fanning rivojlanish tarixi

Polimerlarga oid kimyo, fizikaviy kimyo va fizika asoslari asrimizning 30-yillaridan boshlab mustaqil fan sifatida jadal sur'atlar bilan rivojlanana boshlab, bu sohadagi turli fanlarning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi. Hozirgi kunda iqtisodiyotning turli sohalarida polimerlar keng qo'llanib kelinmoqda: rezina, plastmassa, kimyoviy tola, lok-bo'yoqlar, yelim, polimer pardalar va boshqa tur buyumlar dunyo miqyosida keng ko'lamda ishlab chiqarilmoxda. Insonlar qadim zamonlardan beri polimerlardan foydalanib kelishgan, xoh ular o'simliklardan olingan bo'lsin, xoh ular hayvonlardan olingan bo'lsin. Shunga qaramasdan faqat XIX asr oxirida polimer moddalar boshqa kimyoviy moddalardan alohida qilib ajratib olindi. Chunki XIX asrga kelib, polimerlarni sintez qilish usullari paydo bo'la boshladi, lekin sun'iy polimerlarni ishlab chiqarish qadimda Xitoyda mavjud bo'lgan. Ipak qurti so'lak bezlaridan ajralib chiqqan suyuqlikdan tola olishga muvaffaq bo'lishgan. Buning uchun olingan suyuqlikni idishga solib, tayoqcha bilan cho'zib tola hosil qilishgan. Suyuqlikdan ajralib chiqqan tola havoda qotib ipga aylangan. Hosil bo'lgan mahsulot pilladan olingan tolaga o'xshash bo'lgan.

Yevropada XIX asrgacha polimerlar haqida ma'lumot bo'lмаган. XVII asrda Guk, XVIII asrda Byuffon va Remyur kimyo fanining rivojlanishini kuzatib, shunday "yelimli suyuqlik" olinsa, undan o'rgimchak iplariga o'xshagan ip olish mumkinligini aytib o'tishgan. Faqatgina XIX asrga kelib, tola olish mumkin bo'lgan suyuqlikni nitrosellyulozadan Ber-sellius olishga muvaffaq bo'ldi. Shardonne hozirgi tola oluvchi uskunalariga o'xshagan sun'iy tola oluvchi moslamani yarattdi. Djoul Janubiy Amerikadan Yevropaga keltirilgan tabiiy kauchukka qiziqib uning xossalari o'rgandi. U kauchuk ustida fundamental izlanishlar olib borib, kauchuk cho'zilganda qizishini aniqlab, ya'ni siqilgan gazlarga o'xshab xossasi o'zgarishini aniqladi. Shu tajribalarga asoslanib keyinchalik yuqori elastik polimerlar nazariyasiga asos solindi. Lekin ularning fizik va matematik asoslari XX asrning 30-50 yillariga kelib ishlab chiqildi. XX asrning 30-yillariga kelib polimerlarning sanoatda qo'llaniladigan turlari ko'paydi. Ularga sellyuloza efirlari, poliamidlar, sintetik kauchuk qo'shildi. O'sha vaqtarda asosiy burilish Lebedev va Inatyev tomonidan sintetik kauchuk sintezining ixtiro qilinishi bo'ldi. Ayniqsa, rezina olishda kauchukka to'ldiruvchi sifatida qurum qo'shilishi katta ahamiyatga

ega bo'ldi. Shunday kashfiyotlardan keyin polimerlar chinni va sun'iy qimmatbaho toshlar olishda ishlatala boshlandi.

Polimerlarning kimyoviy zichligi kichik bo'lgani uchun ular qimmatbaho metall konstruksiyalari o'rniiga qo'llanila boshlandi. Bu almashinishlar kompozitsion materiallar qo'llanilishi bilan yanada rivojlandi. Polimerlar ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida "Polimerlar fizikasi va kimyosi" fanining alohida bo'limi sifatida ajralib chiqdi va hozirda yuqori cho'qqilarni egallamoqda. Bu esa polimerlar texnologiyasi rivojlanishiga, polimer materiallar ishlab chiqarish ko'payishiga va inson ehtiyojlarini qondirish uchun barcha sohalarga kirib keldi. Shuning uchun kimyo, fizika, polimerlar kimyosi fani eng tez rivojlanayotgan fan yo'nalishlaridan biriga aylandi. Sanoatning yirik tarmoqlari: rezina, plastmassa, kimyoviy tolalar, plyonkalar, loklar, kleylar, elektroizolyatsiya materiallarida polimer qayta ishlanmoqda va qo'llanilmoqda.

Bugungi kunda dunyoda ishlab chiqarish hajmi bo'yicha barcha materiallar ichida loy-qum materiallari va buyumlari (shisha, keramika, segment-beton va boshqalar) hamon birinchilikni saqlab kelmoqda. Ammo, eng yosh bo'lishiga qaramasdan, polimerlar (plastmassa, rezina, tolalar) metall materiallari va buyumlaridan o'zib ketib, ikkinchi o'ringa ko'tarilib oldi.

1.4. Polimerlar fizikasi va kimyosi fanini rivojlantirishda O'zbekiston olimlarining xizmatlari

Iqtisodiyotning har qanday sohasini polimerlar ishtirokisiz rivojlantirib bo'lmaydi. Polimerlarning ishlab chiqarishda keng qo'llanilishiga asosiy sabab ularning fizik, kimyoviy va mexanik xossalaring xilma-xilligidir. Polimerlarni sintez jarayonida ularning xossalarni maqsadli o'zgartirish uchun tarkibi-tuzilishi-xossasi o'rtasidagi bog'liqlikni bilish va polimer tuzilishi haqidagi bilimlarga ega bo'lish kerak. Bu muammolarni yechish uchun polimerlar fizikasi va kimyosi sohasidagi keng qamrovli ma'lumotlarni analiz qilish va umumlashtirish kerak bo'ladi.

O'zbekistonda polimerlar kimyosining keskin rivojlanishida katta burilish bo'lgan davr 1959-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tarkibida Polimerlar kimyosi instituti tashkil etilishidan boshlangan. 1964-yilda esa mutaxassislashgan Paxta sellyulozasi kimyosi va texnologiyasi ilmiy tadqiqot institutiga aylantirilgan. 1979-yilda esa O'zbekiston FA Polimerlar kimyosi va fizikasi institutining respublikada polimerlar haqidagi fan

sohasi bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish va muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etilgan (institut rahbari O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, O'zR FA akademigi, kimyo fanlari doktori, professor S.Sh.Rashidova). Ushbu institut olimlari bilan bir qatorda O'zR FA ning Bioorganik kimyo va O'simlik moddalar kimyosi institutlari, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti va boshqa bir qancha tashkilotlarning olim va mutaxassislari O'zbekistonda polimerlar kimyosi va fizikasi fanini rivojlantirish bo'yicha innovatsion, fundamental va amaliy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Olimlarimiz maxsus xossalarga ega bo'lgan, funksional-aktiv yangi polimerlar va ular asosida kompozitsion materiallar sintez qilish, xossalarni aniqlash va ularni sanoat, meditsina, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda qo'llash borasida samarali ishlar olib bormoqdalar. Polimerlar kimyosi fanining rivojlanishiga organik kimyo, fizik va kolloid kimyo, nanotexnologiya, tabiiy polimerlar kimyosi, eksperimental biologiya, genetika, fizika va qishloq xo'jalik fanlarining ta'siri kattadir. O'z navbatida polimerlar kimyosi fani kimyoviy texnologiya, biotexnologiya, farmatsevtika kabi fanlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Mustaqillik davrlarida O'zbekistonda kimyo fani va kimyo sanoati rivojlanishi uchun juda katta imkoniyatlar ochildi va bugunga kelib, bu imkoniyatlar yanada kengaymoqda. Mingbuloq, Ko'kdumaloq, Sho'rtan va boshqa neft-gaz konlari ishga tushirildi, ishlab chiqarish korxonaları modernizatsiya qilindi va bir qator yirik korxonalar ishga tushirildi. Bular orasida ammiak, nitrat kislota, mineral o'g'itlar, sintetik tola va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi "Navoiyazot" korxonasi, polietilen ishlab chiqaruvchi Sho'rtan gaz kimyo majmuasi, polietilen va polipropilen ishlab chiqaruvchi "Surgil" kimyo majmuasi va boshqa bir qancha korxonalar bor. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" da iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish vazifalari belgilangan¹. Bu esa mamlakatimizning


¹2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta

muhim iqtisodiy tarmoqlaridan biri – kimyo sanoatini yanada rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

To‘qimachilik va yengil sanoatda polimerlar fizikasi va kimyosining o‘rnini beqiyosdir. Asosiy xomashyo, ya’ni tabiiy va kimyoviy tolalar, qog‘oz, charm va mo‘yna, ularga ishlov beruvchi turli aralashmalar polimer moddalardan tashkil topgan. Charm va mo‘ynaga ishlov berish, matolarni pardozlash, qog‘oz ishlab chiqarish kimyoviy texnologiya jarayonlariga asoslanadi. Bu jarayonlarning umumiy qonuniyatları, unda qo’llaniladigan turli moddalarning kimyoviy tarkibi va tuzilishi, olinishi, xossalari, jarayonlarni boshqarish, samaradorligini oshirish parametrlarining asoslari “Polimerlar fizikasi va kimyosi” fani obyekti va predmeti bilan bevosita bog‘liqdir.

1.5. Polimerlarning kelib chiqishi, kimyoviy tarkibi, tuzilishiga qarab sinflanishi

Polimerlar *kelib chiqishi (tabiat)*, tabiatda uchrashiga qarab tabiiy, sun’iy va sintetik polimerlarga bo‘linadi. Sun’iy va sintetik polimerlar birgalikda kimyoviy polimerlar ham deyiladi.



Ma’lumki, tirik tabiatning – o‘simgulkar, hayvonot olamini va inson organizmining asosini *tabiiy polimerlar* tashkil etadi. O‘simgulkar organizmining asosiy tarkibiy qismi sellyuloza, kraxmal, lignin va pektin kabi tabiiy polimerlardan tashkil topgan bo‘lsa, hayvonot olamida tiriklikning asosini oqsil moddalar, garmonlar va fermentlar tashkil qiladi. Sellyuloza to‘qimachilik sanoatida asosiy xomashyo hisoblansa, kraxmal oziq-ovqat sanoatining asosidir.

Tabiiy polimerlarga sellyuloza va kraxmalning turli-tuman hosilalari, tabiiy ipak, oqsillar, charm va mo'yna sanoatining asosiy xomashyosi bo'lgan seritsin, fibroin, kolagen, keratin, tabiiy kauchuk va boshqalar kiradi.

Sun'iy polimerlar, mayjud bo'lgan tabiiy polimerlarning kimyoviy o'zgarishlarga uchratib, hosil qilinadi. Sun'iy polimerlarga sellyuloza hosilalari – atsetat sellyuloza, viskoza, nitrosellyuloza misol bo'ladi.

Sintetik polimerlar tabiatda uchramaydi. Ular faqat kimyoviy yo'llar bilan monomerlardan sintez qilib hosil qilinadi. Hozirgi zamonda juda ko'p sintetik polimerlar o'zlarining ajoyib xossalari bilan, tabiiy polimerlar bilan raqobatlasha oladi va ba'zida ulardan ustun turadi. Ma'lumki, texnikada ko'p miqdorda ishlatiladigan tabiiy polimerlardan biri – tabiiy kauchukdir, biroq olinadigan barcha tabiiy kauchuk texnika ehtiyojini qanoatlantirish uchun yetarli emas. Polimerlar kimyosi va texnologiyasi esa xossalari jihatidan tabiiy kauchukdan qolishmaydigan sintetik kauchuk ishlab chiqarish imkonini yaratadi. Bu kauchuklar temperaturaning anomal sharoitlariga (o'ta issiq va o'ta sovuq holatlarga), shuningdek, turli agressiv muhitlarga chidamliligi bilan tabiiy kauchulkardan ustun turadi.

Sintetik polimerlarning ba'zilari kimyoviy jihatdan oltin va platinadan ham barqaror bo'lsa, ba'zilari mustahkamligi va qattiqligi jihatidan olmosga yaqinlashadi. Sintetik polimerlardan konstruksion materiallar, kimyoviy tolalar, nozik pardalar, lak-bo'yoqlar, izolvatsiya materiallari, ion almashtiruvchi sorbentlarga tayyorlanmay, balki yengil, chirolyi va mustahkam qurilish ashyolari, tibbiyot asbob–uskunalarini ham yaratilmogda.

Polimerlar fizikasi va kimyosi fanini o'rghanishda asosiy e'tibor kimyo, fizika va mexanika fanlarini nazariy va amaliy yutuqlaridan keng foydalananishga katta ahamiyat beriladi, ya'ni polimerlarni hozirgi zamon nuqtai nazaridan tuzilishi, ularning fizikaviy, kimyoviy xossalari o'rghanishga alohida e'tibor beriladi. Shuningdek, sintetik yuqori molekulalari birikmalarini sintez qilish usullari, polimerlarda sodir bo'ladigan kimyoviy, fizikaviy o'zgarishlar mexanizmi, polimerlar eritmalarini to'g'risida zamonaviy ma'lumotlarga suyaniladi.

Hosil bo'lish reaksiyalariga ko'ra, polimerlarni *polimerizatsion* (*birikish*) va *kondensatsion* turlariga bo'linadi¹. Reaksiyalar bilan II bobda tanishasiz.

¹John W. Nicholson. The Chemistry of Polymers. The Royal Society of Chemistry, 2006, p. 4.

GOMOZANJIRLI

GTEROZANJIRLI

Barcha yuqori molekulyar birikmalar *asosiy zanjirining tuzilishiga* qarab, ikki sinfga bo'linadi: *karbozanjirli* (*gomozanjirli*) polimerlar va *geterozanjirli* polimerlar.

Karbozanjirli polimerlarning asosiy zanjiri faqat uglerod C atomlaridan iborat bo'ladi:



Uglerod atomining qolgan bog'lari vodorod, alkil, aril va hokazo guruuhlar bilan bog'langan bo'lishi mumkin. Bunday polimerlarga tabiiy kauchuk, polietilen, polipropilen kabilar, anorganik polimerlardan esa grafit, olmos va boshqalar misol bo'laoladi. Sintetik karbozanjirli polimerlar jumlasiga vinilva divinil monomerlardan hosil bo'lgan barcha polimerlar kiradi.

Geterozanjirli polimer molekulasining asosiy zanjirida ugleroddan tashqari kislorod, azot, oltингurgurt, fosfor, kremniy va boshqa elementlarning atomlari ham bo'ladi. Geterozanjirli tabiiy organik yuqori molekulyar birikmalarga misol qilib oqsil, sellyuloza, ligninlarni, geterozanjirli sintetik yuqori molekulyar birikmalarga esa oddiy va murakkab poliefirlar, poliamidlar va poliuretanlarni keltirish mumkin (1.1-jadval).

1.1-jadval.


Geterozanjirli polimerlarning umumiyl nomi va geteroatomning bog'lanish tartibi.

Nomi	Atomlar guruhi	Nomi	Atomlar guruhi
Oddiy poliefir	$-O-$	Poliefir	$-O-OC-$
Poliamid	$-HN-OC-$	Poliamid	$-C-N(C)-CO-$
Poliuretan	$-O-OC-NH-$	Poliangidrid	$-OC-O-CO-$


Polikarbonat	$-O-CO-O-$	Polimochevina	$-HN-CO-NH-$
Polisilosan	$-O-Si-$	Polifosfoefir	$-O-PO(OR)-O-R-$
Polisulfid	$-S-R-$	Polisulfon	$-OSO-$

Karbozanjirli yuqori molekulyar birikmalarining nomlari dastlabki monomer nomining oldiga *poli* qo'shimchasini qo'shish bilan tuziladi, masalan, vinilxloriddan olingan polimer polivinilxlorid, propilendan polipropilen, stiroldan olingani esa polistirol deb ataladi.

Tarkibida vinil radikali ($CH_2 = CH-$) bo'lgan monomerlardan hosil qilingan yuqori molekulyar birikmalar vinil polimerlari deb ataladi:



Polivinilxlorid




Polivinil spirit

Barcha karbozanjirli polimerlar organik kimyodagi sinfiga binoan, yuqori molekulyar uglevodorodlar yoki ularning hosilalari deb qaralib, to'yingan va to'yinmagan sinflarga bo'linadi.

Geterozanjirli yuqori molekulyar birikmalar tarkibiga qanday geteroatom kirishiga qarab kislородли, azotli, oltingugurtli va element-organik polimerlarga bo'linadi. Polimerlarning bu guruhi ham organik kimyoda qabul qilingan qoidaga binoan nomlanadi.

KIMYOVİY TARKİBİĞİ KÖRƏ



Elementorganik polimer uch guruhgaga ajratiladi:

- 1) Asosiy zanjir noorganik elementlardan tashkil topgan bo'lib, ularning yonida organik element guruhlari joylashadi;
- 2) Asosiy zanjir uglerod atomlaridan tashkil topgan bo'lib, yon zanjiriда azot, kislород, oltingugurt va galogenlardan boshqa elementlar bevosita uglerod atomlari bilan bog'lanadi;


3) Asosiy zanjir organik va anorganik atomlar guruhlaridan hosil bo'lgan polimerlar.

Har qaysi sinflar uchun asosiy zanjir bir xil element atomlaridan tashkil topgan bo'ssa, gomozanjirli polimerlar deb ataladi. Geterozanjirli polimerlarda esa asosiy zanjir turli xil element atomlaridan tashkil topadi. Polimerlarni gomozanjirli va geterozanjirli turlarga ajratganda polimer yon guruhining tarkibi va tuzilishi hisobga olinmaydi.

Masalan, polivinilatsettda atsetil $-CH_2 - \overset{C}{\underset{H}{|}} -$
 $CH_3 - CO - O -$ guruhi yon zanjirda joylashgan: $O - CO - CH_2$


Asosiy zanjir esa faqat uglerod atomlaridan tashkil topgan, shuning uchun bu polimer to'yingan uglevodorodlarning gomozanjirli hosilasiga kiradi.

Polietilenadipinatda esa murakkab efir $--CO - O -$ guruhi asosiy zanjirda joylashgan bo'ladi:



Shuning uchun bunday polimerlar *kislorod saqlagang eterozanjirli polimerlar* deyiladi.



Polimerlar makromolekulasining shakli jihatidan chiziqli (*uzunchoq*), tarmoqlangan va to'rsimon turlarga bo'linadi.



Chiziqsimon polimerlar makromolekulalarining bo'yisi juda uzun, eni bo'yiga nisbatan juda kichik bo'ladi. Ular erituvchida eriydi, temperatura ta'sirida suyuqlanadi. Masalan, sellyuloza (chiziqsimon) makromolekulasining eni bir nanometr dan kichik bo'lgani holda uning bo'yisi yuz nanometr dan uzundir. Tarmoqlangan polimerning makromolekulasi, albatta, yon zanjirga ega bo'ladi. Tarmoqlangan polimerlar yon tomonga shoxlangan bo'ladi. Ular erituvchida qiyin eriydi, temperatura ta'sirida

qiyin suyuqlanadi. Masalan, kauchuk va payvand sopolimer. To'rsimon yoki tikilgan yoki uch o'lchamli yoki fazoviy polimerlar bir-birlari bilan ko'ndalang kimyoviy bog'lar orqali birikkan makromolekulyar zanjirlardan tuziladi. Ular erituvchida erimaydi, temperatura ta'sirida suyuqlanmaydi. Masalan, smola, rezina.

Polimerlar monomerlar soniga qarab ham ikkiga bo'linadi. Bir xil tarkibli monomerlardan hosil bo'ladigan makromolekulani *gomopolimerlar* deyiladi. Polimer hosil bo'lishida turli xil monomerlar ishtirok etsa, turli tarkibli bo'g'inalar ko'p marta takrorlansa, bunday polimerlarning *sopolimerlar* deyiladi. Masalan, tarkibi turlicha bo'lgan monomer bo'g'inalnari A,B,C deb ifodalarak, ulardan hosil bo'lgan sopolimerlarning tuzilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:



Sopolimerlarning turlari haqida keyingi mavzularda tanishasiz.

1.6. Sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan eng muhim polimerlarning kimyoviy tarkibi va tuzilishi

Hozirgi vaqtda sanoat miqyosida yuzlab polimerlar ishlab chiqarilayotganligini ta'kidlash mumkin. Ulardan bir necha o'nlab miqdori katta tonnali hajmda ishlab chiqariladi va turli sohalarda qo'llaniladi. Ishlab chiqarish hajmi bo'yicha birinchi o'rinda polietilen joylashgan bo'lsa, keyingi o'rnlarni ham karbozanjirli polimerlar – polivinilxlorid, polistirol, polipropilen egallaydi. Geterozanjirli polimerlardan fenolformaldegid smolalari, poliefirlar va poliamidlar ko'p miqdorda ishlab chiqariladi.

Sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan eng muhim polimerlarning nomi, formulasi, asosiy qo'llanilish sohalari 1.2-jadvalda keltirilgan¹.


1.2-jadval.

Eng muhim polimerlarning vakillari

Formulasi	Nomi	Qisqartirilgan nomi	Asosiy qo'llanilish sohasi
$(-CH_2 - CH_2 -)_n$	Polietilen	PE	Polimer parda, plastmassa buyumlar

¹Charles E. Carraher, Jr. Polymer Chemistry. 2003, Marcel Dekker, Inc., p. 21-23.

$(-CH_2 - CH -)_n$ Cl	Polivinil-xlorid	PVX	Lenolium, rom va quvirlar
$(-CH_2 - CH -)_n$ CH ₃	Polipropilen	PP	Plastmassa buyumlar, tola
$(-CH_2 - CH -)_n$ C ₆ H ₅	Poliistirol	PS	Penoplast, plastmassa buyumlar
$(-CH_2 - CH -)_n$ COOH	Poliakril kislota	PK	Polimer eritmaları
$(-CH_2 - CH -)_n$ OH	Polivinil spirit	PVS	Polimer eritmaları
$(-CH_2 - CH -)_n$ OOCCH ₃	Polivinil-atsetat	PVA	Yelim
$(-CH_2 - C -)_n$ CH ₃ $(-CH_2 - C -)_n$ COOH	Polimetakril kislota	PMK	Polimer eritmaları
$(-CH_2 - CH -)_n$ COOCH ₃	Polimetil-lakrilat	PMA	Emulsiya, lok, bo'yog
$(-CH_2 - C -)_n$ CH ₃ $(-CH_2 - C -)_n$ COOCH ₃	Polimetilmektilakrilat	PMMA	Organik shisha

$(-CH_2 - CH -)_n$ CN	Poliakrilonitrit	PAN	Sintetik tola
$(-CF_2 - CF_2 -)_n$	Politetraftoretilen, Teflon	PTFE	Issiqbardosh plastmassa buyumlar
$(-CH_2 - CH = CH - CH_2 -)_2$	Polibutadien	PB	Rezina buyumlar, poyabzal
$(-CH_2 - C = CH - CH_2 -)_n$ CH_3	Poliizopren	PI	Rezina buyumlar, poyabzal
$(-CH_2 - C = CH - CH_2 -)_n$ Cl	Polixloropren	PXP	Rezina buyumlar, poyabzal
	Polifenol-formaldegid	PFF	Plastmassa buyumlar
$(-CH_2 - CH_2 - OOC - C_6H_5 - COO)_n$	Polietilen-tereftalat	PETF	Sintetik polietir tola, javsan
$[-NH - (CH_2)_5 - CO -]_n$	Polikaprolaktam	PKL	Sintetik poliamid tola, kapron

Bu polimerlarning olinishi va xossalari to'g'risida keyingi boblar da ma'lumotlar beriladi. Albatta, eng muhim polimerlarning ro'yxati yuqoridagi jadvalda berilganlar bilan cheklanmaydi. Dastlabki tanishish uchun shular yetarli deb hisobladik.

Nazorat savollari va topshiriqlar


1. Polimerlar kimyosi fani nimani o'rgatadi?
2. Polimerlarning boshqa moddalaridan asosiy farqlari nimada?
3. Yuqori molekulyar birikma nima?

4. Polimer nima? Monomer nima? Oligomer nima?
5. Nisbiy molekulyar massasi 500 gacha bo‘lgan moddalar odatda ... deb nomlanadi.
6. Nisbiy molekulyar massasi 500 dan katta bo‘lgan moddalar odatda ... deb nomlanadi.
7. Nisbiy molekulyar massasi 500 dan 5000 gacha bo‘lgan moddalar ... deyiladi.
8. Nisbiy molekulyar massasi 5000 dan katta bo‘lgan moddalar ... deyiladi.
9. Makromolekula nima?
10. Polimerlash darajasi nima?
11. Elementar bo‘g‘in deb nimaga aytildi?
12. Struktur izomerlar nimani ifodalaydi?
13. Polimerlar haqidagi fan qachondan boshlab rivojlana boshlagan?
14. Polimerlar kimyosining rivojlanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
15. Polimerlar kelib chiqishiga ko‘ra qanday sinflarga ajratiladi?
16. Polimerlar asosiy zanjir tuzilishiga ko‘ra qanday sinflanadi?
17. Qanday polimerlar tabiiy polimerlar deb ataladi?
18. O‘zbekistonda polimerlar kimyosi va fizikasi fani qanday rivojlangan?
19. Polimerlar kelib chiqishiga ko‘ra qanday sinflarga ajratiladi?
20. Polimerlar asosiy zanjir tuzilishiga ko‘ra qanday sinflanadi?
21. Qanday polimerlar tabiiy polimerlar deb ataladi?
22. Qanday polimerlar sun‘iy polimerlar deb ataladi?
23. Qanday polimerlar sintetik polimerlar deb ataladi?
24. Polimerlar makromolekulasining shakli jihatidan qanday sinflarga bo‘linadi?
25. Monomerlar soniga qarab nechaga bo‘linadi?
26. Sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan polimerlardan qaysilarni bilasiz?
27. Molekulyar massasi 180000 va polimerlanish darajasi 2500 bo‘lgan polimerning nomi?
28. Molekulyar massasi 276060 va polimerlanish darajasi 3210 bo‘lgan polimerning nomi?
29. Molekulyar massasi 214650 va polimerlanish darajasi 4050 bo‘lgan polimerning nomi?
30. Polivinilsetatning polimerlanish darajasi 3210 bo‘lsa, uning molekulyar massasi qancha bo‘ladi?
31. Molekulyar massasi 175000 va polivinilkloridning polimerlanish darajasi qancha?

II BOB. POLIMERLAR SINTEZI. POLIMERLANISH REAKSIYALARI

2.1. Polimerlar sintez qilishning asosiy turlari

Yuqori molekulyar moddalarni bir necha usullar bilan hosil qilish mumkin. Buning uchun boshlang'ich modda sifatida quyi molekulyar tabiiy va sintetik birikmalardan foydalilaniladi. Bu boshlang'ich moddalar monomerlar deb ataladi. Monomerlarga olefinlar, dienlar, asetilen va uning hosilalari, ba'zi siklik birikmalar, polifunksional moddalar va boshqalar kiradi. Yuqori molekulyar moddalar monomerlardan, asosan *polimerlanish* va *polikondensatsianish* reaksiyalari orqali olinadi:




Agar bu ikkala reaksiyaning har birida polimer hosil qilish uchun bir xil monomer ishlatsa, u holda reaksiya gomopolimerlanish yoki gomopolikondensatlanish reaksiyasi deyiladi. Hosil bo'lgan yuqori molekulyar modda goinopolimer deyilib, uning molekulalari bir xil tuzilishdagi monomer bo'g'inlaridan tashkil topgan bo'ladi. Biroq bir xil monomerdan tashkil topgan polimerning fizik-mexanik xossalari cheklangan bo'lib, u xilma-xil talablarga javob bera olmaydi. Turli xossalarga ega bo'lgan va turli talablarga javob beradigan polimer hosil qilish uchun odatda sopolimerlanish va sopolikondensatlanish reaksiyalardan keng foydalilaniladi. Bunday reaksiyalarda ikki va undan ko'p xil monomer ishtirot etadi hamda hosil bo'lgan polimer molekulalari har turli monomer bo'g'inlaridan tashkil topgan bo'ladi.

Makroinolekuladagi monomer bo'g'inlarining zanjir bo'ylab joylashish tartibi va nisbiy miqdori reaksiya uchun olingan har bir monomerning

reaksiyaga kirishish qobiliyatiga, ularning o'zaro miqdoriy nisbatlariga va reaksiya kechadigan sharoitga bog'liqdir.


So'nggi yillarda tabiiy va sintetik polimerlarni kimyoviy usullar da *modifikatsiyalash* yoki *polimeranaloylik o'zgarishlar* asosida yangi xil polimerlar sintez qilishga alohida ahamiyat berilmoxda. Tabiiy polimerlardan yog'och va paxta sellyulozasi, kraxmal, tabiiy kauchuk, sintetik polimerlardan – polivinilxlorid, polivinil spirit va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin.

Bir qancha molekulalarning o'zaro kovalent bog' orqali birikib, yuqori molekulyar modda hosil qilish reaksiyasini *polimerlanish* deb atala di. Polimerlanish reaksiyasida polimerdan boshqa modda hosil bo'lmaydi. Polimer elementar bo'lakchasingin tarkibi monomer tarkibiga aynan o'xshash bo'ladi. Polimerlanish reaksiyalarini umumiy tarzda quyidagi cha ifodalash mumkin:




Bu yerda: A – monomer, $(-A-)_n$ – polimer.

Tarkibida qo'sh bog' bo'lgan yoki siklik tuzilishdagi ko'pchilik mod dalar polimerlanish reaksiyasiga kirisha oladi. Misol tariqasida, tarkibida bir qo'sh bog' bo'lgan olefinlar va ular hosilalarining polimerlanishini ko'rsatish mumkin:




Bu yerda $X = H, CH_3, C_2H_5, Cl, COOH, CN, C_6H_5$ va h.k.

Masalan, vinilxloriddan polivinilxloridning olinishi:



Polimerlanish reaksiyasiga ikki va undan ko'p qo'sh bog'li polienlar, asetilen va uning vinil hosilalari ham kirishadi. Polimerlanish natijasida to'yinmagan bog'lar to'yingan bog'larga aylanadi. Masalan, bir qo'sh bog'li monomer polimerlanganda to'yingan polimer modda hosil bo'ladi. Agar monomerda ikkita qo'sh bog' bo'lsa, bunda ham qo'sh bog'lar soni tobora kamayib boradi. Masalan, butadienden polibutadien hosil bo'lishi ni ko'raylik:




yoki




To‘yinmagan uglevodorodlarni polimerlash orqali karbozanjirli polimerlar olinadi. Bular orasida sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan polietilen, polipropilen, polivinilxlorid, polivinilidenxlorid, polistirol, poliakrilatlar, polivinilatsetat, polibutadien, polixloropren, poliizopren va ularning o‘zaro hosil qilgan sopolimerlari ko‘plab ishlab chiqariladi.


Karbonil, oqsil va qo‘sish bog‘li boshqa moddalar ham polimerlanish reaksiyasiga kirishadi, natijada geterozanjirli polimerlar hosil bo‘ladi. Masalan, poliformaldegid shular jumlasidandir:




To‘yingan moddalardan siklik tuzilishga ega bo‘lgan ba’zi birikmalarga polimerlanishi mumkin. Kislород, azot, oltingugurt atomlari orqali bog‘langan siklik birikmalar polimerlanganda geterozanjirli polimerlar hosil bo‘ladi. Etilen oksiddan polietilenoksid, kaprolaktamdan polikaprolaktam olinishi bunga misol bo‘la oladi:



Yoki



Yana bir misol, kaprolaktamdan polikaprolaktamning olinishi:




Polimerlanish reaksiyalari tezligi va oraliq birikmalarning tabiatiga ko‘ra *zanjirli* va *bosqichli* turlarga bo‘linadi. Zanjirli reaksiyalarning bosqichlari tez sodir bo‘ladi, jarayonni kerakli vaqtida to‘xtatish va oraliq birikmalarni ajratib olish imkoniyati deyarli yo‘q. Bosqichli polimerla-


nishda monomer molekulalarining birikishi asta-sekin davom etadi. Bunday reaksiyani istalgan vaqtida to'xtatish, dimer, trimer, tetramer va oligomer kabi birikmalarni ajratib olish mumkin.

Polimerlanish jarayoni bo'g'inlarining o'sishiga olib keladigan markazning tabiatiga va zanjirning o'sish qonuniyatiga ko'ra, polimerlanish reaksiyalari ikki turga bo'linadi:

1) *Radikal polimerlanish* – jarayonini boshlovchi aktiv markaz sifatida initsiator yoki monomer molekulasi dagi kimyoviy bog'ni gomolitik parchalanishi natijasida hosil bo'lgan erkin radikal qatnashadi.




2) *Ionli polimerlanish* – jarayonini boshlovchi aktiv markaz sifatida qo'sh bog'ning geterolitik parchalanishi natijasida hosil bo'ladigan ionlar yoki ion-radikallar asosiy omil hisoblanadi.



Radikallar yoki ionlar aktiv zarrachalar bo'lib, ularga birin-ketin yuzlab, minglab monomer molekulalarining birikishi natijasida makromolekulalar hosil bo'ladi.


2.2. Radikal polimerlanish. Termik, fotokimyoviy, radiatsion, kompleks-radikal polimerlanish

Radikal polimerlanishda aktiv markaz juftlanmagan bir yoki ikki elektron, ya'ni erkin radikal ta'sirida vujudga keladi. Erkin radikallarda juftlanmagan elektron borligi tufayli ular har xil monomerlar bilan reaksiyaga shiddatli kirishadi va natijada o'sish qobiliyatiga ega bo'lgan aktiv markaz hosil bo'ladi¹:




Polimerlanish reaksiyasi qizdirish yo'li bilan olib borilganda *termik polimerlanish* sodir bo'ladi va aktiv markazning paydo bo'lishi asosan quyidagicha boradi:

¹T.M.Babayev. Yuqori molekulyar birikmalar. – Toshkent. 2016: Fan va texnologiya, 58 b.




Buning natijasida monomer molekulasi biradikalga aylanib, o'sish reaksiyasi biradikalning ikkala tomoni bo'ylab davom etadi:




Biroq, bunday termik polimerlanish reaksiyasi avval juda sust borib, temperatura ko'tarilishi bilan ancha tezlashadi. Ba'zi monomerlar esa, jumladan, vinilatsetat, vinilidenxlorid, akrilonitril va shunga o'xshashlar issiqlik ta'sirida mutlaqo polimerlanmaydi. Stirol, metilmekrakrilat va ularning hosilalari qizdirilganda ancha tez polimerlanadi.

Nur energiyasi ta'sirida polimerlanish *fotokimyoviy polimerlanish* deyilib, bunda monomer molekulalariga nur kvant energiyasi yutilishi natijasida erkin radikal hosil bo'ladi. Bunda bir kvant energiya yutilishi natijasida monomer molekulasi avval aktiv holatga o'tadi:



Bu yerda: $h\nu$ — nur kvant energiyasi bo'lib, u plank doimiysi (h) ni to'lqin tebranish tezligi (ν) ga ko'paytmasiga teng.

Bunday ta'sir natijasida ham aktivlashgan monomer biradikal holga o'tib, so'ngra monoradikal hosil qiladi:



Tarkibida galoid atomi bo'lgan monomerlarda ushu usul bilan aktiv markazlar hosil qilish mumkin. Masalan, issiqlik ta'sirida mutlaqo polimerlanmaydigan vinilxlorid ultrabinafsha nur ta'sirida $-35^\circ C$ da ham polivinilxloridni hosil qiladi.

Nur ta'sirida kechuvchi polimerlanish jarayonlarining ko'pchiligidagi yuborish to'xtatilgandan keyin ham polimerlanish davom etaveradi. Bunda reaksiya tezligi tobora kamayib, ma'lum vaqtidan keyin reaksiya to'xtaydi. Fotokimyoviy polimerlanishning tezligi, asosan, nuring intensivligiga bog'liq. Fotopolimerlanish jarayonida temperaturaning ko'tarilishi zanjirning o'sish tezligini oshiradi, biroq aktiv markaz paydo bo'lish tezligini o'zgartirmaydi. Natijada molekulyar massasi anchagini katta polimer hosil bo'ladi. Monomer molekulalari erkin radikalga aylanishi


uchun unga ta'sir etadigan nurning to'lqin uzunligi 300 nm atrofida bo'lishi kerak.

Aktiv markazning paydo bo'lishi temperaturaga bog'liq bo'lmagani tufayli, bunday moddaning aktivlanish energiyasi juda kam, 16–25 kJ/mol atrofidadir. Fotopolimerlanish jarayonining tezligini oshirish maqsadida sistemaga nur ta'sirida oson parchalanib, radikal hosil qiluvchi birikmalar – sensibilizatorlar qo'shiladi.


Monomer molekulalarini α , β , γ nurlari, rentgen nurlari, tezlashtirilgan elektronlar va boshqa yuqori energiyali zarrachalar yordami bilan ham radikallash mumkin. Bunday jarayon *radiatsion polimerlanish* deyiladi.

Radiatsion polimerlanish jarayoni boshlanish davrida fotokimyoviy polimerlanish qonunlariga bo'ysunadi. Jarayonning oxirlarida esa bir qancha qo'shimcha reaksiyalar sodir bo'lib, reaksiya mexanizmi juda murakkablashib ketadi. Buning asosiy sababi katta energiyali nurlarning sistemadagi atom, guruh va qo'sh bog'larga murakkab ta'sir ko'rsatishida va ulardag'i elektron bulutlarni jiddiy o'zgartirib yuborishidadir.

Erkin radikalli zanjirlarning monomer molekulalari bilan to'qナ shishiva birikishi natijasida polimer molekulasining uzunligi ortadi. Makromolekula uchlarida erkin radikal bo'lar ekan, molekulaning uzunligi ortaveradi. Polimer zanjirining o'sish vaqtida, monomer tarkibidagi p bog'lar y bog'larga aylanadi. Har bir p bog' y bog'ga aylangan vaqtida taxminan 95 kJ issiqlik chiqadi, shuning uchun ham zanjirsimon polimerlanish ekzotermik reaksiya hisoblanadi:



Polimer molekulasi uchidagi erkin radikal yo'qolsa, polimer zanjiri uziladi. Masalan, o'sayotgan ikki polimer zanjiri o'zining erkin radikallari bilan uchrashhib, o'sishdan to'xtaydi:




Yuqorida aytib o'tilganidek, issiqlik ta'sirida polimerlanish jarayonining boshlanishi juda ham sekin boradi va jarayonni tezlatish uchun yuqori temperatura talab qilinadi. Shu sababli deyarli barcha monomerlar ni polimerlashda reaksiya maxsus *initsiatorlar ishtirokida* olib boriladi. Initsiatorlarning ahamiyati ularning osonlik bilan parchalanishi va erkin radikallar hosil qilishidadir. Aynan shu radikallar polimerlanish reaksiyalarini boshlovchi aktiv markazlar bo'ldi.

Monomerlarning kompleks-radikal polimerlanishi. Hozirgi vaqtida ko'p sinovlardan o'tgan va yetarli xomashyo bazasiga ega bo'lgan polimerlarning xossalarini yanada boyitish masalasiga katta e'tibor berilmogda. Bu borada radikal polimerlanish usuli ham o'z imkoniyatlarini yo'qotgani yo'q, aksincha, fanning so'nggi yutuqlari, ayniqsa, tarmoqlangan zanjirli reaksiyalarni tezligi va initsirlash usullarini takomillashtirish polimer strukturasini yaxshilash va uning fizik-mexanik xossalarini oshirish imkonini berishi aniqlandi. Bu hodisa tarkibida kislorod, azot va oltingugurt elementlari bo'lgan vinil monomerlari misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda reaksiya temperaturasini keskin pasaytirib va ikkilamchi reaksiyalarga imkon bermasdan, yuqori bosim va kuchli elektrostatik maydonlardan foydalanib, monomerni kompleks-radikal mexanizmi asosida initsirlash polimer zanjirlarining shakllanishiga sharoit yaratadi.

Kislorod, azot, oltingugurt (geteroatom) atomlari saqlagan akril va vinil monomerlarining radikal polimerlanish jarayoni oraliq metall tuzlarining oz miqdori ishtirokida olib borilganda monomerlarning metal ionlari bilan kompleks birikma hosil qilishligi aniqlangan. Bunday komplerslar polimerlanish reaksiyalarini nisbatan past temperaturada olib borish imkoniyatini berish bilan bir qatorda, olingan polimerlarning fizik-kimyoviy va mexanik xossalariga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Geteroatom saqlagan monomerlarni radikal initsiatorlar bilan kompleks hosil qilishi natijasida polimerlanishning *donor-akseptor initsirlash* usulining imkoniyatlari ham aniqlangan. Polimerlanayotgan monomer va initsiator orasida kompleks birikma hosil bo'lish mexanizmi, elektronodonor xususiyatli monomerdan elektronoakseptor xususiyatli initsiatorga elektronni ko'chirish va polimerlanish reaksiyasini pasttemperaturada boshlab, uni oxirigacha kuzatib borish qonuniyatlarini ochib berilgan. Keyinchalik monomer va initsiatorlar orasidagina emas, balki turli tabiatli monomerlar orasida, o'sib borayotgan polimer zanjiri va monomer asosida ham *kompleks donor-akseptor* sistemasi bo'la olishi aniqlangan.

Bir qator kinetik, termodinamik va spektroskopik tadqiqotlar nati-jasida kompleks-radikal polimerlanishda aktiv markaz hosil bo'lishining quyidagi sxemasi taklif etildi:




Donor-akseptor o'zaro ta'sirlashuv reaksiyasida ham ionlarning, ham radikallarning hosil bo'lishida muhitning qutbliligi ma'lum miqdorda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Tarkibida azot va kislород saqlagan monomerlarning polimerlanish tezligini oshirish uchun bunday reaksiyalarni qutbli muhitda amalga oshirish mumkinligi tajriba asosida aniqlandi.


2.3. Radikal polimerlanishni initsirlash, initsiatorlar

Initsiator ishtirokida polimerlanish – radikal polimerlanishning amalda eng ko'p qo'llaniladigan turidir. Shu sababli bu to'g'risida batafsilroq

to'xtalib o'tamiz. *Initsiatorlar* deb mo'tadil qizdirilganda parchalanib, aktiv radikallar hosil qiluvchi moddalarga aytildi. Ularning parchalanishi kam energiya talab qiladi va polimerlanishni initsirlashda muhim rol o'yaydi. Initsiatorlar zarrachalari esa polimer molekulalarining tarkibida kimyoviy bog'lar orqali ularanib qoladi. Shunday initsiatorlarga misol qilib benzoil peroksid va vodorod peroksid, azoizobisbutirodinitril, anorganik birikmalardan natriy, kалиy, ammoniy persulfatlarni ko'rsatish mumkin¹. Polimerlanish jarayonini boshlab yuborish uchun initsiatordan monomer massasining 0,1–1 foizi miqdorida qo'shish kifoya. Masalan, benzoil peroksid 60°C temperaturada qizdirilganda erkin elektronli ikkita benzoat radikallari hosil bo'ladi:




Benzoat radikali parchalanishni davom ettirib, fenil radikalini hosil qiladi:




Bu ikkala benzoat va fenil radikallari monomer molekulalari bilan birikib, polimerlanishning aktiv markazlarini hosil qila oladi

Masalan, metilmekrilit molekulasi quyidagicha aktiv markazlar hosil qiladi:




Azoizobisbutironitril ham o'zidan bir molekula azot ajratib, ikki erkin radikal hosil qiladi va vinil monomerlarining polimerlanish reaksiyasini boshlab beradi:

¹John W. Nicholson. The Chemistry of Polymers. The Royal Society of Chemistry, 2006, p. 24





Ba'zan polimerlanish reaksiyasida temperaturani pasaytirishning muhim ahamiyati bor, chunki temperatura qanchalik past bo'lsa, polymer sifatini pasaytiruvchi qo'shimcha reaksiyalar shunchalik kam sodir bo'ladi. Shu maqsadda *oksidlovchi-qaytaruvchi initiatorlardan* foydalaniladi, chunki ularning uzilish energiyasi juda kam bo'lib, 40–60 kJ/mol ga tengdir. Oksidlovchi sifatida vodorod peroksid va persulfatlar olinsa, qaytaruvchi sifatida ikki valentli temir tuzlari va tiosulfatlar ishlatalidi.


Bu sistemalarda reaksiyani boshlab beruvchi reagent sifatida hosil bo'layotgan erkin radikal–gidroksil guruhining ahamiyati muhimdir:



yoki



Kaliy persulfat $K_2S_2O_8$ ning radikal hosil qilish reaksiyalarini qu-yidagicha ifodalash mumkin:



Demak, initsiatorning parchalanishidan hosil bo‘ladigan radikallar polimerlanish reaksiyalarining aktiv markazlari hisoblanib, initsirlash reaksiyasini boshlaydi.

2.4. Radikalpolimerlanish reaksiyalarining mexanizmi. Ingibitorlar

Hozirgi vaqtda sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan polimerlarning deyarli hammasi zanjirsimon polimerlanish reaksiyasi orqali olinadi. Bunday reaksiya yordamida olingen polimer molekulalari juda ham uzun, ularning nisbiy molekulyar massasi bir necha ming va hatto millionlarga teng bo‘ladi. Shunday uzun molekulalarning hosil bo‘lishi juda tez – sekundning milliondan bir ulushi qadar vaqt ichida sodir bo‘ladi.


Har qanday zanjirsimon polimerlanish jarayoni uch elementar reaksiyadan: *aktiv markazning paydo bo‘lishi, zanjirning o’sishi va zanjirning uzilishidan* iborat. Initsiator ishtirokida polimerlanish esa to‘rt bosqichda boradi, *initsirlash* bosqichi ham mavjud¹.

1. Aktiv markazning paydo bo‘lishi anchagina energiya talab qiladi va sekinlik bilan boradi. Tashqaridan beriladigan energiya yordamida aktivlashtirilgan monomerlardan bir qismi o’sish qobiliyatiga ega bo‘ladi, bir qismi esa boshlang‘ich holatga qaytadi:



Zanjirsimon polimerlanishning boshlanish davrida erkin radikallar yoki musbat va manfiy zaryadlangan zarrachalar –ionlar aktiv markaz qiladi. Issiqlik, yorug‘lik, ultrabinafsha, rentgen va radiatsion nurlar, peroksid moddalar hamda azo va diazobirkimlar ta’sirida boshlangan reaksiyalar erkin radikalli polimerlanish reaksiyalari jumlasiga kiradi. Katalizatorlar – tuzlar, metallar va ularning organik birikmalari ishtirokida boshlangan ionli polimerlanish reaksiyalari katalizator ishtirokida borganligi uchun *katalitik* polimerlanish ham deyiladi.

2. Polimer zanjirining o’sishi juda ham oz aktivlanish energiyasi talab qiladi va juda katta tezlik bilan boradi: $A_1^* + A_1 \rightarrow A_2^*$



¹John W. Nicholson. The Chemistry of Polymers. The Royal Society of Chemistry, 2006, p. 25, 26


Bu yerda: A – monomer molekulasi; A' – monomerning aktiv markazi;

A'_1, A'_2 – o'sayotgan radikallar; A'' – polimer makroradikalı.

3. Polimer zanjirining uzilishi katta uzilish energiyasi ta'lab qilmaydi va anchagina tez boradi. Polimer zanjirining o'sish tezligi uzilish tezligidan qanchalik katta bo'lsa, hosil bo'lgan polimer molekulasi ham shunchalik uzur, ya'ni polimer molekulasining uzunligi ikkala reaksiyoning tezlik nisbatlariga bog'liq bo'ladi.


Vinil monomerini initsiator – benzoil peroksiidi ishtirokida polimerlanish reaksiyasining bosqichlarini tahlil etamiz.

1. Initsiator molekuiasining $60-70^{\circ}\text{C}$ da parchalanib, *aktiv markaz hosil qilishi*:




Hosil bo'lgan benzoat yoki fenil radikalini I' bep belgilaymiz.

2. *Initsirlash*, initsiator radikaliga monomerning birinchi molekulasini birikishi:




3. *Zanjirni o'sishi*, monomerning birinchi molekulasiga birin-ketin ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va h.k. n chi molekulasining birikishi:




Zanjirning o'sishi natijasida makroradikallar hosil bo'ladi.


4. *Zanjirning uzilishi* ikki xil mexanizm bo'yicha boradi.

a) *Rekombinatsiya*, makroradikallarning o'zaro birikishi:




b) *Disproporsiya*, bir makroradikaldan ikkinchisiga protonning ko'chishi:





Polimer zanjiri rekombinastiya natijasida uzilganda molekulyar massa ikkinchi holatga nisbatan kattaroq bo‘ladi.


Polimer zanjiri aktiv markazni erituvchiga yoki boshqa biror quyi molekulyar birikmaga *uzatilishi* natijasida ham uzilishi mumkin. Agar polimer radikali to‘yingan modda molekulasi (AB) bilan to‘qnashsa, uni parchalab yuborishi mumkin. Natijada o‘sayotgan polimer radikali to‘yingan moddaning bir qismini biriktirib olib, passiv holatga o‘tadi. To‘yingan moddaning qolgan qismi radikal holiga o‘tib, monomerning yana o‘sish markaziga aylantiradi:




Natijada polimerning o‘sayotgan molekulasi bir necha zanjirlarga bo‘linadi va uning molekulyar massasi kamayadi.

Ba‘zan to‘yingan AB molekuladan hosil bo‘lgan erkin radikal B initiatior rolini bajara olmaydi, ya’ni qaytadan o‘sish markazini hosil qila olmaydi. Demak, bunday moddalar polimerlanish reaksiyasini sekinlashtiradi va butunlay to‘xtatishi ham mumkin. Polimerlanish reaksiyasini butunlay to‘xtatuvchi moddalar ingibitorlar deb ataladi. Ingibitorlar ga gidroxinon misol bo‘la oladi. U o‘sib borayotgan polimer zanjiridan vodorodni tortib olib, semixinonga aylanadi, zanjirda esa qo‘sh bog‘ hosil bo‘ladi:

¹<http://www.pslc.ws/russian/index.htm>



Hosil bo‘lgan semixinon guruh yana bir makroradikal yoki aktiv markaz bilan birikadi, natijada ular o‘sishdan to‘xtaydi, ya’ni zanjir uziлади:



O’sayotgan zanjirning uzilishi reaksiya tezligini kamaytiradi, natijada molekulaning uzunligi ham kamayadi. Ba’zi ingibitorlar reaksiyaning boshlanish davrida barcha aktiv markazlarni passiv radikallarga aylantiriши mumkin. Bunda polimerlanish reaksiyasiga ingibitor tugagandan keyingina boshlanadi. Amalda ingibitorlar sifatida, organik birikmalardan ko‘p atomli fenollar, ayniqsa, gidroxinon, pirokataxin, pirogallol, aromatik aminlar ko‘proq ishlatiladi.

Havo kislороди polimerlanish reaksiyasini ba’zan tezlashtiradi, ba’zan esa sekinlashtiradi. Vinilatsetat va akrilatlar ultrabinafsha nur ta’sirida polimerlanganda kislород ingibitorlik rolini o‘ynaydi. Stirol va ba’zi monomerlarning nur ta’sirida polimerlanishida kislород initsiator ham bo‘la oladi. Polimerlanish muhitidagi erkin radikal kislород bilan birikib, peroksid radikallar hosil qilishi aniqlangan:



Agar bu radikal aktiv bo'lsa, polimerlanish jarayonida kislorod initiator rolini o'ynaydi. Agar radikal passiv bo'lsa, ya'ni o'suvchi aktiv markazlar hosil qila olmasa, bu holda kislorod polimerlanish jarayonida ingibitor vazifasini bajaradi.

2.5. Ionli polimerlanish: kation va anion polimerlanish. Katalizatorlar

Monomerlarning katalitik yoki ionli polimerlanish jarayoni katalizatorlar ishtirokida boradi. Katalitik polimerlanishda o'suvchi zanjir uchida kation yoki anion bo'ladi. Ular o'zining musbat yoki manfiy zaryadlarini zanjir bo'ylab uzatish orqali molekulaning o'sishiga imkoniyattug'diradi. Jarayon katalizatorlarning zanjir uchida qanday ion hosil qilishiga qarab kation va anion polimerlanishga bo'linadi.

Kation polimerlanish. Kation polimerlanish kuchli kislotalar va Fridel-Krafts katalizatorlari ishtirokida boradi, bunday katalizatorlar elektronlarning kuchli akseptorlari hisoblanadi. Fridel-Krafts katalizatorlarining polimerlanish jarayonidagi nisbiy aktivligini quyidagicha ifodalash mumkin¹:




Kation polimerlanish reaksiyasiga kitisha oладиган monomerlarning biror uglerod atomi elektronodonor (elektromusbat) xususiyatlari o'rinnbosar atomlar yoki guruhlar bilan bog'langan bo'ladi. Bunday monomerlarga misol qilib izobutilen, oddiy vitil efirlari, stirol kabilarni ko'rsatish mumkin.


Kation polimerlanish jarayonining nazariy qonunlari birmuncha yaxshi o'rganilgan. Reaksiyaning tezligi polimerlanish muhitining dielektrik doimisiiga bog'liq bo'ladi. Kation polimerlanishning asosiy xususiyatlaridan biri shuki, temperatura pasayishi bilan reaksiyaning tezligi ortib boradi.

Mineral kislotalar va ularning elektron-akseptor tuzlari ishtirokida soadir bo'lувчи kationli polimerlanish reaksiyasida aktiv markazning hosil bo'lishi va initsirlashni quyidagi umumiy sxema bilan ifodalash mumkin:


¹Charles E. Carraher, Jr. Polymer Chemistry. 2003, Marcel Dekker, Inc., p. 286.



Bunda hosil bo'lgan kation monomer molekulasi bilan birikib, zanjirni uzunlashtiradi va o'zining musbat zaryadini keyingi birikkan monomer molekulasiga uzatadi:





Bu reaksiyada katalizatorning ajralib chiqishi natijasida zanjir uziladi:




Demak, ionli polimerlanishda zanjir radikalli polimerlanishdagidan farq qilib, biror vodorod atomining ajralishi natijasida uziladi.

Kation polimerlanishni quyi temperaturada amalga oshirish uchun ba'zi vaqtarda monomerning aktivlanish energiyasini kamaytiruvchi moddalar – sokatalizatorlar ishlataladi. Sokatalizatorlar sifatida suv va mineral kislotalarni ishlatish yaxshi natijalar beradi. Bunda katalizator bilan sokatalizator o'zaro reaksiyaga kirishib, vodorod protoni ajralib chiqadi va bu proton monomer molekulasi bilan birikib, kation polimerlanishning aktiv markazini, ya'ni karboniy ionini hosil qiladi. Buni quydagi misolda ko'rish mumkin:




Karboniy ionining anion bilan to‘qnashishi natijasida reaksiyon zanjir uziładi va quyidagi reaksiya asosida katalizator ajralib chiqadi.




Bu reaksiyada polimerlanish tezligi katalizatorning konsentratsiyasiga to‘g‘ri proporsionaldir. Polimerlanish darajasi esa monomerning konsentratsiyasiga to‘g‘ri proporsional bo‘lib, katalizatorning miqdoriga bog‘liq bo‘lmaydi.

Sokatalizator qo‘silmaganda polimerlanish jarayoni boshlanishidan oldin katalizator bilan monomer qutblangan kompleks birikma hosil qiladi. O’suvchi zanjir uchidagi karboniy ion (qutblanuvchi moddalar ishtirok etmaganligi uchun) zanjirning ikkinchi uchidagi anion bilan o‘zaro ta’sir etishi natijasida polimer molekulalarining disproportional uzelishi osonlashadi. Kationli polimerlanish jarayonining mexanizmini quyidagi sxema bilan ifodalash mumkin:


1. Reaksiyaning boshlang‘ich davrida katalizator va monomer hosil bo‘lgan kompleks keyingi monomer molekulasi bilan birikib, quyidagi shaklni oladi:




2. Makromolekulaning o‘sishi:



3. Zanjirning uzilishi:




Keltirilgan sxemadan ko‘rinib turibdiki, kation polimerlanishda makroionga birikuvchi monomer molekulasidagi qo’sh bog‘lar elektron bulutlarining zichligi ortgan bo‘lishi lozim:




Shunday qilib, o‘suvchi makroionning musbat zaryadli uchi har doim monomerdagи elektron zichligi ortiq bo‘lgan uglerod atomi bilan, ya’ni CH_2 bilan birikadi va natijada monomerlarning makromolekuladagi joylanishi regulyar, ya’ni «*boshi-dumiga*» tartibida bo‘ladi.

Kation polimerlanish jarayonining aktivlanish energiyasi radikalli polimerlanishning aktivlanish energiyasidan anchagina kam (60-65 kJ/mol) bo‘lib, uning qiymati ba’zan manfiy ham bo‘ladi. Shu sababli tarmoqlanmagan tuzilishdagи yuqori molekulyar polimerlar 50-70°C temperaturada kation polimerlanish usuli bilan sintez qilinadi.

Anion polimerlanish. Anion polimerlanish katalizatorlari sifatida ishqoriy metallar va ularning amidlari, metall-organik birikmalar, yuqori valentli metall oksidlari va elektronodonor xossalariiga ega bo‘lgan boshqa moddalar ishlatalidi. Katalizator va monomer molekulalari o‘zaro reaksiyaga kirishib, anion kompleksini hosil qiladi:




Bu anion kompleksi yangi monomer molekulalari bilan birikib, o‘zing manfiy zaryadini ana shu monomer molekulasiga uzatadi:




Bu reaksiyada zanjirning uzilishi biror vodorod atomining makroionga birikishi natijasida sodir bo'ladi. Anion polimerlanishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u past temperaturada ham katta tezlik bilan davom etadi. Temperaturaning pasayishi bilan anion polimerlanish reaksiyasining tezligi orta boradi. Shuning uchun ham reaksiya ba'zi vaqtarda -50°C va -190°C temperatura oralig'iда olib boriladi. Misol tariqasida akrilonitrilning natriy amidi ta'sirida ammiakli muhitda polimerlanishini ko'rib chiqamiz¹.




Katalizator:



Aktiv markazning paydo bo'lishi:





Zanjirning o'sishi:




va hokazo.

Zanjirning uzilishi:




¹Charles E. Carraher, Jr. Polymer Chemistry. 2003, Marcel Dekker, Inc., p. 292

Anion polimerlanishda zanjirni o'sish reaksiyasini quyidagicha tasvirlash ham mumkin:



Shu reaksiya uchun zanjirning uzilishi:




Bu xilda uzilgan polimer zanjiri uchida qo'sh bog' hosil bo'ladi. Katalizator sirtida hosil bo'lgan yangi aktiv markaz qaytadan polimer zanjirini yana o'stirib yuboradi. Anion polimerlanishda ba'zi ma'lum sharoitda zanjir uzilishi va uzatilishi sodir bo'lmaydi, "tirik zanjir" hosil bo'ladi. Monomer va katalizator konsentratsiyalarining ortishi bilan polimerlanish tezligi ham ortadi.

Metall-organik birikmalar ta'sirida polimerlanish qutblangan metall bilan uglevodorod radikal orasidagi bog'ning ($Me-Alk$) xususiyatiga bog'liqidir. Polimerlanish jarayonida metall ioni karboanionga bog'langan bo'lib, uning o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Alkil radikal esa monomerning makroionga birikishiga ta'sir ko'rsatmasa dastlab birikadigan monomer bo'g'inlarining joylashish tartibiga ta'sir qiladi.

Dastlabki ionning paydo bo'lishini butadienning fenilizopropilkaliy ishtirokida polimerlanishida kuzatish oson. Fenilizopropilkaliy to'q qizil rangli bo'lib, unga butadien qo'shilsa bu rang yo'qoladi. Chunki fenilizopropilkaliyga rang beruvchi kалии и va fenil guruhlari orasiga monomer molekulalari birikishi natijasida bu guruhlar bir-birlaridan uzoqlashadi va

rangsızlanadi. Butadienning polimerlanishi odatda natriy metalli ishtiroki-da borib, dastlab quyidagicha birikma hosil bo'ladi:



Polimerlanish natriy metallining sirtida boradi. Muhitdan ishqoriy metallni chiqarib tashlasak, polimerlanish jarayoni to'xtaydi. Demak, bu holda butadien avval metall sirtiga adsorbsilanib qutblanadi va so'ngra karboanion bilan reaksiyaga kirishadi.

Yuqorida aytildi, anion polimerlanish reaksiyasi boshqarilishi mumkin bo'lgan jarayonlar qatoriga kiradi. Masalan, muntazam tuzilishdagi (1–4 tuzilishdagi) polibutadien alfin katalizatorlar (natriy fenil va natriy xlorid) ishtirokida hosil qilinadi. Alfin katalizatorlar ko'rsatadigan ta'siri jihatdan oddiy metall–organik birikmalardan keskin farq qiladi.

Hozir shu narsa aniqlangangi, dastlab alkogolyat bilan natriy xlorid aralash kristallar hosil qiladi va monomer hamda natriy alkili ana shu kristallar sirtiga adsorbsilanadi, so'ngra polimerlanish jarayoni boshlanadi. Qattiq jism sirtida polimerlanishda monomer molekulasi orientatsiyalangan holda birikadi va natijada regulyar tuzilishdagi polimer hosil bo'ladi. Monomer molekulalarining orientatsiyalanishi ularning kristallar sirtida qutblanishidan kelib chiqadi. Umuman, alfin katalizatorlar ta'sirida polimerlanish jarayonlari metall–organik birikmalar ta'sirida polimerlanishga qaraganda tezroq kechadi. Masalan, stirolning natriy amil, natriy izopropilat va natriy xloridalaralashmasi ishtirokida polimerlanish tezligi birgina natriy amil ishtirokida polimerlanishga qaraganda 6–10 marta ortiq bo'ladi. Alfin katalizatorlar ishtirokida butadienning polimerlanish tezligi natriy amil ishtirokida polimerlanishga qaraganda 60 marta ko'p bo'ladi, hosil bo'lgan polimerning molekulyar massasi esa 10000 dan 100000 gacha ortadi.

Shuni aytilib o'tish kerakki, alfin katalizatorlarning miqdori polimerning molekulyar massasiga ta'sir etmaydi, boshqa xil katalizatorlarning miqdori esa polimerning o'rtacha molekulyar massasi qiymatiga jiddiy ta'sir qiladi. Metall alkili ishtirokida anion polimerlanish jarayonini boshqarish katalizatordagи bog'larning va erituvchi modda molekulalarining qutblanishiga ham bog'liqidir.

2.6. Ion-koordinatsion polimerlanish va uning mexanizmi


Ion-koordinatsion polimerlanish *stereomuntazam* (fazoviy muntazam) polimerlar sintez qilish imkoniyatini yaratgan ionli polimerlanish usulidir. Bu usulda polimer zanjiriga navbatdagi monomer molekulasi birikishidan oldin, u o'suvchi oxirgi aktiv markaz bilan koordinatsiyalanadi. Dastlab bu usulning katalizatori sifatida litiyorganik (LiR) birikma qo'llanilgan. LiR ishtirokida stereomuntazam poliizopren sintez qilingan. Umuman izopren polimerlanganda 4 xil izomer bo'g'inlar hosil bo'lishi mumkin:

1,4-trans	1,4-sis	1,2-birikish	3,4-birikish
-----------	---------	--------------	--------------


Litiyorganik birikma izoprenning sis- holatdag'i shakli bilan koordinatsiyalanadi, shuning uchun faqat sis-izomer bo'g'inlaridan iborat poliizopren sintez bo'ldi.

Sigler va Hatta tomonidan kompleks katalizatorlarning kashf etilishi ion-koordinatsion polimerlanish sohasida qo'lga kiritilgan eng katta yutuqlardan biri bo'ldi. Kristall tuzilishidagi va o'rindbosarlari fazoda taribili joylashgan polipropilen hamda boshqa poliolefinlar xuddi shunday kompleks katalizator ishtirokida olingan bo'lib, ular *izotaktik* yoki *sindiotaktik polimerlar*, katalizatorlar esa *stereospesifik katalizatorlar* deyiladi. Izotaktik va sindiotaktik polimerlarda uchlamchi uglerod atomlari bilan bog'langan metil guruuhlar hamma vaqt bir-biriga nisbatan ma'lum masofada joylashgan va ma'lum fazoviy tuzilishga ega bo'ldi. Ataktik polimerda esa metil guruuhlar tartibsiz joylashgan bo'lib, fazoviy tuzilishi muayyan qoidalarga bo'ysunmaydi. Stereomuntazam (izotaktik yoki sindiotaktik) hamda nomuntazam (ataktik) polipropilenning tuzilishi quyida tasvirlangan.


Izotaktik polipropilen:



Sindiotaktik polipropilen:




Ataktik polipropilen:




Adabiyotlarda polivinilxloridning fazoviy izomerlari quyidagicha tasvirlangan¹:


Sindiotaktit



Izotaktik




Ataktik




Stereospesifik katalizatorlar kimyoviy elementlar davriy sistemasining II va III guruhidagi metallarning organik birikmalarini hamda IV, V va VI guruh metallarining galogenli tuzlari aralashmasidan iborat. Bunday katalizatorlar orasida eng ko'p tarqalgani trialkilalyuminiy (AlR_3) va titanxloridning ($TiCl_4$) har xil molyar nisbatdagi aralashmalaridir. Alyuminiy va uning organik birikmalarini elektron yetishmovchi moddalar hisoblanib, ular titan xlorid bilan kompleks birikmalar hosil qiladi:

¹Charles E. Carragher, Jr. Polymer Chemistry. 2003, Marcel Dekker, Inc., p. 62



Polimerlanuvchi monomer bu kompleksdagi Al-C bog'i bilan birikib, zanjirning o'sish reaksiyasini boshlaydi:



Kompleksdagi aktiv hisoblangan Al-C bog'i qattiq katalizatorning sirtida bo'ladi va shu sirtda xemosorbsiya qilingan monomer molekulalari bilan uchrashadi. Monomer qo'sh bog'idagi elektronlar bilan katalizator sirtining o'zaro ta'siri natijasida sodir bo'ladigan xemosorbsiya jarayoni natijasida monomer qo'sh bog'ining elektron bulutlari qayta taqsimlanadi va uning barqarorligi kamayadi. Polimerlanishni initsirlantiruvchi Al-C bog'i va monomer molekulasi bir-biriga nisbatan katalizator sirtida muayyan holatda joylashgan bo'ladi. O'suvchi zanjirga birikish uchun yaqinlashayotgan monomer molekulasining fazoviy holati paydo bo'layotgan polimer zanjirining konfiguratsion tuzilishiga, katalizatorning tarkibi va sirtining fizik-kimyoviy xossalariiga bog'liq bo'ladi.

O'suvchi zanjirga kelib birikayotgan yangidan-yangi monomer molekulalarining holati o'zidan ilgari birikkan monomerlarning holatiga o'xshash bo'ladi. Bu hodisa izo yoki sindiotaktik tuzilishdagi makromolekulalar hosil bo'lishida katta rol o'ynaydi. Agar katalizatorning stereospetsifik xossalari kuchsiz bo'lsa, u holda sistemada ataktik va izotaktik polimer makromolekulalarining aralashmasi hosil bo'ladi.

Aktiv kompleks katalizatorlar hosil bo'lishida avval trialkilalyuminiy va titanxloridlar o'zaro reaksiyaga kirishadi, bunda metall ionlari qisman qaytariladi. Masalan, ekvivalent miqdordagi triizobutilalyuminiy va tetraxlortitan o'zaro reaksiyaga kirishganda titanxlorid hosil bo'ladi.

Agar kompleks katalizator hosil qilishda oldindan qaytarilgan titantrixlorid ishlatsa, hosil bo'lgan polimerning tuzilishi boshqacha bo'ladi. Demak, kompleks metall-organik katalizatorlarning aktivligi ularning tarkibigagina emas, balki olinish usullariga ham bog'liqidir. Etilen polimerlanishining kinetik xossalarni tekshirish natijasida, bu reaksiyada katalizatorning eng aktiv tarkibiy qismi titantrixlorid ekanligi, propilenning polimerlanishida esa titantetraxlorid ekanligi aniqlangan. Stereospetsifik polimerlanish jarayonining mukammal tekshirilishi natijasida, uning anionli mexanizm bo'yicha va kompleks katalizatorlar sirtida borishi aniqlangan. Buni quyidagi dalillar bilan isbotlash mumkin:

- alyuminiyalkil va titanalkil birikmalar ayrim-ayrim holda ishlatilganda stereospetsifik katalizatorlik xususiyatini yo'qotadi;
- stereospetsiflik xususiyati yuqori bo'lgan kompleks katalizatorlarning tarkibida alyuminiy, galogenlar, alkil (aril) guruhları va to'rtdan kam valentli titanning bo'lishi shartdir;
- stereospetsifik katalizatorlar ishtirokida olingan polimerning tarkibida alkil (aril) organik guruhlar borligi va ularning polimerga alyuminiy-organik birikmalardan o'tganligi aniqlangan;
- polimerning infraqizil spektrida ular makromolekulalarining uchida viniliden guruhlar borligini ko'rsatadi;
- izotaktik polimerlar anionli polimerlanish yo'li bilan 30-70°C larda, izotaktik polivinil efirlar esa kationli polimerlanish jarayoni yordamida -70°C atrofida hosil qilinadi.

Izotaktik polimerlar hosil bo'lish mexanizmini quyidagicha tasvirlash mumkin. Qutblangan katalitik kompleks sirtida monomer molekulalari xemosorbsiyalanadi va ularning bir qismi alyuminiy va alkil (aril) orasiga joylashib, polimerlanishning aktiv markazini vujudga keltiradi. Bu jarayonda qutblangan monomer o'zining manfiy zaryadli metilen guruhi bilan alyuminiyga birikadi. Demak, zanjirning o'sishi yangidan-yangi monomer molekulalarining katalizator metalli (Me) va polimer (R) orasiga «joyalashishidan» vujudga keladi. Bunday reaksiyalarda makromolekulaning uzilishi o'suvchi zanjirning vodorod atomini monomer molekulasiga yoki katalizatorga o'tishi natijasida sodir bo'ladi.

Zanjir uzilganda o'sish qobiliyatiga ega bo'lgan aktiv markazlar qayta tiklanadi va yangi reaksiyalarni initsirlashda ishtirok etadi. Zanjirning uzilishi natijasida uning uchida qo'sh bog'lar paydo bo'ladi. Kompleks katalizatorlar uzoq vaqt ishlatilganda polimerlanish tezligining hamda

olingan polimerlar o'rtacha molekulyar og'irligining o'zgarmasligi bu katalizatorda qayta tiklanish xususiyati borligi isbotlandi.

Ion-koordinatsion polimerlanish jarayonida sistemaga kompleks katalizatordan tashqari, ba'zi boshqa moddalar qo'shish bilan polimerning o'rtacha molekulyar massasini o'zgartirish mumkin. Bunday moddalar ning tarkibida metall-uglerod bog'lari bo'lib, ular katalitik kompleksga o'z anionlarini beradi. Natijada hosil bo'layotgan polimerning molekulyar massasi kamayadi. Masalan, trietilalyuminiy va titantrixloriddan iborat kompleks katalizatorlarga oz miqdorda rux alkil qo'shilsa, katalizatorning stereospetsifik xususiyati o'zgarmaydi, ammo polimerning molekulyar massasi birmuncha kamayadi. Undan tashqari, reaksiyon muhitga vodorod kiritish bilan ham polimerning molekulyar massasini kamaytirish mumkin, biroq bunda polimerning stereoregulyarlik xossalari ham birmuncha susayadi.

Xulosa qilib aytganda, polimerlar kimyosi sohasida stereo tartibli polimerlanish jarayonlarining kashf etilishi kimyo sanoatining katta yutug'i bo'lib, hozirda bu jarayon yordamida 1,4-sis-polizopren, kristall polietilen, izotaktik polipropilen, polimetilmekakrilat, polistirol va boshqalar ishlab chiqarilmoqda.

2.7. Polimerlanish jarayonining texnologik usullari

Texnikada polimerlanish jarayonining asosan uch xil usuli, ya'ni blok polimerlanish, erituvchi modda ishtirokida polinnerlanish va emulsion polimerlanish usullari keng tarqalgan.


Polimerlanishing blok usuli yoki massada polimerlanish. Suyuq holdagi monomerlarni hech qanday erituvchisiz, yaxlit holda polimerlash usuli blok holda polimerlanish deyiladi. Bu usulda yaxlit va qattiq polimer bloki hosil bo'ladi, uning shakli esa reaksiya olib borilgan idishning shakliga o'xshaydi.

Odatda blok polimerlanish reaksiyasi, ko'pincha organik peroksidlar ishtirokida, qisman esa issiqlik va nur ta'sirida olib boriladi. Bu usulning asosiy kamchiligi shundaki, unda reaksiyon muhitning temperaturasini rostlash va reaksiyada ajralgan issiqlikni hosii bo'lgan polimer blokidan o'z vaqtida yo'qotish qiyin bo'ladi. Buning natijasida polimerlanish reaksiyasi sistemaning har xil nuqtalarida turli temperatura va turlich raqamli davom etadi. Temperaturaning haddan tashqari ortib ketishi, ayniqsa

idishning o'rta qismida polimer zanjirlarini destruksiyalaydi va ularning o'rtacha molekulyar massasini kamaytiradi.

Blok usulida polimerlashning bunday kamchiliklaridan qutulish uchun reaksiyani iloji boricha past temperaturada olib borishga va reaktorning hajmini kichraytirishga harakat qilinadi. Bu usulning yana bir kamchiligi shuki, reaksiya natijasida hosil bo'lgan qattiq va yaxlit polimer namunalarini ajratib olish hamda ularni qayta ishlab buyum va pardalariga aylantirish katta qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun ham blok usuli polimerni amalda qayta ishlash talab qilinmaydigan hollardagina ko'proq qo'llaniladi. Jumladan, metilmekrilitdan polimetilmekrilit olishda, stirolni polistirolga aylanishida bu usulni qo'llash mumkin. Masalan, samolyotsozlikda ko'p ishlatiladigan material—organik shisha blok polimerlanish usuli bilan hosil qilinadi.

Eritmada polimerlanish yoki lok usuli. Eritmada polimerlanish ikki xil bo'lishi mumkin. Eritmada polimerlanishning birinchi usuliga binoan dastlab olingan erituvchida monomer ham va undan hosil bo'ladigan polimer ham yaxshi erishi kerak. Bu usulda hosil qilingan polimerni eritmadan ajratib olish uchun erituvchi bug'latib yuboriladi yoki polimerni eritmadan cho'ktiriladi.



2.1-rasm. Polistirolning eritmadi konsentratsiyasi va molekulyar masasining bog'liqligi.

Eritmada polimerlanishning ikkinchi usuliga binoan, olingan erituvchida monomer eriydi, ammo hosil bo'lgan polimer erimaydi va natijada, polimer kukunsimon cho'kma holida olinadi.

Eritmada olib boriladigan polimerlanish jarayonida temperaturani rostlash imkoniyati bo'lsa ham amalda bu usul unchalik ko'p ishlatilmaydi, chunki birinchidan, bunda erituvchi molekulalari reaksiyalarda qat-

nashib, zanjirning tez-tez uzilishi va uzatilishiga sabab bo'ladi. Natijada **hosil bo'lgan polimerlarning o'rtacha molekulyar massasi kamayadi** (2.1-rasm).

Ikkinchidan, hosil bo'lgan polimer tarkibidan erituvchi moddani yo'qotish ancha qiyin, bundan tashqari, erituvchilar oson alangalanadigan moddalar bo'ladi. Bularning hammasi jarayonni ancha murakkablashtirib yuboradi.

Emulsion polimerlanish usuli. Bu usul sanoatda sintetik polimerlar olishda eng ko'p qo'llaniladigan usuldir. Jarayonda monomer, erituvchi, initsiator yoki katalizator ishtirok etadi. Monomer erituvchida erimaydi, initsiator erituvchida eriydi, monomerda erimaydi. Uning afzalligi shundaki, emulsion polimerlanish reaksiyasi past temperaturada ham katta tezlik bilan boradi va hosil bo'lgan polimer molekulasi boshqa usullar bilan olingan polimerlarga qaraganda ko'proq monodisperslik xususiyatiga ega bo'ladi. Bunday polimerlanish jarayonida dispersion muhit sifatida, asosan suv ishlatalib, unda monomerning 7–50 foizli emulsiyasi tayyorlanadi. Monomerning suvdagi emulsiyasini barqaror qilish uchun unga emulgatorlar qo'shiladi.


Monomerning suvdagi emulsiyasi zarrachalarning katta-kichikligiga qarab, lateks va suspenzion sistemalarga bo'linadi. Emulgatorlar sifatida deyarli barcha sovunlar, jumladan, ishqoriy metallarning oleat, palmitat, laurat tuzlari, aromatik sulfokislotalarning natriyli tuzi, ayniqsa, natriyizobutilnaftalin monosulfat (Nekal) ko'p ishlataladi.

Emulgator modda molekulalarida, birinchidan, uzun va qutblanmagan uglevodorod zanjiri bo'lsa, ikkinchidan, bu molekulalar tarkibida qutblanuvchi karboksil va sulfoguruuhlar bo'ladi. Ular uglevodorod bilan suv chegarasidagi sirt taranglik kuchini kamaytiradi va monomerning suvda emulsiyanishini osonlashtiradi. Monomer tomchilarining yupqa emulgator pardaiar bilan o'ralsihi emulsiyaning barqarorligini oshiradi.


Ma'lumki, sovun suvda kam eriydi, uning asosiy miqdori eritmada agregatlangan mitsella holida bo'ladi. Sovunning mitselladagi molekulalari o'zining qutblangan uchi bilan suv fazasiga orientirlangan, uglevodorod molekulalari esa mitsellaning ichki qismiga – monomerlar tomoniga joylashgan bo'ladi. Emulsion polimerlanishning initsiatorlari sifatida suvda eruvchan persulfat, perborat, vodorod peroksid va shunga o'xshash moddalar ko'p ishlataladi (2.2., 2.3-rasmlar).

Bunday polimerlanish jarayonining regulyatori sifatida (ya'ni muhitning pH turg'unligini va emulsiyaning barqarorligini oshiruvchi moddalar sifatida) bikarbonatlar, fosfatlar va atsetat tuzlari ishlatalidi. Yuqorida

aytib o'tilganlarga binoan, avval monomerning suvdagi emulsiyasi hosil bo'lib, uning polimerlanishi natijasida polimer lateksi hosil bo'ladi.



2.2-rasm. Metilmekrilitning emulsion polimelanish tezligi ($0,1 \text{ mol/l}$):
1 – emulgatorsiz polimerlanish; 2 – kaliy palmitat ishtirokida polimelanish; initsiator – kaliy persulfat ($0,17\%$) $t = 40^\circ\text{C}$.



2.3-rasm. Metilmekrilitning emulsion polimelanish tezligining emulgator kontsentratsiyasiga bog'liqligi. Emulgator kontsentratsiyasi, mol/l:
1 – $0,38$; 2 – $0,87$.

Bunday latekslar texnikada to'g'ridan-to'g'ri ishlatalishi ham mumkin. Lateksdan polimerni ajratib olish uchun unga maxsus cho'ktiruvchi moddalar-elektrolitlar qo'shiladi. Emulsion polimerlanishning kinetik xususiyatlarini tekshirish shuni ko'rsatadiki, emulgator emulsiyaning barqa-

torligini oshiribgina qolmasdan, balki reaksiyaning mexanizmiga ham ta'sir ko'rsatadi. Emulgatorning konsentratsiyasi ortishi bilan polimerlanish jarayonining tezligi ham ortadi.

Suvda erimaydigan monomerlar, agar emulgator ishlatilmasa, initsiator qo'shilgan suvda ham polimerlanish reaksiyasiga uchramaydi. Emulsion polimerlanish jarayonida reaksiya tezligining va polimer o'rtacha molekulyar og'irligining oshishi bunday sharoitlarda zanjirning uzilish reaksiyalari kam sodir bo'lishidan dalolat beradi. Zanjir, asosan o'suvchi makroradikallarning o'zaro to'qnashishi natijasida uziladi.

Emulsion polimerlanish usulining ikkinchi turi *suspenzion polimerlanish* deyilib, lateks polimerlanish usulidan hosil bo'ladigan polimer zarrachalarining yirikligi bilan farqlanadi. Bu usul bilan polimerlanishda ham monomer va erituvchi ishtirok etadi. Monomer ham, hosil bo'lgan polimer ham erituvchida erimaydi, initsiator monomerda eriydi, erituvchida erimaydi. Bunday reaksiyalarda initsiator sifatida benzoil peroksid va diazobirkimalarning ayni monomerdagи eritmasi ishlataladi. Suspenziyaning barqarorligini oshirish uchun suvda eruvchan stabilizatorlar, jumladan, polivinil spirit yoki jelatina qo'shiladi. Reaksiya natijasida hosil bo'lgan polimer donalari yoki «marvaridlar» ning yirikligi reaksiyon idish ichiga o'rnatilgan qorgichning aylanish tezligiga bog'liqdir. Qorgichning tez aylanishi monomer tomchilarini maydalab yuboradi va natijada mayda zarrachali polimer hosil bo'ladi. Initsiator monomer tomchilari ichida erigan holda bo'lganligi uchun bunday jarayonni tomchi ichidagi blok polimerlanish deb ham qarash mumkin. Texnikada emulsion polimerlanish usulining keng qo'llanishining asosiy sabablari birinchidan, reaksiyada ajraladigan issiqlikni kamaytirish imkoniyati bo'lsa, ikkinchidan, bunda ajoyib xossalarga ega bo'lgan polimerlar hosil bo'ladi. Uchinchidan, bu usulda kukunsimon yoki donador polimer hosil bo'lib, uni ajratib olish, tozalash va sanoatda buyumlar olish uchun qayta ishlash ancha oson bo'ladi.

Nazorat savollari va topshiriqlar.

1. Polimerlar sintezining asosiy usullari qaysilar?
2. Polimeranalogik o'zgarishlar deganda nimani tushunasiz?
3. Zanjirli reaksiyalar deganda qanday reaksiyalar tushuniladi va u necha bosqichdan iborat bo'ladi?

4. Polimerlanish reaksiyalarining qanday xususiyatlari mavjud?
5. Radikal polimerlanish reaksiyalari nima va qanday hosil bo'ldi?
6. Radikal polimerlanish reaksiyalarida radikallar qaysi usullar bilan hosil qilinadi?
 7. Radikal polimerlanish reaksiyalarida zanjir uzatish reaksiyalarining ahamiyati qay darajada bo'ldi?
 8. Monomerlarning kompleks-radikal polimerlanishi qanday hosil bo'ldi?
 9. Donor-akseptor inisirlash mexanizmi qanday moddalar ishtirokida va qanday sodir bo'ldi?
 10. Radikal polimerlanish reaksiyalarini va monomerlarning kompleks-radikal polimerlanishlari qanday amaliy ahamiyatga ega?
 11. Metilmekatrilatning peroksid benzoil ishtirokida radikal polimerlanish mexanizmini yozing.
 12. Akrilonitrilning kaliy persulfat ishtirokida suvli muhitda radikal polimerlanish mexanizmini yozing.
 13. Kation polimerlanishda qanday monomerlar va katalizatorlar qo'llaniladi?
 14. Anion polimerlanishda qanday monomerlar va katalizatorlar qo'llaniladi?
 15. Kation polimerlanish jarayonining aktivlanish energiyasi radikalli polimerlanishning aktivlanish energiyasidan kami yoki ko'pmi? Bu nimaga olib keladi?
 16. Sigler va Hatta kompleks katalizatorlar kashf etilishinin gpolimerlanish reaksiyalaridagi ahamiyati nimada?
 17. Nima sababdan ion-koordinatsion polimerlanish sodir bo'ldi?
 18. Radikal, kation, anion va ion-koordinatsion polimerlanishning afzalliklari hamda kamchiliklarini solishtiring.
 19. Massada, suspenziyada va emulsiyada polimerlanish usulida monomer, erituvchi va initsiatoridan iborat sistema qanday holatda bo'ldi?
 20. Massada, suspenziyada va emulsiyada polimerlanish usullarining afzalliklari hamda kamchiliklarini solishtiring.

III BOB. POLIMERLANISH KINETIKASI VA TERMODINAMIKASI

3.1. Radikal polimerlanish kinetikasi. Polimerlanish reaksiyalarining monomer va initsiator bo'yicha tartibi

Kimyoviy kinetika – reaksiya tezligi va unga ta'sir etuvchi omillar to'g'risidagi ta'limotdir. Kimyoviy reaksiyalarning asosiy kinetik tenglamasi, ya'ni massalar ta'siri qoniniga muvofiq radikal polimerlanish reaksiyasining tezligi reaksiyada qatnashuvchi moddalar – monomer va initsiatorning konsentratsiyasiga to'g'ri proporsionaldir. Radikal polimerlanish reaksiyasining umumiy kinetik tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$v = k[M]^n[I]^m$$

Bu yerda: v – polimerlanish reaksiyasining umumiy tezligi, k – reaksiyaning tezlik konstantasi, n – reaksiya tezligining monomer bo'yicha tartibi, m – reaksiya tezligining initsiator bo'yicha tartibi.


Demak, polimerlanish reaksiyasining tezligi avvalambor monomer va initsiatorning konsentratsiyasiga bog'liq. Bog'liqlik quyidagi ikkita farazlar bilan aniqlanishi mumkin: 1) Polimerlanish boshlanishi bilan radikallar konsentratsiyasi tezda qandaydir qiymatga yetadi va keyinchalik o'zgarmasdan qoladi (statsionar holatga erishiladi). Bodenshteynning statsionarlik prinsipiiga asosan radikallarning hosil bo'lish tezligi ularning yo'qolish tezligiga teng. 2) Makroradikallarning reaksiyon qobiliyati polimerlanish darajasiga bog'liq emas. Flori prinsipiiga asosan funksional guruhning kimyoviy aktivlagi uning molekulyar massasiga bog'liq emas.

Kinetik tadqiqotlarning dastlabki vazifasi –reaksiyalarning monomer va initsiator bo'yicha tartiblarini aniqlashdan iborat. Monomer va initsiator konsentratsiyasi ortganda polimerlanish reaksiyasining tezligi ham ortadi (3.1 va 3.2 rasmlar).

Monomer konsentratsiyasi ortganda har bir aktiv markazga birikuvchi molekulalar soni ortadi, shuning uchun polimerning molekulyar massasi ham ortadi. Radikalli polimerlanishda initsiator miqdorining muhim ahamiyati bor. Initsiator miqdorining ortib borishi va uning parchalanishi natijasida aktiv markazlar soni ko'payib, polimerlanish tezlashadi, polimerning molekulyar massasi esa kamayadi.



3.1-rasm. Polimerlanish tezligini (1) va polimerning molekuliyar massasini (2) monomer konsentratsiyasiga bog'liqligi.



3.2-rasm. Polimerlanish tezligi (1) va polimerning molekuliyar massasini (2) initsiator konsentratsiyasiga bog'liqligi.

Jarayon boshlarida, ya'ni polimerlanish unumi taxminan 10% gacha bo'lganda polimerlanish reaksiya tezligining vaqtga bog'liqligi chiziqli ko'rinishga ega. Aynan shu oraliqda polimerlanish unumi bilan vaqtning bog'liqligi orqali polimerlanishning monomer va initsiator bo'yicha tartiblarini aniqlash mumkin. Buning uchun *dilatometrik* usul bilan tajriba bajarish tavsiya etiladi.

Polimerlanish reaksiyasida monomer zichligining ortib borishi polimerlanish jarayonining tezligini kuzatishga imkon beradi va bunday tekshirishlar dilatometr deb ataladigan asboblar yordamida bajariladi. Dilatometrda ingichka shisha naydagi reaksiyon modda sathining o'zgarishi aniqlanadi, chunki monomer polimerga aylanganda har doim uning hajmi kamayadi. Polimerlanish jarayonida monomerlardagi qo'shbog'larning uzilishi va molekula o'lchamlarining kattalashishi natijasida uning zichligi ortadi. Polimerning zichligi, monomerning zichligidan har doim katta bo'ladi (3.1-jadval).

3.1-jadval.


Ba'zi monomerlar zichligi va hajmining polimerlanish natijasida o'zgarishi

Monomerlar	Monomerning zichligi, g/mm ³	Polimerning zichligi, g/mm ³	Polimerlanish natijasida hajmning kamayishi, % hisobida
Akrilonitril	0,797	1,17	31,0
Metilakrilat 0,932			1,19 20,6
Metilmetakrilat	0,94	1,19	21,2
Stirol	0,907	1,06	14,7
Vinilxlorid	0,919	1,38	34,4
Vinilidenxlorid	1,22	1,71	28,6


To'liq polimerlanish holatida hajmnning kamayish ko'rsatkichini asos qilib, vaqt davomida polimerlanish unumi va tezligi hisoblanadi. Reaksiya tezligining logorifmi bilan monomer yoki initsiator konsentratsiyasi logorifmining bog'liqligi chiziqli ko'rinishiga ega bo'lib, chiziqning absissalar o'qiga nisbatan hosil qilgan burchagini tangensi momomer yoki initsiator bo'yicha reaksiya tartibiga teng (3.3 va 3.4 rasmlar).

Qo'shimcha jarayonlarsiz sodir etilayotgan reaksiyalarda polimerlanishning monomer bo'yicha tartibi 1 ga teng bo'lichi kerak. Real jarayonlarda esa qo'shimcha reaksiyalar hisobiga bu qiymat 1 dan 1,5 ga cha bo'lishi mumkin. Reaksiya tezligini monomer konsentratsiyasi bilan logorifmik bog'liqlik chizig'inining burchak tangensi 1,2 ga teng, initsiator

konsentratsiyasi bilan logorifmik bog'liqlik chizigi bilan burchak tangensi esa 0,5 ga teng.



3.3-rasm. Akril kislotasi radikal polimerlanish tezligining monomer konsentratsiyasiga bog'liqligi.



3.4-rasm. Akril kislotasi radikal polimerlanish tezligining initsiator konsentratsiyasiga bog'liqligi.

Demak, akril kislotasining radikal polimerlanish umumiy tezligi quydagiicha ifodalanadi:

$$v = k [AK]^{1/2} [I]^{0.5}$$

Ushbu ifoda polimer zanjirining bimolekulyar uzilishi sodir etilayot-~~janligini~~ ko'rsatadi va boshqa monomerlarning ham radikal polimerlanish reaksiyalari uchun mos keladi. Monomerlarning ionlanishi, initsiator yoki biror boshqa modda bilan kompleks hosil qilishi, zanjirning monomolekulyar uzilishi kabi holatlarda polimerlanishning monomer va initsiator bo'yicha tartibi keltirilgan sonlardan farq qilichi mumkin.

3.2. Polimerlanish bosqichlari tezliklarining konstantalari


Radikal polimerlanishni kimyoviy initsirlashda (initsiatorlar bilan) initsiatorning parchalanish tezligi hisobga olinadi. Odatda, initsiatorning *parchalanish konstantasi* (k_{par}), *initsirlash energiyasi* va initsiatorning *yarim yemirilish davri* (τ_{par}) e'tiborga olinadi. Polimerlanishning istalgan vaqtidagi initsiator konsentratsiyasini quyidagi formula bo'yicha aniqlash mumkin:

$$[I] = [I_0] e^{-k_{par} \tau}$$


Bu yerda: $[I]$ va $[I_0]$ initsiatorning shu vaqtdagi va boshlang'ich konsentratsiyalari,

τ – polimerlanish vaqt, k_{par} – initsiatorning parchalanish konstantasi.

Initsiatorning parchalanish reaksiyasi:



Initsirlash reaksiyasi:



Bu yerda: M va M_1 – monomer va initsiator birikkan monomer molekulalari, k_{in} – initsirlash reaksiyasining tezlik konstantasi.


Initsiatorning barcha radikallari initsirlash reaksiyasida qatnashavermaydi, chunki bir qismi yonida turgan boshqa radikal bilan birikib qoladi. Polimerlanishning ikkinchi bosqichi, ya'ni initsirlashda qatnashgan radikallarning miqdorini initsiator parchalanganda hosil bo'ladigan umumiy miqdoriga nisbati *initsirlash samaradorligi* (f) deyiladi. Ko'pincha initsirlash samaradorligi $0.6 < f < 0.8$ qiyatlarda bo'ladi.

Initsiatorning parchalanish konstantasi k_{par} , odatda, $10^{-5}\text{-}10^{-4} \text{ s}^{-1}$ qiyatlarga ega bo'ladi. Initsirlash konstantasi k_{in} ning qiymati esa $10\text{-}10^3 \text{ l/(mol}\cdot\text{s)}$ atrofida bo'ladi. Binobarin, birinchi bosqichning tezligi ikkinchi bosqichning tezligidan ancha kichik. Bosqichli reaksiyalarning umumiy tezligi sekin boradigan bosqichning tezligi bilan aniqlanadi. U holda init-

sirlash tezligi (v_{in}) initsirlash samaradorligi, initsiatorning konsentratsiyasi va parchalanish konstantasi bilan bog'langan:


$$v_{in} = 2fk_{par}[I]$$

Polimerlanish reaksiyasining zanjirni o'sishi bosqichida o'sish konstantasi hisobga olinadi:



Zanjirni o'sishi juda tez sodir bo'ladi. O'sish konstantasi, avvalambor, monomerning tabiatи va temperaturaga bog'liq bo'lib, uning qiymati $10^2\text{-}10^4 \text{ l/(mol}\cdot\text{s)}$ atrofida bo'ladi. Temperatura ortganda o'sish konstantasining qiymati ham ortadi, natijada polimerlanish reaksiyasining umumiy tezligi ham ortadi.

Zanjirni uzilish reaksiyasining tezligini uzilish konstantasi belgilaydi:



Radikal polimerlanishda uzilishning tezlik konstantasi k_u $10^6\text{-}10^8 \text{ l/mol}\cdot\text{s}$ qiymatlariga ega bo'ladi.

O'sish va uzilish reaksiyalarining tezlik konstantalari polimerlanish reaksiyalarining umumiyligini belgilashi bilan bir qatorda hosil bo'layotgan makromolekulalarning tarkibi, tuzilishi va molekulyar massasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Radikal polimerlanish reaksiyasi tezligining asosiy tenglamasi bosqichlarning tezliklarini hisobga olgan holda quydagicha ifodalanadi:

$$v = v_{in}^{0.5} [M] \frac{k_{or}}{k_u^{0.5}}$$


Bu ifodadan kelib chiqadiki, radikal polimerlanishning tezligi birinchi darajali monomer konsentratsiyasiga va kvadrat ildiz ostidagi initsirlash tezligiga to'g'ri proporsionaldir. Initsirlash tezligi initsiator konsentratsiyasiga proporsional ekanligini hisobga olib, padikal polimerlanish tezligining initsiator bo'yicha rartibi 0,5 ga teng deb, e'tirof etiladi.

3.3. Aktivlanish energiyasi

Kimyoviy reaksiyalarining aktivlanish energiyasi moddalarning reaksiyaga kirisha olish holatiga o'tkazish uchun zarur bo'lgan minimal

da polimerlansa, polimerlanish darajasi 10500, 130°C da polimerlansa polimerlanish darajasi 7150 va 150°C da esa 5150 bo'lgan polimetilmetakrilat olinadi.

Polimerlanish jarayonida temperaturaning ko'tarilishi, polimerning o'rtacha molekulyar massasini kamaytiribgina qolmay, undagi quyi molekulyar birikmalar fraksiyasi miqdorini ham ko'paytirib yuboradi. Shuning uchun ham monomerlarni blok usulida polimerlaganda monomer qovushqoqligining ortib borishi va reaksiyada chiqayotgan issiqlikning polimer zanjirlariga salbiy ta'sir etishi polimer molekulyar massasining kamayishiga va polidispersligining ortishiga sabab bo'ladi.



3.6-rasm. Stirolning turli temperaturalarda polimerlanish kinetikasi:
1- 20°C, 2- 100°C, 3- 120°C, 4- 130°C

Polimerlanishni yuqori temperaturada olib borish zanjirda monomer bo'g'inlarining tartibsiz joylashishiga, ya'ni bitta makromolekulaning o'zida monomerlar «dumi-dumiga» va «boshi-dumiga» tartibi bilan birikishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, yuqori temperaturada makromolekulalar qisman destruksiyalanadi va natijada polimerning ba'zi fizik-mexanik xossalari yomonlashadi. Bunday destruksiyanishda polimerdagagi ba'zi oson ko'chuvchi atom va guruhlar ajralib, ularning o'rniда erkin radikallar paydo bo'ladi va natijada tarmoqlangan makromolekulalar hosil bo'ladi.

Polimerlanish reaksiyasi tezligi bilan temperaturaning bog'liqligi Arrenius tenglamasi orqali ifodalanadi¹:

$$k = Ae^{-\frac{E}{RT}}$$

Bu yerda: k – polimerlanishning tezlik konstantasi, A – molekularning fazoviy tuzilishi va to‘qnashuvlari soniga bog‘liq bo‘lgan konstanta (eksponensial oldi ko‘paytiruvchisi), E – umumiy aktivlanish energiyasi, R – universal gaz doimiysi, T – absolyut temperatura, K.

Aktivlanish energiyasi, moddaning reaksiyon qobiliyatini xarakterlovchi tezlik konstantasi bilan bevosita bog‘langanligi uchun, polimerlanish jarayonining temperaturaga bog‘liq bo‘lgan muhim parametrlaridan biridir. Polimerlanish reaksiyasining umumiy aktivlanish energiyasi quydagiga teng:

$$E = \frac{1}{2}E_{in} + (E_o' - \frac{1}{2}E_{uz})$$

Bu yerda: E_{in} , E_o' va E_{uz} – initsirlash, o‘sish va uzilish reaksiyalarning aktivlanish energiyasi.

Aktivlanish energiyasini Arrenius tenglamasini logorifmlangandan so‘ng, kamida ikki xil temperaturadagi tezlik konstantalari asosida hisoblab topish mumkin:


$$E = \frac{4,57T_1T_2(\lg k_1 - \lg k_2)}{T_1 - T_2}$$

Aktivlanish energiyasi grafik usulida ham topilishi mumkin. Buning uchun kamida uch xil (yaxshisi 4-5 xil) temperaturada polimerlanish tezligi aniqlanadi. Tezlik logorifmi va temperatura teskari qiymatining bog‘liqlik grafigi chiziladi (3.7-rasm). Hosil bo‘lgan to‘g‘ri chiziqni absissa o‘qiga nisbatan burchagini tangensi $E/4,57$ ga teng. Shu orqali aktivlanish energiyasini hisoblash mumkin. Initsiatorlar vositasida radikal polimerlanish reaksiyalarining umumiy aktivlanihs energiyasi ko‘pincha 80-120 kJ/mol qiymatlarda bo‘ladi.

Kompleks-radikal polimerlanish reaksiyalarining afzalliklaridan biri aktivlanish energiyasining ancha kichik qiymatlarining namoyon bo‘lishidir. Buning sababi kompleks birikmalarining parchalanish energiyasi initsiatorning erkin parchalanish energiyasidan ancha kichiklidir. Natijada qo‘sishma reaksiyalarining ulushi kamayadi va tartibli poli-

¹Charles E. Carraher, Jr. Polymer Chemistry. 2003, Marcel Dekker, Inc., p. 241.

merlanish reaksiyasini boshqarish mumkin bo'ladi, hosil bo'igan polimerning xossalari yaxshilanadi.



3.7-rasm. Akril kislotasining polimerlanish tezligini temperaturaga bog'liqligi.

Ultrabinafsha va radiatsion nurlar ta'sirida boruvchi reaksiyalarda polimerlanish tezligi temperaturaga unchalik bog'liq bo'lmasdan, asosan, nurlarning intensivlik darajasiga bog'liq bo'ladi va quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:


$$v = k\sqrt{I}$$

bu tenglamada: v – polimerlanish tezligi; k – tezlik konstantasi; I – nurlarning intensivlik darajasi.

Yuqori molekulyar moddalarni sintez qilishda reaksiyaning mexanizmi va kinetik xususiyatlari jarayonning reaksiya sharoitga bog'liqligini kuzatish, hosil bo'layotgan polimerning fizik xossalari va kimyoviy tuzilishini aniqlash kabi yo'llar bilan o'r ganiladi. Sanoatda polimer ishlab chiqarish jarayonlari shu tarzda olingen ma'lumotlar yordamida takomillashtiriladi.

3.4. Polimerlanish termodinamikasi

Polimerlanish qaytar kimyoviy reaksiyalardan, uning bilan bir vaqtda **teskari** jarayon – depolimerlanish ham sodir bo‘ladi:



Reaksiyon aralashmada hamisha monomerning qandaydir miqdori qoladi, uning muvozanat konsentratsiyasi sistemaning termodinamik tavsiflari bilan bog‘liq. Polimerlanishning termodinamik imkoniyati har qanday fizik-kimyoviy jarayonlarniki kabi quyidagi tenglama bilan ifoda-lunadi:

$$\Delta G = \Delta H - T\Delta S$$

bu yerda: ΔG , ΔH , ΔS – 1 mol monomerni polimerga aylanishida izo-**bar**-izotermik potensial (Gibss energiyasi), entalpiya va entropiyaning o‘zgarishi, J/mol yoki kJ/mol; T – absolyut temperatura.

Agar $\Delta G < 0$ bo‘lsa monomerning berilgan sharoitda polimerlanishi sodir bo‘ladi, $\Delta G > 0$ bo‘lganda polimerlanish sodir bo‘lmaydi, $\Delta G = 0$ bo‘lganda sistema muvozanat holatida turadi. ΔG reaksiyaning muvozanat konstantasi (K) bilan quyidagi tenglama orqali bog‘langan:

$$\Delta G = \Delta G^0 + RT \ln K \quad (1)$$

bu yerda: ΔG^0 – standart sharoitda monomer va polimerning izo-**bar**-izotermik potensiallari farqi. Muvozanat holatida $\Delta G = 0$ bo‘lganligi uchun:

$$\Delta G^0 = -RT \ln K \quad (2)$$

Muvozanatning kinetik sharti polimer zanjirining o‘sish (k_o) va depolimerlanish (k_d) tezlik konstantalarining tengligi bilan aniqlanadi hamda:

$$K = \frac{k_o}{k_d}$$

Hosil bo‘layotgan polimerning molekuliyar massasi yetarli darajada katta bo‘lganda muvozanat konstantasi faqat monomerning muvozanat konsentratsiyasi $[M]$ ga bog‘liq:

$$K = \frac{1}{[M]}$$

U holda yuqoridagi tenglamalarga binoan:

$$\Delta G^0 = RT \ln [M] \quad \text{yoki}$$

$$\Delta H^0 - T\Delta S^0 = RT \ln[M]$$

3

Bundan muvozanat temperaturasini va monomerning muvozanatdagi konsentratsiyasini topish mumkin:

$$T = \frac{\Delta H^0 - RT \ln[M]}{\Delta S^0} \quad \text{va}$$

$$\ln[M] = \frac{\Delta H^0}{RT} - \frac{\Delta S^0}{R}$$

4

(2-4) tenglamalardan muvozanat temperaturasi bilan monomer konsentratsiyasining bog'liqligi ma'lum bo'ladi. Berilgan temperaturada polimerlanish monomerning muvozanat konsentratsiyasidan yuqori konsentratsiyalarda boradi.

Polimerlanish jarayonida sistemadagi zarrachalar soni kamayganligi tufayli entropiyaning o'zgarishi $\Delta S < 0$ bo'ladi, bu degani, entropiya omili ΔS polimerlanish uchun emas, aksincha depolimerlanish uchun ishlaydi, ayniqsa, yuqori temperaturalarda. Ko'pchilik vinil monomerlarning polimerlanish vaqtida entropiya o'zgarishi 100-120 J/mol ekanligini hisoblashlar ko'rsatadi. Demak, polimerlanishni amalga oshirish uchun energetik omilga murojaat etish kerak. Uning qiymati $\Delta H < 0$ bo'lib, bir necha kJ/moldan yuz kJ/molgacha o'zgaradi va birinchi navbatda monomerning tabiatiga, polimerlanish qobiliyatiga bog'liq.

Monomerlarning polimerlanish qobiliyati, asosan, ulardagi qo'sh bog'larning joylashishi yoki holatiga, ularni tashkil etuvchi atom, guruh va ularning bog'laridagi elektron bulutlar taqsimlanishiga bog'liqdir. Monomerlarning tuzilishi hamda polimerlanish qobiliyati umumiy nazariy organik kimyoning eng muhim muammolari qatoriga kiradi. Hozirgi vaqtda organik kimyoning bu sohasida shunchalik ko'p eksperimental ma'lumotlar yig'ilganki. ularni nazariy jihatdan tahlil qilib, moddalarning polimerlanish yoki polimerlanmaslik xususiyatlarini oldindan aytib berish mumkin. Amalda polimerlanish entalpiyasi 40 kJ/moldan katta bo'lgan monomerlar xona temperaturasidan yuqoriroq temperaturalarda polimerlanishi mumkin (3.2-jadval).

Ba’zi monomerlarning polimerlanish entalpiyasi (kJ/mol).


Monomer	-ΔH	Monomer	-ΔH
Etilen	93,2	Stirol	69,1
Vinilatsetat	89,2	Xloropren	67,9
Metilakrilat	78,5	Metakril kislota	66,2
Akril kislota	77,5	Vinilidenxlorid	60,3
Izopren	75,0	Metilmetakrilat	54,5
Butadien	72,5	Izobutilen	52,4
Akrilonitril	72,5	α-Metilstirol	37,7

Jadvaldagagi monomerlar polimerlanish entalpiyasining kamayib borishiga, birinchidan, monomerdagi qo’sh bog‘ga yondoshgan vodorod atomining o‘rnini oladigan atom va guruhning ta’siri, ikkinchidan, polimer hosil bo‘lishidagi fazoviy qiyinchiliklarning mavjudligi sabab bo‘ladi. Masalan, stirol molekulasining vinil guruhidagiz-bog‘ining elektroni benzoldagi π -bog‘ elektronlari bilan yondoshgan bo‘lib, buning natijasida polimerlanish entalpiyasi etilennikiga nisbatan 24,1 kJ/molga kamroq.

Ba’zi hollarda fazoviy qiyinchiliklar natijasida yo‘qolayotgan energiyaning miqdori shunchalik kattaki, termodinamik nuqtai nazardan monomer polimerga aylanmasligi ham mumkin. Shunday monomerga 1,1-difiletilen, vinilidenbromid, 1,2-dixloretilenlar misol bo‘la oladi.

Demak, xulosa qilib aytganda, monomerning polimerlanish qobiliyati uning sterik (geometrik) tuzilishiga, undagi bog‘larning joylashishi va qutblanishiga bog‘liq. Masalan, etilen va uning hosilalarida o‘rinbosar radikallarning kattalashishi bilan monomerning polimerlanishi uchun qo’shimcha fazoviy qiyinchiliklar tug‘iladi. Chunki o‘sishga moyil, biroq o‘lchamlari katta erkin radikallar monomer molekulalari bilan kam to‘qnashadi. Ayni vaqtida, monomerdagi o‘rinbosar guruhlarning hajmi shunchalik katta bo‘lishi mumkinki, unda zanjirning o‘sishiga, ya’ni polimer modda hosil bo‘lishiga hech imkoniyat qolmaydi.

Qo’sh bog‘lar va ular qoshidagi o‘rinbosar guruhlarning yondoshishlik ta’siri tarkibida ikki qo’sh bog‘ bo‘lgan moddalarda kuchliroq bo‘ladi. Jumladan, butadiienda π elektron bulutlar qo’sh bog‘ atrofida ko‘proq va oddiy bog‘ atrofida kamroq to‘planadi:



Bu hol shuni ko'rsatadiki, birikish reaksiyalari, asosan 1 va 4—guruuhlar bor joyda sodir bo'ladi. 2—uglerod atomiga o'rribosar kiritish 3 va 4—uglerod atomlari orasidagi qo'sh bog' aktivligini oshiradi, 1 va 2—uglerod atomlari orasidagi bog' aktivligini esa susaytiradi. Diolefin moddalar, ayniqsa, butadien, izopren, xloropren olefinlarga o'xshab osonlik bilan polimerlanadi. Ular hosilalarining ham polimerlanish aktivligi o'rribosar guruhning holati va o'lchamlariga qarab o'zgaradi. Masalan, 2—uglerod atomi qoshidagi o'rribosar monomerning polimerlanish qobiliyatini oshirib yuboradi, 1—uglerod atomi qoshidagi o'rribosar esa polimerlanish qibiliyatini susaytiradi, ba'zan mutlaqo to'xtatib ham qo'yadi:

$CH_2 = CH - CH = CH_2$	Polimerlanadi
$CH_2 = C - CH = CH_2$ C_6H_5	80 marta tezroq polimerlanadi
$CH_2 = CH - CH = CH$ C_6H_5	Sust polimerlanadi
$CH = CH - CH = CH$ C_6H_5 C_6H_5	Polimerlanmaydi

Divinil hosilalarida esa o'rribosar sifatida galogen atomlari olinsa monomerning reaksiyon qobiliyati alkil va aril guruuhlari olingandagiga nisbatan keskin ortadi, bu holda ham 2, 3—holatdagagi galogen o'rribosarlar monomerning polimerlanish qobiliyatini oshiradi, 1, 4—holatdagilari esa susaytiradi.





Har xil galogen atomlarining o'rribosarlik xususiyatlari solishtirilganda, tarkibida yod atomi bor bo'lgan monomerlarning polimerlanish qobiliyati kuchli, brom atomi bog'lariniki undan kuchsizroq va xlor atomi borlariniki esa yanada kuchsiz ekanligini kuzatish mumkin, ya'ni mono-

merlarning reaksiyon qobiliyati galogen atomlarining o'chamlari va manfiy zaryadlarining miqdoriga chambarchas bog'liqidir. Agar izoprenning polimerlanish tezligi shartli ravishda birga teng deb olinsa, undagi metil guruhni galogenlarga almashtirish monomerning polimerlanish tezligini oshiradi (3.3-jadval).

Monomer molekulasida qo'shbog'larning qutblanish darajasi o'rindbosar guruhlarning asimmetrik joylashishiga qarab kuchayib boradi. Massalan, vinilidenxloridni polimerlash uchun vinilxloridni polimerlaganga qaraganda anchagina kam energiya talab qilinadi. Dixloretilen va viniildenxlorid o'zaro solishtirilsa dixloretilennинг tuzilishi va o'rindbosarlarining qo'sh bog'ga nisbatan simmetrik joylashganligini ko'rish mumkin. Bunday simmetrik moddalarda qo'sh bog'ning qutblanishi kutilmaydi va shu sababli hozirgacha bu moddaning polimeri olinmagan.

3.3-jadval.

Butadien molekulasidagi o'rindosh tabiatining polimerlanish tezligiga ta'siri

Monomerlar	Poli-merlanish tezligi (shartli birlik)	Monomerlar	Poli-merlanish tezligi (shartli birlik)
$CH_2 = C - CH = CH_2$ 	1	$CH_2 = C - CH = CH_2$ 	1000
$CH_2 = C - CH = CH_2$ 	700	$CH_2 = C - CH = CH_2$ 	1500

Xuddi shunga o'xshash, monomerlarning qutblanish shartlari va polimerlanish xususiyatlarini quyidagi misollarda ko'rish mumkin:

Oson polimerlanadi	Polimerlanmaydi
$CH_2 = CH - COOH$	$HOOC - CH = CH - COOH$
Akril kislota	Malein kislota
$CH_2 = C(CH_3) - COOH$	$CH_3 - CH = CH - COOH$
Metakril kislota	Krotonkislota

Monomerdag'i qo'sh bog'ning qutblanishi natijasida monomer dipol tuzilishiga ega bo'lib qoladi va unda dipol moment vujudga keladi. Massalan, viniyloridda elektronofil xlor atomining ta'siri ostida elektronlar ning zichlig'i xlor bilan bog'langan uglerod atomiga siljiydi va ma'lum miqdordagi dipol moment vujudga keladi.

Bunday o'rribosarlarga qarama – qarshi o'laroq aril, alkil, alkoxi guruhlar ba'zi monomerlarning qo'sh bog'laridagi elektron zichligini ortiradi. Bunday monomerlarga propilen, oddiy vinil efirlar, izobutilen va boshqalar misol bo'la oladi. Monomer tarkibidagi qutblanuvchi o'rribosar guruhlar polimerlanish tezligini oshiribgina qolmay, makroradikallarning tuzilishiga ham ta'sir ko'rsatadi, ya'ni bunday monomer polimerlanganda makromolekulaning so'nggi bo'g'ini ham qutblanib, yangidan–yangi monomer molekulalari unga orientirlangan holda birikadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Polimerlanish reaksiyalari qanday elementar reaksiyalardan tashkil topgan?
2. Massalar ta'siri qoniunga muvofiq radikal polimerlanish reaksiyasining kinetik ifodasi qanday yoziladi?
3. Kinetik tadqiqotlarning dastlabki vazifasi nimadan iborat?
4. Monomer konsenrtatsiyasi ortganda polimerlanish tezligi va polimerning molekulyar massasi qanday o'zgaradi?
5. Initsiatorning konsenrtatsiyasi ortganda polimerlanish tezligi va polimerning molekulyar massasi qanday o'zgaradi?
6. Qo'shimcha jarayonlarsiz sodir etilayotgan reaksiyalarda radikal polimerlanishning monomer va initsiator bo'yicha tartibi qanday bo'ladi?
7. O'sish va uzilish reaksiyalarining tezlik konstantalari nimalarni belgilashi mumkin?
8. Polimerlanish reaksiyalarning aktivlanish energiyasi nima?
9. Initsiator ishtirokida boruvchi polimerlanish jarayonining umumiy aktivlanish energiyasi qanday aniqlanadi?
10. Aktivlanish energiyasining Arrhenius tenglamasini izohlang.
11. Polimerlanishning termodinamik imkoniyati har qanday fizik-kimyoviy jarayonlarniki kabi qanday tenglama bilan ifodalananadi?
12. Monomerlarning polimerlanish qobiliyati nimaga bog'liq? Misollar bilan izohlang.

IV BOB. SOPOLIMERLANISH REAKSIYALARI




4.1. Sopolimerlanish reaksiyalarining ahamiyati va mohiyati

Ikki va undan ortiq tur monomerlarning birligida polimerlanish reaksiyasi *sopolimerlanish reaksiyasi* deb, hosil bo‘lgan polimer esa *sopolimer* deb ataladi.

Polimerlarning boshqa materiallarga nisbatan afzalliklari – yetaricha xomashyo manbasining mavjudligi, sintez qilish va ayniqsa qayta ishlash orqali buyumlar olishning qulayligi, tannarxining arzonligi, yengilligi, murakkab shaklli buyumlar tayyorlash mumkinligi, fizik-mexanik xossalarni keng miqyosda o‘zgartirish mumkinligi va boshqalarni yana bir bor ta’kidlagan holda, ularning ba’zi kamchiliklarini ham aytish kerak. Polimerlarning issiqbardoshligi, mexanik puxtaligi yetarli darajada emas, xizmat qilish muddati ham kamroq – issiqlik va quyosh nurlari ta’sirida tez parchalanadi (eskiradi), elektrlanib qoladi, biologik chirimasligi tufayli ekologiyaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Polimerlarning afzal xossalarni saqlab qolgan holda, kamchiliklarini kamaytirish, yangi xossalarni bag‘ishlash maqsadida turli monomerlarning sopolimerlari sintez qilinadi. Sopolimerlanish reaksiyasi istalgan talablarga javob bera oluvchi polimerlar sintez qilishda eng asosiy usul hisoblanadi, chunki bunda monomerlarning son va xillarini, miqdoriy nisbatlarini o‘zgartirish orqali turli xossalarga ega bo‘lgan sopolimer olish mumkin.

Masalan, poliakrilonitril tola hosil qilish xossasiga ega bo‘lgan polimer. Lekin undan olinadigan tolalar mo‘rt va yaxshi bo‘yalmaydigan bo‘ladi. Elastikligini oshirish maqsadida ozroq metilakrilat, bo‘yalish xususiyatini yaxshilah maqsadida ozroq itakon kislotasi qo‘shib akrilonitrilning sopolimeri olinadi. Akrilonitrilning metilakrilat bilan sopolimerlanish reaksiyasini quyidagicha tasvirlash mumkin:




Sopolimerlanish reaksiyasida har qanday monomer ikkinchi komponent sifatida qatnashib, hosil bo'ladigan polimerni o'ziga xos yangi xususiyatlar bilan boyitadi va polimerning fizik-kimyoviy xossalarni o'zgartiradi. Masalan, polimerdagi molekulalararo ta'sir kuchlarini kamaytirish yo'li bilan uning eruvchanligini va elastikligini oshirish amalda ko'p qo'llaniladi. Agar ikki monomerning birgalikda polimerlanish qonunlariiga nazar solsak, hosil bo'ladigan makromolekulaning tarkibini aniqlash qanchalik qiyin ekanligini ko'ramiz, chunki reaksiyada qatnashayotgan turli monomer molekulalarining reaksiyaga kirishish qobiliyati turlicha bo'ladi. Shuning uchun ham sopolimerlanish gomopolymerlanishga qara-ganda murakkabroq qonunlarga bo'ysunadi va boshqacha kinetik jarayonlar bilan ifodalanadi.

4.2. Sopolimerlanish reaksiyalarining turlari

Sopolimer makromolekulasida monomer bo'g'inlarining birikish ketma-ketligiga ko'ra to'rt xil sopolimerlanish reaksiyalari sodir bo'lishi mumkin.

Statistik yoki oddiy sopolimerlanish – bunda monomerlar makromolekulaga tartibsiz, tasodifiy birikadi:




Statistik sopolimerlanish radikal hamda ionli mexanizm bo'yicha borishi mumkin, monomerlarning initsiatorga yoki katalizatorga nisbatan aktivligi yaqin bo'lganda amalga oshadi.

Almashinib keluvchi sopolimerlanish – bunda monomerlar makromolekulaga birin-ketin almashinib birikadi:




Bunday sopolimerlanish monomerlarning qutbliligi qarama-qarshi bo'lganda sodir bo'ladi.


Blok sopolimerlanish – bunda monomerlar makromolekulaga o'nlab bir xil bo'g'inlar tarzida birikadi:



Payvand sopolimerlanish – bunda bir polimer makromolekulasining yon zanjiriga ikkinchi monomer molekulalari payvand bo'lib birikadi:



4.1-rasmda sopolimerlarning turlari tasvirlangan, monomerlar turli rangdagi sharchalar bilan ifodalangan.







4.1-rasm. Sopolimerlarning turlari.

4.3. Sopolimerlanish konstantlari

Polimerlanish qobiliyati har xil bo‘lgan ikki monomer aralashmasini initsiator ishtirokida sopolimerlash natijasida hosil bo‘lgan makromolekulalarning tarkibida har ikkala monomer bo‘g‘inlarini ham uchratish mumkin, ya’ni bunda o‘suvchi (erkin radikalli) zanjir reaksiyada ishtirok etuvchi monomerlarning har ikkalasi bilan ham reaksiyaga kirishgan bo‘ladi.

Sopolimerlanishda A va B monomerlardan erkin radikallar hosil bo‘lish tezlik konstantalari K_a va K_b bilan belgilanadi. Ularning qiymati A va B monomerlarning initsirlash tezligiga bog‘liq bo‘ladi. Sopolimerlanishda zanjirning o‘sishi, oddiy polimerlanishdagidan farq qilib, to‘rtta reaksiya bilan, bu reaksiyalarning har biri esa o‘ziga xos tezlik konstantasi bilan xarakterlanadi. Zanjirning bunday o‘sish reaksiyalarini quyidagi sxemalar orqali ifodalaymiz:



Bu sxemalarda sistemada sodir bo‘ladigan har bir reaksiyaning tezlik konstantasi « K » harfi bilan belgilangan, jumladan:

K_{aa} – uchida A monomeri bo‘lgan o‘suvchi polimer radikali bilan A monomer molekulasi orasidagi reaksiyaning tezlik konstantasi;


K_{ab} – uchida A monomeri bo‘lgan o‘suvchi polimer radikali bilan B monomer molekulasi orasidagi reaksiyaning tezlik konstantasi;

K_{bb} – uchida B monomeri bo‘lgan o‘suvchi polimer radikali bilan B monomer molekulasi orasidagi reaksiyaning tezlik konstantasi;

K_{ba} – uchida B monomeri bo‘lgan o‘suvchi polimer radikali bilan A monomer molekulasi orasidagi reaksiyaning tezlik konstantasi.

Bu reaksiyalardan qaysi birining tezligi kattaroq bo‘lsa, hosil bo‘layotgan sopolimerning tarkibi ham, asosan, o’sha reaksiyaga muvofiq keladi.

Sopolimerlanishda ham gomopolimerlanishdagi kabi quyidagi 3 xil uzilish reaksiyalarini sodir bo‘ladi:



$$VI. \quad \sim B^+ + B^- \sim \frac{K_{pB}}{\infty} \sim B - B \sim$$

$$VII. \quad \sim A^+ + B^- \sim \frac{K_{pab}}{\infty} \sim A - B \sim$$

Bularda:

K_{pa} – uchida A monomeri bo‘lgan ikki polimer radikallarining o‘zaro uchrashib, o‘sishdan to‘xtash reaksiyasining tezlik konstantasi;

K_{pb} – uchida B monomeri bo‘lgan ikki polimer radikallarining o‘zaro uchrashib, o‘sishdan to‘xtash reaksiyasining tezlik konstantasi;

K_{pab} – uchida A va B monomerlari bo‘lgan ikki xil polimer radikallarining o‘zaro uchrashib, o‘sishdan to‘xtash reaksiyasining tezlik konstantasi.

Umuman, sopolimerlanish reaksiyasining boshlang‘ich davrida uzilish reaksiyalari shu davrdagi o‘sish reaksiyalariga qaraganda shunchalik sust boradiki, ular makromolekulaning hosil bo‘lishiga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi deyish mumkin.

Shuning uchun ham A va B monomerlarning polimer zanjiriga birkish tezligini quyidagi tenglamalar (1.2) bilan ifodalash mumkin:

$$\frac{d(A)}{dt} = K_{aa}(A')(A) + K_{ba}(B')(A) \quad (1)$$

$$\frac{d(B)}{dt} = K_{bb}(B')(B) + K_{ab}(A')(B) \quad (2)$$

Agar sistemada vaqt birligi ichida paydo bo‘layotgan va sarflanayotgan A radikallar miqdori o‘zaro teng bo‘lsa, ya’ni A radikallar soni vaqt birligi ichida o‘zgarmasa, bu radikal uchun statsionarlik tenglamalari quyidagicha yoziladi:

$$V_{iA} + K_{ba}(B')(A) = K_{ab}(A')(B) + K_{pa}(A')(A') + K_{pab}(A')(B') \quad (3)$$

Xuddi shunday shart bilan B radikalining statsionarlik tenglamasi tuziladi:

$$V_{iB} + K_{ab}(A')(B) = K_{ba}(B')(A) + K_{pb}(B')(B') + K_{pba}(A')(B') \quad (4)$$

Bu tenglamalarda:

V_{iA}, V_{iB} – zanjirning A va B monomerlardan bog‘lanish tezligi.

Polimer zanjirining o‘sish davrida A radikalning B radikalga va B radikalning A radikalga o‘tish ehtimolligi (II va IV reaksiyalarga binoan), shu zanjirning uzilish ehtimolligidan ko‘p bo‘ladi. Shuninguchun ham statsionarlik tenglamalar (3) va (4) da polimer zanjirining uzilishini ifodalovchi qismlarni tushirib qoldirish mumkin.

Shu bilan bir qatorda A radikalning B ga va B radikalning A ga aylanish tezligi A va B monomerlarning initsirlash tezligiga qaraganda ko‘proqdir, ya’ni A monomerning B radikalga B monomerning A radikalga birikish tezligi initsirlash reaksiyasi tezligidan ortiqroqdir:

$$V_{iA} < K_{ba}(B')(A) \text{ va } V_{iB} < K_{ab}(A')(B)$$


Shu mulohazalardan keyin (3) va (4) tenglamalardan initsirlash tezliklari V_{iA} va V_{iB} ni tushirib qoldirsak, quyidagi tenglama hosil bo‘ladi:

$$K_{ab}(A')(B) = K_{ba}(B')(A) \quad (5)$$

Bu tenglamada $A \rightarrow B$ va $B \rightarrow A$ o‘zgarishlar tezligi o‘zaro teng va bu tenglik sopolimerlanish reaksiyasining asosiy shartlaridan biridir.

Agar bu shart saqlanmasa, ya’ni (3) va (4) tenglamalar (5) tenglamaga keltirilmasa, u holda sopolimerlanish reaksiyasi sodir bo‘lmasdan, polimerlanuvchi bir monomer ikkinchisiga ingibitor bo‘lib xizmat qiladi, ya’ni polimerlanish to‘xtaydi.

Quyida uzunligi bir xil va tuzilishi har xil bo‘lgan hamda 25 monomer bo‘g‘inidan tashkil topgan ikki reaksiyon zanjirning o‘zaro taqsimlashini ko‘rib chiqaylik:



Birinchi zanjirda A –Bga 10 marta va B –Aga 9 marta o‘tadi. Bunday sopolimerlanish reaksiyasining tenglamasi (5) ni e’tiborga olib va (1) tenglamani (2) tenglamaga bo‘lib, sopolimerlarning tarkibi aniqlanadigan tenglama (6) hosil qilinadi:

$$\frac{\frac{d(A)}{dt}}{\frac{d(B)}{dt}} = \frac{K_{aa}(A')(A) + K_{ba}(B')(A)}{K_{bb}(B')(B) + K_{ab}(A')(B)} \quad \frac{d(A)}{d(B)} = \frac{|A| \frac{K_{aa}}{K_{ab}}(A') + (B')}{|B| \frac{K_{bb}}{K_{ba}}(B') + (A')} \quad 6$$

Demak, monomerlarning nisbiy reaksiyon qobiliyatini reaksiyalar tezlik konstantalarining nisbati orqali ifodalash mumkin.

Masalan, A monomerining nisbiy reaksiyon qobiliyatini quyidagi nisbatdan:

$$r_1 = \frac{K_{aa}}{K_{ab}}$$

B monomerniki esa:

$$r_2 = \frac{K_{bb}}{K_{ab}}$$

nisbatdan topiladi.

Sopolimerlanish konstantalari yoki monomerlarning nisbiy reaksiyon qobiliyatini r_1 va r_2 lar har bir radikalni qanday tezlik bilan “o‘z” monomeriga va “begona” monomerga birikishini ifodalaydi.

Bu konstantalar bir xil sistemalar uchun o‘zgarmas qiymatga ega bo‘lib, suv, benzol, katalizator va initsiator moddalar ishtirokida ham o‘zgarmaydi. Reaksiya mexanizmi o‘zgarsagina r_1 va r_2 ning qiymatlari o‘zgaradi. Shunday qilib, r_1 va r_2 ning qiymatlaridan foydalanib, boshlang‘ich monomerlaralaralashmasining va hosil bo‘ladigan sopolimerning tarkibini oldindan hisoblab chiqarish mumkin. Buning uchun quyidagi tenglamadan foydalaniladi:

$$C = \frac{(p - 1) + \sqrt{(1 - p)^2 + 4pr_1r_2}}{2r_1}$$

Bu yerda:

C – reaksiya uchun olingan monomerlarning molyar nisbatlari;

p – sopolimer tarkibidagi monomer bo‘g‘inlarining molyar nisbatlari.

r_1 va r_2 ning qiymatlarini (6) tenglamaga qo‘ysak quyidagi tenglama olinadi:

$$\frac{d(A)}{d(B)} = \frac{(A)}{(B)} - \frac{r_1(A') + (B')}{r_2(B') + (A')}$$

7

Bu tenglama sopolimerning differensial tarkibi $\left(\frac{d(A)}{d(B)}\right)$ ning aralashmadagi A va B monomerlar konsentratsiyasi bilan bog‘ligigini, ya’ni sopolimerning tarkibini ifodalaydi. (7) tenglamani integrallallasak A_{pol} va B_{pol} aniqlanadigan formula hosil bo‘ladi:

$$\frac{A_{pol}}{B_{pol}} = \frac{(A)}{(B)} - \frac{r_1(A) + B}{r_2(B) + A}$$

8

Bu tenglamadan ko'rinadiki, sopolimerning tarkibi monomerlaralashmasining tarkibidan farq qiladi va r_1 hamda r_2 ning qiymatlariga bog'liq bo'ladi. r_1 va r_2 ning qiymatini aniqlash uchun odatda, A va B monomerlar aralashmasidan hosil bo'lgan olimer tarkibini bilish kifoyadir.(8) tenglamadagi ko'paytuvchi $\frac{A_{pol}(A)}{B_{pol}(B)}$ ni tenglamaning chap tomoniga ko'chirilsa va tenglamani umumiy maxraj bilan yoyib yuborilsa, quyidagi tenglama kelib chiqadi:

$$\frac{A_{pol}(A)}{B_{pol}(B)} - \frac{r_1(A) + (B)}{r_2(B) + (A)}$$

9

$$r_2 A_{pol}(B)^2 + A_{pol}(B)(A) = r_1 B_{pol}(A)^2 + B_{pol}(A)(B)$$

So'nggi tenglamadagi noma'lumlarni o'ng tomonga o'tkazish va tenglamaning ikkala tomonini $B(A)^2$ ga bo'lishnatijasida r_1 va r_2 lar aniqlanadigan tenglamalar olinadi:

$$\left| \frac{A_{pol}}{B_{pol}} \right| - 1 \frac{(B)}{(A)} = r_1 - \frac{A_{pol}}{B_{pol}} \left[\frac{(B)}{(A)} \right]^2 r_2$$

Quyida r_1 va r_2 larning har xil qiymatlariga bog'liq bo'lgan IV xususiy holni ko'rib chiqamiz.


I hol. $r_1 = 1$; $r_2 = 1$, ya'ni ikkala monomerning erkin radikallab har ikki monomer molekulalarini bir xil tezlik bilan biriktirib oladi. Demak, har bir monomerning erkin radikali "o'z" monomerini ham, "begona" monomerlarni ham bir xil tezlik bilan biriktiradi.

Bu holda (9) tenglamaning o'ng tomoni 1 ga teng, ya'ni sopolimerning tarkibi monomerlaralashmasi tarkibidan farq qilmaydi. Har ikkala monomerning konsentratsiyasi o'zaro teng bo'lganda, polimer zanjirida A va B monomerlar bo'g'ini tartibsiz ravishda takrorlanadi:

$$\dots - ABBAABABAAABBA - \dots$$

II hol. $r_1 \rightarrow 0$; $r_2 \rightarrow 0$, ya'ni har ikkala monomer radikali faqatgina "begona" monomer molekulasini biriktiradi. Bu holda $\frac{A_{pol}}{B_{pol}}$ qiymat 1 ga yaqinlashib, sopolimerzanjirida A va B monomerlar bo'g'inalarinining soni bir xil bo'ladi. Demak, sopolimerning tarkibi boshlang'ich monomerlar

aralashmasining tarkibiga bog'liq bo'lmaydi, monomerlarning takrorlanishi esa quyidagi tartibda bo'ladi:



III hol. $r_1 > 1$; $r_2 \rightarrow 0$ ya'ni A' va B' radikallar faqatgina A monomer molekulalarini biriktirishga intiladi. Bunda:


$$\frac{A_{pol}}{B_{pol}} = \frac{(A)}{(B)} r_1$$

Bu holda dastlabki monomerlar aralashmasida B monomerning miqdori ortiq bo'lganda ham sopolimer zanjirida A monomer bo'g'inlari ko'p bo'ladi:



IV hol. $r_1 > 1$; $r_2 > 1$, ya'ni har ikkala polimer radikali "begona" monomer molekulasiga qaraganda "o'z" monomeri molekulasini ko'proq biriktirib oladi. Ammo bunday hol amalda deyarli uchramaydi va har ikkala monomerning nisbiy aktivlik koeffitsientlari (r_1 va r_2) 1 dan yuqori qiymatga ega bo'lgan hol shu vaqtgacha uchratilmagan. r_1 va r_2 larning qiymati 1 dan yuqori bo'lganda har ikkala monomer o'zining gomopolimerlarini hosil qiladi va sistema 2 gomopolimerning oddiy aralashmasidan iborat bo'lib qoladi.


Ba'zi moddalar oddiy sharoitda polimerlanmasa ham, sopolimerlanish reaksiyasiga kirisha oladi. Jumladan, shu vaqtga qadar malein angidridning gomopolimeri ma'lum emas, ammo u stirol bilan quyidagicha tuzilgan sopolimer hosil qiladi:



4.4. Monomerlar va sopolimerlar tarkibining o'zaro bog'liqligi

Sopolimerlanish reaksiyasida monomerlarning reaksiyon qobiliyati gomopolimerlanishdagi kabi monomerlarning kimyoviy tuzilishiga, undagi o'rindbosarlar va qo'sh bog'larning qutblanish ta'siriga bog'liqdir.

Quyidagi 4.1-rasmida r_1 va r_2 ning qiymatlari har xil bo'lgan bir necha sopolimer sistemalarning tarkibi ifodalangan.



Aralashmadagi M_2 miqdori, mol ulush

4.2-rasm. Monomer aralashmasi sopolimer tarkibining bog'liqligi.

1 – egri chiziq ($r_1 = 0,1$; $r_2 = 1,0$) B monomer aktiv bo'lgandagi sopolimerlanish jarayonini ifodalaydi.

2 – egri chiziq esa ($r_1 = 1,0$; $r_2 = 0,1$) A monomer aktiv bo'lgandagi sopolimerlanish jarayonini ifodalaydi.

3 – egri chiziq r_1 va r_2 ning qiymatlari o'zaro teng bo'lgan sopolimerlanish jarayonini ifodalaydi (masalan, $r_1 = r_2 = 0,135$).

4 – egri chiziq r_1 va r_2 ning qiymatlari o'zaro teng va 1 dan katta bo'lgandagi sopolimerlanish reaksiyasini ifodalovchi nazariy chiziq, ya'ni bunday hol tajribada shu vaqtgacha uchratilmagan. Tajriba yo'li bilan topilgan nisbiy aktivlik koeffitsientlarining ko'paytmasi har doim 1 dan kichik yoki teng bo'ladi.

Quyidagi 4.1-jadvalda sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan sopolimerlarning monomerlari uchun r_1 va r_2 ning qiymatlari keltirilgan.


4.1-jadval.

Ba'zi monomerlarning sopolimerlanish konstantasi.

Sopolimerlanuvchi monomerlar va ularning konstantalari			
A	B	r_1	r_2
Stirol	Butadien	0,78	1,39
Akrilonitril	Butadien	0,05	0,35

Vinilxlorid	Vinilatsetat	1,68	0,23
Stirol	Metilmetakrilat	0,52	0,46
Vinilidenxlorid	Vinilxlorid	4,5	0,2

Sopolimerlanish reaksiyasidan foydalanib, fazoviy tuzilishdagi to'rsimon sopolimerlar hosil qilish mumkin. Buning uchun reaksiyaga kirishuvchi monomerlarning birida ikkita qo'sh bog'bo'lishi lozim. Bunga missol qilib ionitlar olishda ko'p ishlataladigan sopolimerlardan stirol va divinilbenzol sistemasini keltirish mumkin.



Bunday sopolimerlarda divinil yoki diolefinlar miqdorining ko‘pa-yishi bilan sistemadagi molekulalararo ko‘ndalang bog‘larning soni ham ortadi va polimerning eruvchanligi yo‘qoladi.

Ko'pchilik monomerlar o'zaro sopolimerlanmay, balki alohida – alohida polimerlanib, polimerlaralaralashmasini hosil qilishi mumkin. Bunday polimerlar aralashmasini sopolimerdan farq qila olish muhim ahamiyatga ega. Sopolimer hosil bo'lganligini tekshirish usullaridan biri, sopolimerni erituvchi moddalarda tekshirishdan iborat. Agar sopolimerlanishda hosil bo'lgan modda polimerlarga qaraganda ko'pchilik erituvchilarda erisa, bu sopolimerlanish reaksiyasi hosil bo'lganligidan darak beradi. Ammo sopolimerni eritmadan fraksion cho'ktirish usuli muhimdir. Bu usul bilan ikki xil polimerni toza holda ajratib olish mumkin. Umuman, sopolimerni oddiy polimerlar aralashmasidan farqlashning yana bir qaneha usullari bor. Masalan, stirol va butadien sopolimerlanganda to'rsimon tuzilishdagi makromolekulalar hosil bo'lishi sopolimer hosil bo'lganligini bildiradi. Chunki stirol va butadien ayrim holda polimerlanganda to'rsimon makromolekulalar hosil qilmaydi.

4.5. Blok sopolimerlar

So‘nggi yillarda yuqori molekulyar birikmalarning xossalari yaxshilash maqsadida, payvand va blok sopolimerlar sintez qilish usullaridan tobora keng foydalaniłmoqda.

Blok sopolimerlar makromolekulalari chiziqsimon tuzilishga ega bo‘lib, ikki yoki undan ortiq xil monomerlar bo‘g‘inidan tashkil topgan bo‘ladi. Bunday sopolimer kimyoviy tarkibi jihatidan rasmiy sopolimerlarga o‘xshasa ham makromolekulasidagi monomer qoldiqlari ning turli xil joylashishi jihatidan ulardan farqlanadi. Ikki xil monomer molekulasidan tashkil topgan rasmiy sopolimerlarda elementar bo‘g‘inlar zanjir bo‘ylab tartibsiz birikkan bo‘ladi. Blok polimerlarda esa makromolekulalar o‘zaro kimyoviy bog‘lar bilan ulangan ikki xil yaxlit polimer zanjirlaridan tuzilgan bo‘ladi.

Agar ikki xil monomer molekulalarini A va B bilan belgilasak, oddiy sopolimer va blok sopolimerlar makromolekulasini sxematik ravishda quyidagicha tasvirlash mumkin:

... – AABAABBAABABBABBAAABABBAAB – ...

Oddiy sopolimer

... – AAAAAAAAABBBBBBBBBBBB – ...

Blok sopolimer

Bu ikki sopolimerning kimyoviy tarkibi bir xil A va B monomerlardan tashkil topgan bo‘lsa ham, monomer bo‘g‘inlarining zanjir bo‘ylab turli tartibda joylashganligi tufayli, ularning barcha xossalari bir – biridan tubdan farq qiladi.

Sxemada A va B lar turli xil monomer bo‘g‘inlarini ifodalaydi. Amalda blok va payvand sopolimerlar deyarli tayyor polimerlardan olinadi, ularni sintez qilishda esa, ko‘pincha, chiziqsimon polimerlardan va vinil monomerlaridan foydalaniładi. Payvand va blok sopolimerlanish jarayonlarini amalga oshirish uchun asosan makromolekula tarkibida turli aktiv markazlar (makroradikallar, peroksid, gidroksil, karboksil, amin guruhlar, qo‘sish bog‘lar va h. k.) hosil qilish va bu markazlarga ikkinchi polimer molekulasini ularash lozim. Agar bu aktiv markazlar makromolekulaning uchida bo‘lsa – blok sopolimer va aksincha, aktiv markazlar zanjirning o‘rtasi qismida bo‘lsa, payvand sopolimerlar hosil bo‘ladi.

Amalda bunday aktiv markazlar bir vaqtning o‘zida makromolekulaning uchlarida ham, o‘rtasi qismida ham hosil bo‘lishi mumkin. Shuning

uchun payvand va blok sopolimerlanish jarayonlarida, ko‘pincha, har ikkala polimer ham hosil bo‘ladi. Biroq, maxsus usullardan foydalanib, ularni alohida – alohida sintez qilish ham mumkin. Bundan tashqari, payvand va blok sopolimerlar oddiy sopolimerlardan o‘zining eruvchanligi bilan ham farqlanadi. Shu sababli, fraksion eritish usulidan foydalanib, ularni bir – biridan ajratib olish ham mumkin. Biroq blok va payvand sopolimerlanish jarayonlari bilan bir qatorda sistemada gomopolimerlanish reaksiyasi ham boradi. Olingen polimerlar aralashmasi esa payvand sopolimer va gomopolimer aralashmasidan iborat bo‘ladi. Odatta payvand sopolimerni gomopolimerdan selektiv erituvchi moddalar vositasida ajratib olinadi.


Blok sopolimer, asosan, ikki yoki undan ortiq chiziqsimon polimer yoki chiziqsimon polimer bilan monomerlarning o‘zaro ta’siri natijasida hosil bo‘ladi.

Amalda blok sopolimer quyidagi yo‘llar bilan sintez qilinadi:

- a) ikki xil polimer makromolekulalari turli yo‘llar bilan makroradikallarga aylantiriladi va bunday makroradikallarni o‘zaro biriktirish natijasida blok sopolimer hosil qilinadi;
- b) biror polimer makromolekulalarini aktivlashtirish yo‘li bilan makroradikallar hosil qilinadi, so‘ngra bu makroradikallarga ikkinchi xil monomer ta’sir ettirib blok sopolimer olinadi;
- c) makromolekulalarining uchlaridagi funksional guruhlari turlicha bo‘lgan ikki xil polimer makromolekulalarini o‘zaro kondensatlanish reaksiyasiga kiritish bilan ham chiziqsimon blok sopolimer hosil qilinadi.

Ma‘lumki, yuqori molekulyar birikmalarga issiqlik turli nurlar, masalan, ultrabinafsha, infraqizil nurlar, bundan tashqari elektron, neytron va hokazo ta’sir ettirilsa yoki yuqori molekulyar birikmalarni yanchib qorishtirilsa, makromolekulalar sekin–asta makroradikallarga aylanadi. Hosil bo‘lgan bu makroradikallar shu muhitda mavjud bo‘lgan turli moddalar (asosan havo kislороди) bilan birikib, qaytadan to‘yingan makromolekula ga aylanadi yoki makroradikallar o‘zaro birikishi ham mumkin. Makroradikallarning rekombinatsiyalanishi deb ataladigan bunday ulanish jaronida, polimer zanjiri uzayib, uning o‘rtacha molekulyar massasi ortadi. Polimerni yanchish, maydalash, ishqalash kabi mexanik yo‘llar bilan ham polimerda makroradikallar vujudga keltiriladi. Demak, bunday jarayon kislородсиз muhitda o‘tkazilganda makroradikallarning o‘zi ham bir – biri bilan birika oladi. Ayni vaqtida ikki xil polimer aralashtirilib yanchilgan bo‘lsa, ulardan blok sopolimer hosil bo‘ladi. Shuni ham aytib o’tish ke-

rakki, polimerning polimerlanish darajasi qanchalik katta bo'lsa, makromolekulalarning parchalanishi ham shunchalik oson bo'ladi. Mexanik yo'llar bilan makroradikallar hosil qilish va ularning rekombinatsiyalashidan foydalanib, turli gomopolimerlardan blok sopolimer olish usuli sanoatda qo'llanila boshlandi. Buning uchun chiziqsimon ikki xil polimer aralashmasini kislorodsiz muhitda (vakuumda yoki azot atmosferasida) shiddatli ravishda qorishtiriladi. Natijada aralashmadagi makromolekulalar parchalanib, makroradikallarga aylanadi. Makroradikallar esa qaytadan rekombinatsiyalaniib, yangi polimer zanjirlarini hosil qiladi. Bunda ikki xil makroradikal o'zaro rekombinatsiyalansa, chiziqsimon yangi blok sopolimer hosil bo'ladi. Shu usulda amalga oshiriladigan reaksiyalarni quyidagicha ifodalash mumkin:



Keyingi vaqtarda makroradikallarni blok sopolimerlash yo'li bilan polistirol va tabiiy kauchuk, polistirol va polibutadien, polistirol va poliakrilonitril, polistirol va polimetilmekatrilat, polistirol va polietilen, polimetilmekatrilat va poliizobutilen kabi blok sopolimerlar sintez qilinmoqda.



Shuni ham aytib o'tish kerakki, blok sopolimerlash jarayonida sistemada hosil bo'lgan makroradikallarning bir qismi rekombinatsiyalashmasligi ham mumkin, natijada boshlang'ich gomopolimerlarning bir qismi dastlabki holatda saqlanib qoladi. Agar makroradikallardagi aktiv markaz zanjirning uchida emas, balki o'rta qismida bo'lsa, blok sopolimer bilan bir qatorda payvand sopolimerlar ham hosil bo'ladi.

Polimerga biror boshqa monomer molekulalari qo'shib yanchilsa (tuyilsa) ham blok sopolimer hosil bo'ladi. Chunki sistemada ishtirok etayotgan monomer molekulalarining polimerlanishi uchun makroradikallarning hosil bo'lishi kifoyadir. Hosil bo'lgan makroradikallar o'ziga muhitdagi monomer molekulalarini osonlik bilan biriktirib oladi va polimerlanish jarayonini boshlab yuboradi. Bu xildagi blok sopolimerlanish reaksiyasida ham hosil bo'lgan makroradikallar o'zaro rekombinatsiyalishi mumkin.


Lekin ularning o‘zaro birikishiga nisbatan monomer molekulalarini biriktirib olish osonroq, chunki makroradikallarning diffuziyalanish tezligi shu muhitdagi monomerlarning diffuziyalanish tezligiga qaraganda juda kam bo‘ladi.

Monomerni makroradikallar ishtirokida polimerlash natijasida ikki, uch va undan ortiq bloklardan tashkil topgan makromolekulalar hosil bo‘ladi. Agar polimerlanish jarayonida zanjirning o‘sishdan to‘xtashi ikki makroradikalning rekombinatsiyalanishi natijasida sodir bo‘lsa, uch blokdan iborat makromolekula olinadi. Bunday reaksiyalarni quyidagi tenglama bilan ifodalash mumkin:



Aktiv markazning hosil bo‘lishi:




Zanjirning o‘sishi:




Zanjirming uzilishi:




Blok sopolimerlarni sintez qilishni osonlashtirish maqsadida, oson parchalanuvchi polimerlardan ham foydalanish mumkin. Masalan, poliftalilperoksid bir oz qizdirilsa, reaksiyaga kirisha oladigan bimakroradikallar hosil bo‘ladi:



Agar poliftailperoksid biror monomer ta'sirida termik parchalansa, hosil bo'lgan bimakroradikallar shu monomerning polimerlanishida init-siatur vazifasini bajaradi. Natijada o'rta qisimi poliftalil peroksid va ikki yon tomoni boshqa polimer zanjiridan iborat uch blokli makromolekula hosil bo'лади:





Agar polimer molekulalari uchida brom va shunga o'xshash beqaror atomlar bo'lsa, bu makromolekulalarni nur yordamida makroradikallarga aylantirish oson. Demak, shunday polimerlarga nur ta'sir ettirish vaqtida sistemaga oz miqdorda monomer qo'shilsa, blok sopolimerlar hosil bo'ladi. Blok sopolimer sintez qilishning bu usulini quyidagicha ifodalash mumkin:




Bulardan tashqari, biron monomerning polimer va initsiator ishtiroki-da polimerlanishi paytida zanjirning uzatilishi sababli blok sopolimer hosil bo‘lishi mumkin.

Makromolekulalar uchidagi funksional guruhlarning o'zaro kondensatlanishi natijasida ham turli xil blok sopolimerlar olinishi mumkin. Amalda bunday blok sopolimerlar molekulyar massasi uncha katta bo'limgan (100000 gacha) gomopolimerlardan olinadi. Chunki kondensatsion polimerning molekulyar massasi qancha kam bo'lsa, undagi funksional guruhlarning miqdori, ya'ni makromolekulaning reaksiyon qobiliyatini shuncha ko'p bo'ladi.

Masalan, poliefir yoki poliamidni sintez qilish vaqtida ikki negizli kislotaning molyar miqdori diaminning molyar miqdoriga nisbatan ortiqroq olinsa, hosil bo‘lgan polimerning molekulyar massasi unchalik katta bo‘lmaydi, zanjirlarning uchidagi karboksil guruhlarning umumiy soni esa keskin ortadi. Bunday poliefir va poliamidlarning funksional guruhlari hisobiga blok sopolimerlanish jarayonini olib borish juda oson:



Shunga o‘xshash, stirol yoki metakril kislota vodorod peroksid va ikki valentli temir tuzi ishtirokida polimerlansa, uchida gidroksil guruhlar bor makromolekula hosil bo‘ladi:



Uchida funksional guruhlar bo‘lgan turli xil makromolekulalarni o‘zaro yoki ikki negizli kislota va diizosianatlar bilan «tikish» natijasida blok sopolimer hosil qilish mumkin.

4.6. Tabiiy tolalar va to‘ldiruvchilar yuzasida payvand sopolimerlanish


Payvand sopolimerlar asosan chiziqsimon biror polimer makromolekulasining yoniga boshqa chiziqsimon polimer zanjirini ulash yoki biror monomerni unga *payvand polimerlash* natijasida hosil qilinadi. Amalda payvand sopolimerlar quyidagi usullar bilan sintez qilinadi:

a) monomerning polimerlanish reaksiyasi biror polimer ishtirokida olib borilsa, zanjirning uzatilishi natijasida dastlabki polimer tarkibida radikal, ya’ni payvand sopolimerlanish markazi hosil bo‘ladi;

b) polimer makromolekulalarini oldindan yorug‘lik, turli nurlar, elektron, neytron va h.k. ta’sirida aktivlantirib, so‘ngra ularga monomer ta’sir ettirilsa, payvand sopolimer hosil bo‘ladi;

c) polimer makromolekulasi tarkibiga aktiv markazlar hosil qila oluvchi atom yoki guruuhlar kiritib, ularni parchalash yo'li bilan ham payvand sopolimerlanish markazlarini hosil qilish mumkin.

Ma'lumki, monomerlarning polimerlanish jarayonida zanjirning uza tilishi makromolekulalarning tarmoqlanishiga sabab bo'ladi. Demak, bior monomerni polimer makromolekulalari ishtirokida polimerlab ham uni tarmoqlantirish, ya'ni payvand sopolimer hosil qilish mumkin. Bunda monomerni polimerlashdan oldin muhitdagi makromolekulalar initsiatorlar ta'sirida makroradikallarga aylantiriladi. Bu makroradikallar esa polimerlanish reaksiyasini boshlab beradi. Reaksiya makromolekulaning aktiv markazida boshlangani tufayli, hosil bo'layotgan yon zanjirlar dast labki makromolekulaga kimyoviy bog'lar bilan ulangan bo'ladi. Bunday reaksiyalarni quyidagicha ifodalash mumkin:



Tabiiy tolalar yuzasida funksional aktiv monomerlarning payvand sopolimerlanishi ularning va ular asosidagi to'qimachilik materiallarining xossalarni maqsadli modifikatsiyalash imkonini beradi. Bunda olinadigan maxsus (olvbardosh, gidrofob yoki liofob) materiallarning barqarorligi oddiy apretlash usuli bilan olinadigan materiallarga qaraganda ancha yaxshi bo'ladi.

Mineral to'ldiruvchilar yuzasida monomerlarning payvand sopolimerlanishi mineral-organik kompozitsion materiallar olishning eng samarali usullaridan biridir. Bunda to'ldiruvchining sintetik polimer makromolekulalari bilan kimyoviy bog'langanligi materialning fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalarni tubdan yaxshilanishiga sabab bo'ladi.

Payvand sopolimerlanishning eng asosiy kamchiliklaridan biri, polimerlanish jarayonida ko'p miqdorda dast labki monomerning gomopolimeri hosil bo'lishidir. Bundan tashqari, payvand sopolimerlanishda

zanjirning uzatilishi polimer va monomerning tabiatiga, ularning o‘zaro nisbatiga, initsiatorning aktivlik darajasiga va shu kabi xilma-xil omillariga ham bog‘liq.

Payvand polimerlanishning ikkinchi usuli makromolekulani monomer molekulalari ishtirokida aktivlashdir. Aktivlash yorug‘lik.y – nurlari kabi fizik va mexanik ta’sirlar vositasida amalga oshiriladi. Bunday ta’sirlar makromolekuladan ayrim atom yoki guruhlarni chiqarib yuborib, bu guruhlarni aktiv makroradikalga aylantiradi. Polimerning aktiv markazlari da polimerlanish jarayoni boshlanganidan so‘ng dastlabki polimer zanjiri tarmoqlana boshlaydi. Bunda hosil bo‘lgan tarmoqlar o‘zining tabiatini va kimyoviy tarkibi jihatidan asosiy zanjirdan tubdan farqlanadi.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, barcha aktiv markazlar ham payvand sopolimerlanish jarayonini boshlab bera olmaydi. Chunki ularning bir qismi quyi molekulyar moddalar bilan birikishi yoki o‘zaro “tiki!lib” qolishi natijasida passiv holga o‘tib qoladi.


Tabiiy kauchuk, polietilen, polistirol, selluloza, poliamidlar va poliefirlarga istalgan vinil monomeri bilan birqalikda, nurlar, elektron va neytronlar ta’sir ettirilsa, payvand sopolimer hosil bo‘ladi.

Polimer va monomer aralashmasiga nur ta’sir etayotgan paytda polimer bilan bir vaqtida monomer ham aktivlanib, anchagina gomopolimer hosil bo‘ladi. Shuning uchun so‘nggi yillarda dastlab polimerning o‘zini nur ta’sirida aktivlash, so‘ngra unga monomer ta’sir ettirib, payvand sopolimer olish usuli topildi. Agar aktivlanuvchi polimer oddiy sharoitda shishasimon holatda bo‘lsa, uning tarkibidagi makroradikallar uzoq vaqtgacha o‘zining aktiv radikallarini saqlab qoladi. Demak, bunday polimerlarni oldin turli vositalar bilan aktivlab, so‘ngra ularga vinil monomerlari ulanadi.


Makroradikallari oddiy sharoitda barqaror bo‘ladigan polimerlardan biri poliakrilonitril bo‘lib, undagi aktiv markazlarni hatto miqdoriy tahlil qilish ham mumkin.

Payvand sopolimerlanishning yana bir usuli dastlabki makromolekula tarkibiga initsiator vazifasini bajara oluvchi funksional guruhlar, to‘yin-magan bog‘lar, galoid atomlari, peroksid, gidroperoksid, diazometan, di-tiokarbon kabilar kiritishdir. Bu guruhlar issiqqlik, turli nurlar va kimyoviy moddalar ta’sirida osongina parchalanib, makromolekulaning ba’zi qismalarida aktiv markazlar hosil qila oladi. Masalan, stirolni polimerlash paytda unga ozgina bromstirol aralashtirilsa, hosil bo‘lgan polistirol makromolekulalari tarkibida brom atomlari bo‘ladi. Polimer tarkibida uchlasmchi uglerod atomlari bo‘lsa, bu atomlar turli oksidlovchilar (ozon, kislород,


perkislotalar va h.k.) ta'sirida gidroperoksid guruhgaga aylanadi. Ko'pchilik karbozanjirli va geterozanjirli yuqori molekulyar birikmalardagi uglerod atomlari havo kislorodi va turli nurlar ta'sirida oksidlanib, gidroperoksid guruhlar hosil qiladi. Turli geterozanjirli polimerlar tarkibidagi funksional guruhlar (gidroksil, karboksil, aminaldegid va h.k.) ham tegishli sharoitlarda aktiv markaz vazifasini bajara oladi. Chunki makromolekula tarkibidagi funksional guruhlar oddiy sharoitda barqaror bo'lib, qizdirish, nur ta'sir ettirish va hokazolar natijasida parchalanadi hamda radikallarga aylanadi. Polistirol tarkibidagi brom atomlarining ultrabinafsha nurlar ta'sirida ajralib chiqishi natijasida aktiv markaz paydo bo'ladi. Agar shu vaqtida sistemada biror vinil monomeri mavjud bo'lsa, quyidagi sxemaga muvofiq payvand sopolimerlanish reaksiyasi sodir bo'ladi:




Tarkibida qo'sh bog' bo'lgan polimerlar (turli dienlarning polimer va sopolimerlari) tegishli sharoitda vinil monomerlari bilan quyidagicha payvand sopolimerlanish reaksiyasiga kirishadi:



So'nggi vaqlarda payvand sopolimerlar polikondensatlanish reaksiyasi orqali sintez qilinmoqda. Buning uchun geterozanjirli va karbozanjirli yuqori molekulyar birikmalardagi hidroksil va aminoguruhlardan foydalaniлади. Masalan, polivinil spirit, poliuretan, poliamid, selluloza va kraxmal kabi polimerlarga etilenoksid, akrilonitril kabi monomerlar ta'sir ettirib, payvand sopolimerlar hosil qilinadi.



Ba'zi payvand sopolimerlar ikki gomopolimerni molekulyar birikma vositasida ulash yo'li bilan ham hosil qilinadi. Bunday payvand sopolimer tarkibida amin, hidroksil, karboksil, aldegid kabi guruhlar bo'lgan polimerlardan olinadi. Masalan, polivinil spirit makromolekulalariga uchida xlorangidrid guruhi bo'lgan poliefir molekulalari ta'sir ettirilsa, quyidagi reaksiyaga binoan payvand sopolimer hosil bo'ladi:



Sxemadan ko'rinish turibdiki, polivinil spirit makromolekulasiga bir vaqtning o'zida poliamid va poliefir makromolekulalarini payvandlasa ham bo'ladi.

Umuman, organik birikmalar kimyosidagi qonuniyatlardan foydalanib, tarkibida gidroksil, aldegid, keton, amin va nitroguruhlar bo‘lgan gomopolimerlardan xilma-xil payvand sopolimerlar sintez qilish va ularning xossalari istalgancha o‘rganish mumkinligi bu usuldan kela-jakda keng foydalanishga imkon beradi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:


1. Qanday reaksiyalar sopolimerlanish reaksiyalari deyiladi?
2. Sopolimerlanish reaksiyalari qanday sodir bo‘ladi?
3. Sopolimerlanish reaksiyalarining qanday turlari mavjud?
4. Sopolimerlanish reaksiyalaridagi o‘sish bosqichi polimerlanishdagidan qanday farq qiladi?
5. Mayo-Lyuis tenglamasi va sopolimerlanish konstantalarining polimerlar sintezidagi ahamiyati nimalardan iborat bo‘ladi?
6. Monomerlarning polimerlanish reaksiyasidagi reaksiyon qobiliyati qaysi omilga bog‘liq?
7. Sopolimerlanish reaksiyalari asosida sintez qilingan polimerlar qanday amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi?
8. Sopolimerlanish reaksiyasidan foydalanib, fazoviy tuzilishdagi to‘rsimon sopolimerlar hosil qilishni izohlang.
9. So‘nggi yillarda yuqori molekulyar birikmalarning xossalari yaxshilash maqsadida qanday sopolimerlar sintez qilish usullaridan tobora keng foydala-nilmoqda?
10. Payvand va blok sopolimerlar qanday sintez qilinadi?
11. Payvand va blok sopolimerlarnig o‘ziga xos xossalari nimadan iborat?

V BOB. POLIKONDENSATLANISHREAKSIYALARI

5.1. Polikondensatlanish reaksiyalarining ahamiyati va mohiyati. Polikondensatlanish reaksiyalarining turlari


Reaksiyada suv, spirt, ammiak, xlorid kislota va shunga o'xshash quyi molekulyar moddalar ajralib chiqishi bilan boradigan polimerlanish jarayonlari *polikondensatlanish* deyiladi.


Polikondensatlanish reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan polimerlarning elementar tarkibi quyi molekulyar moddalar ajralgani sababli reaksiya uchun olingan monomerlar tarkibidan farq qiladi. Bunday reaksiyaga kirisha oladigan monomerlar tarkibida ikki xil funksional guruh o'zaro reaksiyaga kirishib, molekula qoldiqlarini bir-biriga bog'laydi. Polikondensatlanish reaksiyasiga tarkibida ikki yoki undan ortiq turli funksional guruhlari bor moddalar kirisha oladi. Agar bir moddaning ikki xil funksional guruhlari o'zaro reaksiyaga kirishib, polimer hosil qilsa, bunday reaksiya *gomopolikondensatlanish* deyiladi. Bu jarayonni quyidagi umumiy tenglama bilan ifodalash mumkin:



Bunda: $\alpha-A-b-$ monomer bo'g'ini; α va $b-$ monomer bo'g'inining funksional guruhlari; $ab-$ reaksiyada ajralib chiqqan kondensat, ya'ni quyi molekulyar modda.


Bunday reaksiyaga aminokislotalar, aminospirtlar va oksikislotalarning polikondensatlanishi misol bo'la oladi. Misol tariqasida, aminokapron kislotadan polikaprolaktam hosil bo'lishini ko'rib chiqaylik:







Har qaysi elementar reaksiya natijasida ikki xil funksional guruhli va barqaror oraliq moddalar hosil bo'ladi. Bu oraliq moddalarni reaksiya muhitidan ajratib olish mumkin. Polimer molekulalarining o'sishi, yuqorida ko'rsatilganidek, yangi monomer molekulalarining birikishi hisobigagina emas, balki trimer, tetramer va polimer molekulalarining o'zaro birikishi orqali ham borishi mumkin.



Agar reaksiyada funksional guruhlari bir xil bo'lgan bifunksional guruhli ikki modda qatnashsa, bu reaksiya *geteropolikondensatlanish* deyiladi:




Geksametilendiamin va adipin kislotadan poligeksametilenadipinamid hosil bo'lishi bunday reaksiyaga misol bo'la oladi:



Bifunksional birikmalarning polikondensatlanishi natijasida faqat chiziqsimon polimerlar hosil bo'ladi. Bunday jarayon chiziqsimon polikondensatlanish deyiladi. Reaksiyaga kirishayotgan monomerlarning birida uch va undan ortiq funksional guruhlarning bo'lishi polikondensatlanish reaksiyasini murakkablashtiradi va to'rsimon hamda fazoviy tuzilishga ega bo'lgan makromolekulalar hosil qiladi va bu jarayon fazoviy polikondensatlanish deb ataladi. Bunday jarayonga misol tariqasida glitserin va ftal kislotaning polimerlanishini ko'rsatishumumkin. Bu reaksiyada avval glitserin bifunksional guruhli modda sifatida qatnashib, chiziqsimon polimer -gliftal smolalar hosil bo'ladi:




Pirovardida esa yuqoriroq temperaturada glitserinning uchinchi funksional guruhni ham reaksiyaga kirishib, fazoviy tuzilishiga ega bo'lgan polimer hosil qiladi:




Hozir yuqori molekulyar birikmalarni (poliamidlar, poliefirlar, fenol-formaldegid, mochevinaformaldegid, melaminformaldegid, kreminiy organik polimerlar) sintez qilishda polikondensatlanish reaksiyalaridan samarali foydalaniilmoqda.

Poliamidlar hosil qilish uchun monomer molekulasi tarkibida amin va karboksil guruhlari yoki ularning angidrid, xlorangidrid, murakkab efir, amid, nitril, gidrazid va boshqa hosilalari bo'lishi shartdir. Bunday reaksiyalar orasida tarkibida amin va karboksil guruh bo'lgan birikmalarni yoki aminokislotalarni polikondensatlanishi amalda ko'p qo'llaniladi.


Misol tariqasida ω -aminokapron, ω -enant, ω -undekan kislotalarning polikondensatlanish reaksiyalarini keltirish kifoyadir. Bunday reaksiyalar umumiy holda quyidagicha yoziladi:





Poliamidlarni sintez qilishda diaminlarni dikarbon kislotalar bilan polikondensatlanishi muhim bo'lib, Karozers uning nazariy va amaliy qonuniyatlarini topgan. Alifatik diaminlar va dikarbon kislotalar quyidagi umumiy reaksiya bo'yicha poliamidga aylanadi:




Dikarbon kislotaning murakkab efirlari ham bunday reaksiyaga kirishi mumkin. Biroq, bu holda reaksiya natijasida suv emas, balki spirit ajralib chiqadi:




Ikki va ko‘p atomli spirlarni ikki va ko‘p asosli kislotalar bilan polikondensatlab, poliefirlar hosil qilinadi:



Bunday reaksiyalarda dikarbon kislotalar o‘rniga ularning murakkab esfirlarini ishlatalish ham mumkin. Bu holda hosil bo‘lувчи quyi molekulyar alifatik spirt reaksiya sferasidan osonroq yo‘qotilishi mumkinligi uchun olinadigan polimerning molekulyar massasi birmuncha yuqori bo‘ladi. Sanoatda polietilentereftalat sintez qilishda ham dimetiltereftalatdan foydalaniladi. Bunday reaksiyani umumiy holda quyidagicha yozish mumkin:



Poliefirlar sintez qilishda dikarbon kislotalarning dixlorangidridlaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Biroq, bu reaksiya vaqtida xlorid kislota ajralib chiqishi sababli reaksiya, asosan, ikki suyuqlik aralashmasi chegarasida olib borilishi kerak:



Moddalar tarkibidagi funksional guruhlar miqdorining polikondensatlanish jarayoniga ta’sirini quyidagicha izohlash mumkin.

Agar funksionallik, ya’ni molekula tarkibidagi funksional guruhlar sonini f , reaksiyaga kirishuvchi moddadagi funksional guruhlarning umumiy sonini N_0f , boshlang‘ich modda molekulalarining sonini N_0 , reaksiyaga kirishmagan molekulalar sonini N bilan belgilasak, reaksiyaning tugallanish darajasi (R) quyidagicha ifodalanadi:

$$P = \frac{z(N_0 - N)}{N_0 f} \quad (1)$$

O‘rtacha polikondensatlanish koeffitsienti N/N ni n bilan belgilasak, tenglama quyidagi holga keladi:

$$P = \frac{2}{f} - \frac{2}{nf} \quad (2)$$

Bu tenglamada polikondensatlanish koeffitsienti n ning qiymati juda katta bo‘lsa,

$$P = \frac{2}{f} \quad (3)$$

bo'ladi.



Demak, moddaning funksionalligi $f = 2$ bo'lsa, $R = 1$ bo'ladi, ya'ni bu holda faqat chiziqsimon makromolekula hosil bo'lishi mumkin. Moddaning funksionalligi $f = 3$ yoki $f=4$ bo'lganda, tugallanish darajasining qiymati $2/3$ yoki $1/3$ bo'lib, uch o'lchamli makromolekula hosil bo'ladi.

Ammo yuqorida aytiganidek ba'zan 3 funksional guruhlari moddalar reaksiyada o'zining 2 funksional guruhlari bilan qatnashadi. Bunga misol qilib yuqorida glitserin va ftalangidridning nolikondensatlanishi keltirilgan edi.

Drinberg moddalarning funksionalligi bilan uning molekulyar massasi o'ttasidagi bog'lanishni ifodalash uchun «*solishtirma funksionallik*» tushunchasini taklif qildi. Bunga binoan solishtirma funksionallik funksional guruhlari soni moddaning molekulyar massasi nisbatiga teng. Shunday qilib, solishtirma funksionallik moddaning reaksiyaga kirishish qobiliyatini ifodalarydi, uning qiymati qanchalik katta bo'lsa, moddaning reaksiyaga kirishish tezligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Polikondensatlanish reaksiyasi a'lo sifatli polimerlar sintez qilishga imkon beradi, shuning uchun uning sanoatdag'i ahamiyati tobora o'sib bormoqda. Hozirgi vaqtida ko'pchilik polimer materiallar polikondensatlash usuli bilan olinmoqda va ishlatilmoxda. Masalan, poliamidlar, poliefirlar, mochevina-formaldegid, fenol-formaldegidsmolalar faqatgina polikondensatlanish yo'li bilan olinadi. Bundan tashqari, alifatik va aromatik diaminlarni ikki negizli kislotalar bilan polikoidensatlash natijasida sintetik tola va plastmassalar sanoatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan poliamidlar sintez qilinmoqda.

Poliefirlarning ba'zilari, masalan, polietilenereftalat juda mustahkam bo'lib, sintetik tola- lavsan ishlab chiqarishda asosiy xomashyodir. Polietilenereftalat tereftal kislota va etilenglikolni polikoidensatlash yo'li bilan olinadi:



Ko‘p atomli spirtlar bilan ikki negizli kislotalardan sintez qilingan ba’zi poliefirlar reaksiyaga kirishuvchi moddalarini o‘zaro ma’lum nisbatda olinishiga qarab, chiziqsimon tuzilishga ega bo‘lishi mumkin. Ammo bunday jarayonlar natijasida barcha funksional guruhlar sarflanmaydi. Shuning uchun ham bunday chiziqsimon polimerlar ishlatilishdan oldin maxsus usul va reagentlar bilan fazoviy tuzilishga aylantiriladi.

Shuni ham aytish kerakki, reaksiyaga kirishuvchi moddalar qanday tuzilganligiga qarab, siklik tuzilishga ega bo‘lgan quyi molekulyar moddalar hosil bo‘lishi ham mumkin. Demak, bu reaksiyalarda sikllanish va chiziqsimon polimerlar hosil bo‘lishi bir vaqtda davom etishi mumkin. Ko‘p funksionalli moddalarda bu ikki reaksiyaning tezligi, asosan, monomerlarning tuzilishiga, ularning konsentratsiyasiga hamda temperaturaga bog‘liqdir.



Sikllanish reaksiyasi ayniqsa, aminokislotalar va oksikislotalarning polikondensatlanishida sodir bo‘ladi. Agar aminokislotaning amino va karboksil guruhlari orasidagi metilen CH_2 guruhlarning soni beshtadan kam bo‘lsa, reaksiya natijasida siklik tuzilishga ega bo‘lgan quyi molekulyar moddalar hosil bo‘ladi. Metilen guruhlari soni beshga teng bo‘lganda, masalan, ϵ -aminokapron kislota polikondensatlanganda yetti burchakli sikllar va polikaprolaktam molekulalari hosil bo‘lishi kuzatilgan. Agar metilen guruhning soni oltita yoki undan ko‘p bo‘lsa, faqat yuqori molekulyar moddalar hosil bo‘ladi.

Moddalarning sikllanish xususiyati ulardagi valentlik burchagining tuzilishiga bog‘liqdir.


Ma’lumki, uglerod atomining valentlik burchagi $109^{\circ}28'$ ga teng. Ammo 3 va 4 tomonli sikllarda burchaklar $109^{\circ}28'$ dan anchagina kam bo‘ladi va shu tufayli ular uzilishga hamda normal qiymatga ($109^{\circ}28'$) ega bo‘lishiga intiladi. Besh, olti tomonli sikllardagi burchaklarning qiymati uglerod atomining valentlik burchagi qiymatiga juda yaqin bo‘lganligi uchun bunday sikllar barqaror bo‘ladi. Haqiqatan ham bunday siklik moddalar yuqori temperaturada ham chiziqsimon molekulalarga aylanmaydi. 7, 8 va undan ko‘p tomonli sikllarda valentlik burchaklari $109^{\circ}28'$ dan ortiqligi tufayli ular yuqoriroq temperaturada chiziqsimon makromolekulalarga aylanadi. Bunga kaprolaktamdan polikaprolaktam, enantlaktamdan polienantlaktamning olinishi misol bo‘la oladi. Shunday qilib, bifunksional monomerlarning sikllanish xususiyatlari funksional guruhlar orasidagi masofaga yoki metilen guruhlarning soniga bog‘liq.

Chiziqsimon polikondensatlanishning eng muhim xususiyatlaridan biri, reaksiyaning muvozanat holatiga kelishidir. Masalan, naylon smolasining olinishini ko'rib chiqaylik: reaksiyaning boshlanish paytida adipin kislota bilan karboksil guruhlar miqdori geksametilendiamindagi amin guruhlar soniga teng bo'ladi, ya'ni polikondensatlanishning asosiy shartlari dan biri – ekvimolekulyarlik bajariladi.

Reaksiya boshlanganida, dastlab, bir molekula adipin kislota bilan karboksil guruhlar miqdori geksametilendiam bilan birikadi va natijada dimer hamda suv hosil bo'ladi:



Hosil bo'lgan dimerda ham ikki funksional guruh bo'lib, ular o'zaro reaksiyaga kirishadi va dimer tetramerga aylanadi:




Hosil bo'lgan tetramerda ham ikki funksional guruh bor. Ikkita tetramer reaksiyaga kirishganda ulardagi funksional guruhlar o'zaro birikib, oktamer hosil bo'ladi. Oktamer ham shu yo'sinda o'sishni davom ettiradi. Reaksiya shu tariqa davom etsa, polikondensatlanish oxirida faqatgina bitta gigant makromolekula paydo bo'lib, unda ham atigi ikkita funksional guruh bo'lar edi. Biroq, polikondensatlanish reaksiyasiga natijasida bunday gigant molekula paydo bo'lmaydi, balki molekulyar massasi 30000–50000

atrofida bo‘lgan makromolekulalar hosil bo‘ladi. Gigant molekulalar hosil bo‘lmasligiga sabab shuki, bunday reaksiyada o‘sish reaksiyasi bilan bir qatorda uzilish reaksiyasi ham sodir bo‘ladi, o‘sish va uzilish reaksiyalaring tezliklari o‘zaro tenglashgach muvozanat qaror topadi.

5.2. Polikondensatlanishning yo‘nalishi, polikondensatlanishga temperaturaning ta’siri

Polikondensatlanish qaytar kimyoviy jarayon, bir vaqtida teskari jarayon (gidroliz, alkogoliz, asedoliz va boshqa) ham sodir bo‘ladi. Polikondensatlanish yo‘nalishi temperaturaga bog‘liq bo‘lib, muvozanat holatida polimerning molekulyar massasi deyarli o‘zgarmaydi, chunki bunda molekulaning ma’lum vaqt oralig‘idagi o‘sish tezligi uning o‘sha vaqt ichidagi uzilish tezligiga teng bo‘ladi. Shuning uchun ham muvozanat holatiga keladigan reaksiyalar qarama-qarshi tomonga yo‘nalgan strelkalar bilan ifodalanadi:





Demak, polikondensatlanish natijasida hosil bo‘ladigan polimerning molekulyar massasi unchalik katta bo‘lmasligiga bu reaksiyada muvozanat qaror topishi sababdir.

Umuman, polikondensatlanish ko‘p bosqichli reaksiya bo‘lib, har qaysi bosqichda hosil bo‘lgan moddani sof holda ajratib olish mumkin. Har qaysi bosqichdagi reaksiyaning tezligi muvozanat konstantasining o‘zgarishiga bog‘liq temperaturaning ko‘tarilishi bilan muvozanat konstantasi o‘ng tomonga, temperatura pasayganda esa chap tomonga siljydi. Shuning uchun ham ko‘pchilik polikondensatlanish reaksiyalari polimerlanish jarayoniga qaraganda yuqoriroq temperaturada olib boriladi. Masalan, poliamidlar 260-275°C da, poliefirlar esa 180-240°C da sintez qilinadi. Ajralib chiquvchi suv yoki boshqa quyi molekulyar moddaning miqdori ham kimyoviy muvozanat holatida o‘zgarmay qoladi.

Reaksiya muhitidan suvni yo‘qotish va shu yo‘l bilan polimerning molekulyar massasini orttirish usuli amalda ko‘p ishlataladi. Buning uchun polikondensatlanish reaksiyاسining so‘nggi bosqichi 1-5 mm simob ustüniga teng bosimda olib boriladi, ya’ni hosil bo‘ladigan suv bug‘i reaksiyon muhitdan yo‘qotib turiladi va natijada muvozanat o‘ngga siljydi.

Aks holda, polikondensatlanish jarayonida ajralib chiqqan suv qaytadan gidrolizlanish reaksiyasiga kirishib, polimerning molekulyar massasini kamaytirib yuboradi:




Polikondensatlanish jarayoni ekzotermik bo‘lganligi uchun temperaturani oshirish polimerning parchalanishi, ya’ni monomerlarning hosil bo‘lishi tomonga siljitaladi. Shuning uchun temperaturani to‘g‘ri tanlash reaksiya tezligini kamaytirmagan holda, polimer unumini oshirish imkonini beradi.

Reaksiyada katalizatorlar ishlatish faqat reaksiyaning tezligini oshiradi va tezroq kimyoviy muvozanat qaror topishiga olib keladi. Katalizator sifatida mineral kislotalar, tuzlar, metall oksidlari, aromatik sulfokislotalar ishlatiladi. Fenol va formaldegid, mochevina va formaldegidlarning polikondensatlanish jarayonlarida ishqor hamda kislotalar katalizatorlik vazifasini bajaradi.

5.3. Polikondensatlanish kinerikasi

Polikondensatlanish reaksiyasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri uning bosqichli va qaytarishligidir. Polikondensatlanish reaksiyasining har bir bosqichi bir tartibdagи o‘rin almashinish reaksiyasidan iborat bo‘lib, har bir bosqichining sodir bo‘lishida bir xil miqdorda energiya sarf qilinadi. Har bir bosqich uchun lozim bo‘lgan energiya shu bosqichdan ilgariji va keyingi bosqichlardagi reaksiyalarga bog‘liq emas. Shuning uchun ham polikondensatlanish reaksiyasining tezligini reaksiyon muhit temperaturasini oshirish yoki kamaytirish orqali o‘zgartirish mumkin (5.1-rasm).

Istalgan bosqichda reaksiyani sekinlatish uchun reaksiyon idishni (reaktorni) sovitish kifoyadir. Polikondensatlanish reaksiyasining bu xususiyatidan polimerlar texnologiyasida keng foydalaniladi. Ayniqsa, texnologik ishlab chiqarishning birinchi qismida quyi temperaturada chiziqsimon polimer hosil qilinib, uni yuqori temperaturada eriydigan va suyuqlanmaydigan uch o‘lchamli holatga keltiriladi.



5.1-rasm. Polikondensatlanish darajasining temperaturaga bog'liqligi.

Polikondensatlanish reaksiyasi vaqtida bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tgan sari oraliq polimer birikmalarning molekulyar massasi tobora ortib boradi va ekvimolekulyar miqdorda quyi molekulyar birikma ajraladi. Polikondensatlanish reaksiyasi qaytar jarayon bo'lgani uchun reaksiya boshlanganidan ma'lum vaqt o'tgach, muvozanat holati qaror topadi, ya'ni bunda har bir bosqichda polimerning hosil bo'lishi tezligi uning shu bosqichdagi parchalanish tezligiga baravarlashadi. Muvozanatni yuqori molekulyar birikma hosil bo'lishi tomoniga siljitim uchun undagi ajraluvchi quyi molekulyar birikmalarini reaksiyon muhitidan chiqarib turish zarur.

Monomer moddalarning funksional guruhlari oraliq jarayonlarda qatnashmay, balki faqat polikondensatlanish reaksiyasi uchun sarflanadi hamda reaksiyaning tezligi hosil bo'lgan makromolekulalarning o'lchamlariga bog'liq emas, deb faraz qilib, polikondensatlanish jarayonining tezligini ifodalovchi ikkinchi tartibli reaksiya tenglamasini tuzish mumkin:

$$V_1 = K_n(1 - Rt)^2 \quad (1)$$

bunda:

K_n – polikondensatlanish reaksiyasining tezlik konstantasi,

R_t – t vaqt ichida reaksiyaga kirishgan moddaning funksional guruhlari miqdori (reaksiya uchun olingan birikmalar funksional guruhlarining umumiy miqdori 1 ga teng deb qabul qilingan).

Yugorida aytganimizdek, polikondensatlanish qaytar reaksiyadir. Massalan, polikondensatlanish vaqtida sodir bo'ladigan gidroliz reaksiyasini ko'rib chiqaylik.

Gidroliz tezligi V_2 ham ikkinchi tartibli reaksiya tenglamasi bilan ifodalananadi:

$$V_2 = K_2 R_t \cdot w \quad (2)$$

bunda:

K_2 – gidroliz reaksiyasining tezlik konstantasi,

w – t vaqt ichida hosil bo‘lgan quyi molekulyar moddaning miqdori.

Demak, polimerning t vaqt ichida hosil bo‘lish tezligi quyidagicha aniqlanadi:


$$Vt = V1 - V2 = Kn(1 - Rt)_2 - K_2 Rt w \quad (3)$$

Qaytar jarayonlarning muvoza $K = \frac{K_n}{K_2}$ – standasi –


ga tengligi uchun yuqoridagi tenglamani quyidagicha yozish mumkin:

$$V_1 = Kn(1 - P_1)^2 \frac{K_n P_1 W}{K} = Kn \left[(1 - P_1)^2 - \frac{P_1 W}{K} \right] \quad (4)$$

Bu tenglamadan ko‘rinadiki, polikondensatlanish reaksiyasining muvozanati, ayniqsa, reaksiyon muhitdagi quyi molekulyar birikma miqdoriga bog‘liqidir:



Reaksiyani polimer hosil bo‘lish tomoniga yo‘naltirish uchun reaksiyon muhitdagi quyi molekulyar modda miqdorini kamaytirish zarur. Agar hosil bo‘luchchi quyi molekulyar birikmani reaksiyon muhitdan mutlaqo yo‘qotilsa, u holda polikondensatlanish darajasi monomer tamom bo‘lguncha ortib boradi, pirovardida birgina gigant makromolekula hosil bo‘lar edi. Amalda polikondensatlanishda oddiy kondensatlanish reaksiyalariga o‘xshash komponentlardan birining molyar miqdorini oshirish vositasi bilan reaksiyaning qaytarilishini yo‘qotish mumkin emas. Chunki komponentlardan birining molyar nisbati ikkinchisiniidan ortiq bo‘lganda polikondensatlanish reaksiyasiga kirishuvchi funksional guruqlar miqdoriy nisbatlarining tenglik sharti buzilib, jarayon tez orada to‘xtab qoladi (5.2-rasm).



Komponentlarning molyar nisbati

5.2-rasm. Bifunktional reagentlar molyar nisbatining polimerlanish darajasiga bog'liqligi.


Ya'ni bu jarayon matijasida molekulaning ikkala uchidagi funksional guruhlar bir xil bo'lib qoladi. Polikondensatlanish jarayonida hosil bo'luchchi quyi molekulyar moddalarni ajratib olish polimerning molekulyar massasi, ya'ni uning qovushqoqligi ortishi bilan tobora qiyinlashib boradi. Shuning uchun ham polikondensatlanish vaqtida harorat sekin-asta va to'xtovsiz orttirib boriladi. Chunki temperatura ko'tarilgan sari reaksiyon moddaning qovushqoqligi kamaya borib, quyi molekulyar moddaning ajralish tezligi ortib boradi.

Biroq temperaturani to'xtovsiz oshira borish ham polimerning parchalanishiga yoki termodestruksiyaga uchrashiga sabab bo'ladi. Bu hollarda esa quyi molekulyar moddalarni ajratib olish uchun bosim kamaytiriladi, ya'ni reaktorda vakuum hosil qilinadi. Amino bunda ham monomerlardan birining oson bug'lanishi sababli funksional guruhlarning nisbiy tenglik sharti buziladi va natijada molekulyar massasi kam bo'lgan polimer hosil bo'ladi (5.3-rasm).

Polikondensatlanish reaksiyasining har bir bosqichida makromolekulalar dastlabki monomer molekulasi bilan yoki o'z-o'zi bilan reaksiyaga kirishishi mumkin. Polikondensatlanish jarayoni tugallanishiga yaqin qolganda boshlang'ich monomerlarning konsentratsiyasi keskin kamayib, makromolekulalarning o'zaro birikishi ham kam sodir bo'ladi.

Makromolekulalarning uzunlashishi bilan reaksiyon muhitning qovushqoqligi ortadi va makromolekulalarning harakatchanligi kamayadi, binobarin, ularning o'zaro to'qnashishi ham kamayib ketadi. Bunday

Vaqtda reaksiya butunlay to'xtab qolmasligi uchun reaksiyon muhitning temperaturasini oshirish zarur.



5.3-rasm. Geksametilendiamin va adipin kislotaning turli haroratda polikondensatsianish kinetikasi:

$^{\circ}\text{C}$: 1 - 140; 2 - 145; 3 - 150; 4 - 167; 5 - 175; 6 - 180.

Ekvimolekulyar nisbatdagi monomerlar aralashmasidan sintez qilingan chiziqsimon polimerlarning o'rtacha polikondensatlanish darajasi P quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$P = \frac{1}{1 - \eta}$$

bunda η -reaksiyaning tugallanish darajasi yoki polikondensatlanish unumi.

Reaksiyaning tugallanish darajasi ortganda polikondensatlanish darajasi ham ortib boradi (5.1-jadval).


5.1-jadval.

Polikondensatlanish unumi (η) va darajasining (P) bog'liqligi.

η	0	50	80	90	95	99	99,9
P	1	2	5	10	20	100	1000

Polimerning o'rtacha molekulyar massasi $M_n = PM_0$ ga teng bo'lib. bunda M_n – polimer elementar bo'g'inining molekulyar massasini ifodelaydi.

5.4-rasmda polimerlarning o‘rtacha molekulyar massasi bilan reaksiyaning tugallanish darajasi orasidagi bog‘lanish ko‘rsatilgan.



5.4-rasm. Polikondensatlanishning tugallanish darajasiga qarab polimerning molekulyar massasi bo‘yicha taqsimlanish grafigi

Polikondensatlanish jarayonining barcha oraliq davrlarida reaksiyon aralashmaning tarkibi reaksiyaga kirishmagan monomerlar miqdori reaksiyada hosil bo‘lgan polimer molekulalari va ozroq miqdordagi quyi molekulyar moddalar yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Polikondensatlanish jarayonida yuqori temperaturaning qo‘llanilishi reaksiya mahsulotlarining qisman destruksiyanishiga sabab bo‘ladi, natijada makromolekulalarda yangi funksional guruhlar hosil bo‘lishi mumkin.

Makromolekula tarkibidagi bunday o‘zgarishlar polikondensatlanish jarayonini to‘xtatib qo‘yadi.


Shunday qilib, polikondensatlanish jarayonining to‘xtashiga muvozanat holatning o‘rnatalishi, funksional guruhlar nisbiy tenglik shartining (ekvivalentligining) buzilishi, reaksiyon aralashma qovushqoqligining ortishi va makromolekula harakatchanligining sustlashishi sabab bo‘ladi.

Polikondensatlanishda hosil bo‘lgan mahsulot murakkab aralashmalardan iborat bo‘lib, uning tarkibida polimer fraksiyalari, quyi molekulyar moddalar va qisman boshlang‘ich monomer molekulalari bo‘lishi mumkin.

Polikondensatlanishda hosil bo‘lgan mahsulotlarni tekshirish natijasida ularning tarkibida quyi molekulyar fraksiyalarning og‘irlik miqdori yuqori molekulyar fraksiyalarning og‘irlik miqdoridan juda kamligi aniqlangan (5.5-rasm).


Ammo shuni ham qayd qilib o'tish kerakki, polikondensatlanish usulida eng yaxshi sharoitlarda olingen polimerning molekulyar massasi, odatda 30000 dan oshmaydi. Polikondensatlanish reaksiyasini oddiygina qaytar reaksiya deb atash mumkin emas, chunki unda murakkab jarayonlar bo'ladi. Ko'pdan-ko'p o'tkazilgan tajribalar va tekshirishlar natijasida polikondensatlanish vaqtida makromolekulalarning destruksiyalanish jarayonlarining ham sodir bo'lishi isbot qilingan (5.6-rasm).

Polimerlarning destruksiyalanish jarayonlari polikondensatlanish reaksiyasida ishlataladigan monomerlar tarkibiga qarab, kislotta ta'sirida (atsidoliz), aminlar ta'sirida (aminoliz), suv ta'sirida (gidroliz), spirtlar ta'sirida (alkogoliz) va hokazolar ta'sirida sodir bo'lishi mumkin.




5.5-rasm. Poliamidning molekulyar massasi bo'yicha taqsimlanish grafigi.

Sopolikondensatlanish reaksiyalari. Har xil tuzilishga ega bo'lgan polimerlarni sintez qilish hamda polimerlarda yangi xossalalar vujudga keltirish uchun ikki va undan ortiq polifunksional birikmalarni birga polikondensatlash, boshqacha aytganda, sopolikondensatlash usuli keng tarqagan. Shu usulda hosil qilingan makromolekula tarkibi-da reaksiyada qatnashgan barcha komponentlarni uchratish mumkin. Biroq, makromolekula zanjirida bunday bo'g'lnarning takrorlanish tartibi tasodifiy bo'lib, ularning makromolekuladagi miqdori, asosan, reaksiyada qatnashgan komponentlarning molyar nisbatlariga, ularning nisbiy aktivligiga va polikondensatlanish jarayonining sharoitiga bog'liqidir.




5.6-rasm. Poliamid ikki fraktsiyasi aralashmasining gidrolizlanish jarayoni: 1 mol. massasi 50 000; 2 mol. massasi 100 000 bo‘lgan poliamid.

Ayrim hollarda makromolekulasida monomer bo‘g‘inlari ma’lum taribda joylashgan sopolimer ham hosil qilish mumkin. Buning uchun ikki monomerdan quyi molekulyar gomopolimer olinib, so‘ngra ular uchinchi monomer ishtirokida bir–biri bilan biriktiriladi. Bunday jarayon, odatda, blok sopolikondensatlanish deyiladi. Bunga poliefirlarni diaminlar bilan, poliamidlarni dikarbon kislotalar bilan reaksiyaga kiritish misol bo‘la oлади. Masalan, dastlab adipin kislota va etilenglikolni polikondensatlab, polietilenadipinat, ya’ni poliefir olinadi. Agar bu reaksiyada adipin kislotalarning molar miqdori, etilenglikolning molar miqdoriga qaraganda bir oz ortiqroq olingan bo‘lsa, u holda hosil bo‘lgan poliefir bloklarining ikkala uchida karboksil guruuhlar bo‘ladi.



Olingan poliefirga karboksil guruhi ning miqdoriga ekvivalent miqdorda diamin qo‘shib, qayta qizdirilsa, blok sopolimer, ya’ni poliefiramid hosil bo‘ladi:



Diaminlar va dikarbon kislotalardan hosil qilingan quyi molekulyar poliamidlarga quyi molekulyar og'irlikka ega bo'lgan poliefir bloklarini biriktirish natijasida poliamidoefirlar olinadi. Hosil bo'lgan makromolekulalarda poliamid va poliefir bloklari ma'lum tartibda joylashgan bo'ladi. Odatda, polikondensatlanish jarayonlarini katalizatorlar ishtiroki-da tezlatish mumkin. Katalizatorlar sifatida organik kislotalardan chumoli kislota, sirkal kislota va benzoy kislota; anorganik kislotalardan esa gidroxlorid va sulfat kislotalar ko'p ishlatiladi. Polimochevina smolalar sintez qilishda karbonat tuzlar ishlatish ham yaxshi natijalar beradi.

Sopolikondensatlash jarayoni ikkinchi tartibli reaksiya qonunlariga bo'ysunib, undagi funksional guruhlarning reaksiyaga kirishish tezligi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\frac{d(R_x)}{dt} = K_1[R_x][R_y] - \frac{d(R_x)}{dt} = K_2[R_x][R_y] \quad (5)$$

Bu yerda (R_x) , (R_y) va (R_z) turli monomerlar funksional guruhlarning konsentratsiyasi. Yuqoridagi tenglamalarning birinchisini ikkinchisi-siga bo'lsak, quyidagi tenglama olinadi:

$$\frac{d(R_x)}{d(R_x)} = \frac{K_1[R_x]}{K_2[R_x]} \quad (6)$$

Bu tenglamada tezlik konstantalarining nisbati K_1/K_2 ni α orqali va tenglamaning chap tomonidagi $d(R_x)$ ni a' , $d(R_y)$ ni b' va, xuddi shunga o'xshash, tenglamaning o'ng tomonidagi $[R_x]$ ni a va $[R_y]$ ni b orqali belgilab, tenglamani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\frac{a'}{b'} = \alpha \frac{a}{b}$$

Demak, agar α ning qiymati 1 ga teng bo'lmasa, sopolikondensatlash natijasida hosil bo'lgan polimerning tarkibi boshlang'ich monomerlar aralashmasi tarkibidan farq qilishi lozim.

Sopolimer tarkibini hisoblash uchun yuqoridagi tenglamani integral formada ko'chiriladi:

$$\frac{a}{D_0} = \frac{b^a}{b_0} \quad (7)$$

Bu yerda: a va b – boshlangich monomerlar aralashmasidagi funksional guruhlar – R_v va R_x ning konsentratsiyalaridir.

5.4. Polikondensatlanish reaksiyalarining amaliy usullari

Polikondensatlanish quyidagi usullar bilan amalgalashadi: suyuqlanmada, eritmada, o'zaro aralashmaydigan ikki suyuqlik chegarasida, qattiq fazada.


Suyuqlanmada polikondensatlanish 200–280°C temperaturada so'dir bo'ladi. Bu usuldan monomerlar va polimerlar yuqori temperaturaga chudamli bo'lganda foydalaniladi. Destruksiya va boshqa qo'shimcha reaksiyalarning oldini olish uchun polikondensatlanish jarayoni inert gaz atmosferasida olib boriladi va vakuumda tugallanadi. Shunda qo'shimcha quyi molekulyar birikmalarning reaksiyon aralashmadan to'liqroq chiqib ketish imkoniyati yaratiladi. Aralashmani bir tekisda qizdirilishi bu usulning zaruriy shartidir.

Eritmada polikondensatlanishni suyuqlanmaga nisbatan 20–50°C pastroq temperaturada olib boriladi. Bu jarayonda monomerlarning maxsus erituvchisi, katalizator va, kerak bo'lganda, quyi molekulyar moddalarni bog'lab oladigan akseptor modda talab etiladi.


Qattiqnonomerlarning aralashmasi qattiq fazada polikondensatlanish reaksiyasiga uchrashi mumkin. Temperatura monomerlarning suyuqlanish temperaturasiga yaqinlashganda va kristalliarning o'lchamlari kattalashganda reaksiya tezligi keskin ortib ketadi. Bunday reaksiya avtokatalitik xarakterga ega.

Poliamidlar, poliefirlar va boshqa polikondensatsion polimerlar sintez qilishning muhim usuli – polikondensatlanish jarayonini o'zaro aralashmaydigan suyuqliklar chegarasida olib borishdir. Bu usulga binoan poliamid yoki poliefirlar sintez qilish uchun lozim bo'lgan kislotalar avval dixlorangidridga aylantiriladi. Hosil bo'lgan dixlorangidridlarning reaksiyaga kirishish qobiliyati shunchalik kattaki, ular diamin va ikki atomli spirtlar bilan oddiy temperatura va bosinda ham reaksiyaga shiddatli kirishadi. Bunday reaksiya vaqtida ham polikondensatlanish reaksiyasining asosiy sharti bo'lgan ekvimolyarlik muhim rol o'yaydi, reaksiyada ajralib chiqqan xlorid kislota esa makromolekulalarni qisman parchalab


yuboradi. Polikondensatlanish reaksiyasi quyidagi sxema bo'yicha bora-di:



yoki




Bunday reaksiya o'zaro aralashmaydigan ikki suyuqlik chegarasida olib borilsa, yuqorida kamchiliklar bo'lmaydi. Buning uchun ikki asosli kislotalar dixlorangidridi suvgaga aralashmaydigan suyuqliklar, ya'ni benzol, toluol va shunga o'xshash moddalarda eritiladi. Ikkinci komponent - diamin yoki ko'p atomli spirtlar esa suvda eritiladi. Bu ikki eritmani asta-sekin bir-biriga qo'shsak, o'zaro aralashmaydigan ikki qatlama hosil bo'ladi. Bu ikki qatlama chegarasida dixlorangidrid va diamin molekulalari uchrashib, polikondensatlanish reaksiyasiga uchraydi va xlorid kislota ajralib chiqadi. Natijada aralashma suyuqliklar chegarasida poliamid parda hosil bo'ladi va reaksiya muvozanat holatiga keladi. Agar ikki suyuqlik chegarasidagi poliamid parda reaksiya muhitidan tortib olinaversa, ularning o'rnidagi yangidan-yangi pardalar hosil bo'lib, reaksiyaning muvozanati o'ngga siljiydi. Demak, o'zaro aralashmaydigan ikki suyuqlik chegarasida hosil bo'lgan polimer pardani to'xtovsiz ravishda olib turilsa, reaksiya oxirigacha boradi, ya'ni biror komponent tamom bo'lguncha davomi etadi. Misol tariqasida geksametilendiamin va adipin kislotanining dixlorangidrididan naylon smolasi olinishini ko'rib chiqaylik:



Amalda hosil bo'layotgan xlorid kislotani yo'qotish va shu bilan reaksiya muvozanatini o'ngga siljish uchun diaminning suvdagi eritmasiga natriy yoki kaliy ishqorlari ham qo'shiladi. Bu reaksiyaning afzalligi shundaki, u, birinchidan, oddiy temperatura va bosimda boradi, ikkinchidan, bunday reaksiya vaqtida yuqori molekulyar polimerlar hosil bo'ladi, uchinchidan, komponentlar o'zaro qat'iy ekvimolekulyar miqdorda bo'lishi shart emas, chunki polikondensatlanish jarayoni suyuqliklar

chegearasidagi molekulyar sathidagina boradi va sath ekvimolekulyarlik shartini saqlay oladi. O'zaro aralashmaydigan ikki suyuqlik chegearasidagi polikondensatlanish jarayonida hosil bo'lgan polimer, 5.7-rasmida ko'rsatilganidek, yupqa parda tarzida hosil bo'lib, reaksiyon massani shiddatli aralashtirish natijasida polimerni kukunsimon holda ham olish mumkin.

Bu xil polikondensatlash yo'li bilan poliamidlar, poliefirlar, polisulf-foamidlar, poliuretanlar, polimochevinalar va boshqa polimerlarni sintez qilish mumkin.



5.7 – rasm. O'zaro aralashmaydigan ikki suyuqlik chegearasida uzlucksiz polimerlanish moslamasi:

1 - dixlorangidrid; 2 - diamin; 3 - polimer; 4 - gorgich; 5 - sovutgich.

O'zaro aralashmaydigan suyuqliklar chegearasidagi polikondensatlanishning asosiy afzalligi shundaki, bunda suyuqlanish temperaturasi yuqori bo'lgan polimerlar olish mumkin. Chunki bunday jarayon vaqtida birinchidan, parchalanish reaksiyalari oddiy polikondensatlanishdagiga qaraganda deyarli sodir bo'lmaydi. Ikkinchidan, bunday jarayon vaqtida polimer to'g'ridan-to'g'ri tola yoki yupqa parda holida olinishi mumkin.

O'zaro aralashmaydigan ikki suyuqlik chegearasidagi polikondensatlanish jarayonining afzalligi shundaki, jarayon past temperaturada olib boriladi, bu esa polikondensatlanish jarayonida ishlatiishi mumkin bo'lgan monomerlar sonini oshiradi.

Bunday jarayonda yuqori temperaturada beqaror, ya'ni oddiy polikondensatlanish jarayonida parchalanuvchi moddalar ham qatnasha oli-

shi mumkin. Shuningdek, bu jarayonda yuqori molekulyar polimer sintez qilishdagι eng asosiy va murakkab shartlardan biri – ekiyinolekulyarlik shartining saqlanishi shart emas. Shuning uchun ham bu yangi usul boshqa usullarda olinishi qiyin bo‘lgan yoki mutlaqo olinmagan bir qancha yangi polimerlar sintez qilishda juda muhim ahamiyatga ega va bu xil polikondensatlanish jarayonining texnologik jihatdan ko‘p afzalliklari bor.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Polikondensatlanish reaksiyalari qanday sodir bo‘ladi?
2. Polikondensatlanish va polimerlanish reaksiyalarining qanday asosiy o‘xhashligi va farqlari mavjud?
3. Polikondensatlanish reaksiyalarining qanday turlari mavjud?
4. Karozers tenglamasining ahamiyati nimada?
5. Polikondensatlanish reaksiyasining qaytar jarayon ekanligi oqibatlari.
6. Polikondensatlanish reaksiyalariga temperatura qanday ta’sir ko‘rsatadi?
7. Polikondensatlanish unumi va darajasining bog‘liqligi qanday?
8. Nima uchun polikondensatlanish mahsulotining molekulyar massasi polimerlanish mahsulotiga nisbatan kichik?
9. Polikondensatlanish reaksiyasini polimer hosil qilish tomonga siljitim uchun nima qilish kerak?
10. Eritmada va fazalararo polikondensatlanish reaksiyalarining asosiy xususiyatlari nimalar bilan belgilanadi?

VI BOB. POLIMERLARNING KIMYOVİY XOSSALARI

6.1. Polimerlar kimyoviy reaksiyalirining turlari. Funksional guruhlarning kimyoviy xossalari

Barcha yuqori molekulyar birikmalar o‘z makromolekulasining tuzilishiga ko‘ra, organik kimyodagi quyi molekulyar moddalar kabi gidridlash, xlorlash, sulfolash, nitrolash, atsillash, alkillash va boshqa reaksiyalarga kirisha oladi. Bunday reaksiyalar natijasida polimerning xossalari tubdan o‘zgaradi, bu esa o‘z navbatida, bir tur polimerlardan ko‘pgina talablarga javob beruvchi xossalarga ega bo‘lgan ikkinchi tur polimerlar hosil qilishga imkon beradi.

Shunday qilib, polimerlarga organik kimyodagi reaksiyalarni tatbiq etib, makromolekulaning xossalarni o‘zgartirish, ya’ni modifikatsiyalash va shu yo‘l bilan yangi polimer materiallar olish mumkin. Shuni qayd qilib o‘tish kerakki, yuqori molekulyar moddalarning funksional guruhlari hisobiga boradigan, yuqorida aytilgan reaksiyalardan tashqari, ularning o‘ziga xos reaksiyalarini ham bor. Payvand va blok sopolimerlar sintez qilish, makromolekula uzunligini qisqartirish va uzaytirish reaksiyalarini ana shunday reaksiyalar jumlasidandir.

Amalda polimerlarning tuzilishi va xossalarni o‘zgartirish uchun ayrim fizik usullardan ham foydalilaniladi. Makromolekula xossalarni o‘zgartirishning fizik usuli polimerlar uchungina xos bo‘lib, tuzilishni modifikatsiyalash deb ataladi.

Polimer tarkibiga plastifikator, to‘ldiruvchi va boshqalar kiritib, uning xossalarni o‘zgartirish usullari ham bor. Ammo bu usullar maxsus fizik va texnologik usullar bo‘lgani sababli, biz ular ustida to‘xtalib o‘tirmaymiz.

Polimerlarda turli reaksiyalar olib borish, ba’zi polimerlarning tuzilishini aniqlashda ilmiy ahamiyatgagina ega bo‘lib qolmay, balki uning muhim texnologik ahamiyati ham bor. Bunga bir necha misol keltirish mumkin. Chunonchi, makromolekulalarning tuzilishini o‘rganish va unda turli xil o‘zgarishlar olib borish uchun dastlab tabiiy polimerlardan foydalilanilgan. Masalan, sellyulozani nitrolab, organik erituvchilarda erishi, kuchli portlashi va boshqa xossalari jihatidan sellyulozadan farqlanuvchi yangi mahsulot – nitrosellyuloza olingan. Nitrosellyuloza olish reaksiyasini makromolekulalarda olib borilgan reaksiyalarning eng birinchilaridan bo‘lib hisoblanadi. Sirka angidrid ta’sirida sellyulzoza makromolekulasini

atsetillash ham polimerlarni modifikatsiyalash reaksiyasiga misol bo'la oladi. Bu usulda, birinchidan, sellyuloza makromolekulasidagi gidroksil guruhlarning soni aniqlansa, ikkinchidan, hosil bo'lgan atsetilsellyulozadan sun'iy tola, parda va plastmassalar tayyorlanadi.

Makromolekulalardagi gidroksil guruhlarini metillash, benzillash va karboksimetillash kabi reaksiyalar asosida ham sellyulozaning turli-tuman foydali xossalarga ega bo'lgan yangi hosilalari olingan.

Sellyuloza efirlaridan metil sellyuloza va karboksimetil sellyuloza suvda yaxshi eriydi. Shuning uchun undan sanoatda kraxmal, jelatina kabi oziq-ovqat mahsulotlari o'rniда foydalaniлади.

Sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan polivinil spirt ham monomerni to'g'ridan-to'g'ri polimerlab emas, balki polivinil atsetatni gidrolizlash natijasida hosil qilinadi. O'z navbatida, polivinil spirtni turli aldegidlar bilan atsetallab, yangi xil polimerlar – polivinilatsetallar olinadi. Polivinil atsetallar amalda alohida ahamiyatga ega bo'lib, lak va yelimlar olishda ishlataladi.

Har xil kauchulkardan rezina va ebonit olish ham polimerlarni modifikatsiyalashning eng qadimgi usullaridandir. Bu jarayon kauchuk tarkibidagi qo'shbog'larga oltingugurtrning birikishidan iborat bo'lib, natijada makromolekulalar bir-biriga «tikilib» qoladi, ya'ni kauchuk to'rsimon tuzilishga o'tadi.

Polimerlarda ion almashtirish xususiyatini vujudga keltirish jarayoni ham ularni kimyoviy usulda modifikatsiyalash reaksiyalaridandir. Masalan, polistirolga sulfoguruuhlar kiritib, sulfopolistirol-kation almashtiruvchi smola olinadi. Sellyulozaga akril kislotani payvandlab kationit, vinilpiridinni payvandlab anionit xossasiga ega bo'lgan yangi polimer materiallar hosil qilinadi.

Polimerlarni modifikatsiyalashga oid yuqorida keltirilgan misollar ulardagi funksional guruhlarni almashtirish, makromolekulalarni to'rsimon tuzilishga o'tkazish va makromolekulalarning uzunligini oshirish reaksiyalaridan iborat. *Polimerlarni modifikatsiyalash* deb fizik-kimyoviy jarayonlar natijasida ularning xossalari maqsadli o'zgartirilishiga aytildi.

Amalda makromolekulalarning uzunligini qisqartirish yo'li bilan polimerning xossalarni o'zgargirish ham sanoat ahamiyatiga ega. Shuni ham aytilib o'tish kerakki, polimer materiallar ishlatalish paytida turli sabablariga ko'ra, destruksiyalanib, makromolekulalar qisqaradi, bu esa ularning fizik-mezanik xossalari yomonlashishiga olib keladi. Lekin, ko'pincha, polimer moddalarni qayta ishlash jarayonini soddalashtirish maqsadida,

makromolekulalarni qisman destruksiyalash ham zarur bo'lib qoladi. Masalan, sellyuloza efirlarining molekulyar massasini kamaytirish maqsadida, ishqoriy sellyuloza reaksiya oldidan maxsus sharoitlarda ushlab turiladi. Ko'pincha polimerlarning qovushqoqligini kamaytirish uchun ular valiklar vositasida juvalanadi. Buning natijasida polimer qisman destruksiyalaniib, makromolekulalar qisqaradi.

Sellyulozani kislotalar ishtirokida gidrolizlab, quyi molekulyar modda – glyukoza olish gidroliz sanoatida keng qo'llaniladi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, makromolekulalarda turli-tuman reaksiyalar olib borish jarayonida ba'zi qiyinchiliklarga duch kelinadi. Bu qiyinchiliklar quyidagilardan iborat bo'lib, asosan makromolekulalarning tabiatiga va o'zaro joylashilishiga bog'liq bo'ladi:


a) makromolekulalar quyi molekulyar moddalarga nisbatan kam harakatchandir, bu hol ularning reaksiyaga kirishish tezligining kamyishiga sabab bo'ladi;

b) polimerlarda molekulalararo kuchlarning ta'siri katta. Shuning uchun makromolekulalarning bir-biridan ajralib, ikkinchi modda bilan reaksiyaga kirishishi uchun ko'p kuch va vaqt talab etiladi;

c) modifikatsiyalash reaksiyalarini ancha oddiy sharoitlarda olib borish talab qilinadi, aks holda makromolekulalar parchalanib, polimerning dastlabki xususiyatlari yo'qolib ketadi.

Polimerlarni modifikatsiyalash reaksiyalarini geterogen muhitda olib borish bu qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biridir. Polimerlarni modifikatsiyalash reaksiyalari asosan ikki xil bo'ladi. Ulardan biri polimeranalogik o'zgarishlar deb ataladi. Bunday reaksiyalar natijasida makromolekulaning uzunligi, ya'ni o'rtacha polimerlanish darajasi o'zgarmaydi, balki uning kimyoviy tarkibigina o'zgaradi, xolos.

Polimeranalogik o'zgarishlar, asosan, zanjirdagi elementar bo'g'inlar hisobiga ketadi va unda yangi xil funksional guruqlar hosil bo'ladi. Uuman, bu xil reaksiyalarni quyidagicha tasvirlash mumkun:



Modifikatsiyalash reaksiyalarining ikkinchi turi *makromolekulalara-ro reaksiyalar* deb ataladi. Bu reaksiyada polimerning kimyoviy tarkibi kam o'zgaradi, balki uning o'rtacha molekulyar massasi yoki polimerlanish darajasigina o'zgaradi. Agar bunday reaksiyalar vaqtida destruktiv jarayonlar sodir bo'lsa, polimerning molekulyar massasi kamayadi, mak-

romolekulalar orasida yangi kimyoviy bog'lar hosil bo'lsa (payvand va **blok sopolimerlanish**, to'rsimonlanish va hokazolar sodir bo'lsa), polimerlanish darajasi ortadi.


Quyida polimerlarni har ikki xil modifikatsiyalash reaksiyalarini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

6.2. Polimerlarni kimyoviy modifikatsiyalash. Polimeranalogik va ichki molekulyar o'zgarishlar

Polimer makromolekulasining biror quyi molekulyar birikma bilan reaksiyaga kirishishi *polimeranalogik o'zgarish* deyiladi. Polimer tarkibidagi funksional guruhlarni boshqa guruhlar bilan almashtirish reaksiyalarini birinchi marta turli tabiiy va sintetik polimerlarning tuzilishini o'rganish maqsadida olib borilgan. Polimeranalogik o'zgarishlar natijasida polimerning molekulyar massasi va polimerlanish darajasi deyarli o'zgarmaydi, lekin xossalari butunlay o'zgarishi mumkin.


To'yingan uglevodorodlardan tashkil topgan polimerlar oddiy parafinlarga o'xshash, kimyoviy jihatdan inert bo'lganligi sababli oddiy sharoitda va uy temperaturasida reaksiyaga kirishmaydi. Bunday polimerlarning eng birinchi vakili polietilen va polipropilen bo'slib, ular kimyoviy tuzilishi jihatidan oddiy uglevodorodlardan molekulyar massaning kattaligi bilangina farqlanadi. Ular parafinlarga o'xshash turli organik birikmalar bilan kimyoviy reaksiyaga qiyin kirishadi. Masalan, polietilenni yoki polipropilenni xlorlash reaksiyasi yuqori temperaturada yoki maxsus katalizatorlar ishtirokida olib boriladi. Polietilenni xlorlash uchun uni, avvalo, uglerod (IV)-xloridda eritiladi, so'ngra eritmaga 60°C temperaturada xlor gazini karbonat angidrid bilan suyultirilgan holda beriladi, shu sharoitda xlorlangan polietilenda xlorning maksimal miqdori 71% ga yetadi.

Polietilenni xlorlash jarayoni quyidagi sxema bilan ifodalanadi:




Xlorlangan polietilen o'zining fizik-mexanik xossalari jihatdan plastifikatsiyalangan qattiq va mustahkam polivinilxloridga o'xshaydi. Qisman xlorlangan polietilen pardalarda polietilenden olingan pardaga qaraganda oksidlanish jarayoniga chidamlidir.

Xlorlangan polietilen 190°C dan yuqori temperaturada qizdirilganda undan vodorod xlorid ajralib chiqadi va makromolekulalar orasida ko'ndalang bog'lar hosil bo'lib, polimer to'rsimon tuzilishga o'tadi:




Tarkibiga oltingugurt atomlari kiritilgan polietilen kauchukka o'xshash xossaga ega bo'lganligidan, u texnikaning ba'zi sohalarida kauchuk o'rnidagi ham ishlatalidi.

To'yingan uglevodorod zanjiridan tuzilgan polimerlar oksidlantish xususiyatiga ham egadir:




Bunday polimerlarning oksidlana olishi amaliy jihatdan juda muhimdir, chunki ular oksidlanganda kimyoiy aktiv guruh hosil bo'lib, boshqa sirtlarga uning mustahkam yopishishiga sabab bo'ladi.

Polistirol ham uglevodorodlardan tashkil topgan va tarkibida benzol halqasi bo'ladi. Shu sababli polistirol aromatik uglevodorodlarga xos reaksiyalarga kirisha oladi. Masalan, polistirolning dioksandagi eritmasiga sulfat angidrid ta'sir ettirilganda quyidagi sxema bo'yicha sulfopolistirol hosil bo'ladi:




Hosil bo'lgan modda polistioldan farq qilib, suvda yaxshi eriydi va shuning uchun emulgator sifatida ishlatalidi. Bunday moddalarni polimer elektritolitlar deyish ham mumkin. Agar «tikilgan» polistioldagi aromatik halqaga tarkibida oltingugurt atomlari bor guruh kiritilsa, suvda erimaydigan polielektrolit, ya'ni kationitlar hosil bo'ladi. Odatda, «tikil-

gan» polistirol stirol tarkibiga ozgina divinilbenzol monomerini kiritib polimerlash natijasida olinadi. «Tikilgan» polistirolga sulfat kislota ta'sir ettirib, «tikilgan» sulfopolistirol olinadi. Polistirol tarkibidagi aromatik halqaga sulfoguruhning kiritilishi, bu guruh yordamida turli reaksiyalar o'tkazishga imkon beradi. Masalan, sulfoguruhdagi vodorod atomi metall ioni bilan almashinadi, natijada kationit hosil bo'ladi:




Natriysulfopolistirolga kislota eritmasi ta'sir ettirilsa qaytadan sulfopolistirol hosil bo'ladi, ya'ni natriy ioni vodorod ioni bilan almashinadi:



Ko'rsatilgan reaksiyalardagi ion almashinish jarayonlari kationtlarda ro'y beradigan hodisalarni tushuntiradi.

Karbozanjirli polimerlarning texnikada va xo'jalikda ko'p ishlatiladigan vakillaridan biri – vinilxlorid polimeri, ya'ni polivinilxloriddir. Polivinilxloridni xlorlash natijasida, u perxlorvinil deb ataladigan xlorlangan polivinilxloridga aylanadi, uning tarkibida 62–65% xlor bo'ladi. Bu esa polimerning elementar bo'g'iniga qo'shimcha yana bir xlor atomi to'g'ri keladi, deganidir.


Perxlorvinilning formulasi quyidagicha ifodalanadi:




Perxlorvinil polivinilxloriddan farq qilib, atsetonda yaxshi eriydi va qovushqoq eritma hosil qiladi. Bunday atsetonli eritmadan, xlorin tola olinadi. Bu toladan xo'jalikda shifobaxsh kiyimlar tayyorlanadi, texnika da esa kimyoviy reagentlar ta'siriga chidamli materiallar tayyorlanadi.

Polivinilxlorid ishqor bilan gidrolizlansa, to'yinmagan, rangdor mahsulotga aylanadi. Polivinilxloriddagi xlor atomlarini sirkal kislo-

ta qoldig‘iga almashtirib, polivinilatsetat, polivinilatsetatni gidrolizga uchratib esa polivinil spirt olish mumkin. Bu reaksiyalarni quyidagicha ifodalash mumkin:



To‘yinmagan polimerlar quyi molekulyar birikmalarga xos barcha reaksiyalarga kirishadi. Polimerdagi qo‘shbog‘ hisobiga oksidlanish, ozonlanish va boshqa reaksiyalar olib borish mumkin. Bu reaksiyalarning ba’zilaridan amalda to‘yinmagan polimerlarning xossalarni yaxshilash maqsadida foydalaniladi. To‘yinmagan polimerlar vodorod biriktirib olib, to‘yingan polimerlarga aylanadi. Ularga galoidlar, jumladan, brom juda osonlik bilan birikadi. Odatda polimerlarda to‘yinmagan bog‘ borligini aniqlash uchun bromlash usulidan foydalaniladi. Misol tariqasida kau-chuklarning bromlanishini ko’rsatish mumkin:





Bu reaksiya natijasida poli-2,3-dibromizopren hosil bo‘ladi. Bu birikmadagi brom o‘z navbatida, boshqa funksional guruhlarga, masalan, fenol va anilin qoldig‘iga osonlik bilan almashinishi mumkin.



Kauchuklarni xlorlashda qo‘shbog‘ga xlorning birikishi bilan bir qatorda, vodorodning xlorga almashinish jarayoni ham sodir bo‘ladi. Nati-jada politetraxlорizopren hosil bo‘lib, uning tarkibidagi xlorning miqdori 64–65 % gacha etadi.

Xlorlangan kauchuk kislota, ishqor ta’siriga chidamli mahsulot bo‘lgani uchun undan korroziyaga chidamli loklar, bo‘yoqlar va ba’zi shimdiriluvchi suyuqliklar tayyorlanadi.

Polimeranaloygik o‘zgarishlar orqali monomerlari mavjud bo‘ligan yoki beqaror bo‘lgan polimerlarni hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Shunday polimerlardan biri suvda eriydigan polivinil apirtdir. Tarkibida gidrosil guruh bor karbozanjirli polimerlar orasida sanoat ahamiyatiga ega bo‘lganlaridan eng asosiyi polivinil spirtdir. Shtaudinger polivinilatsetatni ishqoriy muhitda gidrolizlab, polivinil spirt olgan:




Bu reaksiyada olingan polivinil spiritning polimerlanish darajasi polivinilatsetatnikidan farq qilmagan. Ana shu polivinil spiritni sirka angidrid ta'sirida atsetillash natijasida esa yana polivinilatsetat hosil bo'lgan:



Bu polivinilatsetatning ham o'rtacha molekulyar massasi dastlabki polivinilatsetatning o'rtacha molekulyar massasiga teng bo'lib chiqadi.


Polivinil spiritda xilma-xil reaksiyalar olib borish mumkin. Polivinil spirit suvda yaxshi eriganligi tufayli undagi gidroksil guruh asosida turli reaksiyalar olib borish osondir. Polivinil spirit quyi molekulyar spirtlarga xos barcha reaksiyalarga kirisha oladi. Polivinil spiritga suyuq ammiak ishtirokida metall holidagi natriy ta'sir ettirilsa alkogolyat, kislota angidridlari ta'sir ettirilganda esa murakkab efirlar hosil bo'ladi. Polivinil spirit dan alkogolyatlar olish, so'ngra uni alkillash reaksiyalarini quyidagicha ifodalash mumkin:



Bu yerda: $R = CH_3; C_2H_5$ va hokazo.

Polivinil spirit chumoli kislota, moy kislota, kroton, benzoy, sulfat, nitrat, xlorsirka va boshqa kislotalar bilan murakkab efirlar hosil qila oladi.


Bu efirlar orasida sulfokislota efirlari, jumladan, benzosulfokislota effri muhim ahamiyatga ega:




Polivinilsulfonatlar xloroform va dixloretanda yaxshi erib, suv, atseton hamda boshqa erituvchilarda erimaydi. Polivinilsulfonatlarning reaksiyaga kirishish qobiliyati juda yaxshi, jumladan, ulardagи sulfokislotalar qoldig'i almashinish reaksiyasiga osonlik bilan kirishadi.

Polivinil spirtga turli aldegidlar ta'sir ettirib olinadigan, polivinilatsetat deb ataladigan moddalar yelim, lak va bo'yoqlar ishlab chiqarishda juda muhim ahamiyatga ega. Bular orasida polivinilformal, poliviniletalanal va polivinil butirallar amalda eng ko'p ishlatiladi. Polivinilformal polivinil spirtni formaldegid bilan, poliviniletanal sirkal aldegid bilan, polivinilbutiral esa moy aldegid bilan atsetallanganda hosil bo'ladi.

Polivinil spirt kislotali muhitda atsetallansa va olingan polivinilatsetalni kislotalar bilan tegishli aldegidlar ishtirokida gidrolizga uchratilsa ham polivinil formal hosil bo'ladi. Atsetallah reaksiyasini quyidagi sxema bilan ifodalash mumkin:




Sellyuloza nitrat va fosfat kislotalar aralashmasi bilan nitrolansa, hosil bo'lgan poliefirning polimerlanish darajasi dastlabki polimernikidan farq qilmaydi:



Amalda sellyuloza namunalarining polimerlanish darajasi va nitrat sellyulozaning molekulyar massasi atsetondagi eritmasining qovushqoqligini o'chash vositasida aniqlanadi.

Polimeranalogik o'zgarishlarning eng oddiy reaksiyalaridan birini polikislotalarda kuzatish mumkin. Masalan, poliakril kislota qo'shilsa, qaytadan poliakril kislota ajralib chiqadi:




Bunday reaksiyalar natijasida ham polimerning o'rtacha molekulyar massasi o'zgarmay qoladi. Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, quyi molekulyar birikmadagi va undan sintez qilingan polimer tarkibidagi funksional guruhlarning organik kimyodagi odaidagi reaksiyalarga kirishish sxemasi va mexanizmlari bir xildir. Bundan foydalanib, amalda makromolekulalarda turli reaksiyalar olib borish va shu bilan polimerning barcha xossalarni modifikatsiyalash mumkin.

Polimeranalogik o'zgarishlarning o'ziga xos xususiyatlari. Chiziqsimon polimerlarda makromolekulalar tarkibidagi barcha elementar bo'g'indarning kimyoiy tarkibi bir xil bo'lganligi tufayli ular turli reaksiyalarga kirishish qobiliyati va tezligi jihatidan bir-biridan farqlanmaydi.

Shuning uchun polimeranologik o'zgarish reaksiyalariga zanjirdagi funksional guruhlar mustaqil ravishda bir vaqtning o'zidayoq kirishadi. Shu sababli, bunday reaksiyalarning sodir bo'lish sxemasini birligina elementar bo'g'inda ifodalash mumkin. Bu narsa, selluloza, polivinil spirt, poliakril kislota kabi polimerlarni efirlash reaksiyalarida yaqqol ko'zga tashlanadi.


Poliakril kislotaning metanol bilan reaksiyaga kirishishi ham quyidagicha ifodalananadi:




Polimeranalogik o'zgarishlar makromolekulalar va polifunksional quyi molekulyar birikmalar orasida ham sodir bo'lishi mumkin. Bunda agar quyi molekulyar birikma bir makromolekuladagi ikki funksional

guruh bilan reaksiyaga kirishsa, makromolekulaning tuzilishi o'zgarmay qoladi. Reaksiyaga boshqa makromolekulalardagi funksional guruhlar ham kirishsa, polimer tarmoqlangan yoki to'rsimon tuzilishga o'tadi.

Polimerlardagi bunday reaksiyalarni polimetakril kislota va uning hosilalari misolida ko'rib chiqamiz. Jumladan, polimerning ikki valentli metallar bilan birikishi natijasida ikki xil mahsulot hosil bo'ladi: reaksiyaga bitta makromolekulaning o'zidagi funksional guruhlar kirishsa, polimerning chiziqsimon tuzilishi o'zgarmay qoladi:



Agar qo'shni makromolekulalardagi funksional guruhlar ham bary ionlari bilan o'zaro ta'sir etsa, polimetakril kislota to'rsimon tuzilishga o'tadi:



Bu misollardan polimeranalogik o'zgarishlarning xuddi organik kimyodagi odatdagи reaksiyalar kabi borishi bilan bir qatorda, o'zlariga xos xususiyatlari ham borligi ko'rinish turibdi. Bunga sabab makromolekulalarning bir xil bo'g'indan tashkil topganligi va ularning o'zaro katta kuch bilan ta'sir etib turishidir.


Bu hol polimerning reaksiyaga chala kirishib, ba'zi bo'g'inlarining polimeranalogik o'zgarishga uchrashiga, boshqalarining esa dastlabki

shaklida qolishiga sabab bo‘ladi. Natijada makromolekulalarning ba‘zilari reaksiyaga ko‘proq, boshqalari esa kamroq kirishadi va hosil bo‘lgan yangi polimer ularning aralashmasidan iborat bo‘lib qoladi.


Agar elementar bo‘g‘in tarkibida bir necha funksional guruh bo‘lsa, polimeranalogik o‘zgarish jarayoni yanada murakkablashadi.

Ma’lumki, sellyuloza monoatsetati tarkibidagi gidroksil guruhlarning uchdan bir qismi efirlangan sellyulozadan iborat. Sellyuloza kimyosida bunday mahsulot efirlanish darajasi $\gamma = 100$ bo‘lgan murakkab efir deb yuritiladi. Lekin o‘rtacha efirlanish darajasi yuzga teng sellyuloza efirini turli tuzilishlarda ifodalash mumkin, ya’ni:


a) barcha elementar bo‘g‘inlardagi faqat bittadan birlamchi yoki faqat ikkilamchi gidroksil guruhlar bir tekisda efirlangan sellyuloza:



b) barcha elementar bo‘g‘inlardagi faqat ikkitadan birlamchi va ikkilamchi gidroksil guruhlar bir tekisda efirlangan sellyuloza:



c) barcha elementar bo‘g‘inlardagi faqat uchtadan birlamchi va ikkilamchi gidroksil guruhlar bir tekisda efirlangan sellyuloza:




Shuni ham aytib o‘tish zarurki, amalda efirlanish reaksiyasi bunday bir me’yorda sodir bo‘lmaydi.


Sellyuloza triatsetatida barcha gidroksil guruhlar efirlangan bo‘lib, uni gidrolizlash natijasida olingan ikkilamchi atsetilsellyuloza ham yuqorida-
gi kabi tuzilishda bo‘ladi. Unda $\gamma = 220\text{--}260$ bo‘lib, u atsetonda osonlik-
cha erishi bilan triefirdan farq qiladi.

Agar sellyulozani atsetillash jarayonida uning efirlanish darajasi 220-
260 ga etgach, jarayon to‘xtatilsa, olingan efir atsetonda erimaydi. Bu ho-
disa ham bu ikkala efirda atsetil guruhlari miqdori teng bo‘lsada, ularning
elementar bo‘g‘inlar bo‘ylab har xil taqsimlanganligi va shu sababli po-
limer turlicha tuzilganligidan darak beradi.

Polivinil spiritni efirlash va atsetillash vaqtida ham yuqorida-
gi hodisalarni uchratish mumkin. Agar polivinilatsetat qisman gidrolizlansa,
makromolekula tarkibida polivinil spiritning elementar bo‘g‘inlari hosil
bo‘ladi.



Xuddi shu tarkibdagi polimer polivinil spirtni qisman atsetillab ham olinishi mumkin.



Vinilatsetat va vinil spirti qoldiqlaridan iborat bu ikki sopolimerning tarkibi bir xil bo'lsa ham ularda atsetil guruhlar har xil joylashgan. Shu sababli bu ikki sopolimer makromolekulalarining tuzilishi va xossalari jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Bu ikki sopolimerni organik kimyo nuqtai nazaridan bir moddaning ikki xil izomeri deb ham qarash mumkin.


Ma'lumki, polimer zanjirining turli qismlarida makromolekulalarning o'zaro joylashishi va ta'siri turlicha bo'ladi. Ba'zi qismlarida makromolekulalar zinchroq joylashib, bir-biriga ko'proq kuch bilan ta'sir etsa, boshqa qismlarida siyrakroq joylashgan bo'ladi. Polimer zanjiridagi bunday qismlar o'zining fizik-mexanik xossalari bilangina emas, balki turli reaksiyalarga kirishish qobiliyati va reaksiyaga kirishish tezligi bilan ham bir-biridan keskin farq qiladi. Bu omilning ta'siri polimeranaloyik o'zgarishreaksiyalarining geterogen muhitda sodir bo'lishi paytida ayniqsa yaqqol ko'rindi. Chunki muhitdagi quyi molekulalar moddalar birinchi navbatda diffuziyalanib, polimer zanjirining makromolekulalar siyrak joylashgan qismlari (g'ovakroq qismlari) orasiga kiradi va shu yerdagi funksional guruhlar bilan reaksiyaga kirishadi. Polimerning bunday g'ovakroq, qismidagi makromolekulalarga qo'shni makromolekulalarning kamroq kuch bilan ta'sir etishi ham elementar bo'g'innig reaksiyon qobiliyatini orttiradi. Polimerlarda reaksiyalar notekis borishining asosiy sabablaridan biri ham shudir.

Amalda zanjirning barcha qismidagi bo'g'inlarning reaksiyaga kirishish qobiliyatini tenglash uchun reaksiyani polimer eritmasida yoki gomogen muhitda olib borish yaxshi natijalar beradi.


Agar polimer hech qanday suyuqlikda erimasa, uni oldindan aktivlash zharur. Aktivlash polimerning zichligini va makromolekulalarning o'zaro ta'sirini zanjirning barcha qismlarida tenglash, uni turli suyuqliklarda bo'ktirishdan iboratdir. Aktivlash jarayonida makromolekulalar o'rnidan qisman qo'zg'aladi va ularning o'zaro ta'siri ham kamayadi. Bu esa reagentlarning makromolekulalar orasida difuziyalanishi va funksional guruhlar bilan reaksiyaga kirishishi uchun qulay sharoit tug'diradi.

Tashqaridan hech qanday birikma qo'shmagan holda makromolekulning funksional guruhlari ishtirokida ichida boradigan reaksiyalar *ichkimolekulyar o'zgarishlar* deyiladi. Bunday reaksiyalarga polivinil spirtning degidratlanishi, polivinilxloridning degidrogalogenlanishi, poliakrilinitrilning ichkimolekulyar sikllanishi misol bo'ladi.


Polivinil spirtning degidratlanishi:



Polivinilxloridning degidrogalogenlanishi:



Poliakrilinitrilning ichki molekulyar sikllanishi:




Poliakrilonitrilni havosiz sharoitda qizdirilganda nitril guruhidagi π -bog'ning uzilishi natijasida ichki molekulyar sikllanish sodir bo'ladi va tutash π -bog'lar sistemasi hosil bo'ladi. Bunday sistemadagi π -bog'ning delokallashgan elektronlari hisobiga elektro'tkazuvchanlik paydo bo'ladi. Demak, bu reaksiya yordamida elektro'tkazuvchi polimer olish imkoniyati mavjud.


6.3. Makromolekulalararo reaksiyalar

Polimer molekulyar massasining ortishi yoki kamayishiga, ya'ni makromolekulalarning uzayishi yoki qisqarishiga olib keluvchi barcha jaronlar *makromolekulalararo reaksiyalar* deb ataladi.

Polimerlarning o'rtaча molekulyar massasini orttirish uchun asosan makromolekulalar turli bifunksional birikmalar orqali o'zaro bog'lana-di, ya'ni «tikiladi». «Tikilgan» makromolekulali polimer erimaydigan va suyuqlanmaydigan holatga o'tish bilan birga unda yangi fizik-mexanik xossalalar paydo bo'ladi. Polimerlarni modifikatsiyalashning bu usuli, asosan, kauchukni qayta ishslash, lak va bo'yoyq sanoatlarida keng qo'llaniladi. Makromolekulalarni bifunksional birikmalar bilan o'zaro «tikish» sxemasini shunday tasvirlash mumkin:




Natijada tarmoqlangan va to'rsimon polimer hosil bo'ladi:




Agar ikki makromolekula o'zaro bir yeridan «tikilsa», polimerning molekulyar massasi ortib, tarmoqlangan holga o'tadi. Lekin bunda uning dastlabki fizik-kimyoviy xossalari (eruvchanligi, suyuqlanishi va hokazolar) o'zgarmaydi. Makromolekulalarda «tikilgan» bog'larning ortishi

natijasida polimer to'rsimon tuzilishga o'tib, uning xossalari dastlabki holatdagidan keskin farq qiladi. Masalan, poliakril kislota turli glikollar bilan reaksiyaga kirishib, to'rsimon polimer hosil qiladi. Bu polimer makromolekulalar murakkab efir bog'lari orqali «tikilgan» tufayli, ishqor va kislota eritmalari ta'sirida gidrolizlanib, qaytadan dastlabki chiziqsimon poliakril kislotaga aylanadi:




Lekin barcha to'rsimon polimerlar ham qaytadan chiziqsimon polimerga aylanavermaydi. Chunki agar makromolekulalar orasida barqaror bog'lar hosil bo'lsa, ularni gidrolizlab bo'lmaydi. Bunga misol qilib, od-diy efir bog'lari orqali «tikilgan» polivinil spirtni keltirish mumkin:




Sintez qilish vaqtida to'rsimon tuzilishga o'tgan vinil polimerlardagi choklar (bog'lar) ham turli reagentlar ta'siriga ya'ashi bardosh beradi. Masalan, divinilbenzol molekulalari orqali «tikilgan» polistirol barqaror to'rsimon polimerdir. Stirolni divinilbenzol bilan birqalikda polimerlab, so'ngra uning aromatik halqasiga aminoguruh kiritilsa, anionit hosil bo'ladi.

Amalda esa polistirolning aromatik halqasiga amino guruh kiritish uchun avval «tikilgan» polistirolga xlor guruh kiritiladi, so'ngra xlormetil guruhga amin guruh biriktiriladi. Bu reaksiya quyidagi sxema bilan ifodalanadi:




Xlormetillangan polistirolga uchlamchi amin ta'sir ettirilsa, to'rtlam-chi ammoniy tuzi hosil bo'ladi:




Yana bir muhim makromolekulalararo reaksiyalardan biri – polifenol-formaldegidning olinishidir. O'rincalmashish reaksiyalarida fenolning gidroksil guruhi yangi o'rinxbosar guruhlarni o'rto va para holatlarga o'tkazish xususiyatiga ega. Ekvimolyar miqdordagi fenol va formaldegid kislotali muhitda o'zaro reaksiyaga kirishganda fenolning o'rto va para holatlarida reaksiya borib, oksibenzil spirtlar hosil bo'ladi.

O'sish muhitda esa oksibenzil spirtlar bilan bir qatorda dioksibenzil spirtlar ham hosil bo'ladi. Reaksiyada formaldegid miqdorini oshirish bilan fenolning dimetilol va trimetilol hosilalarini olish oson:




Hosil bo'lgan oksibenzil spirtlar hamda dimetilol va trimetilol hosilalar barcharor bo'lib, kislotali va neytral muhitlarda o'zidan suv molekulalari ajratib, osonlik bilan polikondensatlanish reaksiyasiga kirisha oladi. Bunday reaksiyaning hamma bosqichida ham molekula uchida gidrosil guruh saqlanadi va shuning uchun bu molekula yana qayta – qayta reaksiyaga kirishadi va natijada polimerga aylanadi. Reaksiya davomida temperaturani sharoitga bilan polikondensatlanish jarayonining tezligini oshirish yoki kamaytirish mumkin. Fenol va formaldegid polimerlar boshlang'ichmoddalarning nisbiy miqdoriga qarab, rezol va novolak smolalarga bo'linadi. Agar formaldegidning miqdori fenolga qaraganda ortiq bo'lsa, rezol smola hosil bo'lib, uning molekulyar massasi 700-1000 ga yaqinlashadi. Rezol smolalar qattiq va shishaga o'xshash mo'rt bo'lib, 60-90°C haroraglarda oquvchanlik holatiga o'ta oladi hamda spirt, atseton va benzolda eriydi. Bunday polimerlar, asosan, presslash kukuni, yelim va loklar tayyorlashda ishlatiladi:




Rezol smolalarning asosiy xususiyatlaridan eng muhim shuki, ular dan yelim, lak va buyumlar tayyorlab, so'ngra yana yuqori temperaturada qizdirilganda tarkibidagi metilol guruhlar polikondensatlanish jarayoni ni boshlab yuboradi va polimer erimaydigan hamda bukmaydigan uch o'lchamli, ya'ni fazoviy polimerga aylanadi. Bunday fazoviy polimer rezit deb yuritiladi. U 250-280°C larda ham mustahkamligini yo'qotmaydi va suyuqlanmaydi.

Agar polikondensatlanish reaksiyasida fenolning miqdori formaldegidga qaraganda ortiq bo'lsa, quyi molekulyar polimerlar yoki novolak smolalar hosil bo'ladi. Novolak smolalarining rezol smolalardan asosiy farqi shundaki, ularda barcha metilol guruhlar reaksiyaga to'la kirishadi va shuning uchun ham bunday smolalar qayta qizdirilganda uch ulchamli holatga o'tmaydi. Ammo shuni ham aytish kerakki, novolak smolalarga formaldegid qo'shib qizdirilsa, ular rezol va so'ngra rezit smolalarga aylanadi:




Xom teri mexanik puxtaligi kichik, suv o'tkazuvchandir. Terini oshlash jarayonlarida ham formaldegid yoki xrom (III) tuzlari ishtirokida oqsil makromolekulalari o'zaro kimyoviy bog'lanadi. Natijada mexanik puxtaligi yuqori, suv o'tkazmaydigan charm hosil bo'ladi:

Kauchukni vulkanlashda ham uning molekulalari oltingugurt atomlari orqali bir-biriga «tikilib» qoladi. «Tikilgan» polimerlarning barcha xossalari makromolekulalar orasida hosil bo'lgan bog'larning miqdoriga chambargas bog'liqdir. Masalan, kauchukni vulkanlashda oltingugurt ozroq (10% gacha) qo'shilsa, elastik rezina, ko'proq (30% atrofida) qo'shilsa, qattiq ebonit hosil bo'ladi.




bu yerda: R_1, R_2, R_3, \dots – oqsil tarkibidagi turli aminokislotalarning radikallari.

Quyidagi sxemada polibutadien ikkita makromolekulasining ikkita elementar bo'g'inlardan iborat bo'lakchalari tasvirlangan. Makromolekulalararo reaksiya oltingugurt vositasida amalgalash oshiriladi:



Reaksiya ikki makromolekulaning vodorod atomlari oltingugurt atomlariga o'rinnalmashinib, vodorod sulfid ajralib chiqishi bilan ham ketishi mumkin:



Texnikaga yaroqli vulkanizat tarkibida oltingugurning miqdori polimerning birgina elementar bo'g'iniga 0,01 dan to 1 atomgacha to'g'ri keladi.

Polimerlar ko'pincha saqlash, qayta ishlash va ishlatish jarayonida ham o'z-o'zidan to'rsimon tuzilishga o'tib qoladi. Bu jarayon havo kislороди, quyosh nuri va issiqlik kabi omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Bular dan tashqari, polimerlar funksional guruhlarning o'zaro ta'siri natijasida ham «tikilib», to'rsimon tuzilishga o'tishi mumkin. Elementar bo'g'inlar tarkibidagi funksional guruhlari, konsentrasiyalardan eritmalarda issiqlik ta'sirida, ayniqsa, polimer materiallarni quritish paytida reaksiyaga kirishib, makromolekulalar o'zaro «tikilib» qoladi. Makromolekulalarning o'zaro «tikilib» qolishi natijasida polimerning eruvchanligi kamayadi va elementar bo'g'inlarning reaksiyaga kirishish qobiliyati ancha susayadi.


6.4. Polimerlanish darajasining kamayishiga olib kefuvchi reaksiyalar. Destruksiya

Polimerlar qayta ishlash, ularidan foydalanish, kimyoviy o'zgarishlari vaqtida turli destruktiv jarayonlarga uchraydi. Polimer makromolekulalarning parchalanish reaksiyalari polimerlanish darajasini kamayishiga olib keladi va *destruksiya* deyiladi. Polimerlarda turli sharoitda boradigan destruktiv jarayonlar ham makromolekulalararo reaksiyalar jumlasiga kirdi. Makromolekulalarning destruksiyanishi faqat polimerni ishlatish va saqlashda sodir bo'lmay, polimeranalogik o'zgarishlar paytida ham uchrab turadi. Lekin polimeranalogik reaksiyalar paytida destruksiyanish juda kam sodir bo'lganligidan, u e'tiborga olinmaydi.

Polimerlarni ishlatish paytidagi destruktiv jarayonlar buyumning fizik-mexanik xossalaringin yomonlashuviga sabab bo'ladi. Shuning uchun amalda polimer buyumlarga destruksiyanishning oldini oluvchi quyi molekulyar birikmalar qo'shiladi.

Odatda makromolekulalar destruksiyalanganda polimerning tarkibi o'zgarmay, balki faqat o'rtacha molekulyar massasi kamayadi. Quyi molekulyar birikmalarda esa bunday parchalanish reaksiyalari natijasida yangi moddalar hosil bo'ladi. Bu farqni quyi va yuqori molekulyar atsetallarda yaqqol ko'rish mumkin.

Quyi molekulyar atsetal gidrolizlanganda aldegid va spirt hosil bo'лади:



Bu ikki birikma (aldegid va spirt) bir-biridan tubdan farqlanadi. Poliefir va poliamidlar gidrolizlanganda ularidan tarkibi va kimyoviy xossalari dastlabki birikmanikiga o'xshash yangi molekulalar olinadi. Jumladan, sellyulozaning gidrolizlanish mahsulotlari molekulyar massasi turlicha bo'lgan oligosaxaridlar bilan glyukozadan iborat. Ular sellyulozadan tarkibi jihatdan einas, balki faqat molekulyar massasining kichikligi bilan farq qiladi.

Polimerlar zanjiridagi elementar bo'g'inlar o'zaro bir xil bog'lar bilan ulangani tufayli, bu bog'larning uzilish energiyasi o'zaro tengdir.

Shuning uchun destruksiyalanish jarayonida barcha bog‘larning uzilish ehtimolligi ham bir xil. Bu turli polimerlarni gomogen muhitda gidroliz qilish natijasida isbotlangan. Jumladan, disaxarid va polisaxaridlar bir xil sharoitlarda gidrolizlansa, ularning gidrolizlanish konstantasining qiymati o‘zaro teng bo‘lishi aniqlangan.

Polimerlarda boradigan destruksiyalanish jarayonlarini amalda tartibga solib bo‘lmaydi. Makromolekulalarning parchalanishi zanjirning o‘rtasida ham, chetlarida ham sodir bo‘laveradi. Binobarin, destruksiyalanish paytidagi aralashma monomer, dimer, trimer, tetramer va polimerlardan iborat bo‘ladi.

Agar destruktiv reaksiyalar geterogen sharoitda olib borilsa, jarayon yanada murakkablashadi. Chunki bu holda polimer zanjirining makromolekulalar zichroq va siyrakroq joylashgan qismlariga reagent turlicha diffuziyalanadi, binobarin, u makromolekulalar bilan zanjirning turli qismlarida turlicha o‘zaro ta’sir etadi. Bu o‘z navbatida, makromolekulalarning destruksiyalanish tezligi zanjirning turli qismlarida turlicha bo‘lishiga olib keladi. Odatda geterogen muhitdagi destruktiv jarayonlar polimer yuzasida ko‘proq ketib, ichki qatlamlar destruksiyalanmaydi. Ba’zan esa polimer zanjirining g‘ovakroq amorf qismlari destruksiyalanib, zichroq kristall qismlari destruksiyalanmay qoladi.

Destruktiv jarayonlar ko‘pincha zararli. Shuning uchun ham uni inhibitorlar qo‘shib kamaytirish va bu bilan polimerlarning xizmat qilish muddatini oshirish yuqori molekulyar moddalar kimyosi va texnologiyasining eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi.

Lekin shuni ham aytish kerakki, destruktiv jarayonlarning foydali tomonlari ham bor. Chunonchi, ilmiy tekshirish ishlarida polimerlartuzilishini isbotlash hamda turli tabiiy polisaxaridlarni sanoatda muhim oziq-ovqat mahsuloti bo‘lgan monosaxaridlarga aylantirish uchun destruksiyasidan keng foydalaniladi. Bu usulga binoan yog‘och, paxta sheluxasi, somon va poxol kabi chiqindilarni gidrolitik destruksiyaga uchratib, sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan turli monosaxarid va boshqa mahsulotlar olinmoqda. Polimerlar destruksiyasining foydali tomonlaridan yana biri shuki, yuqoriqovushqoqliikka ega bo‘lgan polimerlarni qayta ishlash qiyin bo‘lganligi uchun dastavval ular qisman destruksiyaga uchratilib, polimerning qovushqoqligi kerakli darajagacha pasaytiriladi. Undan tashqari, destruksiya natijasida hosil bo‘lgan makroradikallar birorta boshqa monomer ishtirokida polimerlanishni boshlab berishga sababchi bo‘ladi, ya’ni

initiator rolini o'ynaydi. Polimer destruksiyasini monomerlar ishtirokida olib borish bilan payvand va blok sopolimerlar olish mumkin. Shunday qilib, destruksiya natijasida kimyoviy tarkib o'zgarmaydi, molekulyar zanjirdagi asosiy bog'lar uziladi va polimerning molekulyar massasi kamayadi.

Barcha polimerlar ham turli kimyoviy moddalar (suv, kislota, tuz, kislород, peroksid va boshqalar) ta'sirida, fizik (issiqlik, yorug'lik, radiatsiya, ultratovush, mexanik energiya va boshqalar) va biologik (chirish va hokazo) ta'sir natijasida destruksiyaga uchraydi. Polimerlarni destruksiyalovchi bu usullarning har biri poliinerlarning «qarishi» to'g'risidagi fanning mustaqil bo'limlari bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun bu usullar, ko'pincha, issiqlik ta'siridan eskirish, yorug'lik ta'siridan eskirish, radiatsiya ta'siridan eskirish va hokazo deb yuritiladi.

Real sharoitlarda polimerlarning destruksiyasi yoki eskirishi, turli omillarning birgalikda ta'siri natijasida ro'y beradi. Polimerlarni ishlatalishda buni nazarda tutish kerak. Masalan, polimer atmosfera sharoitida ishlatiiganda quyosh nurlari, mikroorganizmlar, yomg'ir, sovuq, issiq va boshqalar ta'siriga duch keladi. Bir vaqtda bunday turli omillarning ta'siri polimer destruksiyasini tezlashtiradi va polimer materialni destruksiyadan saqlashni birmuncha qiyinlashtiradi.

6.5. Kimyoviy destruksiya

Yuqorida aytib o'tilgan destruksiya turlari ichida polimerlarning, ayniqsa, geterozanjirli yuqori molekulyar moddalarning kimyoviy destruksiyasi yaxshi o'rganilgan. Odadta geterozanjirli polimerlarning kimyoviy destruksiyasida zanjir uglerod-geteroatom bog'i bo'yicha uziladi va destruksiyaning to'la bo'lishi natijasida boshlang'ich monomer hosil bo'ladi. Bunday reaksiyalar organik kimyodagidek sovunlanish, gidroliz, alkogoliz, atsidoliz va hokazolar deb ataladi.

Karbozanjirli polimerlar kimyoviy reagentlar ta'siriga chidamli bo'latadi. Ular faqat juda og'ir sharoitdagina kimyoviy destruksiyaga uchraydi. Agar karbozanjirli polimerlar bilan geterozanjirli polimerlar kimyoviy destruksiyaga uchrash qobiliyatları jihatidan bir-biridan qat'i farq qilsa, fizik va biologik destruksiyaga bir xilda uchraydi. Bu hodisa fizik va biologik ta'sir energiyasining polimerdagи turli bog'lar energiyasidan birmuncha yuqori ekanligi bilan tushuntiriladi.

Kimyoviy destruksiyaning turlari:

Kimyoviy destruksiya

Gidroliz

Alkogoliz

Atsedoliz

Oksidlantish destruksiysi

Polimerlarning kimyoviy destruksiyasi katalizator ishtirokida qutbli suyuqliklarda olib boriladi. Agar muhit sifatida suvdan foydalanilsa, u holda bu jarayon gidrolitik destruksiya yoki gidroliz deb ataladi. Gidroliz natijasida uglerod–geteroatom bog‘ining uzilgan yeriga suv qoldiqlari birikib oladi. Reaksiya spirtli muhitda olib borilsa, jarayon alkogoliz deb ataladi. Agar jarayon faqat kislota muhitida ketsa, atsidoliz deb ataladi. Bular ichida gidroliz katta amaliy ahamiyatga ega.


Turli geterozanjirli polimerlarning gidrolitik parchalanishi faqat tabiiy va sintetik yuqori molekulyar birikmalar (poliamidlar, poliefirlar, polisaxaridlar va boshqalar) ning tuzilishini o‘rganishda ahamiyatlari bo‘lib qolmay, balki yog‘och va boshqa o‘simlik moddalaridan monosaxaridlar olishdagi muhim texnologik jarayon bo‘lib ham hisoblanadi. Gidroliz jarayoni vodorod yoki gidroksil ionlari ishtirokida tezlashadi. Shuning uchun gidroliz reaksiyasining katalizatorlari sifatida kislotalar, ishqorlar va tuzlar ishlataladi. Gidrolitik jarayon polimerdagagi yon guruuhlar hamda asosiy zanjirdagi bog‘lar hisobiga ketishi mumkin. Masalan, polivinilatsetat va atsetil sellyulozaning gidrolizida reaksiya faqat yuqorida ko‘rganimizdek yon guruuhlar hisobiga ketadi. Geterozanjirli polimer asosiy zanjirining gidrolitik destruksiyasida hosil bo‘lgan qoldiq guruuhlar polimerdagagi dastlabki qoldiq guruhlardan farq qilmaydi. Makromolekulalar elementar bo‘g‘intlari orasidagi bog‘larning uzilishi natijasida hosil bo‘lgan qoldiq guruuhlar sonini kimyoviy usul bilan juda aniq topish mumkin. Karboksil guruhlarning ko‘payib borishiga qarab poliamidlarning destruksiyalanish

darajasini, aldegid guruhlarning ortib borishiga qarab polisaxaridlarning gidrolizlanish darajasini topish mumkin.


Polisaxariddagi atsetal bog‘larning gidrolitik uzilish reaksiyasi vaqtida glyukozid bog‘uzilib, natijada birinchi uglerod atomida aldegid va to‘rtinchı uglerod atomida gidroksil guruh hosil bo‘ladi. Gidroliz ikki bosqichda olib boriladi. Avval oson gidrolizlanadigan polisaxaridlardan pentozan 110–120°C temperaturada gidrolizlanadi. Pentozan eritmaga o‘tib bo‘lgach, gidrolizning ikkinchi bosqichi boshlanadi. Bunda asosan geksoza gidrolizlanadi. Jarayonning bu bosqichi 10 atmosfera bosimi ostida 170–180°C temperaturada olib boriladi.

Sellyuloza pasttemperaturada konsentrangan ishqor eritmasi ta’siriga chidamlidir. U ishqorda faqat bo‘kadi. Sellyulozaning oddiy efirlari va sun‘iy tola olish sellyulozaning konsentrangan ishqorda bo‘kishi natijasida makromolekulalar orasidagi vodorod bog‘larining kamayishiga asoslangan. Molekulasida amid bog‘lari bor polimerlar kislota va ishqor eritmalari ta’sirida gidrolizlanishi mumkin. Amid guruh gidrolizlanganda karboksil va aminoguruqlar hosil bo‘ladi.

Naylonning gidrolizlanishi natijasida ikki boshlang‘ich monomer – geksametilendiamin va adipin kislota hosil bo‘ladi:



Organik kimyodan ma’lumki, murakkab efirlar gidroliz natijasida kislota va spirtga ajralishi mumkin. Poliefirlar ham xuddi shunday gidrodizlanadi:




Poliefirlar ham aromatik, ham alifatik dikarbon kislotalardan hosil bo‘lishi mumkin. Shuni ham aytish kerakki, aromatik yadroli poliefirlar tarkibida alifatik dikarbon kislota qoldig‘i bor poliefirlarga qaraganda gidrolizlovchi agentlarda’siriga chidamliroq bo‘ladi. Masalan, polietilen-tereftalat ham kislota, ham ishqor ta’siriga chidamli polimerdir.

Oksidlanish destruksiyasi. Barcha yuqori molekulyar birikmalar oksidlanish destruksiyasiga uchraydi. Oksidlanish destruksiyasining mexanizmi gidroliz destruksiya mexanizmidan farq qiladi. Oksidlanish destruksiyasida polimer asosiy zanjirining uzilishi bilan birga funksional guruhlar ham oksidlanadi. Polimerlar kislorod, ozon va boshqa oksidlovchilar ta'sirida oksidlanadi. Polimerlarning oksidlanish reaksiyasini boshqarish juda qiyin, chunki u ma'lum yo'nalishda bormaydi. Masalan, polialil spirtni oksidlab, undan toza polikroton aldegid olib bo'lmaydi, chunki oksidlovchi agent bir vaqtida polimerning ham asosiy zanjirini, ham funksional guruhini oksidlaydi. Natijada kislorodli guruhlar (karboksil, aldegid, spirt guruhlar) hosil bo'ladi.

Ba'zida polimerlarning oksidlanish jarayonidan ularning tuzilishini o'rGANISH uchun foydalaniлади. Masalan, ozonlash va epoksidlash bilan polimerda qo'shbog' borligini aniqlash mumkin.


To'yinmagan polimer birikmalar olefinlar kabi kislorod bilan reaksiyaga kirishib, turli xil birikmalar hosil qiladi. Bunday reaksiyalar turli kauchuk materiallarni ishlatish vaqtida sodir bo'lib, ularning eskirishi va muddatidan oldin fizik-mexanik xossalaring yo'qolishiga sabab bo'ladi.

Kauchukning oksidlanish jarayoni vaqtida tarkibida sikl (I), peroksid guruh (II), gidropoperoksid guruh (III), to'rsimon tuzilish hosil etuvchi kislorod ko'priklari (IV) bog'birikmalar hosil bo'lishi mumkin:



Yuqorida ko'rsatilgan birikmalar beqaror bo'lgani uchun ular parchalanganda aldegid, keton guruhlari hosil bo'ladi. Bu barcha jarayonlar makromolekulaning destruksiyalanishiga olib keladi.

Kauchuklar makromolekulasiдаги qo'shbog'ga kislorod birikishi ozon ishlatilganda yanada jadalroq ketadi. Bu reaksiya analitik ahamiyatiga ega bo'lib, undan kauchuklardagi qo'shbog' miqdori va qo'shbog'ning molekuladagi o'rnini aniqlashda foydalaniлади. Reaksiya natijasida polimer ozonid hosil bo'ladi. Ozonid bo'g'inining tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin:



Polimerlarning ekspluatatsiya davrida oksidlanishi zararli, chunki bunda oksidlanish polimerning eskirishiga, ya'ni uning fizik – kimyoviy va mexanik xossalaring yomonlanishiga sabab bo'ladi.


Polimerlarning eskirish jarayonini metall korroziyasi bilan solishtirish mumkin. Polimerlar eskirishining oldini olish uchun ularga destruksiya reaksiyalarini to'xtatuvchi moddalar qo'shiladi. Bunday moddalarning polimerga ta'sirini tushunish uchun oksidlanish destruksiyasining elementar nazariyasini bilan tanishamiz. Polimerlar quyi molekulyar moddalar kabi erkin radikalli mexanizm bo'yicha oksidlanadi. Binobarin, oksidlanish zanjirsimon jarayon hisoblanadi. Zanjirsimon jarayonning sodir bo'lishi uchun oksidlovchi bilan polimerning o'zaro ta'siridan boshlang'ich aktning hosil bo'lishi kifoya.

Makromolekulaning biror qismida bu akt hosil bo'lsa, mavjud peroksid guruh zanjirsimon jarayonga initsiator bo'ladi. Oksidlanishning zanjirsimon jarayonligi erkin radikallar hosil qiluvchi moddalarning bu jarayonga initsiator bo'lishi bilan isbotlanadi, hosil bo'layotgan radikallarni yutuvchi moddalar qo'shilganda oksidlanish reaksiyاسining to'xtab qolishi ham oksidlanish destruksiyasining zanjirsimon xarakterga egaligini ko'rsatadi. Keyingi vaqtda paramagnit rezonans usuli orqali polimer destruksiyasida hosil bo'layotgan erkin radikallar sonini aniqlash bilan destruksiya miqdorini topish imkoniga ega bo'lindi.


Polimer molekulalarining oksidlanish reaksiyasini tezlatish uchun erkin radikallar hosil qilish oson bo'lgan moddalar (benzoil peroksid) va o'zgaruvchan valentlikka ega bo'lgan metallar (temir, mis, marganes, nikel va boshqalar) birikmasi qo'shiladi. Bu metall kationlari oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida ishtirot etib, erkin radikallar hosil bo'lishini tezlashtiradi.

Kauchukning oksidlanish destruksiysi tezligiga benzoil peroksid va temir stearatning ta'sirini 6.1 va 6.2- rasmlardan ko'rish mumkin.

6.1-rasmda keltirilgan egri chiziqlardan ko'rindiki, peroksid miqdorining ortishi bilan kauchuk destruksiyasining tezligi ortib boradi. Temir-stearat miqdorining ortib borishi bilan oksidlanish destruksiyasining tezligi ortib boradi (6.2-rasm).



6.1-rasm. 100°C da kau-chukning oksidlanish destruksiyasiga initsiatorning ta'siri:
1- initsiatorsiz destruksiya;
2- 0,44%; 3- 0,55%; 4- 1,0% benzoilperoksid ishtirokida destruksiya.




6.2-rasm. 130°C da kauchukning oksidlanish destruksiyasiga temir stearatning ta'siri:
1- temir stearatsiz destruksiya; 2- 0,5%; 3- 1,0%; 4- 1,5% temir stearat ishtirokida destruksiya.

Yuqorida aytib o'tilganidek, polimerlarga ingibitorlar qo'shsak, destruksiya tezligi kamayadi. Ammo ingibitorlar hosil bo'layotgan erkin radikallar bilan birikib, tamom bo'lsa, destruksiya jarayoni yanada tezlashadi va o'zining boshlang'ich tezligini oladi.

Polimerlarning oksidlanish destruksiysi barcha zanjirsimon reaksiyalar kabi uch bosqichdan: aktiv markazlar hosil bo'lishi, zanjirning o'sishi va zanjirning uzilishi reaksiyalaridan iborat bo'ladi. Aktiv markazlar hosil bo'lish reaksiyasi, asosan hosil bo'lgan peroksid birikmalarning parchalanishi tufayli sodir bo'ladi. Bu jarayon quyidagicha ifodalanishi mumkin:

1) peroksidlarning radikallar (R^{\cdot} , RO^{\cdot} , RCO^{\cdot}) hosil qilib, parchalanishi;


2) toq elektronning polimer makromolekulasiga berilishi va yangi radikal hosil etib, makromolekula zanjirining uzilishi:




3) hosil bo'lgan erkin radikallarning rekombinatsiyasi natijasida zanjirning uzilishi.

Oksidlanish destruksiyasining tezligi polimer tuzilishiga bog'liq. To'yingan polimerlar to'yinmagan polimerlarga qaraganda oksidlanish


destruksiyasiga ancha chidamli bo‘ladi. To‘yinmagan polimerlardagi qo‘srbog‘ kislorodni juda oson biriktirib olib, peroksid hosil qiladi, peroksidlar parchalanib, oksidlanish destruksiyasi uchun initsiator bo‘ladi. Bu jarayonni quyidagi sxema bilan ko‘rsatish mumkin:




Bundan tashqari, kislorod qo‘srbog‘ga nisbatan α – o‘ringa joylashgan metilen guruhga ham birikishi mumkin. Bunda ham gidroperoksid guruh hosil bo‘ladi:




To‘yinmagan polimerlarning oksidlanish destruksiyasiga polistirolning oksidlanish destruksiyasi misol bo‘lishi mumkin. Uchlamchi uglerod atomi yoki fenil guruh bilan aktivlangan uglerod atomida harakatchan, ya’ni reaksiyaga tez kirishuvchi vodorod atomi bor polimerlar oksidlanganda to‘g‘ridan-to‘g‘ri peroksidlar hosil bo‘ladi. Polistirolning oksidlanish destruksiyasi vaqtida avval gidroperoksid hosil bo‘ladi:




Hosil bo‘lgan gidroperoksid erkin radikallarga parchalanadi:



Bunda makromolekula quyidagi sxema bo'yicha uzilishi mumkin:



yoki makroradikallarning boshqa makromolekulalar bilan o'zaro ta'siri tufayli quyidagi mahsulotlar hosil bo'ladi:



Turli polimerlarni qisman oksidlash bilan makromolekulalarda peroksid va gidroperoksid guruhlar hosil qilinadi. Bunday birikmalarining parchalanishi tufayli polimer molekulasi atrofidagi vinil monomerlari polimerlanadi va natijada juda muhim xossalarga ega bo'lgan payvand sopolimerlar hosil bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, turli sinf polimerlarining oksidlanish mexanizmi yetarli o'rganilgan emas. Shuning uchun ham kimyoviy reaksiyalar sxemasini yozish imkoniyati yo'q. Oksidlanishning taklif etilgan turli sxemalari hozircha chuqur eksperimental tekshirishlarni talab etadi.

6.6. Fizikaviy destruksiya

Polimerlar faqatgina oksidlovchilar, kislotalar, ishqorlar ta'sirida emas, balki turli fizik omillar ta'sirida ham destruksiyaga uchraydi.

Fizikaviy destruksiyaning turlari:

Termodestruksiya

Mexanodestruksiya

Fotokimyeviy destruksiya

Radiatsiondestruksiya

Yorug'lik, radiatsiya, mexanik, issiqlik va ultratovush energiyalari kabi fizik energiya ham makromolekulalardan quyi molekulyar mahsulotlar hosil qiladi. Polimerlarning fizik destruksiyasi ham foydali, ham zararli bo'lishi mumkin.

Polimerlarning olinishi, qayta ishlanishi va ekspluatatsiyasida fizik destruksiya albatta, maqsadga muvofiq emas. Ko'pchilik polimer buyumlar uzoq vaqt katta dozadagi issiqlik ionlashtiruvchi nur, mexanik ta'sir va hokazo sharoitlarda ishlatiladi. Natijada polimer molekulalari "kreking" ga uchraydi, bu esa ularning boshlang'ich fizik-mexanik xossalarni o'zgartiradi. Demak, yuqorida aytib o'tilgan sharoitlardagi fizik destruksiya polimer buyumlarning tezda ishdan chiqishi va eskirishiga sabab bo'ladi.

Polimerlarning fizik destruksiyasini o'r ganish va uning oldini olishni bilish sintez sharoitlarini to'g'ri tanlashga hamda polimer materiallarni qayta ishslash va undan to'g'ri foydalanish yo'llarini topishga imkon beradi.

Polimerlarning fizik destruksiyasi amalda polimer birikmalarning tuzilishini tekshirishda va ayniqsa, turli polimerlarni qayta ishlashda qo'llaniladi. Keyingi vaqtarda mexanik destruksiya sellyuloza materiallarni qayta ishslashda qo'llanilmoqda. Bunda sellyulozaning molekulyar massasi ma'lum darajagacha kamayadi va uning zinch uchastkalari buziladi. Natijada sellyulozaning eterefikatsiya, gidroliz reaksiyalariga kirishish qobiliyati ortadi.


Polimerlarning fizik destruksiyasi payvand va blok sopolimerlar sintez qilishda qo'llanilmoqda. Makromolekulaning krekinggida hosil bo'lgan

makroradikallar bilan boshqa monomer yoki polimerning o‘zaro ta’sirlashuvi natijasida payvand va blok sopolimer hosil bo‘ladi.

Polimerlarning fizik destruksiyasi uch bosqichdan iborat zanjirsimon jarayondir. Birinchi bosqichda aktiv markazlar hosil bo‘ladi. ikkinchi bosqichda zanjir o‘sadi va uchinchi bosqichda uziladi.


Fizik destruksiyada polimerlarning molekulyar massasi kamayibgina qolmay, balki yangi bog‘ va yangi funksional guruhlar hosil bo‘lishi ham mumkin.

Polimerlar fizik destruksiyasining birinchi bosqichini quyidagi misolda ko‘rsatish mumkin:




Bu ikki jarayon bir vaqtida ketishi ham mumkin.


Makromolekulaning makroradikalga aylanishi tufayli qo‘shni uglerod-uglerod bog‘ining uzilishi ham mumkin, bunda zanjir oxirida yangi erkin radikal va tarkibida qo‘sh bog‘ bor polimer hosil bo‘ladi:




Bu reaksiya natijasida hosil bo‘lgan makroradikal o‘zining toq elektronini boshqa makromolekula vodorodining elektroni hisobiga just qilib oladi, natijada yangi makroradikal hosil bo‘ladi:



Bunday makroradikal oxirida yana qo‘sh bog‘li polimer va makroradikal hosil etib uziladi:



Zanjir makroradikaldan monomer molekulasining ajralib chiqishi bilan ham uzilishi mumkin:



Zanjirning uzilish jarayonini, ya'ni radikallarning rekombinatsiyalashida chiziqsimon, tarmoqlangan va to'rsimon tuzilishga ega bo'lgan polimerlar hosil bo'lishi mumkin.

Aktiv markazlar hosil bo'lish tezligi fizik ta'sirning tezligiga bog'liq. Agar aktiv markazlarning hosil bo'lish tezligi ortsa, zanjirning o'sish va uzilish tezligi ortadi. Fizik destruksiyaning bir necha xillarini ko'rib chiqamiz.

Fotokimyoviy destruksiya. Polimer materiallar texnikada, istisodiyot tarmoqlarida va turmushda ishlatilayotganda turli to'lqin uzunlikdagi nurlar ta'sirida eskiradi, bu esa ulardagi eng muhim xususiyatlarning yo'qolishiga olib keladi.

Ayniqsa, toladan to'qilgan hamda rezina va plastmassadan yasalgan buyumlar, pylonkalar, qoplovchi moddalar tez eskiradi. Polimerlar ishlatilayotganida ularga bir vaqtning o'zida turli omillar, ya'ni yorug'lik nuri, kislород, ozon, nam va hokazolar ta'sir etadi. Natijada gidrolitik va oksidlanish destruksiyasi sodir bo'ladi.

Bunday turli-tuman jarayonlarning borishi natijasida faqat makromolekularning uzunligi kamayibgina qolmay, balki polimerning tarkibi va tuzilishi ham o'zgaradi. Fotokimyoviy destruksiyaning intensivligi nurning to'lqin uzunligiga, nur dozasiga, initsiatorning bo'lishiga va polimerning tabiatiga ko'p jihatdan bog'liq.

Poliolefinlar, selluloza va uning birikmalari, kauchuk yorug'lik va atmosfera ta'sirida destruksiyaga uchraydi. Shuning uchun bunday polimerlardan yasaladigan buyumlar tarkibiga polimerni fotokimyoviy destruksiyaga chidamli qiladigan moddalar qo'shiladi. Kauchuklarga uzoq vaqt yorug'lik ta'sir etishi natijasida ularning elastikligi va eruvchanligi kamayadi, hatto quyidagi molekulyar moddalar ajralib chiqadi. Kauchukning yorug'lik ta'siridagi destruksiya tezligi havo kislороди, metallar va hokazolar ishtirokida juda ortadi.

Polietilen havoda 2–3 yil ichida buziladi, qorong'ida esa shu muddat ichida sira ham buzilmaydi. Kauchuk va polietilenga qorakuya qo'shilganda ularning fotokimyoviy destruksiyaga barqarorligi juda ortadi, bu hosil bo'ladigan erkin radikallarning qorakuyada yutilishi bilan tushuntiriladi.

Sellyuloza va uning birikmalari yorug'lik nuri ta'sirida destruksiyalanaadi, shu vaqtning o'zida havo kislorodi ishtirokida oksidlanadi, nam ta'sirida esa gidrolizlanadi.


Havo ta'sirida ip to'qimalar va brezent pishiqligini tez yo'qotadi.

Sellyuloza efirlari, jumladan, etil efiri quyi molekulyar uchuvchan mahsulot hosil qilib oksidlanadi. Sellyuloza efirlari parda yoki qoplovchi moddalar sifatida ishlatalganda ularga destruksianing oldini oluvchi inhibitorlar qo'shiladi.


Radiatsion destruksiya. Polimerlar ionlashtiruvchi nurlar ta'sirida chuqur kimyoviy o'zgarishga uchraydi, ya'ni ularning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, molekulyar og'irligi va boshqa fizik-mexanik ko'rsatkichlari o'zgarib ketadi. Polimerlarga radioaktiv nur ta'sir ettirishdan payvand va blok sopolimerlar hamda bog'lovchi reagentlar ishtirokisiz to'rsimon tuzilishga ega bo'lgan poliolefinalar olishda foydalanilmoqda. Masalan, polietilenga qisman nur ta'sir ettirilsa, uning eruvchanligi yo'qoladi, issiqlik va kimyoviy reagentlarga chidamliligi ortadi. Ionlashtiruvchi nurlar ta'sirida boruvchi jarayonlarning xarakteri polimerlarning xiliga bog'liq.

Radioaktiv nur ta'sirida polimerdagи barcha bog'lar uzilishi mumkin, bunda kam harakatchan makroradikallar va oson harakat qiluvechi metil, etil va shunga o'xshash radikallar hosil bo'ladi. Bu radikallar makromolekula bilan uchrashganda undan vodorod atomini uzib oladi va reaksiya sferasidan uchuvchan moddalar sifatida chiqib ketadi. Polietilenning radiatsion destruksiyasi ko'rib chiqamiz.

Polietilenga nur ta'sir ettirilganda makroradikallar quyidagi sxema bo'yicha hosil bo'ladi:




yoki




Hosil bo'lgan harakatchan radikallar polietilen bilan quyidagicha reaksiyaga kirishadi:



yoki



Bu makroradikal molekulasida qo'sh bog' bor makromolekula va metilen radikaliga parchalanadi:



Ikki makroradikal rekombinatsiyasi natijasida to'rsimon polimer hosil bo'ladi:



Shuni qayd qilish kerakki, radioaktiv nurlar ta'sirida turli polimerlar turlicha o'zgarishga uchraydi. Ularning ba'zilari to'la destruksiyaga uchraydi, ba'zilari esa o'zaro bog'lanadi (tikiladi).

Nur ta'sirida polimer strukturasining o'zgarishiuning kimyoviy tuzilishiga bog'liq. Polimerlar tarkibida qo'shbog' va ayniqsa, benzol yadrosi bo'lsa, u radioaktiv nur ta'siriga birmuncha barqaror bo'ladi. Shuning uchun polistirol va kauchuk kabi polimerlarni «tikish» uchun poliolefinlardagiga nisbatan katta doza nur ta'sir ettirish kerak. Polimerlar tarkibiga naftalin birikmalarini kiritish ularning radiatsiyaga barqarorligini oshiradi.

Radiatsion destruksiya kislород va nam ishtirokida tezlashadi, chunki bu moddalarning o'zi radiatsiya ta'sirida radikal hosil qiladi. Bu radikallar destruksiyaning zanjirsimon jarayonini tezlashtirib yuboradi.

Mexanik-kimyoviy jarayonlar. Mexanik kuchlar ta'sirida sodir bo'ladi-gan kimyoviy jarayonlar *mexanik-kimyoviy jarayonlar* deyiladi. Bunday jarayonlar polimerlarni qayta ishlashda va ularni ekspluatatsiya qilishda ko'p sodir bo'ladi. Polimerlar qayta ishlanish jarayonida maydalanadi, yoyiladi, kapillyar teshiklardan o'tkaziladi. Ulardan tayyorlangan buyumlardan foydalanishda esa sharoitga qarab, polimerni bosishga, cho'zishga, buklashga va hokazolarga duch kelinadi.

Polimer materiallarni qayta ishlash va ularning ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlar polimerlarning tuzilishi va xossalaring o'zgarishiga olib keladi. Bunday jarayonlar polimerlarni «qaritadi». Mexanik ta'sir ostidagi polimerda ichki kuchlar bir tekis tarqalmaydi, ular polimer zanjirining ayrim joylarida to'planib, kimyoviy bog'larni uzadi. Kimyoviy bog'larning uzilishi natijasida makroradikallar hosil bo'ladi. Mexanik destruksiya natijasida makroradikallarning hosil bo'lishi paramagnit rezonansini qayta ishlatishiga qaratiladi.

nansi, polimerlar mexanokrekingda monomerlarning polimerlanishi erkin radikallarning akseptor moddalar bilan o'zaro ta'sirlashuvi bilan isbotlanaadi.

Polimerlarning mexanik-kimyoiy destruktsiyasida erkin radikallar hosil bo'ladi. Bu jarayon ham zanjirsimon jarayon bo'lib, uch bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda aktiv markazlar hosil bo'ladi. Ikkinci bosqichda reaksiyon zanjir o'sadi. Uchinchi bosqichda esa reaksiyon zanjir uziladi. Mexanik ta'sir natijasida polimerning o'rtacha polimerlanish darajasi kamayadi, molekulalararo bog'larning ba'zilari uzilganligi uchun polimerning eruvchanligi ortadi, elastomerlarning plastikligi o'zgaradi, makromolekulaning konformatsiyasi o'zgaradi, chidamliligi kamayadi, yangi funksional guruhlar hosil bo'ladi. Mexanik destruksiya natijasida sodir bo'ladigan bunday o'zgarishlardan amalda turli maqsadlar uchun foydalaniladi.

Masalan, sellyuloza materiallari mexanik ta'sir ostida kukun massaga aylantirilsa, undan oddiy efirlar olish uchun sellyuloza preparatlarini aktivlashning keragi bo'lmaydi hamda reaksiya uchun oz vaqt va oz reagent surf bo'ladi. Qisman destruksiya uchratilgan sellyuloza g'ovak tuzilishga ega. Bunday sellyulozaning reaksiya uchun kirishish qobiliyati katta, ishqorlarda eruvchanligi yuqori bo'ladi.

Hozirgi vaqtida sellyulozani qayta ishlovchi qator kimyo korxonalarida kukun holatdagi sellyuloza preparatlaridan foydalanish natijasida jarayonni uzlusiz amalga oshirish imkoniga ega bo'lindi. Polimerlarning mexanik destruksiysi havo kislorodi ishtirokida boradi va bunda oksidlanish destruksiysi ham sodir bo'lgani uchun polimer yanada chuqur o'zgarishlarga uchraydi. Keyingi 10 yil ichida mexanik destruksiya jarayonlari faqat polimer materiallardan foydalanish nuqtai nazaridan emas, balki ularning xossalari yaxshilash nuqtai nazaridan ham o'rganilmoqda.

Mexanokrekingda hosil bo'ladigan makroradikallardan turli monomerlarning polimerlanishida initsiator sifatida foydalanish ustida juda ko'p ilmiy tekshirish ishlari qilindi.

Polimerlar monomer ishtirokida maydalansa, bloksopolimerlar hosil bo'ladi.

Agar ikki polimer aralashmasi maydalansa, hosil bo'lgan turli makroradikallarning rekombinatsiyasi natijasida bloksopolimerlar hosil bo'ladi. Masalan, tabiiy va sintetik kauchukning fenolformaldegid smolasi bilan, polistirolning kraxmal bilan blok sopolimerlari olingan.

Termik destruksiya. Polimerlarning termik destruksiyasi o‘z xarakteri jihatidan neft uglevodorodlaridan quyil molekulyar mahsulotlar olish maqsadida qilinadigan termik kreking jarayoniga o‘xshaydi. Neft uglevodorodlarining kreking jarayoni to‘la o‘rganilganligi hamda undan neftni qayta ishlash texnologiyasida keng foydalanilganligi sababli termik destruksiyani o‘rganish birmuncha yengillashadi.

Polimerlarni issiqqa chidamli qilish polimerlar kimyosi va texnologiyasining muhim vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Karbozanjirli polimerlardan yuqori temperaturaga eng chidamligi ftopoplast bo‘lib, u uzoq vaqt davomida 300°C temperaturaga chidaydi. Tarkibida aromatik yadro bo‘lgan polimerlar ham issiqqa chidamli bo‘ladi. Polimerlarning qizdirishga chidamliligi, termik parchalanish tezligi polimerning kimyoviy tuzilishiga bog‘liq.

Termik destruksiya ham zanjirsimon jarayon bo‘lib, uch bosqichda sodir bo‘ladi. Birinchi bosqichda erkin radikallar hosil bo‘ladi, ikkinchi bosqichda reaksiyon zanjir o‘sadi. Uchinchi bosqichda esa reaksiyon zanjir uziladi. Termik destruksiya natijasida polimerlarning molekulyar massasi kamayadi. Degidratatsiya, sikllanish va hokazo jarayonlarning sodir bo‘lishi tufayli esa yangi funksional guruqlar hosil bo‘ladi. Barcha zanjirsimon reaksiyalar singari termik destruksiya jarayoni ham osonlik bilan radikal hosil qiluvchi moddalar ishtirokida tezlashadi, erkin radikal akseptorlari ishtirokida esa sekinlashadi. Peroksid, metall, azo va diazo birikmalar polimerlar destruksiyasini tezlashtiradi. Masalan, kauchukning suyultirilgan eritmasi initsiator ishtirokida 100°C gacha qizdirilsa, kauchukning molekulyar massasi kamayadi. Lekin konsentrangan eritmalar da destruksiya jarayonlari bilan bir qatorda, «tikilish» jarayoni ham sodir bo‘ladi. Termik destruksiyada makromolekulalarning ayrim katta qismlarigina parchalanib qolmay, balki monomer bo‘g‘inlari ham ajralib chiqadi. Ajralib chiqqan monomerning miqdori polimerning tuzilishiga bog‘liq. Masalan, ba’zi polimerlar termik destruksiyada faqat birgina toza monomer hosil qildi. Bundan polimer chiqindilaridan monomerlar olishda va kauchuk selluloza, polistirol va boshqalarning tuzilishini tekshirishda foydalaniladi.


Blok usulida olingan polimetilinetakrilatning 300°C temperatura va vakuum ostidagi termik destruksiyasi natijasida avval polimerning yarmi monomerga aylanadi, so‘ngra depolimerlanish tezligi keskin kamayadi. Buni polimetilmetakrilat depolimerlanishining qizdirish vaqtiga qarab o‘zgarish chizig‘idan aniqko‘rish mumkin.

Disproporsiya natijasida blok usuli bilan olingen polimetilmekatrilning 50 foiz makromolekulalarining zanjiri oxirida qo'sh bog' hosil bo'ladi. Bu ikki turdag'i makromolekula termik destruksiyada o'zini turli cha tutadi. Zanjirining oxirila qo'shbog' bor podimetilmekatrilat makromolekulalarining depolimerlanishi natijasida polimer namunasining 50 foizi monomerga aylanadi. Emulsion polimerlanish usuli bilan olingen polimetilmekatrilat o'zini boshqacha tutadi. Demak, termik parchalanish jarayoniga polimerning tabiatini va uning hosil bo'lish mexanizmi ta'sir etadi. Polimerlarning termik destruksiyasi havo kislороди ishtirokida tezlashadi, ammo bunda monomerlar emas, oksidlangan mahsulotlar hosil bo'ladi.

Polivinilatsetatning termik destruksiyasida avval sirkal kislota ajralib chiqadi va bunda qo'sh bog' hosil bo'ladi, bularning hammasi qo'shni bo'g' inlardan sirkal kislota ajralishini tezlashtiradi.

Termik destruksiyada ba'zi polimerlar monomergacha depolimerlanmay, balki miqdoriy jihatdan teng bo'lgan boshqa monomer hosil qilishi mumkin. Masalan, tributilmekatrilat termik destruksiyada miqdoriy jihatdan teng izobutilen hosil qiladi.



Poliakrilonitrilning termik destruksiyanishidan monomer ajralib chiqmaydi. Qo'shni nitril guruhlarning o'zaro ta'siri tufayli quyidagi tulzilishga ega bo'lgan rangli siklik mahsulotlar hosil bo'ladi.




Yuqorida aytildi, polimerlar qizdirilganda har doim monomerlar hosil bo'lavermaydi. Polispiрt hamda tarkibida galoid atomlari bo'lgan qator polimerlar termik destruksiya boshlanguncha kimyoviy o'zgarish (sikllanish, «tikilish», degidratatsiya va hokazolar)ga uchraydi, bu jarayon mexanizmini murakkablashtirib yuboradi.

Geterozanjirli polimerlarning termik destruksiyasi ham murakkab mexanizm bo'yicha boradi, bunda molekulyar massasining kamayishi bilan bir qatorda turli mahsulotlar ham hosil bo'ladi. Masalan, polimerlarning molekulyar massasi 100°C dan yuqori temperaturada keskin

pasayadi va metan, etan, propan, butan, etilen, butilen, siklopentanon va boshqalar hosil bo'ladi. Destruksiya quyidagi sxema bo'yicha boradi:



Hosil bo'lgan erkin radikallar uglevodorodlarga aylanadi yoki sikllanadi:



Poliamidlarning termik parchalanishi kislorod ishtirokida juda tezlashadi.

Ba'zi geterozanjirli polimerlar qizdirilganda juda yuqori chiqim bilan monomerlarga parchalanadi. Masalan, polioksimetilen formaldegid hosil qilib depolimerlanadi. Poliatsetallar (kraxmal, sellyuloza va boshqalar) ning termik destruksiyasini ko'rib chiqamiz.

Sellyuloza yuqori temperaturada termik destruksiyaga uchraydi. Agar sellyulozaning termik destruksiyasida nam va kislorod ishtirok etsa, bir vaqtning o'zida gidrolitik, oksidlanish destruksiyasi ham sodir bo'ladi. temperatura qancha yuqori bo'lsa hamda jarayon qancha uzoq vaqt davom etsa, termik destruksiya shuncha chuqur boradi.

Nam va havo kislorodi ishtirok etmasa, sellyuloza yuqori vakuum ostida destruksiyaga birmuncha chidamlı bo'ladi, hatto 180°C temperaturada 2 soat davomida ham destruksiyaga uchramaydi. Xuddi shu sharoitda 180°C dan yuqori temperaturada sekin – asta destruksiya boshlanadi va 250°C temperaturada jarayon juda tezlashib ketadi, temperatura 275°C dan oshirilsa, parchalanish yana ham tezlashib, turli tarkibli suyuqlik va gaz mahsulotlar hosil bo'ladi, temperatura 400-500°C ga yetkazilsa, barcha uchuvchan mahsulotlar chiqib ketib, sellyuloza ko'mirga aylanib qoladi. Ajralib chiqadigan gaz holatidagi mahsulotlar karbonat angidrid, suv, atseton, sirkə kislota va shunga o'xshashlardan iborat bo'ladi.

Biologik destruksiya. Destruksiyaning bu xili o'simlik va hayvonlar hayotida juda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, tirik organizmda turli polimerlarning to'xtovsiz biosintez jarayoni boradi va shu bilan bir vaqtda

polimerlar organizmdagi turli energetik jarayonlar ta'sirida destruksiyaga uchraydi.

Organizmdagi biologik destruksiya kuchli biokatalizatorlar, ya'ni fermentlar ta'sirida boradi. Organizm biologik destruksiyasiz kraxmal, oqsillar va shu kabi polimerlarni o'zlashtira olmaydi. Masalan, kraxmal amiloza fermenti ta'siridagina butunlay glyukozaga aylanadi. Sanoatda spirt, pivo, kvas va hokazolarni olishdagi bijg'itish jarayoni biologik destruksiyaga asoslangan. Pepsin fermenti oqsillarni aminokislotalargacha parchalaydi, so'ngra organizm bu kislotalarni o'zlashtirib oladi.

Shuni qayd qilish kerakki, tabiiy polimerlar tirik organizmda faqat bir xil bog'larning uzilishi bilan biologik destruksiyaga uchrab, doimo bir xil tarkibli mahsulotlar hosil qiladi, bu organizmning hayot kechirishi uchun muhim shart hisoblanadi.

Umuman, polimer buyumlar zamburug', bakteriya va mikroblar ta'sirida maqsadga nomuvofiq destruksiya uchrab chiriydi.

Polimerlarning biologik parchalanishi nam va issiqlik ta'sirida tezlashadi. Mikroorganizmlarning turi ko'p bo'lgani sababli polimerlarga ularning ta'sir etish mexanizmi ham murakkab bo'ladi. Biologik destruksiya natijasida polimerlarning polimerlanish darajasigina kamayib qolmay, balki ularning funksional guruhlari tarkibi ham o'zgaradi. Polimer materiallar qaysi sohada ishlatilishiga qarab, mikrob, zamburug' va hokazolar ta'siriga chidamli qilib tayyorlanadi. Masalan, shpallar va texnik to'qimalar, plastmassalar antiseptik moddalarda bo'ktitiladi yoki qisman kimyoiy reaksiyaga kiritiladi. Sellyuloza materiallarni qisman atsetillash yoki etil sianid bilan ishslash ham ularning tuproqda chirishini kamaytiradi.

6.7. Polimerlarni barqarorlashtirish usullari

Destruksiya natijasida makromolekulaning molekulyar massasi va polimerlanish darajasi keskin kamayadi. Polimerlarning xossalari yomonlashadi, shuning uchun polimer mahsulotlarini olishda ularning tarkibiga destruksiyanı sekinlashtiruvchi, polimerni barqarorlashtiruvchi moddalar – *stabilizatorlar* kiritiladi.

Stabilizatorning vazifasi destruksiya jarayonini davom etishni ta'minlovchi aktiv markazlar va radikallarni neytrallashdan iboratdir. Masalan, kalsiy stearat polivinilxloridga barqarorlashtiruvchi vosita sifatida kiritiladi. Termodestruksiya jarayonida stabilizator polivinilxloriddan ajraladigan vodorod xloridni o'ziga biriktirib oladi.

Destruksiyani keltirib chiqaruvchi omillarga ko'ra antioksidantlar, antiozonantlar, yorug'lik stabilizatori kabi turlari tanlanadi. Termooksidalish destruksiyasining stabilizatorlari sifatida fenollar, naftollar, amino-fenollar va boshqa qo'zg'aluvchan vodorod atomiga ega bo'lgan birikmalar qo'llaniladi. Bunday stabilizatorlar RO_2^\cdot va R^\cdot radikallari bilan ta'sirlashib passiv radikallarni hosil qiladi:



Bu yerda: IH – stabilizator, I^\cdot – passiv radikal.

Turli omillar ta'sirida polimerning destruksiyalanish mexanizmini o'rGANISH polimer materiallar eskirishining oldini olish uchungina emas, balki texnika va xalq xo'jaligining turli sohalarida polimer buyumlardan to'g'ri foydalanish uchun ham katta ahamiyatga ega. Xalq xo'jaligida polimer materiallardan tobora ko'p foydalanilmoqda. Shuning uchun ham ularning destruksiyaga uchrashining oldini olish maqsadida ularga ingibitorlar topib qo'shish polimerlar kimyosi va texnologiyasining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, polimerlar destruksiyasi polimer buyumlarning tez qarishi yoki xizmat muddatidan avval ishdan chiqishi tufayli ro'y beradi. Polimerlar destruksiyasini aniqlash va o'rGANISH uchun mexanik, fizik – kimyoviy va kimyoviy usullardan foydalaniladi.

Polimerning mexanik ko'rsatkichlari (pishiqlik, uzayish va boshqalar) ni o'lhash orqali polimer buyumlarning destruksiya darajasini aniqlash uchun polimerga ma'lum ta'sir ko'rsatiladi. Ta'sir ko'rsatilgan polimerning holati uning avvalgi holati bilan solishtiriladi.

Eng ko'p qo'llaniladigan fizik–kimyoviy usul o'rtacha vazniy va o'rtacha adadiy molekuliyar massani topish usuli orqali polimerlanish darajasini aniqlashga asoslangan.

Destruksiyani kimyoviy usul bilan aniqlash bog'lar uzilishi natijasida hosil bo'lgan qoldiq guruuhlar sonini aniqlashga asoslangan.

Destruksiya natijasida hosil bo'lgan mahsulotning tarkibi va tuzilishini hamda bu jarayonning mexanizmini tekshirish uchun yuqorida ko'rsatilgan usullardan tashqari hozirgi zamondagi eng yangi fizik usullardan, ya'ni spektroskopiya, elektronmikroskopiya, paramagnit rezonansi va hokazolardan ham foydalaniladi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Makromolekulyar reaksiyalar polimerlar molekulyar massasining o'zgarishiga qarab necha guruhg'a bo'linadi?
2. Polimeranalogik o'zgarishlarning qanday o'ziga xos jihatlari bo'ladi?
3. Destruksiya qanday jarayon va uning qanday turlari mavjud?
4. Olovdan himoyalangan qiyin yonuvchi polimerlarni yaratish maqsadida qanday polimerlar olinmoqda?
5. Polivinil spirtini olish.
6. Makromolekuła ichida boradigan reaksiyalar.
7. Makromolekulalararo reaksiyalar.
8. Fenol-formaldegid smolasi olish va qayta ishlash. Rezinaning vulkanlanshi. Terilarni oshlash.
9. Destruksiya deb nimaga aytildi?
10. Kimyoviy destruksiyaning qanday turlari bor? Misollar keltiring.
11. Fizikaviy destruksiyaning qanday turlari bor? Misollar keltiring.
12. Biologik destruksiya qanday sodir bo'ladi?
13. Stabilizator sifatida qanday moddalar ishlataladi?
14. Polimerlarni stabillashning qanday usullari bor?
15. Destruksiya jarayonida polimerlarning molekulyar massasi o'zgaradimi?

VII BOB. POLIMERLARNING STRUKTURASI VA FIZIK-MEXANIK XOSSALARI

7.1. Polimerlar fizikaviy xossalaring o‘ziga xosligi

Polimerlarning oddiy moddalardan farqi, avvalo, ularning o‘ziga xos mexanik xossaga egaligidadir. Ma’lumki, oddiy qattiq jismlar mustahkam bo‘lib, ozgina qaytar deformatsiyaga ega, suyuq jismlar esa, aksincha, mustahkam bo‘lmay, qaytmas deformatsiyaga ega. Polimerlar qattiq va suyuq jismlarning xususiyatlarini o‘zida namoyon qiladi. Ular mustahkam hamda ma’lum hajm va shaklga ega bo‘lib, suyuqlikka xos bo‘lgan qaytmas deformatsiyaga ham egadir.

Ma’lumki, quyi molekulyar birikmalar aniq zichlikka, fazaviy o‘tish temperaturalari – suyuqlanish va qaynash temperaturalariga ega. Polimerlarda esa bir holatdan ikkinchisiga o‘tishi aniq nuqtada emas, qandaydir intervalda sodir bo‘ladi.

Polimerlar optik anizatrop xossaga ega bo‘lgan tola va parda hosil qila oladi. Polimerlarning erishi va ular eritmalarining xossalari oddiy moddalarnikidan farq qiladi. Polimerlar eriyotganda quyi molekulyar moddala larga xos bo‘lmagan bo‘kish hodisasi (quyi molekulyar suyuqlikning polimerda erishi) sodir bo‘ladi. Polimer eritmasi qovushqoqligi oddiy quyi molekulyar modda eritmasi qovushqoqligidan juda ko‘p marta kattadir. Polimer eritmasining termodinamik xususiyati, ayniqsa, osmotik bosimi va eritma ustidagi erituvchi bug‘ bosimlari miqdori quyi molekulyar modda eritmalaridan tubdan farq qiladi. Ana shu fizik xususiyatlariga asosan polimerlar moddalarning alohida guruhiga ajratiladi.

Yuqori molekulyar birikmalarining yuqorida keltirilgan xususiyatlari ularning tuzilishiga bog‘liqmi, degan savol tug‘iladi. Bu savolga hozirgi kungacha polimerlarning o‘rganilgan xususiyatlariga asoslanib, ularning mexanik xossalarga va eritmalarining o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligi polimer molekulalarining zanjirsimon tuzilganligidandir, deb javob berish mumkin.

Polimerlanish va polikondensatlanish jarayonlarini tekshirish, polimerlar va ular eritmalarining fizik xususiyatlarini o‘rganish asosida polimer molekulasi chiziqsimon tuzilishga ega, degan tasavvur kelib chiqdi. So‘nggi vaqtarda esa elektron mikroskoplar yordamida bunday katta makromolekulalarni bevosita tekshirish imkoniyati yaratildi. Shunday

qilib, polimer makromolekulasining chiziqsimon tuzilishga ega ekanligini isbotlovchi juda ko‘p omillar to‘plandi. Polimer molekulasining muhit bilan doim aloqada ekanligini e’tiborga olish kerak. Shuning uchun polimerni ifodalashda faqatgina uning molekula tuzilshini bilish kifoya qilmaydi, bunda makromolekulalararo ta’sir kuchini ham hisobga olish lozim. Polimer birikmalar tuzilishidagi asosiy xususiyat undagi molekulalararo kuchning molekuladagi ko‘ndalang kovalent bog‘ ta’siridan ancha kuchsizligidadir. Polimerning zanjirsimon tuzilishi molekulalararo ta’sir kuchining oshishi (makromolekulalar orasida ko‘p bog‘ hosil bo‘lishi) natijasida yo‘qoladi va polimerlarga xos bo‘lgan butun kompleks xususiyat yo‘qolib boradi.

Shuning uchun avvalo, polimerning chiziqli zanjirsimon molekulasini va uning kichik molekulalardan qanday farqlanishini ko‘rib chiqamiz. Bu yerda gap polimer xususiyatlarini to‘la tushuntira olishga imkon beradigan makromolekulaning qayishqoqligi ustida boradi.

7.2. Polimerlar makromolekulasining qayishqoqligi


Chiziqsimon makromolekulaning qayishqoqligi uglerodlar zanjirining konformatsion va konfiguratsion holatlari bilan bog‘liq. Konformatsion holatning sababini tushunish uchun avvalo etan molekulasini ko‘rib chiqamiz. Etan molekulasining modeli 7.1–rasmda keltirilgan.

CH_3 guruhning birlamchi C–C bog‘ atrofida aylana olish qobiliyatiga ega ekanligi bizga organik kimyodan ma’lum: bunda vodorod atomining o‘rnii o‘zgarib, etan molekulasi turli shaklga o‘tishi mumkin. Masalan, bir holatda birinchi metil guruhdagi vodorod atomlari ikkinchi metil guruhdagi vodorodlar ustiga aniq tushsa, boshqa bir holatda metil guruhlardagi vodorod atomlarining joylanishi ikkinchisiga nisbatan siljigan bo‘ladi.

Molekula erkin aylanadi, deb faraz qilaylik. Bunday molekula bir shakldan ikkinchisiga o‘tganda uning ichki energiyasi o‘zgarmaydi va shu sababli u har qanday shaklga ega bo‘la oladi. Ammo CH_3 guruhning erkin aylana olishiga qaramasdan etan molekulasida uglerod atomlarining o‘zarlo o‘rnii o‘zgarmay qoladi.

Agar propan molekulasini olsak, guruhlarning erkin aylanishi natijasida molekuladagi uchinchi uglerod atomi fazoda konus shaklini chizadi va natijada propan molekulasi ikki holatga ega bo‘la oladi. Bunda molekuladagi C–C masofa ($1,5 \text{ \AA}$) va valentlik burchagi ($109^\circ 28'$) turg‘un

bo'lganligidan propan molekulasida har ikkala shakl o'zgarishi bir xil ehtimoliikka ega (7.2-rasm).



7.1-rasm. Etan molekulasining modeli.



7.2-rasm. Propan molekulasining konformatszion holatlari.

Butan molekulasi guruuhlarining erkin aylanishi esa bir xil ehtimollikka ega bo'lgan 4 xil shakl o'zgarishiga olib keladi. Uglerod atomlari sonining bundan keyingi oshishi molekulaning fazodagi mumkin bo'lgan konformatszion shakkllari sonining ko'payishiga sababchi bo'ladi. Umu man, makromolekula formalari orasidagi farq shu makromolekula uchlari orasidagi masofa «S» ning qiymatiga, «S» ning qiymati esa shakl o'zgarish turlariga bog'liq bo'ladi (7.3-rasm).

«S» ning qiymati qancha kichik bo'lsa, makromolekulaning shu shakl o'zgariishi shuncha barqaror bo'ladi. Makromolekulani faqat bir yo'l bilangina to'g'rilash yoki tayoqsimon holat (makromolekula uchlari orasi-

dagi masofa molekulaning uzunligiga teng holat) ga keltirish mumkin. Shuning uchun bunday holat kamdan-kam hollarda mavjud bo‘ladi.




7.3-rasm. Polimer molekulasining har xil konfiguratsiyalari

Aksincha, makromolekulaning chuvalashgan, tartibsiz o‘ralgan holati ko‘pdir. Sistemaning entropiyasi sistemani ro‘yobga chiqarish usullari so-niga proporsional ekanligi fizik kimyo kursidan ma‘lum. Shuning uchun makromolekula uchlari orasidagi masofa va ularning formalari orasidagi farq entropiya miqdorlari orasidagi farq bilan belgilanadi. Masalan, makromolekulaning to‘g‘rilangan shakli entropiyasi chuvalashgan va tartibsiz o‘ralgan shakli entropiyasidan ko‘p marta kichikdir. Makromolekula shakli mexanik kuch ta’sirida yoki o‘z-o‘zidan o‘zgarganda uning faqat entropiyasi o‘zgaradi, ichki energiya esa o‘zgarmay qoladi. To‘la erkin ichki aylanishga ega bo‘lgan zanjirsimon molekulani ko‘rib chiqamiz. Biroq makromolekulaning guruhlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir energiyasi ularning joylanishiga bog‘liq bo‘lganidan, to‘la erkin ichki aylanishga ega bo‘lgan zanjirsimon molekula real sharoitda mutlaqo uchramaydi. Yana etan molekulasiga qaytamiz. Bir CH_3 , guruh ikkinchisiga nisbatan aylantirilsa, vodorod atomlari orasidagi masofa o‘zgaradi, demak bunda odatdagi o‘zaro ta’sir kuch energiyasi ham o‘zgaradi. Bu energiyaning bir metil guruhning ikkinchisiga nisbatan aylanish burchagiga qarab o‘zgariishi 7.4-rasmda ko‘rsatilgan.

Etan molekulasidagi bir metil guruh 360° ga aylantirilsa, o‘zaro ta’sir kuch energiyasi uch maksimal va uch minimal qiymatga ega bo‘lishi mumkin. Energiyaning maksimum va minimum holati orasidagi farq energetik yoki potensial to‘siq deb ataladi. Etan molekulasi uchun potensial to‘siq 3 kkal/mol ga teng. Murakkab molekula uchun minimum va maksimumlar

soni hamda ularning nisbiy qiymatlari har xil bo‘ladi. Etan molekulasida potensial energiya bilan tebranadi.



7.4-rasm. Etan molekulasidagi metil guruhlarining o‘zaro ta’sir etuv-chi kuch energiyasi bilan burilish burchagi orasidagi bog‘lanish

Demak, ichki aylanish etan molekulasida ham chegaralangan ekan. Molekulyar guruhlarning C–C bog‘ atrofida erkin aylana olishi uchun sis holatning normal holatdan ortiqcha energiyasiga teng aktivlanish energiyasi zarur:

$$n = n_0 C \frac{E}{kT}$$

Bu tenglamada: E – bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish uchun zarur bo‘lgan energiya, K – Boltsman doimiyligi, T – absolyut temperatura, n – bir holatdan ikkinchi holatga o‘tgan molekulalar soni, n_0 – umumiyl molekulalar soni. Bu tenglamadan oddiy temperaturada etanning juda oz molekulasigina erkin aylana olishini, temperatura ko‘tarilganda erkin aylana olish qobiliyatiga ega bo‘lgan molekulalar soni ortishi va aksincha, temperatura pasayganda bunday molekulalar soni kamayishini ko‘rish mumkin.

Chegarali aylanish tushunchasini polimer makromolekulasiga qo’llasa makromolekula qayishqoqligi qanday vujudga keladi, degan savol tug‘iladi. Makromolekula qayishqoq bo‘lishi uchun uning hamma bo‘g‘inlari erkin aylanuvchan bo‘lishi shart emas. Chunki birinchidan, mavjud bo‘lgan temperatura fluktuatsiyasi ba’zi bir bo‘g‘inning aylanish potensial to‘sig‘ini yenga oladi. Ikkinchidan, muvozanat holat atrofida bo‘g‘inlarining aylanma tebranishi ham polimer zanjirini qayishqoq qiladi.

Bir bo'g'inning tebranish amplitudasi 10° deb faraz qilaylik. U holda ikkinchi bo'g'in birinchiga nisbatan 20° li amplituda bilan, uchinchi bo'g'in esa 30° li amplituda bilan tebranadi. Zvenolar soni oshishi bilan ular orasidagi bog'lanish yo'qoladi va nihoyat, $36 - bo'g'in$ birinchi bo'g'inga nisbatan erkin aylana oladi. Demak, bo'g'in erkin aylanishi o'rniga makromolekulaning qandaydir bir qismi (segmenti) erkin aylana olar ekan. Segmentlarning erkin aylana olishi makromolekulaga qayishqoqlik beradi. Segment qancha qisqa bo'lsa, makromolekula shuncha qayishqoq bo'ladi. Molekuladagi molekulyar guruhlarning har xil holatdagi energiyasi o'zaro teng emasligi yuqorida qayd qilingan edi. Demak, molekula bir shakldan ikkinchi shaklga o'tganda uning entropiyasigina emas, balki ichki energiyasi ham o'zgarar ekan.

Biz polimer makromolekulasini ayrim holda olib ko'rdik. Aslida, polimer makromolekulasi boshqa molekulalar bilan qurshalgan, ya'ni kondensirlangan fazada bo'ladi. Shuning uchun qayishqoqliknini belgilashda bir makromolekulaning molekulyar guruhlarning o'zaro ta'siri (molekulyar ichki ta'sir) ni hamda ularning boshqa makromolekula guruhlari bilan ta'siri (molekulalararo ta'sir) ni hisobga olish kerak. Bu polimer molekulasidagi ichki aylanish potensial to'sig'i zanjirsimon molekuladagi molekulyar guruhlarning joylashish xarakteri bilangina emas, balki yaqin qo'shni molekula guruhlarning joylashishi bilan ham belgilanadi, demakdir.

Endi molekula qayishqoqligiga makromolekula tartibiga kirgan atomlar xususiyati, molekulalararo ta'sir kuchining qiymati, zanjirning uzunligi, temperatura kabi omillarning ta'sirini ko'rib chiqamiz. Uglevodorodlardan iborat chiziqsimon makromolekula eng ko'p qayishqoqlikka ega, chunki CH_3 va CH_2 guruhlarning bunday molekulada bir – biriga ta'sir kuchi ozligidan potensial to'siq uncha katta bo'lmaydi.

Tabiiy kauchuk, divinil kauchuk, poliiizobutilen va shu kabi yuqori molekulyar uglevodorodlarning molekulalari yaxshi qayishuvchandir, shuning uchun ular mayjud bo'lgan barcha yuqori molekulyar birikmalar ichida eng elastiklari hisoblanadi.

Agar makromolekula tarkibida Cl atomi yoki $\text{OH}, \text{C} \equiv \text{N}, \text{COOH}$ guruhlar kabi qutbli o'rinnbosarlar bo'lsa, bu o'rinnbosarlarning o'zaro ta'siridan energetik to'siq oshib ketadi va molekulaning qayishqoqligi kamayadi. Qutbli o'rinnbosarlar molekulaning ichki energetik to'sig'ini oshiribgina qolmay, qo'shni makromolekulalar qutbli guruhlarning bir-biriga ta'sirini ham oshirib yuboradi. Natijada bu guruhlar orasida molekulalararo ta'sir

kuchi oshadi, vodorod bog‘ vujudga keladi (masalan, poliakril kislotadagi karboksil guruhlar orasidagi vodorod bog‘).

Bularning hammasi polimer zanjiri qayishqoqligini kamaytirib, polimerning qattiqligini oshiradi. O‘rinbosarlarning zanjir bo‘ylab taqsimlanish xarakteri ham makromolekula qayishqoqligiga ta‘sir qiladi. Masalan, polixlorvinil va xloropren kauchugi xlorli hosila bo‘lsada, polixlorvinilda xlor atomlari bir uglerod atomidan o‘tib, ikkinchi uglerod atomida joylashib boradi, xloroprenda esa xlor atomlari bir biriga ta‘sir eta olmaydigan masofada joylashgandir. Shuning uchun xloropren kauchugi molekulasi da potensial to‘sinq kichik va demak, makromolekulaning qayishqoqligi ko‘pdir.

Makromolekulaning tarmoqlanishi ham uning qayishqoqligiga ta‘sir qiladi. Yon tarmoqlar qisqa bo‘lib, tez-tez takrorlansa, alohida bo‘g‘inlarning - energetik to‘sig‘i oshadi, natijada makromolekula qattiqlashadi. Agar yon tarmoqlar uzun bo‘lib, kam takrorlansa, molekulalararo ta‘sir kamayadi va makromolekulaning qayishqoqligi ortadi.

Makromolekulaning qayishqoqligiga erituvchi molekulalari ham ta‘sir etadi. Molekulalararo ta‘sir kuchni kamaytirib, polimer zanjiri qayishqoqligini oshirish mumkin, buni plastifikatsiyalash deyiladi.

Potensial to‘sinq miqdori bir xil bo‘lganda zanjirning qayishqoqligi molekulyar massaga qarab o‘zgaradi. 10-30 bo‘g‘indan iborat zanjirni olaylik. Bu bo‘g‘inlarning tebranma harakatlari natijasida vujudga keladigan molekuladagi shakl o‘zgarishlar uncha ko‘p bo‘lmaydi. Zvenolar soni ortishi bilan shakl o‘zgarishlar soni orta boradi. Demak, uzun zanjirning qayishqoqligi xuddi shunday kimyoviy tuzilishga ega bo‘lgan qisqa zanjirning qayishqoqlidan katta bo‘ladi. Potensial to‘sinq miqdoriga qarab, polimerga qayishqoqlik va shu bilan birga yangi xususiyatlar beradigan zanjirning minimal uzunligi har xil polimerlarda turlicha bo‘ladi. Potensial to‘sinq miqdori qancha kam bo‘lsa, polimerning bunday molekulyar massasi shuncha kichik bo‘ladi.

Temperaturaning zanjirsimon makromolekula qayishqoqligiga ta‘siri yuqoridagi formuladan yaqqol ko‘rinib turibdi. Temperaturapast bo‘lsa, T ning miqdori energetik to‘sqidan ancha kichik bo‘ladi, buning natijasida bo‘g‘inlar muvozanat holat atrofida faqatgina tebranma harakat qiladi, temperaturaning ortishi bilan issiqlik harakat energiyasi oshadi, T ning miqdori energetik to‘sinq miqdoriga tenglasha boshlagach, tebranma harakat shu qadar kuchli bo‘ladiki, alohida bo‘g‘inlar aylana boshlaydi. Shuning uchun zanjir qayishqoq bo‘lib, materialning elastikligi oshadi.

Masalan, polistirol yoki polimetilmekrilat uy temperaturasida yumshoq bo‘lmay, 80°C da yuqori elastiklikka ega bo‘ladi. Shuningdek, uy temperaturasida cho‘ziluvchan bo‘lgan elastik tabiiy kauchuk temperatura pasaygach, qattiq va mo‘rt bo‘lib qoladi.

Shunday qilib, polimer temperaturaga qarab yuqori elastik yoki mo‘rt material bo‘la olar ekan. Issiqlik yoki tashqi kuch ta’sirida makromolekulaning qandaydir bir qismi (segmenti) erkin aylana olar ekan. Bu qismlar qancha ko‘p bo‘lsa, polimer shuncha qayishqoq bo‘ladi. Polimer zanjirining bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishi konformatsiya deyiladi. Konformatsiyalar soni qancha ko‘p bo‘lsa, polimer shuncha qayishqoq bo‘ladi. Polimerlarning qayishqoqligii xarakterlash uchun segment tushunchasi kiritilgan. Segment polimerlarning erkin harakatlana oladigan eng kichik bo‘lagiga aytildi. Segmentning kattaligi bir yoki bir nechta elementar bo‘g‘indan tashkil topgan bo‘lishi mumkin.

Segmentning uzunligi qancha kichik bo‘lsa, polimer shuncha qayishqoq bo‘ladi. Polimer zanjirining uchlari orasidagi masofa qancha kichik bo‘lsa, konformatsiya soni shuncha ko‘p bo‘ladi, segmentning uzunligi shuncha kichik bo‘ladi. Shunday qilib, polimerlarnin qayishqoqligi bo‘yicha ikkita guruhga bo‘lishi mumkin:

7.3. Amorf polimerlarning uch fizik holatlari


Biz zanjirsimon makromolekulaning quyi molekulyar birikmalardan farqini ko‘rib chiqdik. Endi polimer jismlarning xossalari ko‘rib chiqamiz. O‘z-o‘zidan ravshanki, polimerning molekulasi katta bo‘lgani uchun ularning qaynash temperaturalari juda yuqori bo‘ladi. Shuning uchun mavjud polimerlarning parchalanish temperaturasi qaynash temperaturasidan past bo‘lib, ularni gaz holiga o‘tkazish mutlaqo mumkin emas.

Demak, polimerlar yoki qattiq holatda, yoki suyuq holatda bo‘ladi, qattiq polimer kristall yoki amorf holatda bo‘lishi mumkin. Hozircha amorf polimerlar bilan tanishib chiqaylik.

Qattiq amorf polimerlar bir qator fizik xususiyatlari va tashqi ko‘rinishi bilan oddiy shishaga o‘xshab ketadi. Ular tiniq bo‘lib, katta kuchi ta’sirida ozgina deformatsiyaga uchraydi, ma’lum sharoitda mo‘rt bo‘lib qoladi. Shuning uchun qattiq amorf polimerlar shishasimon polimerlar deyilib, polimerning bu fizik holati esa uning shishasimon holati dab ataladi. Suyuq (o‘quvchan) holatdagisi polimerlar ozgina mexanik kuch ta’sirida shaklini qaytmas darajada o‘zgartira oladi. Ularning hammasi amorf

tuzilishda bo‘lib, ko‘p xususiyatlari bilan oddiy suyuqliklarga o‘xshaydi. Ammo oddiy suyuqliklarga qarama-qarshi o‘laroq yuqori molekulyar suyuqliklarning qovushqoqligi juda katta bo‘ladi. Shuning uchun ham polimerlarning oquvchan holati oddiy suyuqqliklarning oquvchan holatidan farq qiladi. Polimerlarning bunday oquvchan holati qovushqoq – oquvchanlik deyiladi.

Polimerlarda gaz faza bo‘lmaydi



Amorf polimerlar yuqorida keltirilgan ikki holatdan tashqari oddiy jismlarda uchramaydigan uchinchi holatga ham ega. Bu holat polimerning yuqori elastik holati deyiladi. Yuqori elastik holatdagi polimerlar uncha katta bo‘lmagan kuch ta’sirida juda katta qaytar deformatsiyaga ega. Bu holat polimerning qovushqoq-oquvchan holati bilan shishasimon holati orasida vujudga keladi.


Yuqori elastik holat to‘g‘risida keyinroq alohida to‘xtalamiz. Ammo yuqori elastiklikning zanjirsimon molekula qayishqoqligi bilan bog‘liq ekanligini eslatib o‘tamiz. Shunday qilib, amorf polimerlar uch fizik holat: shishasimon, yuqori elastiklik va qovushqoq-oquvchanlik holatlar xos bo‘lib, yuqori elastiklik faqat polimerlardagina uchraydi. Bu holatlardan har birining o‘ziga xos bir qator mexanik va fizik xususiyatlari bo‘lib, texnikada ulardan foydalananildi. Masalan, oddiy sharoitda shishasimon holatda bo‘lgan polimerlar tola, lak, kinolentalar olish uchun ishlatsilsa, yuqori elastik holatdagilari rezina sanoatida ishlataladi. Nihoyat, polimerlarni qayta ishlashdan oldin ularni oquvchan holatga o‘tkaziladi. Shuning uchun shishasimon holatdan yuqori elastiklikka, undan qovush-

qoq oquvchanlikka o'tish temperaturasini o'rganish bilan amorf polimerlarning asosiy xususiyatlari aniqlanadi.

7.4. Polimerlarning termomexanik analizi

Bir holatdan ikkinchi holatga o'tish temperatura oralig'ini tekshirish uchun V.A. Kargin termomexanik usulni ishlab chiqdi. Bu usul doimiy mexanik kuch ta'siri ostida polimer deformatsiyasini kengroq temperatura oralig'iда o'lchashga asoslashgan.

7.5-rasmda Kargin tarozisining sxemasi berilgan. O'lchov asbobi sifatida analitik tarozi olinib, uning bir pallasi yuk 5 bilan almashtirilgan. Bu yuk tomonga puanson 3 o'rnatilgan bo'lib, uning og'irligi tarozining ikkinchi pallasiga tosh qo'yib muvozanatga keltiriladi. Tabletka holdagi namuna puanson ostidagi ko'tariladigan stolchaga o'rnatiladi. Stolcha vint moslamalar yordamida puansonga tekkuncha ko'tariladi. Namuna qo'yilgan stolchaga latundan yasalgan truba o'rnatilgach, unga sovutgich yoki isitgich moslamalar kiygilazadi. Odatda temperatura bir me'yorda ko'tarilib, tezligi bir soatda 60°C bo'lishi kerak.



7.5-rasm. Kargin tarozisining sxemasi:


1-ko'taruvchi stolcha; 2 - namuna solinadigan stakancha; 3 - puanson; 4 - latundan yasalgan qobiq; 5-tarozi pallalarini tenglashtiruvchi yuk; 6-oynacha; 7- termopara.

Polimer deformatsiyasi har $3\text{-}5^{\circ}\text{C}$ da aniqlab boriladi. Buning uchun tarozi pallasidan toshlar oz-ozdan olib turiladi; muvozanatda turgan

puanson tosh olingach, og'irligi bilan namunani bosadi. Puansonning muvozanat holati o'lchab olingach, yana tosh olinadi, natijada puansonda qo'shimcha bosim vujudga keladi. Ma'lum vaqt (10–30 sek) dan keyin shu davr ichida puansonning namuna deformatsiyasi tufayli olgan yangi holati o'lchanadi. So'ngra tosh qaytadan tarozi pallasiga qo'yiladi, bunda puanson ko'tariladi. Puansonning bu holati ham o'lchab olinadi. Puanson holati tarozi shayinining burilish burchagini aniqlashi bilan belgilanadi. Puansonning holatlari orasidagi farq namunaning ish temperaturasida berilgan kuch ta'siridagi deformatsiya miqdorini ifodalaydi. Deformatsiyani bu usulda o'lhashning afzalligi shundaki, issiqlik ta'sirida asbobning deformatsiyalanishi olingan yakunlarga ta'sir etmaydi.

Polimer deformatsiyasini har xil temperaturada o'lchab, polimer deformatsiyasining temperaturaga qarab o'zgarish grafиги chiziladi. Bu grafik «termomexanik egri chiziq» deb yuritiladi. 7.6-rasmda chiziqsimon amorf polimer uchun xos bo'lган termomexanik egri chiziq berilgan.

Nishbiy deformatsiya



7.6-rasm.
Chiziqsimon
amorf (1) va
kristall (2)
polimerning
termomexanik egri
chiziq'i

Quyi temperaturada T_{sh} (shishalanish temperaturasi) nuqtagacha deformatsiya oz va qaytar bo'lib, jism qattiq holatda bo'ladi. Shartli ravishda T_{sh} bilan belgilangan bu oraliqda polimer shishasimon holatda bo'ladi.

Temperatura ko'tarilishi bilan deformatsiyalanish ham asta-sekin ko'tarila boradi, qattiq va mo'rt jism yumshoq va elastik bo'la boradi. Bu oraliq yuqori elastik holat bo'lib, qaytar deformatsiyaga egadir va shartli ravishda T_o (oquvchanlik temperaturasi) bilan belgilanadi. Shunday qilib, T_{sh} va T_o orasida polimer yuqori elastik holatda bo'lar ekan.

Temperatura yana ko'tarilganda qaytmas deformatsiya qovush-qoq-oquvchanlik vujudga kelganligidan deformatsiya miqdori juda


tez oshib ketadi. temperatura T_g dan yuqori bo'lganda polimer qovushqoq-oquvchan holatga o'tadi. Shunday qilib, chiziqsimon amorf polimer qizdirilgan shishasimon holatdan yuqori elastik holat orqali qovushqoq-oquvchan holatga o'tadi. Bir holatdan ikkinchi holatga o'tishda ma'lum temperatura oralig'i mavjud bo'ladi. Bu oraliqlarning temperatura shkalasidagi o'rni polimerming tuzilishi va kimyoviy tarkibigagina bog'liq bo'lmay, balki berilayotgan mexanik kuch tezligiga ham bog'liqdir.

Ta'sir etuvchi kuch tez-tez takrorlanganda yuqori elastiklik va plastik deformatsiya yuqori temperaturada namoyon bo'la boshlaydi. Shishalanish temperaturasining ta'sir etuvchi kuch tezligiga bog'liqligi bu temperaturaning fazoaviy o'zgarish temperaturalaridan tubdan farq qilishini ko'rsatadi. Fazaviy o'zgarishlar faqatgina termodinamik parametrlar (masalan, bosim) bilan belgilansa, amorf polimerlardagi fazaviy o'zgarish termodinamik parametrlar bilan emas, balki deformatsiyaning dinamik sharoiti bilan belgilanadi. Undan tashqari, amorf polimerlarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi fazaviy o'zgarishlardagidek, aniq temperaturaga ega bo'lmasdan, har doim temperatura oralig'iga ($5-10^{\circ}\text{C}$) ega. Bunda amorf polimerlarda bir fizik holatdan ikkinchisiga sakrab o'tish sodir bo'lmaydi.

Amorf polimerlarning bu uch fizik holatini alohida-alohida o'rganishga kirishishdan oldin molekulyar massaning T_{sh} va T_g ga ta'sirini hamda yuqori elastik holatning temperatura oralig'inи tekshirib chiqamiz.

7.7-rasmda bir gomologik qatordagi chiziqsimon polimerlarning termomexanik egri chiziqlari keltirilgan. Bu gomologik qatorning quyi a'zolari (1-4 egri chiziqlar) faqatgina shishasimon holatda bo'ladi, boshqicha aytganda, ularning mexanik xususiyatlari quyi molekulyar amorf moddalar xususiyatiga o'xshash bo'ladi. Qatorning polimerlanish darrjasи oshib borishi bilan polimerlarga xos bo'lgan elastiklik (4-10 egri chiziqlar) namoyon bo'ladi.

7.7-rasmda keltirilgan egri chiziqlardan yana shuni ko'rish mumkin: quyi molekulyar amorf moddalarning T_{sh} va T_g lari bir-biriga juda yaqin joylashgan bo'lib, gomologik qatorda bu oraliqning o'sishi bir xil bo'ladi. Polimer moddalar uchun esa T_{sh} va T_g ning molekulyar massaga qarab o'zgarishi turlicha bo'ladi: molekulyar massaning oshishi bilan T_g kattalashib borsa T_{sh} deyarli o'zgarmay qoladi. Bu quyidagi hollar bilan bog'langan.



7.7-rasm. Chiziq-simon polimer gomologlarinig termomexanik egri chiziqlari.

Egri chiziq sonining ortib borishi bilan polimerlanish darajasi ortadi.

Oquvchanlik butun molekulaning siljishidan sodir bo'lgani uchun molekula uzunligining oshishi bilan T_g ning ko'tarilishi tabiiydir. Yuqori elastik holat esa makromolekulaning qayishqoqligi, ya'ni makromolekula alohida qismlari— segmentlarining siljishiga bog'liq. Shuning uchun molekulaning uzunligi o'zining segmentidan kattalashgach, yuqori elastik holat temperaturasining vujudga kelishi molekulyar massaga bog'liq bo'lmay qoladi. T_g esa turg'un qola beradi. Bundan segment qancha kichik bo'lsa, polimer uchun shishalanish temperaturasi va yuqori elastik holat molekulyar massa kamroq bo'lganda ham vujudga kela beradi, degan xulosa kelib chiqadi. Deinak, segment mazkur polimerning yuqori elastikligi namoyon bo'lgandagi molekulyar massasiga teng ekan. Segment qiymatini topish uchun polimer fraksiyalarning alohida termomexanik egri chiziqlari olinadi. Undan koordinatalarga $T_g - T_h$ va polimerlanish darajasi qo'yilib, yangi egri chiziq chiziladi va hosil bo'lgan egri chiziq $T_g - T_h \rightarrow 0$ gacha ekstropolyatsiya qilinadi. Chiziqning ordinata o'qi bilan kesishgan nuqtasidan koordinata markazigacha bo'lgan masofa segment qiymatiga teng bo'ladi. Polimerlanish darajasi bilan ifodalangan segment qiymati orqali makromolekulaning qayishqoqligini ifodalash mumkin.

Aytaylik, shu usul bilan topilgan poliizobutilen segmentining qiymati, ya'ni uning polimerlanish darajasi 20 ga teng, polivinilxlorid segmentining qiymati esa 100–150ga teng bo'lsin. Bundan poliizobutilen makromolekulasining polivinilxlorid makromolekulasiga nisbatan qayishqoqligini, ya'ni polivinilxlorid makromolekulasining qattiqligi sababini bilish mumkin.

Rasmda keltirilgan termomexanik egri chiziq, ma'lum darajada ideal-lashtirilgan. Aslida esa polimerning termomexanik egri chiziq zanjirsimon molekula bo'g'inlarining kimyoviy tarkibi va tuzilishiga qarab o'zgaradi. T_g va T_d larning qiymati bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Shuning uchun ham ikki, hatto, bir fizik holatda bo'lgan polimerlar uchrab turadi. Masalan, parchalanish temperaturasi shishalanish temperaturasidan yuqori, ammo oquvchanlik temperaturasidan past bo'lgan polimer qizdirilsa, u yuqori elastik holatga o'tadi, lekin uni qovushqoq-oquvchan holatga o'tkazib bo'lmaydi, chunki u endi ortiq darajada qizdirilsa, parchalanib ketadi. Bunday polimerlarga poliakrilonitril, polivinilxlorid, polivinil spirt va boshqalar misol bo'la oladi. Polimer zanjirining qattiqligi juda katta bo'lsa, polimerning T_g si shu qadar yuqori bo'ladiki, u qizdirilganda yuqori elastik holatga o'tmasdanoq parchalanib ketadi. Nitrosellyuloza va sellyulozaning bir qator efirlari faqat shishasimon holatdagina mavjud bo'radi. Shunday qilib, hamma polimerlar uchun ham shishasimon holat mavjuddir.

7.5. Polimerlarni plastifikatsiyalash

Polimerni plastifikatlashni, ya'ni polimer moddaga quyi molekulyar moddalar qo'shib, uning xususiyatini o'zgartirishni polimerning quyi molekulyar moddada yoki aksincha, quyi molekulyar moddaning polimerda erish jarayonining xususiy holidan biri deb qarash mumkin. Shuning uchun ham plastifikator polimerga mos kelishi shart, chunki moddalar o'ziga o'xshash moddalarda yaxshi eriydi. Agar plastifikator polimerga mutlaqo mos kelmasa yoki ozroq mos kelsa, u yuqori molekulyar birikma bilan emulsiya hosil qiladi. Hosil bo'lgan emulsiya zarrachalari (odatda bunday sistemaning disperslanish darajasi juda yuqori bo'radi) bir-biri bilan qo'shilib yiriklashadi: yiriklashishning davom etishidan tomchilar hosil bo'radi va niroyat polimer sirtiga ajralib chiqadi. Plastifikator qo'shiiganda agar polimer mana shunday bir jinsiz sistema hosil qilsa, uning mexanik, elektrik va shu kabi bir qator xususiyatlari yomonlashadi. Aytilganlardan plastifikatorning polimerga mos kelishi juda katta ahamiyatga ega ekanligi ko'rinish turibdi.

Plastifikatorning yuqori molekulyar birikmaga mos kelishi natijasida konsentrangan bir jinsli eritmaning hosil bo'lishi xuddi polimerning erituvchida erish jarayonidagi kabi ikkala turdag'i molekulalar orasidagi bog'lanish energiyasi bilan entropiyaga bog'liq, ya'ni $\Delta F = \Delta U - T\Delta S$

< 0. Shuning uchun qutbli polimerlarga qutbli plastifikatorlar va, aksincha, qutbsiz polimerlarga qutbli bo'lmagan plastifikatorlar to'g'ri keladi. Masalan, tabiiy kauchuk uchun nefstning yuqori temperaturada qaynovchi mahsulotlari (vazelin, yarimgudronlar va hokazolar), xloropren kauchugi uchun esa dimetilftalat, dibutil sebatsinat va nihoyat, nitrosellyuloza, atsetilsellyulozalar uchun ftalatlar, trikrezilfosfat, polivinil spirt uchun glitserin, glikol, quyi molekulyar aminlar plastifikator sifatida ishlatalidi.

Plastifikator polimerga qizdirib turib, ma'lum aralashtirgichlar yordamida yoki juvalab qo'shiladi. Agar plastifikatorning polimerda erishi temperatura pasayishi bilan kamaysa, plastifikatorlangan mahsulot sovitilganda ortiqcha plastifikator polimer sirtiga chiqib qoladi. Buning oldini olish uchun avvalo polimer bilan plastifikatorning bir-birlarida eruvchanlik darajasini bilib olish kerak. Undan so'ng polimerda eriy oladigan miqdorda plastifikator qo'shish zarur. Ammo polimer eritmasining qovushqoqligi kattaligidan uning qavatlanishi juda uzoq muddatga cho'ziladi, natijada, polimer-plastifikator eruvchanlik diagrammasini olish qiyinlashadi. Plastifikator polimerga mos kelishidan tashqari toksik xususiyatga ega bo'limasligi hamda uning bug' bosimi kam bo'lishi va plastifikator yonmaydigan va arzon bo'lishi kerak.


Ma'lumki, zanjirsimon chiziqli amorf polimer shishasimon, yuqori elastik va qovushqoq-oquvchan holatda bo'ladi. Bu holatlarning temperatura chegaralari polimerning shishalanish temperaturasiga, oquvchanligiga va kimyoviy parchalanishiga bog'liq. Polimer turiga, makromolekulasingin qayishqoqlik darajasiga qarab ma'lum temperaturada uch holatning biriga ega bo'ladi. Masalan, kauchuklar 50-60°C bilan 140-150°C orasida, polistirol yoki polimetilmekrilat 80-90°C bilan 180-190°C orasida yuqori elastik holatda bo'ladi. Lekin hamma polimerlar ham yuqori elastik holatda bo'la bermaydi. Shishalanish temperaturasi



(T_g) va oquvchanlik (suyuqlanish) temperaturasi (T_g) yuqori bo'lgan polimerlar qizdirish bilan parchadaib ketadi. Masalan, sellyuloza va uning ba'zi esirlari faqatgina shishasimon holatda mayjud bo'lib, qizdirilganda yuqori elastik holatga o'tmasdanoq parchalanib ketadi, polivinilxlorid esa qovushqoq oquvchan holatga o'tguncha parchalanadi. Shuning uchun bunday polimerlarning T_g va T_f larini, istagan tomonga siljita olish kerak. Buning uchun polimerga quyi molekulyar modda – plastifikator qo'shiladi. Plastifikator yuqoriroq temperaturada polimerni yumshatish uchungina qo'shilmay, hatto yuqori elastiklik temperaturasini pasaytirish maqsadida ham qo'shiladi. Masalan, polimerning sovuqqa chidamliligini oshirish uchun, ya'ni yuqori elastiklik temperurasini pasttemperaturaga surish maqsadida polimerga plastifikator qo'shiladi. Shuni ham e'tiborga olish kerakki, oquvchanlik temperaturasi pasaytirilgandagi temperatura plastifikatlangan polimerning ekspluatatsiya temperurasidan yuqori bo'lishi kerak. Bu holda plastifikator polimerning T_g sini pasaytiribgina qolmay, balki uning pasttemperaturaga (sovuuqqa) chidamliligini oshiradi.

Ba'zi hollarda polimerlarni, masalan, polietilenni plastifikatlamasdan ham ishlatsa bo'ladi. Bunday polimerlar qizdirish bilan qovushqoq–oquvchan holatga o'tkaziladi. Ammo bu yo'l bilan polimerni hamma vaqt qovushqoq oquvchan holatga o'tkazib bo'lmaydi. Bunday hollarda polimerning qovushqoq–oquvchanlikka o'tish temperurasini pasaytirish maqsadida unga plastifikator qo'shiladi. Natijada polimerni qayta ishlash yengillashadi. Polimerning egiluvchan, bukiluvchanligini oshirish maqsadida ham polimer plastifikatsiyalanadi. Ba'zan polimerni shishasimon holatda ishlatishga to'g'ri keladi. O'z-o'zidan ma'lumki, bunday hollar da polimerda yuqori elastiklik va demak, oquvchanlikning ozgina bo'lsa ham paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'ymaslik kerak. Tajribalarning ko'rsatishicha, shishasimon holatdagi toza polimerlarni ishlatish ko'pincha ko'ngilsiz oqibatlarga olib keladi, chunki bunday holatda polimer mo'rt bo'ladi. Shuning uchun ham polimer plastifikatlanadi. Bunda polimerga qo'shiladigan plastifikatorning miqdori shunday bo'lishi kerakki, plastifikatlangan polimer qizdirilganda plastifikator faqat shishasimon holatda bo'lsin. Bunday polimerlarning mo'rtligi kamayib, elastikligi oshadi. Buni 7.8-rasmdan ko'rish mumkin.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlardan ko'rindiki, polimerning yuqori elastikligini, qovushqoq–oquvchanligini, elastikligini oshirish maqsadida polimerga quyi molekulyar modda qo'shiladi, ya'ni polimer plastifikatlanadi.



7.8 -rasm. Polimer deformatsiyasiga plastifikatorning ta'siri:
1-plastifikatlanmagan polimer; 2-plastifikatlangan polimer.

Polimerga quiy molekulyar moddalar qo'shib, uning yuqori elastikligini va qovushqoq-oquvchanligini oshirish, ya'ni polimerning shishalanish – T_{sh} va oquvchanlik – T temperaturalarini kamaytirish molekulalara-ro va makromolekula bo'ylab bo'ladigan o'zaro ta'sirni kamaytirishga asoslangandir.

Ikkala komponent qutbli bo'lgandagi plastifikatlanish mexanizmi qutbli bo'limgandagi plastifikatlanish mexanizmidan tamoman farq qiladi. Qutbli polimerlar plastifikatlanishining molekulyar mexanizmini S.N. Jurkov yaratdi. Qutbli polimerlarning molekula shakli va o'lchami turli-cha bo'lgan bir qancha qutbli suyuqliklarda plastifikatlanishini tekshirish natijasida polimerning shishasimon holatga o'tishi – T_{sh} temperaturasining pasayishi molekulaning shakli va o'lchamidan qat'iy nazar, faqatgina yutilgan modda miqdoriga to'g'ri proporsional ekanligi aniqdandi:

$$\Delta T_{sh} = Kn$$

Bunda: n – yutilgan (sorbsiyalangan) molekulalar soni;

K – mazkur polimerga taalluqli bo'lgan turg'un son.


Qutbsiz polimerlar uchun T_{sh} ning o'zgarishi murakkabroq bo'lib, tenglamadagi K turg'un bo'lmaydi, ya'ni u yutilayotgan quiy molekulyar modda molekulasi uzunligining ortishi bilan ortadi. Tajribalardan olingan ma'lumotlar asosida polimerlarning plastifikatlanish mexanizmi ustida aniq mulohaza yuritish mumkin.

Ma'lumki, qutbli polimerlarda zanjirsimon makromolekula qismlari orasida molekulalararo ta'sir mavjudligidan polimerda fazoviy tur vu-judga keladi. Bunday fazoviy turni hosil qilgan bog'larning hosil bo'lish

energiyasi uncha ko'p bo'lmasa ham issiqlik harakati energiyasiga yaqin: temperaturaning ko'tarilishi bilan bu bog'lar uzeladi, temperaturaning pasayishi bilan esa bog'larning soni ortadi, ya'ni yuqori elastik holatdagi polimer shishasimon holatga o'tadi.

Polimerga qutbli molekulalari suyuqlik qo'shilganda qutbli molekulalar makromolekulaning qutbli bo'laklari bilan o'zaro reaksiyaga kiri-shadi, natijada, makromolekulalar orasidagi o'zaro ta'sir yo'qoladi yoki kamayadi.

Bu hol fazoviy tur hosil qiluvchi bog'lar sonining kamayishiga va polimerning yuqori elastik holatdan shishasimon holatga o'tish temperaturasining pasayishiga olib keladi. Demak, polimerning qutbli guruhlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni kamaytirish qutbli molekulalar soniga bog'liq ekan, polimer T_g sining pasayishi plastifikatorning molyar qismigagina bog'liq bo'ladi. 7.9-rasmida keltirilgan tajriba ma'lumotlari buning isbotidir.




7.9-rasm. Polimetilmekrilatning shishalanish temperaturasi bilan plastifikatorning molyar qismi orasidagi bog'lanish.

Yuqorida aytilganlar qutbli bo'lмаган polimerlar uchun to'g'ri kelmaydi, chunki bunday polimer makromolekulasingning istalgan uglevodorod bo'g'ini qo'shilayotgan modda bilan bog'lana oladigan faol markaz bo'la oladi. Shuning uchun yutilayotgan molekulalarning soni qancha ko'p bo'lsa, zanjirsimon molekulalar orasidagi bog'ning soni shuncha kamayadi. Bu hol yutilayotgan molekulaning o'lchamiga bog'liq: yutilayotgan molekula qancha katta bo'lsa, makromolekulaning shuncha ko'p faol

markazi bilan qo'shila oladi. 7.10-rasmda uglevodored radikalining o'sib borishi bilan polimerning plastifikatlanishi qanday o'zgarishi ko'rsatilgan. Bu rasmdan polivinilbutiralga o'ziga baravar miqdorda (0,5 mol) $CH_3(CH_2)_2OCO(CH_2)_mOCO(CH_2)_nCH_3$ ko'rinishdagi efirdan qo'shilganda plastifikatlanishning uglevodorod radikali uzunligiga bog'liq ekanligini ko'ramiz.

V.A. Kargin va G.L. Slonimskiy o'z ishlarida polimerlarning plastifikatlanish nazariyasini berdilar. Ular T_{sh} ning molekulalararo ta'sir natijasidagina emas, balki molekulalarning ichki ta'siri hisobiga ham kamayishini ko'rsatdilar. Shuning uchun polimerda T_{sh} ning pasayishi umuman makromolekula bo'g'inlari harakatchanligiga, boshqacha aytganda, sistemaning mikroqovushqoqligiga bog'liqdir.



7.10-rasm. Polivinilbutiralning shishalanish temperaturasi T_{sh} bilan plastifikator molekulasi zanjiridagi uglerod atomlari soni o'rasisidagi bog'lanish. 1-oksatal kislotanining dietil efiri; 2-oksatal kislotanining dibutil efiri; 3-qahrabo kislotanining dibutil efiri; 4-adipin kislotanining dibutil efiri; 5-qahrabo kislotanining digeksil efiri; 6-adipin kislotanining digeksil efiri; 7-sebasin kislotanining digeksil efiri; 8-sebasin kislotanining dioktil efiri.

Polimerga quyi molekulyar birikmalar qo'shilganda sistemaning mikroqovushqoqligi kamayadi. Sistema mikroqovushqoqligining kamayishi va zanjirsimon makromolekula bo'g'inlari harakatchanligining ortishi faqatgina molekulalararo va molekulalarning o'zidagi ta'sirni kamayishi hisobiga bormasdan. balki makromolekulalar orasidagi o'rta-


cha masofaning ortishi natijasidagi bo‘g‘inlarning fazoviy siljishiga ham bog‘liqdir. Aytib o‘tilgan omillarning roli polimer va plastifikatorning xiliga qarab turlicha bo‘ladi.

Qutbli polimerga qutbli plastifikator ta’sir ettirilgandagi mikroqovushqoqligining kamayishi molyar qism qoidasi plastifikatlanish jarayonining bir xususiy holi bo‘lib, qutbli sistemalar uchungina xosdir. Agar sistema qutbli bo‘lmasa yoki qutbliligi kam bo‘lsa, sistema mikroqovushqoqligi makromolekulalararo ta’sirning kamayishi hisobiga emas, balki yuqorida aytiganidek, fazoviy effekt hisobiga boradi. Bu hol qutbsiz yoki kam qutbli polimerlarning shishalanish temperaturasini pasayishi plastifikatorning hajmiy konsentratsiyasi bilan to‘g‘ri chiziq tenglamasi kabi bog‘lanishga olib keladi:

$$\Delta T_{ch} = K\phi$$

Bunda: ϕ – polimerdagи plastifikatorning hajmiy konsentratsiyasi;
 K – mazkur polimerga xos bo‘lgan koefitsient.

Bundan ko‘rinadiki, polimerga bir xil hajmiy qismda qo‘shilgan plastifikatorlar polimerning shishalanish temperaturasini bir xil kamaytiradi. Buni 7.11-rasmda keltirilgan amorf polistirolning plastifikatlanishidan ko‘rish mumkin.




7.11-rasm. Amorf polistirolni shishalanish temperaturasining plastifikatorning hajmiy konsentratsiyasiga bog‘liqligi.

Plastifikatlanish jarayonining molyar qism va hajmiy qism qoidalari plastifikatlanishning ikki umumiy hollarini olib qaraydi. Bu ikki qoida-

ning har biriga juda oz sistemagina itoat etadi. Ammo ko'pchilik hollarda polimerning plastifikatlanish mexanizmi bu qoidalardan chetlanadi, ko'pincha har ikkala mexanizm bir vaqtda sodir bo'ladi. Endi plastifikatorning chiziqsimon polimer deformatsiyasiga ta'sirini ko'rib chiqamiz. Agar qayishqoq makromolekulali polimer plastifikatlansa, qayishqoqlik yanada oshadi va bu hol T_{sh} va T_e ning kamayishiga olib keladi.

7.12-rasmda ko'rsatilganidek polimerga plastifikator qo'shilishi bilan polimerning yuqori oquvchanlik holati past temperatura tomon siljiydi va natijada bu holatning kengligi kamayadi.

Polimerdagi plastifikator miqdorining yanada ortib borishi bilan polimer qaytadan yuqori elastik holatga o'tadi; bu hol polimerning plastifikatlangan holatdan plastifikatordagi eritmaga aylanganini bildiradi.



7.12-rasm. Qayishqoq polimerlarning turli temperaturadagi deformatsiyasiga plastifikatorning ta'siri; 1-plastifikatorsiz polimerning deformatsiyasi; 2,3-plastifikator qo'shilgan polimerning deformatsiyasi

Agar makromolekula qattiq bo'lsa, polimerda plastifikator miqdorining oshishi bilan sistemada yuqori elastiklik mutlaqo yangidan namoyon bo'lmaydi yoki juda ozgina aks etadi. Bunda keyingi qo'shilayotgan plastifikator polimerni shishasimon holatdan oquvchan holatga o'tkazadi va natijada polimerning T_e si ham kamayadi.

Ba'zi hollarda polimer makromolekulasining qattiq bo'lishiga qaramay, unga qo'shilayotgan quyi molekulyar plastifikator yuqori elastik holatning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Qattiq zanjirli makromolekula plastifikatlanganda yuqori elastiklikning vujudga kelishi makromolekulaning funksional guruhlari bilan

plastifikator o'rtasida kuchli bog' hosil bo'lishi natijasida polimer qayishqoqligining oshishi bilan tushuntiriladi. Shuning uchun ham polimerga plastifikator qo'shilganda sistemada yuqori elastiklik holat qayta namoyon bo'ladi yoki bu holatning temperatura chegarasi kengayadi. Plastifikatorning keyingi qo'shilishidan polimer makromolekulasining qayishqoqligi unchalik ortmagani uchun yuqori elastik holat chegarasi kengaymaydi. Toza holda yuqori elastik holatga ega bo'lmaydigan polimerlarni plastifikatlab, yuqori elastik holatni hosil qilish hamda shu asosda yuqori elastiklik temperaturasi chegaralarini kengaytirish polimerlarni qayta ishslash texnologiyasi negizini tashkil etadi.


Shishasimon holatdagi polimerlarni plastifikatlash yo'li bilan elastik qilish mexanizmini ko'rib chiqamiz.

Makromolekulaning qayishqoqligi qancha katta bo'lsa, makromolekulalar kondensirlangan fazoda shuncha zich joylashadi va undan yasalgan buyumning egiluvchanligi kam bo'ladi. Masalan, kauchuk va shunga o'xshash polimer makromolekulalari juda qayishqoq bo'lganligidan kondensirlangan fazoda shunday zich joylashadiki, unday polimerlar shishasimon holatda mo'rt bo'ladi. Makromolekulalararo ta'sir etuvchi kuchlar qancha ko'p bo'lsa, ularning joylashishi unchalik zich bo'lmaydi. Bunday polimerlarga sellyuloza va uning efirlari misol bo'ladi. Ulardan buyum tayyorlashda polimerni qayta ishlab, uning elastikligini oshirish katta ahamiyatga ega.

Polimerga plastifikator qo'shilganda makromolekulalar orasidagi o'zaro ta'sirlashish kuchlari kamayib, undagi bo'shliqlar plastifikator molekulalari bilan to'lib boradi va polimerning elastikligi ortadi. Ammo bundan har qanday quyi molekulyar modda qattiq zanjirli polimerga plastifikator bo'la oлади, degan xulosa kelib chiqmaydi. Makromolekula qayishqoqligini oshiradigan quyi molekulyar moddalar polimer elastikligini oshirish uchun ishlatilmaydi, chunki makromolekulalarning qayishqoqligi oshib ketganda molekulalar shunday zich joylashadiki, polimer shishasimon holatda (kondensirlangan fazo) mo'rt bo'lib qoladi. 9.13-rasmda atsetilsellyulozaning trifenilfosfat bilan plastifikatlanishi berilgan.

Bu moddaning elastik deformatsiyasi 20° dan 220°C gacha bir xil bo'lib, makromolekulaning ma'lum tartibdagi zichligiga to'g'ri keladi. Agar shunday atsetil sellyuloza 34 foizi trifenilfosfat bilan plastifikatlansa, elastik deformatsiyaning temperatura chegarasi kengayadi (2-egri chiziq). Plastifikatlangan polimerning elastik deformatsiyasi 40°C gacha

o‘zgarib, undan keyin tez ortadi va 200°C dan yuqorida qovushqoq-oquvchan holatga o‘tadi.



7.13-rasm. Atsetilsellyulozaning trifenil fosfat bilan plastifikatlanishi.

Demak, plastifikator ta’sirida atsetilsellyulozaning qayishqoqligi va zichligi ortadi. Plastifikatlangan atsetilsellyuloga 40°C dan past temperaturada mo’rt bo‘ladi.

Shunday qilib, polimerlarning plastifikatlanishida geometrik omillarning roli ham katta ekan.


7.6. Polimerlarning kristall holati

Oldingi bo‘limlarda chiziqsimon amorf polimerlarning uch fizik holatlari (shishalanish, yuqori elastiklik va oquvchanlik)dagi xossalari ko‘rilgan edi. Batafsil ko‘rib chiqilgan bu uch holat amorf fazaga tegishlidir. Endi biz kristall fazadagi polimerlarni ko‘rib chiqamiz.

Kristallanish jarayonining umumiy ta’rifi. Makromolekulaning tuzilishi bilan kristallanish orasida ma’lum bog‘lanish bor. Molekulasi chiziqsimon tuzilishga ega bo‘lgan polimerlar kristall polimerlardir.

Masalan, polietilen $\sim CH_2 - CH_2 - CH_2 - CH_2 \sim$, polietilentereftalat $\sim CO - C_6H_4 - CO - O - CH_2 - CH_2 - O \sim$. Chiziqsimon makromolekula tuzilishining ozgina buzilishi, masalan, polietilen zanjirining qisman tarmoqlanishi polimerning kristallanishini bir munkha chegaralab qo‘yadi. Yon guruhlar tobora ko‘p tarmoqlangani sari polimerning kristallanish qobiliyati sekin-asta kamayadi va nihoyat, uning kristallanish qobiliyati yo‘qoladi. O‘rinbosarlari tartibsiz takrorlanuvchi sopolimer yoki polimer

molekulalari ham deyarli kristallanmaydi. Bularga quyidagi tuzilishga ega bo'lgan polivinilatsetat va polistirol misol bo'la oladi:



Lekin shuni qayd qilish kerakki, etilen bilan vinil spirtning, etilen bilan tetraftor etilenning, etilen bilan uglerod(II)-oksidning sopolimerlari molekulalarining tartibsiz tuzilganligiga qaramay, kristallana oladi. OH , F , $C = O$ kabi o'rribosarlarning hajmi kichik bo'lganligidan kristallanishga xalaqit bermaydi.

Polimerning kristallanish qobiliyatiga uning stereokimyoviy tartibga egaligi juda katta ta'sir ko'rsatadi. Polimerlarda stereotartibli tuzilishning ikki asosiy turi: izotaktik va sindiotaktik tuzilishi ma'lum. Agar poliolefinning asosiy zanjirini bir tekislikda deb qarasak, uglerod atomlari bilan bog'langan o'rribosarlar asosiy zanjir tekisligiga nisbatan turlicha joylashishi mumkin. Stereotartibli izotaktik polimerlarda barcha o'rribosarlar zanjir tekisligiga nisbatan bir tomonda joylashadi, sindiotaktik polimerlardagi o'rribosarlar asosiy zanjir tekisligiga nisbatan navbatmanavbat yuqori va quyida joylashadi. Stereotartibli polimerlar katta hajmi o'rribosarlarga ega bo'lsa ham, juda katta kristallanish qobiliyatiga ega. Misol tariqasida izotaktik polistirol va polipropilen, sindiotaktik polimetilmekrifiklat polimerlarni keltirish mumkin.

Shunday qilib, polimerlarning kristallanishi uchun zarur bo'lgan sharoitlardan biri molekulalarning ma'lum tartibda tuzilishidir.

Kristallanishning boshqa shartlaridan biri kristall panjara hosil qilish uchun zarur bo'lgan makromolekulaning harakatchanligidir.

T_g dan quyida makromolekula harakatchanligi juda oz bo'lganligi uchun polimerlar kristallanmaydi. (Kristallanish temperaturasining eng yuqori chegarasi polimer kristallarining suyuqlanish temperaturasi hisoblanadi.) Kristallanish temperaturasi shishalanish va suyuqlanish temperaturalari orasida bo'lib, kristallanish tezligi odatda maksimumdan o'tadi, chunki shishalanish temperaturasiga yaqin temperaturalarda

makromolekula harakatchanligi, suyuqlanish temperaturasi yaqinida esa kristallanish markazi hosil bo'lish ehtimolligi juda oz.

Turli polimerlarning kristallanish tezligi odatda keng intervalda o'zgaradi va makromolekulyar zanjirming simmetriya darajasi yoki yon o'rinnbosarlarning bo'lishi, qayishqoqlik kabi qator omillarga bog'liq bo'ladi.

Yuqori simmetriya va qayishqoqlikka ega bo'lgan polietilen molekulasi suyuq holatdan kristallga aylanayotganda uning kristallanishi sovish tezligiga bog'liq bo'lmaydi, hatto polietilen yupqa pardashklida suyuq havo bilan juda tez sovitilganda ham to'la amorf holatida olinmagan.


Polietilenterestalat shishalanish temperaturasidan ($T_g = 80^{\circ}\text{C}$) pastda juda tez sovitilganda to'la amorf holatda olinadi va uning bu holati uzoq vaqt saqlanib qoladi. O'rtacha holatda bo'lувchi polimerga misol sifatida polivinilidenxloridni olish mumkin. Ba'zi polimerlar juda yuqori qayishqoqlik va makromolekulyar simmetriyaga ega bo'lishiga qaramay, juda kichik kristallanish tezligiga ega. Masalan, kauchukning juda sekin kristallanishi kristall va amorf holatlaridagi entropiyaning juda katta farqlari ($S_{\text{amorf}} > S_{\text{krist}}$) bilan tushuntirilishi mumkin. Shuning uchun temperaturani kamaytirish yoki polimerni cho'zish, ya'ni amorf holat entropiyasini, binobarin, amorf va kristall holat entropiyaлari orasidagi farqni kamaytirish orqali kristallanishni oxirigacha olib borish va uning tezligini orttirishga erishish mumkin.

Odatda kristallanish tezligi polimerning issiqlik effekti, hajmi va boshqa fizik xususiyatlari o'zgarishiga qarab aniqlanadi. Muvozanat haqiqiy kristallanish darajasiga kelish vaqtি aniq bo'lmagani uchun ma'lum temperaturadagi kristallanish tezligi namuna hajmining (yoki qandaydir boshqa xossasining) o'zgarishi uchun zarur bo'lgan vaqtga teskari qiymat bilan ifodalanadi.

Shunday yo'l bilan topilgan kristallanish tezligining temperaturaga bog'liqligi juda yaqqol ko'rindi. Temperatura kamayishi bilan kristallanish tezligi avval ortadi, so'ngra molekula harakatchanligining kamaganligi uchun kamayadi (7.14-rasm).

Kristall polimerlarning strukturasi. Kristall polimerlar strukturasini tekshirish ularning quyi molekulyar kristall moddalardan farq qilishini ko'rsatadi. Kristall polimerlar rentgenogrammasida aniq difraksion qism bilan bir qatorda amorf moddalar uchun xos bo'lgan diffuziyalangan qism ham bo'ladi. Bunday polimerlarning zichligi kristall va amorf moddalar


zichligining o‘rtacha qiymati bilan ifodalanadi, infraqizil spektr kristall va amorf holatlar uchun xarakterli bo‘lgan ikki tur hosil qiladi.



7.14-rasm. Kauchuk kristallanish tezligining temperaturaga bog‘liqligi.

Chiziqsimon polimerlar rentgenogrammasini o‘rganish asosida kristall qismlarning kichikligi, ya’ni bir necha o‘n va yuz angstrom bo‘lishi ham aniqlangan. Demak, kristallar juda kichik bo‘ladi, ya’ni molekula butunligicha kristallanmaydi. Binobarin, har bir kristall qismida molekulaning faqat ma‘lum qismlarigina bo‘ladi. 7.15-rasmda polimerning bunday strukturasi sxematik tarzda ko‘rsatilgan. Har bir kristall qismlar orasidagi molekula qismlari amorf qismlarni tashkil etadi.

Quyi molekulyar suyuqliklarda molekula qismlarining kristallga joylashishi qolgan suyuqlikda hech qanday o‘zgarishni yuzaga keltirmaydi, chunki barcha molekulalar o‘zlarining nisbiy joylashishini istagancha o‘zgartira olishlari mumkin. Polimerlarda bunday emas.



7.15-rasm. Polimerlar struktururasining sxemasi:
A- amorf polimer, B- kristall polimer

Kristall zanjirli molekulalarning qayta joylashishi ularning deformatsiyalanishiga olib keladi, natijada amorf fazada kristallni buzishga intiluvchi kuchlanish paydo bo‘ladi. Bu kuchlanish kristallning o’sishiga qarshilik ko‘rsatadi, kristall va amorf faza orasida ma’lum energetik muvozanat hosil bo‘ladi.

Kristall polimerlarni suyuqlantirishda xarakterli xususiyatlar yuzaga keladi. Quyi molekulyar kristall moddalar ma’lum temperaturada suyuqlansa, polimerlar temperaturalar oralig‘ida suyuqlanadi.

Chiziqsimon yuqori molekulyar moddalarning ma’lum temperaturada suyuqlanmasligi polimerlarning katta–kichik molekulalardan iborat ekanlididir, lekin ularning suyuqlanish temperaturasi intervali poli-disperslikka bog‘liq emas. Haqiqatan ham har bir kristallga molekulaning faqat kichkina qismlarigina kirgani tufayli makromolekulalarning uzun-qisqaligi polimerning suyuqlanishiga ta’sir etmaydi. Shuning uchun polimer suyuqlanish temperaturasining intervali temperaturaga, kristall va amorf faza nisbati o‘zgarishiga bog‘liqdir.

Yuqorida aytilganidek, kristallni buzishga intiluvchi amorf fazadagi kuchlanish kristallanish jarayonida to‘xtovsiz ortib boradi. Kristallarning suyuqlanish jarayonida esa ichki kuchlanish aksincha to‘xtovsiz kamayib boradi. Natijada qolgan kristall qismlarning suyuqlanish temperaturasi uzlucksiz bo‘ladi. Bu esa kristall polimerlarning ma’lum birgina temperaturada emas, balki temperatura intervalida suyuqlanishiga sabab bo‘ladi.

Ma’lumki, uzoq vaqt saqlash yoki juda yuqori temperaturada kristallga o‘tkazish kabi ichki kuchlanishni kamaytiruvchi omillar polimer suyuqlanish temperaturasini oshiradi va suyuqlanish temperaturasi intervalini kamaytiradi.

Kristall polimerlar ikki xil struktura tuzilishiga ega bo‘lgani uchun ularni o‘rganish birmuncha murakkabdir. Bunday polimerlarning xossalari o‘rganish uchun ko‘pincha kristall va amorf qismlar nisbatidan iborat kristallanish darajasi, bu qismlarning shakli va o‘zaro joylashishi, har bir fazadagi tartibli joylashish darajasi aniqlanadi. Amalda ko‘pincha kristallanish darajasidan foydalilanildi.

Kristall qismlar bilan amorf qismlar o‘rtasida keskin chegara bor deb hisoblash noto‘g‘ri. Chunki o‘rtacha tartiblanish darajasiga ega bo‘lgan qismlar bir–biriga o‘tuvchi kristallar defekti va yarim tartiblangan qismlardan iborat bo‘lishi mumkin. Bu masala bo‘yicha eksperimental materiallar ozligi tufayli ko‘philik hollarda bunday polimerlarni oddiy ikki

fazali sistemalar deb qarashga to‘g‘ri keladi va oraliq qismlarni hisobga olmay turib, turli tajribalar orqali fazalar orasidagi nisbat aniqlanadi.

Kristallanish darajasi zichligi suyuqlanish issiqligi va boshqalar orqali aniqlanadi:

a) Zichlik. Kristall va amorf qismlarning zichligi ma’lum bo‘lsa, berilgan polimer namunasining zichligini o‘lchash orqali quyidagi oddiy formuladan foydalanib, kristall va amorf qismlar orasidagi nisbatni hisoblab chiqarish mumkin:

$$\frac{d_K(d - d_A)}{d(d_K - d_A)}$$

Bu yerda: d – namunaning o‘lchangan zichligi; d_K – kristall faza zichligi; d_A – amorf faza zichligi.

Kristall faza zichligi rentgenografik usul bilan aniqlangan elementar yacheykaga asoslanib hisoblab chiqariladi, amorf faza zichligi esa suyuqlik yoki eritma zichligini aniqlash yo‘li bilan topiladi.

b) Suyuqlanish issiqligi. Kristall va amorf faza nisbati odatda polimerning suyuqlanish issiqligi orqali quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$\frac{H_a - H}{\Delta H_{kr}}$$

Bu yerda; H – namunaning issiqlik tutami; ΔH_{kr} – gomologik qatorning molekulyar namoyondasi kristallarining issiqlik tutami; H_a – suyuq-amorf materialning issiqlik tutami.

c) Rentgenografik usul. Kristall va amorf faza orasidagi nisbatni rentgenografik usul yordamida ham aniqlash mumkin. Buning uchun polimerning kristall va amorf qismlariga tegishli difraksiya maksimumlari ning nisbiy intensivligini aniqlash kerak.

Kristallanish darajasini hisoblab chiqarishda eng ko‘p qo‘llanuvchi usullar quyidagilardan iborat.

O‘rtacha kristallanish qobiliyatiga ega bo‘lgan ko‘pchilik polimerlarning kristallanish darajasi 50-70 foizni tashkil qiladi. Tarmoqlangan polietilenning (kristallanish darajasi 60) kristallanishi uchun uning tarmoqlangan strukturasi xalaqtir beradi. Chiziqsimon polietilenning kristallanish darajasi 75-85 foiz. Izotaktik polipropilen, polietilentereftalat va yana bir qator polimerlarning kristallanish darajasi katta. Kristallanish

darajasining o'zgarishi polimerlarning ba'zi fizik va mexanik xossalarni o'zgartiradi.

Odatda kristallanish darajasining ortishi bilan polimerning qattiqligi, elastiklik moduli ortadi, deformatsiyalanishi va eruvchanligi kamayadi. Shuning uchun kristallanish darajasidan ko'pincha kristall polimer xossalarni xarakterlash uchun foydalaniadi.

Agar polimer namunalarga mikroskop ostida kesishgan polyarizatorlar orqali qaralsa, sferolit deb ataluvchi sferik qismlarni ko'rish mumkin. Sferolitlar ikkilamchi nuring sinishi tufayli ko'rindi, bu esa polimerda molekulyar orientatsiya mavjudligini isbotlaydi.

Kristall polimer sferolitlari odatda suyuq polimerni sekin-asta sovishda, erituvchini bug'latishda yoki polimerni eritmada cho'ktirishda hosil bo'ladi. Kristall polimer sferolitlarining katta-kichikligi va shaklli zanjirsimon molekulaning tabiatini, uning olinish sharoiti, sovish yoki cho'kish tezligiga bog'liq. Ularning katta-kichikligi bir necha mikrondan boshlab, santimetrnning o'ndan birigacha ham bo'lishi mumkin.

Keyingi yillarda o'tkazilgan ilmiy ishlar kristall polimerlarning fizik-mexanik xossalari asosan sferolitlar tuzilishi va katta-kichikligiga bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Masalan, bir xil kristallanish darajasiga ega bo'lgan poliamidlarning xossalari sferolitning shakli va katta-kichikligiga qarab o'zgarishi aniqlangan.

Yuqorida aytiganidek, polimerning kristallanishi molekula qismlaringin birgalikda joylashib, kristall panjara hosil etishidan iborat. Kristall polimerdagи molekulalarning bir konformatsiyadan ikkinchi konformatsiyaga o'tishi kristall panjaraning buzilishisiz mumkin emasligini tushunish qiyin emas. Shunga ko'ra, uncha katta bo'limgan tashqi kuch ta'sirida molekula qayishqoqoqligi va yuqori elastik holat yo'qoladi. Shuning uchun yuqori elastik holatdagi yumshoq polimer kristallansa, u doimo qattiq bo'lib qoladi, ya'ni uning elastiklik moduli ortadi va deformatsiyalanish qobiliyati kamayadi.

Amorf polimerning shishalanish temperaturasida deformatsiyalanish ortgan va polimer yuqori elastik holatga o'tgan vaqtida kristall polimerning deformatsiyalanishi oz bo'ladi va u kristallarning suyuqlanish temperurasigacha doimiy qoladi: temperatura oshirilsa, polimer suyuqlanib, oquvchan holatga o'tadi. Kristall polimer qizdirilsa, to'g'ridan-to'g'ri kristall holatdan oquvchan holatga o'tadi. Shuni ham aytish kerakki, biz ko'rayotgan holda polimerning oquvchanlik temperaturasi kristallarning suyuqlanish temperurasiga bog'liq, chunki $T_g > T_a$.

Polimerning oquvchan holatga o'tish temperaturasi bilan molekulyar massa orasidagi bog'lanishning yo'qolishi chiziqsimon amorf polimerlar uchun xosdir. Kristall polimer gomologlarning suyuqlanish temperaturasi molekulyar massa ortishi bilan ma'lum yuqori chegaragacha intiladi va ko'rinishidan polimerlarda u zanjirsimon molekulaning uzunligiga bog'liq bo'lmaydi. Lekin molekulyar massani orttira borib, T ning T_s dan ortiq bo'lishiga erishish mumkin. Demak, polimerning oquvchanlik holatga o'tish temperaturasi va molekulyar massa o'rtasida bog'lanish yuzaga keladi. Bunday kristall polimerlarda yuqori elastik holat yuzaga keladi, bu holat T bilan T_s orasidagi farq qancha ko'p bo'lsa, shuncha katta bo'ladi.


Aksincha, molekulyar massaning kamayishi elastik holatning hamda oquvchanlikning hosil bo'lishi temperaturasi bilan molekulyar massa orasidagi bog'lanishning yo'qolishiga olib keladi. Suyuq holdagi kristall polimerlar sovitilayotganda kristallanishga ulgurmay qolgan holda ham yuqori elastik holat yuzaga kelishi mumkin. Bu holda temperatura pasayishi bilan polimer avval yuqori elastik holatga o'tadi, keyinchalik esa shishalanish temperaturasida qotadi. Agar bunday amorf polimer tez qizdirilsa, shishalanish va oquvchanlik temperaturalarida yuqori elastik va oquvchan holatlarga o'tadi. Ammo ko'pincha isitish jarayonida kristallanish ro'y beradi. Bu holda polimer yuqori elastik holatga o'tgach kristallanadi, uning deformatsiyalanishi keskin kamayadi va termomexanik egri chiziqda maksimum hosil bo'ladi.

Yuqori elastiklikka o'tishdagi biz ko'rgan hollar bir termodinamik fazadan ikkinchi fazaga, ya'ni amorf fazadan kristallga va kristalldan amorf fazaga o'tishdagi muvozanat bo'lмаган jarayonlar bilan bog'liq.

Amorflanish va kristallanish jarayonlarida sodir bo'ladijan kombinatsiyalar kristallanayotgan polimerlarning sovishi bilan qattiq holatga o'tishida turli – tuman hodisalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Kristallanayotgan polimerlarning xossalarni aniqlashda bu holni nazarda tutish zarur. Chunki sovuqqa chidamlilik mexanik xossalarning barqarorligi bu hodisalarga anchagina bog'liq. Qator kristall polimerlarning mexanik xossalarni katta temperatura intervalida sinchiklab o'rganish kristall polimerlarning cho'zilish deformatsiyasining o'sishi uch bosqichli ekanligini ko'rsatadi. Ba'zi kristall polimerlar uchun bu bosqich bir-biridan ajralgan bo'ladi. Buni cho'zilishning berilgan kuchga bog'liqligi grafigida birinchi bosqichdan ikkinchisini, ikkinchisidan uchinchisini aniq ajratib turuvchi egri chiziqning bukilgan yerlaridan ko'rish mumkin.

7.16-rasmda kristall polimer cho'zilishining xarakterli egri chizig'i ko'rsatilgan. Deformatsiyaning birinchi bosqichida cho'zilishning qiymati ta'sir etuvchi kuchga proporsional bo'ladi. Turli polimerlarning cho'zilish deformatsiyasi bir necha foizdan bir necha o'n foizgacha boradi.


Cho'zish davom ettirilganda namunaning boshqa qismlaridan keskin farq qiluvchi, ko'ndalang kesimi oz bo'lgan qism "bo'yin" hosil bo'la-di. "Bo'yin" hosil bo'lishi bilan cho'zilish jarayonining ikkinchi bosqichi boshlanadi. Cho'zilishning bu bosqichida namunaning yo'g'on yerlari sekin-asta ingichkalashib boradi. Bu uchastkada polimer doimiy kuch ta'sirida uzayib boradi va deformatsiyaning qiymati bir necha yuz foizga yetishi mumkin bo'ladi. Bu jarayon grafikda ikkinchi bosqich gorizontal uchastka (II) ga to'g'ri keladi. Ikkinci bosqichdan so'ng namuna yana ham ingichka holatga keladi va uchinchi bosqich mana shu ingichka namunaning uzilishidan iborat bo'ladi. Bu jarayon grafikda yuqoriga yo'nalgan to'g'ri chiziq (III uchastka) bilan ifodalanadi. Egri chiziqning bir qismi bo'lgan bu chiziqning katta-kichikligi polimerning turiga qarab o'zgaradi, ba'zi hollarda bir necha yuz foizga yetadi (7.16, 7.17-rasmlar).



7.16-rasm. Kristall polimerlarda nisbiy cho'zilishning kuchlanishga bog'liqlik grafigi

Polimerlardagi deformatsiya hodisasini o'rGANISHdan ma'lum bo'ldiki, "bo'yin" hosil bo'lishi bilan materialda optik va mexanik anizotrop holat yuzaga kela boshlaydi. Haqiqatan, agar "bo'yin"dan yangi namuna kesib olib, uni cho'zsak, cho'zilish kuchi 7.17-rasm yo'nali shiga bog'liq bo'ladi, ya'ni namuna bo'yi va eniga nisbatan bir xil xossaga ega bo'lmaydi.

Birlamchi cho'zish kuch yo'nali shi bo'yicha davom ettirilsa, namuna deformatsiyasi katta bo'lmaydi. Ko'ndalangiga cho'zilganda esa namuna kuchli deformatsiyaga uchrab, yuqorida keltirilgan uch bosqichni bosib o'tadi.



7.17-rasm. Kristall polimerlarning cho'zilishida "bo'yincha"ning o'sish sxemasi:

- 1- "bo'yincha"ning hosil bo'lishi; 2- "bo'yincha"ning o'sishi;
- 3-namunaning to'liq "bo'yincha"ga aylanishi

Yuqorida aytilganidek, kristall polimerlarni cho'zish kristallanish jarayonini birmuncha tezlashtiradi va anizotrop jism hosil bo'lishiga olib keladi.


Tashqi kuchning yo'nalishi kristall orientatsiyasi yo'nalishiga to'g'ri kelganda, anizotrop kristall polimerlarning suyuqlanish temperaturasining oshishi aniqlandi. Kuchning ko'ndalang yo'nalish bo'yicha ta'sir etishi suyuqlanish temperaturasining pasayishiga olib keladi. Demak, anizotrop kristall polimer namunasida kristall qismning joylashishi tartibsiz bo'lsa, tashqi bir oqli cho'zish kuchi ta'sirida suyuqlanish temperaturasi ziga xos o'zgaradi: kuchning yo'nalishi orientatsiya yo'nalishiga to'g'ri kelsa, kristall qismning suyuqlanish temperaturasi ortadi, kuch yo'nalishi orientatsiya yo'nalishiga teskari bo'lsa, suyuqlanish temperaturasi kamayadi. Shuning uchun ma'lum kuchlanish olingandan so'ng ba'zi qismlarning suyuqlanish temperaturasi tajriba temperaturasiga baravarlashadi, natijada yangi orientatsiyaga uchragan kristall qismlar paydo bo'ladi.

Kristallari tartibli joylashgan polimer namunasi birinchi marta cho'zilishda ko'ndalang yo'nalishda cho'zilsa, barcha kristall panjaralar tashqi kuch ta'sirida betartib joylashib qoladi. Binobarin, "bo'yin" hosil bo'lishi va uning ingichkalanishi jarayonini namunaning kuch maydonida rekristallanishi deb qarash mumkin. "Bo'yin" hosil bo'lishidagi shartli kuchlanish rekristallizatsiya kuchlanishi deb ataladi. Rekristallizatsiya kuchlanishi polimerning kristall panjarasi pishiqligini ifodalaydi. Ma'lumki, kristallning suyuqlanish temperaturasi qancha yuqori bo'lsa, faza o'zgarishiga olib keluvchi kuchlanish shuncha katta bo'ladi.

Birinchi qarashda "bo'yin" hosil bo'lishi va uning rivojlanish jarayoni qaytmas jarayondek tuyuladi, ya'ni II uchastkada rivojlanayotgan defor-

matsiya istalgancha saqlanishi mumkin. Ammo cho'zilgan polimer namuna suyuqlanish temperaturasiga yaqin temperaturada qizdirilsa, avvalgi shakl va hajmiga qaytadi. Demak, kristall polimerlarning bu deformatsiyasi o'z tabiatida yuqori elastik hisoblanadi.

Yuqorida ko'rigan deformatsiya jarayoni doimo uch bosqichda bo'la vermaydi. Masalan, kristall holdagi polistirol yoki polietilentetraftalat uy temperaturasida cho'zilsa, jarayonning birinchi bosqichidayoq mo'rt polimerda bo'lgani kabi uzilish sodir bo'ladi. Bu hodisaning sababi shundaki, kristall polimerlarning deformatsiyasi temperaturaga ko'p jihatdan bog'liq (7.18-rasm).



7.18-rasm. Kristall polimerlarning turli temperaturalarda cho'zilish egri chiziqlari.

1-7 – temperatura kamayib boradi.

Grafiklardan ko'riniib turibdiki, past temperaturalarda cho'zilish jarayonining birinchi bosqichida namuna buziladi. Bu rekristallanish kuchlanishining o'sib, polimer pishiqligidan katta bo'lib qolishi bilan bog'liq. Shuning uchun buzilish rekristallanish jarayoni boshlanishdan avval boshlanadi.

Temperatura ortishi bilan "bo'yin" paydo bo'ladi, ammo rekristallanish kuchlanishi bilan polimer pishiqligi taxminan teng bo'lganligidan buzilish "bo'yin" ning rivojlanish jarayonida ro'y beradi. Bundan yuqori temperaturada deformatsiya jarayoni to'la rivojlanadi. Biroq temperaturani yana ham oshirish rekristallanish kuchlanishi va polimer pishiqligining kamayishiga olib keladi. Suyuqlanish temperurasida kristall polimerning cho'zilish chizig'idagi bukilgan joylari tekislanadi va elastik polimerning cho'zilish egri chizig'i shakliga yaqinlashadi.

Kristall polimerning deformatsiya jarayoni molekulyar massaga ham bog'liq. Biroq bu holda turli molekulyar massadagi namunalarning cho'zilishgri chiziqlari bir-birining ustida yotadi, ular uzilish deformatsiyalari bilangina bir-biridan farq qiladi.

Molekulaning uzunligi qancha kam bo'lsa, namuna nisbiy uzayishning shuncha kichik qiymatida buziladi. Quyi molekulyar namunalar mo'rt bo'lganligi uchun cho'zilishning birinchi bosqichidayoq uziladi.

Kristall polimerlarning tuzilishi hqidagi hozirgi zamom ta'limoti. Polimer kristallarining kattaligi bir necha o'n angestrem ekanligi yuqorida aytidgan edi. Shuning uchun birgina polimer molekulasi bir necha kristall va amorf qismlarni o'z ichiga oladi deb kelinar edi.

Yuqori elastiklikning tabiatini hamda polimerning boshqa xossalari tushuntiruvchi bu tushuncha keyingi yillarda yanada boyitildi. O'tkazilgan fizikaviy tahlillar polimer moddalarda makromolekulalar butunlay tartibsiz joylashishi mumkin emasligini ko'rsatdi.

Uzun zanjirli molekulalar uchun amorf holatda tartibli joylashishga intilish birmuncha katta bo'lishi kerak. Agar makromolekulani butunlay xaotik-tartibsiz deb qaralsa, uning ma'lum atomlararo masofa va valent burchaklar orqali hisoblab topilgan zichligi amalda topilgan zichlikdan kichik bo'ladi. Shuning uchun ham amorf polimerda tartibli qismlar bor deyiladi.

Shuni ham aytish kerakki, ba'zi polimerlarning katta tezlik bilan kristallanishini juda sekin sodir bo'luvchi relaksatsion jarayonlar bilan ham tushuntirish qiyin, chunki amalda zanjirsimon molekulalarning amorf holatdan kristall holatga o'tishi tez boradi.

Nihoyat, amorf polimerlarning "kigiz" ko'rinishidagi modeli ham to'g'ri kristall polimer hosil bo'lish imkoniyatini tushuntira olmaydi.

Bu fikrlar va yangi eksperimental ma'lumotlar chalkashgan zanjirsimon molekulalar to'g'risidagi ta'limotdan voz kechib, polimerlarning pachkali tuzilishi nazariyasiga o'tishga majbur etdi.

Yangi ta'limotga binoan polimerdagi molekulyar xaotik emas, pachka-pachka bo'lib joylashgan. Bu pachkalarda makromolekulaning kristall tartibga o'tishini birmuncha osonlashtiruvchi tartibli qismlari bo'ladi. Ammo bunday pachkalar bilan bir qatorda globula shaklida o'ralib olgan ayrim makromolekulalarning ham bo'lishi mumkin. Demak, makromolekulalar pachka va globulali tuzilishga ega bo'lar ekan. Molekulaning globula va pachkalarining keyingi tartiblanish jarayoni turli yo'llar bilan amalga oshadi.

Globula holatidagi sistemalar o'tkir qirrali makroskopik kristallar hosil bo'lishi bilan tartiblanadi. Bunday kristallardagi identiklik davri globula kattaligidek bo'ladi, ya'ni quyi molekulyar kristallardagi identiklik davriga nisbatan juda katta bo'ladi. Bundan tashqari kristallar tuzilishini tekshiruvchi usullar (rentgenografiya va elektronografiya) ham sistemaning tartiblanmaganligini juda yaxshi ko'rsatadi. Yuqorida aytib o'tilgan kristallar faqatgina kristall ko'rinishiga ega bo'lib qolmay, balki kristallarning tegishli termodinamik xossalariha ham ega. Bundan shunarsa kelib chiqadiki, kristallarning fazoviy, holatdagi oddiy tuzilishi va termodinamik parametrleri bir-biridan farq qiladi. Masalan, yuqorida bayon etilgan globulyar kristallar termodinamik jihatdan kristall fazadan iborat. Rentgenostruktura tahlilga asoslangan tuzilish nazariyasiga binoan esa ular amorf fazadan iborat bo'ladi.

Polimerlanish va polikondensatlanish reaksiyalarida, hosil bo'luvchi polimer molekulalari turli uzunlikda bo'ladi. Sintetik polimerlar odatda globulyar kristallar hosil qilmaydi. Monodispers sistema bo'lgan oqsil, tabiiy kauchuk sellyuloza atsetat kabi tabiiy polimerlar globulyar kristall holatda bo'ladi.


Sintetik polimerlar kristallarining hosil bo'lishida zanjirlar pachkasi odatda struktura elementi hisoblanadi. Pachkani bir-biriga parallel joylashgan bir necha makromolekula deb o'ylash kerak emas. Pachka tuzilishini elektron mikroskop yordamida o'rganish uning makromolekuladan birmuncha uzunroq ekanligini ko'rsatdi. Pachka bir-biriga nisbatan ketma-ket joylashgan makromolekulalarning juda ko'p zanjiridan iborat. Bunda makromolekula zanjirlarining uchlari pachkaning turli yerlarida bo'ladi (7.19-rasm).

Agar zanjirlar tartibli tuzilgan va molekulyar massa yetarli darajada katta bo'lsa, pachkaning xossalari molekulyar massaga va polimerning polidispersligiga juda oz bog'liq bo'ladi. Demak, bunday pachkalar sifatida katta hajmli kristallarni olish mumkin.

Agar zanjirlar pachkasi tartibsiz joylashgan molekulalardan tashkil topgan bo'lsa, ichki kuchlanish kristallga noaniq shakl beradi va zanjirlar pachkasi kristallanish jarayonida qatnasha olmaydi (7.20-rasm).


Agar pachka tartibli va qayishqoq molekulalardan tashkil topgan bo'lsa, polimer tegishli temperatura va konsentratsiyada kristallanadi, ya'ni to'g'ri kristall panjara hosil bo'ladi. Bu fazoviy panjara rasmiy kristallanish ta'limotiga bo'ysunadi. Shuning uchun bunday pachkalar ning rentgen tuzilishi quyi molekulyar kristall tuzilishi bilan ancha

o‘xshash bo‘ladi. Yangi faza (kristall faza) zarrachasi hamda ajralish chegarasi hosil bo‘lishi bilan bunday yupqa va uzun hosilalarda juda katta ortiqcha yuza energiyasi hosil bo‘ladi. Pachka o‘zining yupqa termodinamik energiyasini kamaytirish uchun juda ko‘p marta o‘z-o‘zidan 180° ga bukilib, “lentaga” taxlanadi.



7.19-rasm. Elektron mikrofotografiyalar:

1-poliakril kislotaning globulalari (250000 marta kattalashtirilgan);
2-salvarsanning 0,0001% eritmasidagi molekulalari (50000 marta kattalashtirilgan)



7.20-rasm. Polimerning kristall strukturalari.

a -to‘g‘rilangan pachka; b-lenta; c-lentadan tashkil topgan «yaproqcha»

Bunday bukilishlarning hosil bo‘lishi termodinamik jihatdan foydali, chunki bunda yuza energiyasi kamayadi. Bukilish yerlarida kristall panjara buzilishi yoki butunlay yo‘qolishi mumkin. Yuza energiyasining kamayishga intilishi alohida “lenta”larni tekis tomoni bilan “yaproqcha” hosil etib, buklanishiga olib keladi.

“Yaproqcha”ga joylashgan makromolekulalar asosiy zanjiridagi valentliklarning yo‘nalishi “yaproqcha” tekisligiga perpendikulyar bo‘ladi. Keyinchalik “yaproqcha”lardan to‘g‘ri monokristallar hosil bo‘ladi.

Yuqorida bayon etilgan kristallanish jarayoni qator, kristall polimerlarda ko‘rilgan va ulardan polietilen, polipropilen, poliamidlar, gutta-percha monokristallari olingan. Bu kristallarning ko‘pchiligining bir qavatining qalinligi $100\text{--}150\text{ \AA}$ bo‘lgan plastinkali tuzilishga ega. Ammo bu kristall tuzilishining birdan-bir usuli emas. Sharoitga qarab, kristallanish mexanizmining pog‘onali bo‘lishiga binoan ikkilamchi strukturaning joylashish usuli o‘zgarishi mumkin (7.21-rasm).



7.21-rasm. Polietilenning 78°C da ksiloldagi $0,01\%$ eritmasidan olingen monokristali (5000 marta kattalashdirilgan).

Masalan, polipropilen ksilolli eritmadan kristallanganda birmuncha yirik plastinka tuzilishidagi monokristallar hosil bo‘ladi. Agar kristallanish trixloretilen eritmasida borsa, rombik kristallar hosil bo‘ladi. Kristallanish sharoitini o‘zgartirib, polietilenden ham turli shakldagi monokristallar olish mumkin. Shunday yuqori tartibli monokristall strukturalar hosil bo‘lish jarayoni asosan juda oz konsentratsiyali eritmalarda va ma‘lum sharoitlardagina ro‘y beradi. Kristallanish suyuqlangan polimerda yoki birmuncha konsentrangan eritmada ro‘y bergen hollarda esa mahsulotlar “lenta” yoki “yaproqcha”lar ko‘rinishida hosil bo‘ladi. Bu holda struktura elementlarining juda katta yuzaga ega bo‘lganligidan hosil bo‘luvchi ichki kuchlanish yo‘qotilsa, sferolit strukturalar hosil bo‘ladi.

Sferolitlar termodinamik jihatdan qulaydir, ya’ni kam harakatchan tuzilishlarning qayta minimal o‘rin egallashida yuza energiyasi katta bo‘ladi. Shuning uchun sferolitlarning hosil bo‘lishi kristallanish jarayonida “yaproqcha”lardan monokristallar hosil bo‘lishiga ulgurmagan holda kuzatiladi. Kristallanish sharoiti o‘zgarganda esa struktura hosil bo‘lmaydi.

Hozirgacha polimer molekulalarini butunlay pachkaga joylashgan deb qarab keldik. Ammo real holatda pachkalar bilan bir qatorda polimerda

amorf globulalar ham bo‘ladi. Amorf va kristall tuzilishlarining birgalikda bo‘lishi kuzatiladigan strukturalarning turli-tuman bo‘lishiga olib keladi.

Turli strukturalar bo‘lishi tufayli kristall polimerning mexanik xossalari ham xilma-xil bo‘ladi, ya’ni strukturaga ma’lum fizik va mexanik xossalari to‘g‘ri keladi. Masalan, kristall polimerlar katta deformatsiyaga uchratilganda eng avval yaproqchalardan tuzilgan monokristallar, undan keyinroq sferolitlar va nihoyat pachkalar parchalanishi kerak.


Shuning uchun kristall polimerning cho‘zilgandagi rekristallizatsiya jarayoni avvalgi qismida aytilganiga qaraganda birmuncha murakkab xarakterga ega.

7.7. Polimerlarning mexanik xossalari, issiqbardoshligi va termobarqarorligi

Polimer materiallarini qayta ishlash va ekspluatatsiya qilish jarayonida turli mexanik va issiqlik ta’sirlariga uchraydi. Mexanik ta’sirlar – siqilish, cho‘zilish, egilish, burilish, zarba kabilar bo‘lishi mumkin. Shu ta’sirlarga mos ravishda polimerlarning siqilishdagi, cho‘zilishdagi, egilishdagi mustahkamligi, elastikligi, zARBABARDOSHligi kabi xossalari muhim ahamiyatga ega. To‘qimachilik matolari uchun ishlatiladigan polimerlarning asosiy xossasi cho‘zilishdagi mustahkamligi va nisbiy cho‘ziluvchanligidir. 7.22-rasmda to‘qimachilik matosi bilan mustahkamlangan polimer pardalarning cho‘zilishdagi mustahkamligi va nisbiy cho‘ziluvchanligining bog‘liqlik grafiklari keltirilgan.

Cho‘zuvchikuchlar ta’sirida to‘qimachilik materiali anchagina cho‘ziladi. Bunda bog‘liqlik grafigi chiziqliga nisbatan og‘adi, maksimal uzilish kuchiga yaqinlashganda to‘g‘ri chiziqli ko‘rinishga o‘tadi.

0,5-4%-li uzayishda kollagen-polibutilmetakrilat, kollagen-polimetilmetakrilat, kollagen-poliakrilkislotsaqtorida cho‘zilish kuchi ortib boradi. Polimetilmetakrilat, poliakril kislotsasi ishtirokida chiziqli bog‘liqlik kuzatiladi. Yana bir qonuniyat – polimerdagи о‘rindoshlarning geometrik o‘lchamlari ortganda nisbiy uzayish kattaligi ortib boradi. Bunday tadqiqot natijalari polimer materiallarining foydalanish sohalarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Polimer materiallarining qo‘llanilish sohalarini aniqlashda shishalanish va suyuqlanish temperaturalari bilan bir qatorda issiqbardoshlik va termobarqarorlik kattaliklari ham muhim ahamiyatga ega. Polimerlarni qizdirilganda fizik-mexanik xossalarni sezilarli darajada o‘zgarishi boshlangan temperatura issiqbardoshlik deyiladi.



7.22-rasm. Mustahkamlangan polimer pardalarining cho'zilgandagi mustahkamligining nisbiy uzayish bilan bog'liqligi. To'qimachilik materiali (1), kollagen bilan (2), kollagen va poliakril kislotasi (3), polimetilmekatrilat (4), poliakrilonitril (5) va polibutilmekatrilat (6) sopolimerlari bilan mustahkamlangan pardalar.

Issiqbardoshlik shishalanish temperaturasidan yuqoriroq, suyuqlanish temperaturasidan ancha past bo'ladi. Ko'pchilik polimerlarning issiqbardoshligi 50-200°C oralig'ida bo'ladi. Polimerni qattiq qizdirilganda destruksiyaga uchrab parchalanadi. Polimer namunasini kimyoviy parchalanishi boshlangan temperatura termobarqarorlik deyiladi. Termobarqarorlik polimerning suyuqlanish temperurasidan yuqori bo'ladi. Ko'pchilik polimerlarning termobarqarorligi 150°C dan yuqori bo'ladi. Polimerlarni texnikada va ishlab chiqarishda qo'llash issiqbardoshlik temperurasigacha bo'lgan sharoitgacha tavsiya etiladi. Ularni qayta ishlashni esa termobarqarorlik temperurasigacha bo'lgan sharoitgacha tavsiya etiladi. Manfiy temperaturalarda ishlatiladigan polimerlar uchun sovuqbardoshlik temperurasidan pastroq sharoitda polimer mo'rt bo'lib qoladi va foydalanishga yaroqsiz bo'ladi.

Polimerlarni temperaturaga ta'sirini o'rganib, 3 guruhga bo'lish mumkin:

1) Issiqbardosh bo'lmagan polimerlar – bunday polimerlar yuqori elastik holatga o'ta olmaydigan, faqat bitta holatga – shishasimon holatga ega bo'ladi. Parchalanish temperurasasi shishalanish temperurasidan kichik bo'ladi, $T_p < T_{sh}$.

2) Issiqbardosh polimerlar – bunday polimerlar yuqori elastik holatiga o‘ta oladi va yuqori elastik holatida qayta ishlanadi, $T > T_{sh}$.

3) Termobarqaror polimerlar – bunday polimerlar yuqori elastik holatidan qovushqoq oquvchan holatiga o‘ta oladi, $T > T_o$.

7.8. Differensial-termik analiz

Polimer naniunasini qizdirilganda sodir bo‘ladigan jarayonlar parchalanish reaksiyalari va ularning mahsulotlari polimerning termobarqarorlik temperaturasi differensial-termik analiz yordamida aniqlanadi. Bu analizni Paulik-Erdey sistemasi derivotografida bajariladi. Priborning kichik tigel chashkasiga polimer namunasini joylashtirib, yopiq sistemada qizdiriladi. Namuna massasining kamayishi bo‘yicha bog‘liqlik grafigi chizildi. Pribor yordamida 4 ta egri chiziq olinadi:

T – temperatura egrisi – qizdirilish jarayonida temperaturaning o‘zgarishini ko‘rsatadi;

TG – termogravimetriya egrisi – polimer namunasi massasining kamayish darajasini ko‘rsatadi (7.23 (a) – rasm);

DTG – differensial termogrametriya egrisi – polimer massasining kamayish tezligini ko‘rsatadi (7.23 (b) – rasm);

DTA – differensial-termik analiz egrisi – polimerning parchalanish reaksiyalari issiqlik effektini ko‘rsatadi 7.23 (c) – rasm.

7.23-rasm ma’lumotlariga ko‘ra 1 va 3 polimerlarning TG egrilarida massa kamayishi 100°C dan boshlanadi. 1 polimer taxminin 300°C da, 3 polimer esa 450°C da 50% massasini yo‘qatadi. 2 polimerde massa yo‘qotilishi 260°C dan boshlanadi, lekin 390°C da massasining yarmini yo‘qatadi. Temperatura 500°C ga yetganda polimerlarda 20-30% massa qoladi. Demak, 2 polimerning termobarqarorligi qolgan ikkitasiga nisbatan yuqoriqoq.

300°C dan keyin 2 polimerning, 400°C dan keyin 3 polimerning massasi juda tez kamayadi, buni DTG egrilarida quyiga og‘gan katta cho‘qqining paydo bo‘lishidan bilish mumkun. 1 polimerde massa kamayishining eng katta tezligi taxminan 260°C da kuzatiladi. Demak, 1 polimerning termobarqarorligi eng kichik ekan.

DTA egri chizig‘i bazaviy chiziqdan yuqoriga og‘gani ekzotermik jarayon sodir bo‘lganligini, quyiga og‘gani esa endotermik jarayon sodir bo‘lganligini bildiradi. Ekzotermik effektlar polimer namunasidagi fazaviy (shishalanish, kristallanish va boshqalar), endotermik effektlar parcha-

lanish, oksidlanish destruksiyasi natijasida vujudga keladi. DTA egrisi-dagi og‘ish chizig‘i maydoni asosida jarayonlarning issiqlik effektlarini hisoblab topish mumkin.

Nazorat savolari va topshiriqlar:

1. Polimerlar qattiq va suyuq jismrlarning xususiyatlarini qanday namoyon qiladi?
2. Makromolekula qayishqoqligi deb nimaga aytildi?
3. Makromolekula qayishqoqligiga ta’sir etuvchi omillar.
4. Statistik segment nima?
5. Nima uchun polimerlarni gaz holiga o’tkazish mutlaqo mumkin emas?
6. Polimerlarni plastifikatsiyalash qanday jarayon?
7. Amorf va kristall polimerlarga qaysi polimerlar misol bo‘ladi?
8. Polimerni bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish temperatura oralig‘ini tek-shirish uchun termomexanik analiz usulining mohiyati nimada?
9. Polimerlarning qanday fizik holatlarini bilasiz?
10. Amorf polimerlar qattiq va suyuq holatdan tashqari oddiy jismlarda uchramaydigan qanday uchinchi holatga ega?
11. Termobarqarorlik deb nimaga aytildi?
12. Issiqbardoshlik deb nimaga aytildi?
13. Differensial-termik analiz usuli nimaga asoslangan?
13. TG, DTG, DTA qisqartmalari nimani bildiradi?

VIII BOB. POLIMERLARNING ERITMALARI

8.1. Polimerlar eritmalari nazariyasi

Ma'lumki, Shtaudinger yuqori molekulyar birikmalar eritmasi nazariyasini yaratdi. Bu nazariyaga binoan polimerning suyultirilgan eritmasida erigan modda oddiy moddalar eritmasi kabi molekula holida bo'ladi. Shtaudinger polimer molekulasini quyi molekulyar modda molekulasidan farqlash uchun makromolekula deb atadi.

Avval polimer makromolekulasi qattiq bir tayoqcha shaklida bo'ladi deb qabul qilindi. Keyinchalik esa makromolekulaning polimer eritmasida g'ujanak holida bo'lishi aniqlandi. Uning bu holati makromolekulaning qayishqoqligini bildiradi. Makromolekulaning qayishqoq qismlari mikro-broun harakati tufayli makromolekula shaklini juda ko'p o'zgartiradi, ammo makromolekulaning shakli, umuman olganda, cho'zilgan ellipsga o'xshash bo'ladi. Makromolekula harakatidagi asimmetrik daraja (makromolekula uzunligining ko'ndalang kesimiga bo'lgan nisbati) ning qiymati 10 atrofida ekanligini aniqlash orqali yuqorida aytilgan fikrlar tasdiqlandi.

Polimer makromolekulasi eritmada solvatlangan holatda bo'ladi. Ammo shuni ham aytish kerakki, polimer makromolekulasi qiyin solvatlanadi va uning solvatlanish darajasi kichik bo'ladi. Shuning uchun makromolekulaning solvatlanishi asosida polimer eritmasiga xos bo'lgan xususiyatlarni to'la tushunib bo'lmaydi. Nitrosellyulozaning (qutbli polimer) atseton yoki piridindagi eritmasida monomolekulyar qavat (solvatlanish qavati) hosil bo'ladi, xolos. Bir qator polimerlarning solvatlanish darajasini tekshirishda ham shu kabi natijalarga erishiladi. Qutbli polimerlarning qutbsiz erituvchida solvatlanishi esa undan ham kam bo'лади. Polibutadien eritmasi tekshirilganda uning solvatlanmasligi aniqlandi. Ko'pchilik polimerlarni o'z monomerlarida eritib, eritma xossalalarini o'rganishda solvatlanish nazariyasi yana bir bor tasdiqlandi. Bunday eritmalarda makromolekula solvatlanmaydi, chunki katta va kichik o'xshash molekulalar orasidagi munosabat bir xildir. Bordi-yu, bunday eritmalarda makromolekula solvatlanadi deb qaralsa, bu solvatlanish muzning suvda solvatlanishi kabi bo'lgan bo'lar edi. Poliizobutilenning izooktandagi, polistirolning etilbenzoldagi eritmalarida polimer makromolekulasi solvatlanmasa ham bu eritmalar polimer eritmalariga xos bo'lgan hamma xususiyatlarga ega.

Polimerlar eritmasining hamma va har qanday xususiyatlari polimer eritmasining makromolekulyar nazariyasi yordamida tushuntiriladi.

Yuqori molekulyar birikmalarning erishi o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan jarayon bo‘lib, ko‘pincha issiqlik ajralib chiqadi. Jelatinani suvga, kau-chukni benzolga solinganda tashqaridan hech qanday energiya berilmasa ham polimer eritmalarini hosil bo‘la beradi. Yuqori molekulyar birikmalar eriyotganda stabilizator kerak emas (liofov eritma tayyorlashda stabilizator qo‘shiladi).

Polimer moddalar eritmasi termodinamik barqaror sistemadir. Bu eritmalar istalgan muddatgacha o‘z barqarorligini saqlab qoladi.

Yuqori molekulyar birikmalar eritmasining asosiy xususiyatlaridan biri uning qaytarilishidir. Boshqacha aytganda, eritma muvozanatiga har tomonlama kela beradi va muvozanat holat muvozanat sodir bo‘lish yo‘liga bog‘liq emas. Shuning uchun ham chin eritmalarning muvozanat holati tenglamasini, Gibbsning fazalar qoidasini yuqori molekulyar birikma eritmalariga ham qo‘llash mumkin.

Yuqori molekulyar birikmalar eritmasiga fazalar qoidasining tatbiq etilishi. Yuqori molekulyar birikmalar eritmasiga fazalar qoidasini qo‘llash uchun avvalo ularning chin eritmalariga xos bo‘lgan qaytar xususiyatga ega ekanligini isbotlash kerak.

Fazalar qoidasiga binoan chin eritmalaragi muvozanat holat sistemaning faza va komponentlar soni hamda erkinlik darajalarini bog‘laydigan quyidagi formula bilan belgilanadi:

$$C = K + 2 - F$$

bunda K – komponentlar soni, F – fazalar soni, C – sistemaning erkinlik darajasi.

Termodinamikada geterogen sistemasining gomogen qismi faza deyiladi. Boshqacha qilib aytganda, sistemaning boshqa qismlaridan chegaralangan hamda mustaqil tarkib va termodinamik potensialga ega bo‘lgan moddalar komponenti faza deyiladi.


Undan tashqari, faza molekula o‘lchamiga nisbatan kattaroq bo‘lishi kerak. O‘shandagina fazaga ta’sir etayotgan bosim, temperatura haqida fikr yuritish mumkin bo‘ladi. Sistemaning muvozanat holatiga xalal bermay turib, o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan parametrlar (temperatura, bosim, konsentratsiya) soni sistemaning erkinlik darajasi deyiladi.

Sistema komponentlari sistemadagi ma’lum tarkibli moddalaridir. Faraz qilaylik tekshirilayotgan sistema quyi molekulyar birikmalaridan iborat bo‘lib, komponentlar soni 2 ga teng bo‘lsin. Bunday sistema uchun

erkinlik darajasining eng yuqori qiymati 3 ga teng. Demak sistemaning muvozanatiga xalal bermay turib bosim, temperatura, konsentratsiyada o'zgartirish mumkin.

Fazalar qoidasining polimer moddalar eritmasiga qo'llanilishi mumkinligi to'g'risidagi ilmiy ishlar XX asrning boshlaridayoq qilingan edi. Ammo yuqori molekulyar birikmalar eritmasiga fazalar qoidasining uzil-kesil qo'llanilishi yaqindagina to'la amalga oshirildi va polimer eritmalarining termodynamik barqarorligi hamda ularning muvozanat holatda bo'lishini tushuntirib berishga muvaffaq bo'lindi. Metilsellyulozaning xloroform, dixloretan, metil spirt va boshqa erituvchilardagi eritmasi xos-sasini batafsil o'rganish muhim ishlardan biri bo'lib qoldi.

Atsetilsellyuloza-xloroform sistemasining holat diagrammasi 8.1-rasmida keltirilgan.



8.1-rasm. Atsetilsellyuloza-xloroform sistemasining holat diagrammasi

Suyuqlanish (kristallanish) temperaturasi T_c dan past temperaturada atsetilsellyuloza sistemasida qavatlanish sodir bo'ladi; muvozanat holatda yuqori va quyi qavatlar atsetilsellyulozaning mazkur temperaturaga mos kelgan miqdoriga ega bo'ladi. Bu temperaturaga ikki tomonlama: qizdirish va sovitish yo'li bilan kelish mumkin. Shuning uchun ham muvozanat holatga o'tish jarayoni qaytar va sistemaning bu temperaturadagi muvozanati termodynamik barqarordir.

Yuqori molekulyar birikmalar eritmasining qaytar xususiyat va muvozanat holatga ega ekanligi benzilsellyuloza, nitrotsellyuloza, polivinilklorid va shu kabi bir qator polimer eritmalarida ham kuzatildi. Hamma vaqt eritmaning geterogen sohasida o'zgarmas temperaturada eritmaning turg'un konsentratsiyasi olinadi. Demak, polimer moddalarining erishi

quyi molekulyar moddalarning erishi kabi chegarali bo'ladi va polimer eritmalariga fazalar qoidasi to'la qo'llaniladi. Shunday qilib, polimer moddalar eritmasi chin eritmadir.

Polimer eritmalarining assotsiatsiyalani shi. Yuqorida polimer makromolekulalarining eritmada alohida-alohida bo'lishi va shuning uchun ham yuqori molekulyar moddalar eritmasini chin eritma deb qarashi mumkinligini, makromolekulalar o'zaro yig'ilib mitsella bermasligi, ya'ni polimer eriganda kolloid eritma hosil bo'lmashagini ko'rib chiqdik. Ammo bundan ma'lum temperatura va konsentratsiyada polimer makromolekulalari o'zaro qo'shilib, assotsilanmaydi degan xulosa kelib chiqmaydi. Polimer eritmalarida ham quyi molekulyar moddalar eritmasidagi kabi makromolekulalar qo'shilib assotsilanadi. Assotsiatsiyalangan makromolekulalarni faza sifatida qarab bo'lmaydi. Undan tashqari, assotsiatsiyalangan makromolekulalar tarkibi turg'un emas, chunki uni tashkil etgan makromolekuladar soni doimo o'zgarib turadi. Demak, assotsiatsiyalangan makromolekulalar mitsella-kolloid zarrachalardan keskin farq qiladi.

Kolloid zarracha dispers muhitga nisbatan liofob bo'lgan ultramikroskopik kristalldir. Bunday muhitda kristalldan bironta ham molekula ajralib, dispers muhit bilan qo'shilib ketolmaydi. Mikrokristallning shaklini buzish uchun juda ham katta energiya kerak bo'ladi. Issiqlik harakati natijasida bir assotsiatsiyalangan makromolekuladan ajralgan molekula boshqa assotsiyalangan makromolekula bilan qo'shila oladi, qolgan makromolekulaga esa eritmada erigan moddaning boshqa molekulasi kelib qo'shilishi mumkin. Shuning uchun ham faqat statistik holda olingan assotsiatsiyalangan makromolekulaning o'rtacha o'lchami va yashash davri to'g'risidagina fikr yuritish mumkin. Quyi molekulyar chin eritmalar ham, erituvchilar ham assotsilanish xossasiga ega. Oddiy sharoitda suv molekulalari ham assotsiatsiyalangan holda bo'ladi. Molekulalar vodorod bog'hosil bo'lishi yoki molekulalararo elektrostatik kuch ta'sirida assotsiatsiyalanadi.

Eritma konsentratsiyasining ortishi bilan molekulalarning to'qnashish soni ortadi. Natijada assotsiatsiyalangan makromolekulalarning o'rtacha statistik o'lchami va yashash davri ham ortadi. Assotsiatsiyalishga temperatura ham katta ta'sir ko'rsatadi: temperatura ko'tarilishi bilan molekulaning kinetik energiyasi ortadi, molekulaning kinetik energiyasi molekulalararo ta'sir kuchdan oshgach, assotsiatsiyalangan makromolekula parchalanib ketadi. Temperaturaning pasayishi, aksincha, molekulalarning assotsilanishiga olib keladi.

Quyi molekulyar birikmalar eritmalaridagi assotsiatsiyalangan molekulalarning o'rtacha yashash davri juda kichik u taxminan 10^{-10} sek ga teng. Assotsiatsiyalangan polimer makromolekulasining yashash davri esa anchagina ko'p. Bu hol polimer molekulasi o'lchamining kattaligi bilan bog'liq. Molekula qancha kichik bo'lsa uning bir assotsiatsiyalangan molekuladan ajralib chiqib, ikkinchisiga birikishi uchun shuncha oz vaqt kerak bo'ladi, molekula qancha katta bo'lsa, shuncha ko'p vaqt kerak bo'ladi. Assotsiatsiyalangan molekulalarning temperatura yoki konsentratsiya o'zgarishi bilan buzilishi va qaytadan tuzilishi qaytar jarayondir. Boshqacha qilib aytganda, ma'lum sharoitda yuqori molekulyar moddalar eritmasidagi assotsiatsiyalangan molekulalarning o'rtacha statistik o'lchami aniq bir qiymatga ega bo'ladi. Ammo makromolekulaning o'lchami katta bo'lganligidan assotsiatsiya juda uzoq vaqt davomida muvozanatga keladi.

Makromolekulaning o'lchami katta bo'lganligidan va uning qayish-qoq xususiyatga ega ekanligidan bir makromolekula bir necha assotsiatsiyalangan makromolekula tarkibiga kira olishi mumkin. Buning natijasida eritmada fazoviy tur vujudga keladi va sistema iviq holiga o'tadi.

Yuqori molekulyar birikmalarining eritmalarini yuqorida qayd qilingan chin eritma xossalaridan tashqari yana kolloid sistemalarga xos bo'lgan xususiyatlarga ham egadir. Polimer moddani u erimaydigan erituvchida kolloid holatgacha disperlash (maydalash) yoki polimer eritmasida erituvchini almashtirish bilan assotsiatsiyalangan makromolekulani kolloid zarracha o'lchamiga kondensirlash (yiriklashtirish) orqali kolloid eritma olinadi. Olingan dispers barqaror bo'lishi uchun sistemaga stabilizator (emulgator) qo'shiladi. Bunday sistemalarga sintetik latekslar misol bo'la oladi.

8.2. Polimerlar eruvchanligining termodinamik mezoni

Polimerning biror erituvchidagi eritmasini hosil qilish imkoniyati o'zgarmas bosimda *izobar-izotermik potensial* (ΔG) yoki Gibbs energiyasining qiymati bilan, o'zgarmas hajmda *izoxor-izotermik potensial* (ΔF) yoki Gelmgols energiyasining qiymati bilan aniqlanadi. Gibbs energiyasi quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$\Delta G = \Delta H - T\Delta S$$

Bu yerda: ΔG – izobar-izotermik potensial yoki Gibbs energiyasi; ΔH – jarayonnig issiqlik effekti; T – absolyut temperatura; ΔS – sistema entropiyasining o‘zgarishi.

Entropiya – sistema tartibsizligining mezonidir. Sistemada zarrachalar soni ortganda entropiya qiymati ortadi. Polimerning erish jarayonida ham zarrachalar soni ortadi. Bunda entropiya musbat qiymatga ega bo‘ladi, ya’ni $\Delta S > 0$.

Har qanday fizik-kimyoviy jarayonlar kabi polimerning erish jarayoni ham sistema energiyasining kamayishi bilan sodir bo‘ladi. Agar $\Delta G < 0$ bo‘lsa, erishjarayonienergiyaningkamayishibilan sodir bo‘ladi va berilgan polimer berilgan erituvchida erishi mumkin. Agar $\Delta G > 0$ bo‘lsa, jarayonning o‘z-o‘zidan sodir bo‘lishi mumkin emas, ya’ni berilgan polimer berilgan erituvchida erimaydi $\Delta G > 0$.

ΔH bir necha yuzlab kJ/mol qiymatlarda o‘zgaradi, ΔS esa bir necha J/mol qiymatlarda o‘zgaradi. Shuning uchun erish jarayonining sodir bo‘lishiga issiqlik effekti ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi.

Biror qattiq moddani suyuqlikda eritilganda, avvalambor, shu moddaning amorf yoki kristall panjarasi buziladi. Bu jarayonda energiya sarflanadi. Polimer namunasidan ajralib chiqqan zarrachalar erituvchi molekulalari bilan ta’sirlashadi, polimerning har bir molekulasini erituvchi molekulalari o‘rab oladi. Bu jarayon *solvatlanish* deyiladi. Solvatlanish va gidratlanish jarayonida energiya ajralib chiqadi. Kristall yoki amorf panjarani buzish uchun sarflangan energiya solvatlanish energiyasidan katta bo‘lsa, erish jarayoni issiqlik yutilishi bilan sodir bo‘ladi, ya’ni *endotermik* bo‘ladi. Kristall yoki amorf panjarani buzish uchun sarflangan energiya solvatlanish energiyasidan kichik bo‘lsa, erish jarayoni issiqlik chiqishi bilan sodir bo‘ladi, ya’ni *ekzotermik* bo‘ladi.

Ekzotermik jarayonlarda issiqlik effektining qiymati manfiy bo‘ladi $\Delta H < 0$. Shuning uchun Gibbs energiyasining qiymati ham manfiy bo‘ladi $\Delta G < 0$. Bunda polimerning erish jarayoni sodir bo‘ladi.

Endotermik jarayonlarda issiqlik effektining qiymati musbat bo‘ladi $\Delta H > 0$, Gibbs energiyasining qiymati ham musbat bo‘ladi $\Delta G > 0$. Bunda polimerning erish jarayoni sodir bo‘lmaydi.

Yuqori temperaturalarda, $T\Delta S$ ko‘paytmasining qiymati $\Delta H g a$ nisbatan kattaroq bo‘lganda $\Delta G < 0$ bo‘lib qoladi va polimerning erish imkoniyati vujudga keladi. Shuning uchun polimerlarning erishi yuqori temperaturalarda sodir bo‘ladi.

8.3. Polimerlar eruvchanligiga ta'sir etuvchi omillar

Polimerlarning bir jinsli termodinamik barqaror sistemalar – eritmalar hosil qilish qobiliyatiga quyidagi omillarning ta'sirini ko'rib chiqarniz.

1. *Erituvchi va polimerlarning tabiatи.* Amorf polimerlar zanjirlarining va erituvchi molekulalarining kimyoviy tuzilishi hamda ularning qutbliliqi, polimerlarning bo'kishi va erishini belgilovchi asosiy omillardir. Polimer zanjiri bo'g'inarining va erituvchi molekulalarining qutbliligi yaqin bo'lsa solvatlanish energiyasining qiymati katta bo'ladi, polimerning eruvchanligi ortadi. Agar polimer va erituvchi tabiatи, ya'ni guttbliligi katta farq qilsa, ular deyarli ta'sirlashmaydi, bo'kish va erish kuzatilmaydi.


Poletilen, polipropilen, poliizopren, polibutadien va boshqa qutblangan polimerlar to'yingan va aromatik uglevodorodlar bilan cheksiz miqdorda aralashadi, ularda erish imkoniyati mavjud bo'ladi. Masalan, poletilen ksilolda yaxshi eriydi. Qutblangan erituvchilar (suv, spirt va boshqalar) bilan umuman ta'sirlashmaydi va erimaydi. Poliakril kislotasi, polivinil spirti kabi qutbli polimerlar suvdagi yaxshi eriydi.

2. *Polimerlarning molekulyar massasi.* Polimerlarning molekulyar massasi ortishi bilan ularning zanjirlari orasidagi ta'sir energiyalari ortib boradi. Shuning uchun bitta polimergomologik qatordagi polimerlarning molekulyar massasi ortishi bilan bir xil erituvchida erish qobiliyatini kamayib boradi. Bunday farq polimerni molekulyar massasi bo'yicha qism-larga ajratish imkonini beradi.

3. *Temperatura va polimer zanjirining qayishqoqligi.* Temperatura ortishi, ko'pincha, polimerlarning erishini osonlashtiradi. Bu hol $\Delta G = \Delta H - T\Delta S$ tenglamadan yaqqol ko'rindi. Haqiqatdan, temperatura ortishi bilan tenglamaning $T\Delta S$ qismi ortadi. Agar ma'lum temperaturada polimer erimasa, ya'ni $\Delta G > 0$ bo'lsa, temperatura ortishi bilan tengsizlik ishorasi teskariga aylanadi va natijada eruvchanlik ortadi. Polimer makromolekulasi bilan erituvchi molekulalari orasidagi munosabatning makromolekula qayishqoqligiga ta'siri eng muhim ahamiyatli jarayonlardan biridir. Zanjirsimon makromolekula qayishqoqligi erkin ichki aylanma harakatga, ya'ni molekulalararo ta'sirga bog'liq bo'lganligi uchun polimerning erish jarayonida makromolekula bilan erituvchi molekulalari orasida vujudga keladigan ta'sir zanjirsimon makromolekula qayishqoqligiga ta'sir etadi. Agar erish jarayonida issiqlik effekti musbat bo'lsa, qayishqoqlik ham ottishi, ham kamayishi mumkin. Shuning uchun polimerning quyi gomologlari issiqlik chiqarish bilan erisa, polimerning o'zi yo bu-

tunlay erimasligi, yoki chekli eriydigan bo'lishi mumkin. Bu hol makromolekulalarning o'rinalashish sonini kamaytiradi, hatto tayoqcha holatida molekulalarning erituvchidan ajralishiga va nihoyat erish jarayonining to'xtab qolishiga ($T\Delta S > \Delta U$) olib keladi.

Shunday qilib, polimer makromolekulasi bilan erituvchi molekulasing o'zaro ta'siri natijasida zanjirsimon makromolekulaning qayishqoqligi o'zgaradi. Agar erish jarayonida makromolekulaning qayishqoqligi yo'qolsa, ya'ni erish entropiyasi keskin kamayib ketsa, polimerning erishi qiyinlashadi va xatto mutlaqo erimay qoladi, agar erish jarayonida qayishqoqlik ortsa, polimerning erishi osonlashadi. Ma'lumki, polimer eriyotganda makromolekulaning qayishqoqligi o'zgaradi va shu bilan polimerning erish jarayoni quyi molekulyar birikmalarning erishidan farqlanadi. Shuning uchun ham molekulyar massa oshgan sari polimer-



7.23-rasm. Polimerlarning termogravimetrik (a), differensial-termogravimetrik (b) va differensial-termik analiz egrilari (c)
 1 – butilmekrifiklat-akrilonitril,
 2 – polietilen-vinilatsetat (30:70),
 3 – polietilen-vinilatsetat (70:30) sopolimerlari.

ning eruvchanligi kamayadi; molekulyar massasi juda katta bo‘lgan polimerlar molekulyar massasi kichikroq bo‘lgan polimerlarga nisbatan qiyin eriydi. Polimerning erishi eritmadiagi zanjirsimon butun molekula harakati bilan emas, balki bu molekulaning qayishqoq qismlari harakati bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun polimerning molekulyar massasi termodinamik segmentning molekulyar massasidan oshganda polimerning eruvchanligi molekulyar massaga bog‘liq bo‘lmay qoladi. Masalan, molekulaning qayishqoqligi juda katta, uzunligi ham segmentdan katta. Bu holda polimerning eruvchanligi molekulyar massaga bog‘liq bo‘lmaydi. Bundan polimerning yuqori molekulyar fraksiyalari juda suyultirilgan (bunda har bir molekula alohida kinetik birlik bo‘la oladi) eritmalar dangina cho‘kmaga tushiriladi, degan xulosa chiqadi.

4. *Polimerlarning kimyoviy tarkibi*. Qator polimerlar olinishiga qarab har xil kimyoviy tarkibga ega bo‘lishi mumkin va bu ularning eruvchanligiga sezilarli ta’sir etadi. Masalan, nitrosellyulozaning eruvchanligi uning tarkibidagi nitroguruuhlar soniga bog‘liq. 10-12% azot tutgan nitrosellyuloga atsetonda cheksiz eriydi, trinitrat sellyuloza esa faqat chekli bo‘kadi.

5. *Polimerlarning strukturasi*. Kristall tuzilishga ega bo‘lgan polimerlar amorf tuzilishdagi yuqori molekulyar birikmalarga qaraganda ancha qiyin eriydi. Buning sababi, kristall polimerlarda zanjirlar bir-biriga nisbatan tartibli joylashgan bo‘lib, ulardagi molekulalararo ta’sir energiyasi juda yuqori qiymatga ega bo‘ladi. Shuning uchun, kristall polimerdagi zanjirlarni bir-biridan ajratishga katta energiya talab qilinadi va bunday polimerlar qutbliligi yaqin bo‘lgan erituvchilarda ham uy haroratida erimaydi.

6. *Makromolekulalararo kimyoviy bog‘lar*. Choklangan polimerlar, ya’ni zanjirlar orasida ko‘prikl kimyoviy bog‘ga ega bo‘lgan polimerlar erituvchilarda erimaydi. Chunki, makromolekulalar orasidagi ko‘ndalang bog‘lar zanjirlarni bir-biridan ajrab, eritmaga o‘tishiga xalaqit beradi. Nisbatan yuqori harorat ham erish jarayonini yuzaga keltira olmaydi.

7. *Mexanik aralashtirish*. Makromolekulalar yirik va og‘ir bo‘lganligi uchun o‘z-o‘zidan diffuziyaga uchramaydi. Diffuziyalanmagan makromolekulalar eritmaga o‘tmaydi. Makromolekulalar diffuziyasini ta’minalash uchun mexanik aralashtirish talab etiladi.

8.4. Polimerlarning bo‘kishi

Makromolekulaning zanjirsimon tuzilishi polimer erish jarayonining o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini vujudga keltiradi. Chiziqsimon polimer quiyi molekulyar moddalarning erishiga qarama-qarshi o‘laroq, erishdan avval bo‘kadi. Bo‘kish jarayonida polimer erituvchini o‘ziga yutadi, polimer namunasining hajm va og‘irligi ortadi, o‘zining mikroskopik bir xil ligini yo‘qotmagan holda namuna yumshoq, cho‘ziluvchan bo‘lib qoladi.

Bo‘kish nimadan iborat? Ma’lumki, ikki suyuqlikning aralashishi biring molekulalari ikkinchisining molekulalari orasida tarqalishidan iboratdir. Chunonchi, agar probirkadagi suvga spirt qo‘silsa, spirt molekulalari suvda, suv molekulalari spirtda tarqala boshlaydi va bu jarayon suv bilan spirt molekulalari to‘la aralashib bo‘lguncha davom etadi. Har ikkala suyuqlikning molekulalar o‘lchami va harakatchanligi bir-biriga yaqin bo‘lganligidan bu suyuqliklarning birini ikkinchisida va ikkinchisini birinchisida aralashish tezliklari ham bir xil bo‘ladi.

Polimer modda quiyi molekulyar moddada eriyotganda suyuqlik molekulasi polimer makromolekulasiga nisbatan harakatchan bo‘lganligidan kichik molekulalarning faqatgina makromolekulalar orasiga kiriishi, ya’ni diffuziyalanishi ro‘y beradi, natijada, polimer namunasi bo‘kadi. Quiyi molekulyar birikmalarning polimerga diffuziyalanishi polimerning tuzilishiga bog‘liq: agar polimer amorf bo‘lsa, qayishqoq makromolekulalar segmentlarining issiqlik harakati natijasida g‘ovaklari ko‘p hosil bo‘lgan bo‘lib, suyuqlikning yutilishi ortadi. Bunda suyuqlik molekulalari g‘ovaklarni to‘ldirib, polimer molekulasi bo‘g‘inlarini bir-biridan ajrata boshlaydi.

Bu hol makromolekulalarning o‘zaro uzoqlashishiga, yangi g‘ovaklarning hosil bo‘lishiga olib keladi. Hosil bo‘lgan g‘ovaklarni erituvchi molekulalari kelib to‘ldiradi. Natijada namunaning hajmi katlashadi. Polimer makromolekulalari bir-biridan yetarli darajada uzoqlashgandagina makromolekulalar ajrala oladilar va demak eritmaga o‘ta oladilar. Shunday qilib, bo‘kish erishdan oldin sodir bo‘ladigan kinetik effektdir. Polimerning bo‘kishi va erishi molekulyar massaga bog‘liq. Molekulyar massa qancha katta bo‘lsa, bo‘kish va demak, erish ham shuncha qiyin boradi. Molekulyar massaning kamayishi bilan polimerning erishi esa quymolekulyar birikmalarning erishiga o‘xshab boradi. Masalan, avvalgi tuzilishi buzilgan (destruksiyalangan) kauchuk bo‘kmay turib eriydi.

Shunday qilib, yuqori molekulyar birikmaning cheksiz bo'kishi, ya'ni polimerning bo'kishi orqali eritmaga o'tishi ikki suyuqlikning o'zaro cheksiz aralashishi kabi bo'ladi. Sistemadagi bir komponent molekulasi ning qayishqoq uzun zanjirsimon tuzilishga egaligidan yuqorida keltirilgan ikki jarayon orasida farq bo'ladi.

Polimerning cheksiz bo'kishi bilan birga chekli bo'kishi ham uchraydi. Chekli bo'kishda molekulyar birikma eritmaga o'tmaydi. Boshqacha qilib aytganda, polimer ma'lum darajagacha bo'kkach, jarayon to'xtaydi va erish sodir bo'lmaydi. Buning sababi yuqori molekulyar modda bilan erituvchining o'zaro chekli aralasha olishidadir. Buning natijasida jarayon oxirigacha borib, sistemada ikki faza-polimerning erituvchidagi to'yigan eritmasi va erituvchining polimerdag'i to'yingan eritmasi (bo'kkan polimer) hosil bo'ladi. Chekli bo'kishda bo'kkan polimerning hajmi va polimer eritmasining konsentratsiyasi o'zgarmas bo'ladi. Polimerning chekli bo'kishi ikki suyuqlikning bir-biri bilan chekli aralashishiga ko'p jihatdan o'xshashdir. Ko'pincha chekli bo'kish (quyi molekulyar suyuqliklarning chekli erishi ham) tajriba sharoitining o'zgarishi bilan cheksiz erishga (bo'kishga) o'tadi. Chunonchi, jelatina agar sovuq suvda chekli bo'ksa, temperatura oshishi bilan cheksiz bo'kadi.

Polimer makromolekulalari orasida "ko'priq bog'" deb ataluvchi ko'ndalang bog'ning mavjudligi ham yuqori molekulyar birikmaning chekli bo'kishiga sababchi bo'ladi. Makromolekulalar orasidagi mavjud bog' molekulalarning bir-biridan ajralishiga va eritmaga o'tishiga to'sqinlik qiladi. Ammo makromolekulaning "ko'priq" lar orasidagi qismlari o'zaro uzoqlashishi, egilishi mumkin. Natijada erituvchi molekulalari makromolekulalar orasiga kirishi, ya'ni polimer bo'kishi mumkin. Bu jarayon fazoviy turda bo'kishga qarshi kuch paydo bo'lguncha davom etadi. Bunga vulqonlangan kauchukning benzolda bo'kishi misol bo'la oladi. Makromolekulalararo kimyoviy bog'ning ko'payishi bilan yuqori molekulyar birikmaning erishigina emas, hatto bo'kishi ham qiyinlashadi (masalan, ebonit). Fazoviy to'rning pishiqligidan, ya'ni makromolekulalararo bog'ning ko'pligidan erituvchi molekulalari polimer namunasi ichiga kirmaydi (diffuziyalanmaydi). Bo'kish miqdorini aniqlash maqsadida polimerning bo'kish darajasi degan tushunchadan foydalilanildi.

Bo'kish darajasi:


$$\alpha = \frac{m_1 - m_0}{m_0} \quad \text{yoki} \quad \alpha \frac{V_1 - V_0}{V_0}$$

formula orqali aniqlanadi. Bunda: m_0 va V_0 – polimerning bo'kishiga cha bo'lgan massasi va hajmi; m_t va V_t – polimerning bo'kishdan keyingi massasi.

Shunday qilib, polimerning bo'kish darajasi α bir gramm polimerga yutilgan suyuqlik massasiga yoki hajm birligiga yutilgan suyuqlik hajmi ga teng.

Makromolekulaning o'lchami katta bo'lganligidan polimerning bo'kish va erish jarayonlari uzoq vaqtga cho'ziladi. Polimerni ma'lum vaqt oralig'ida tarozida tortish yoki uning hajm o'zgarishini o'lhash yo'li bilan polimerning bo'kish kinetikasini o'rganish mumkin.

8.2-rasmda bo'kish jarayonining kinetikasini ifodalovchi tipik egri chiziqlar keltirilgan.



8.2-rasm. Har xil turdag'i bo'kish kinetikasini ifodalovchi egri chiziqlar

Rasmdagi 1, 2, 4-egri chiziqlar chekli bo'kishni, 3-egri chiziq esa cheksiz bo'kishni ko'rsatadi. Bo'kish darajasining maksimal qiymatga ega bo'lish vaqt turli polimerlar uchun turlicha ekanligi ham rasmdan ko'rinish turibdi, ba'zi polimerlarda α_{\max} tez (1-egri chiziq), boshqalarida esa sekin (2-egri chiziq) hosil bo'ladi. Masalan, bir suyuqlikda ikki polimer bo'kadi deylik. τ vaqtidan keyin garchi shu suyuqlikda 2-polimer ko'p bo'lsa ham, 1-polimer 2-polimerga nisbatan ko'proq bo'kadi. Shuning uchun ham

polimerning bo'kish miqdorini aniqlashda α ning maksimal qiymatidan foydalilanildi.

Cheksiz bo'kadigan polimerlar vaqt o'tishi bilan eriydi (3-egri chiziq). Bu holda garchi egri chiziqa maksimum bo'lsa-da, bo'kish darajasining maksimal qiymati to'g'risida fikr yuritib bo'lmaydi.

Ba'zan chekli bo'kadigan polimerlar (4-egri chiziq) tarkibida suyuqlikda eriydigan qo'shilmalar bo'ladi. Polimerga suyuqlik yutilsa ham polimerning massasi kamayadi. Bunday polimerlarda bo'kish darajasining maksimal qiymati tajriba o'tkazish davrida qo'shilmalarning erish tezligiga bog'liq bo'lib qoladi.

8.5. Polimer eritmalarini tayyorlash va tozalash

Polimer har qanday suyuqlikda ham chin eritma hosil qilmaydi. Ba'zi bir suyuqliklarda polimer o'z-o'zicha eriydi, ba'zi birlari bilan umuman aralashmaydi, ya'ni berilgan polimer uchun bir suyuqlik yaxshi erituvchi bo'lsa, boshqasi yomon bo'lishi mumkin.

Yaxshi erituvchi deb shunday quyi molekulyar suyuqlikka aytildi-ki, bunday suyuqlikda polimer termodinamik barqaror sistema hosil qila-di ($\Delta G < 0$) va bu sistemaning barqarorligi har qanday konsentratsiya va haroratda saqlanib qoladi.

Yomon erituvchi esa polimer bilan hech qanday konsentratsiya va haroratda termodinamik barqaror sistema hosil qilmaydi, lekin oraliq, holatlar ham kuzatiladi. Masalan, polimer quyimolekulyar erituvchi bilan ma'lum bir tarkibda yoki haroratda chin eritma hosil qiladi (ko'pincha bunday holat sopolimerlarda kuzatiladi) va tarkib yoki haroratda o'zgarishi sistemaning fazalarga ajralishiga olib keladi, ya'ni bu holda chekli aralashish kuzatiladi. Polimer eritmasini hosil qilish uchun yuqorida bayon qilingan mezonlar asosida shu polimer bilan moyil bo'lgan erituvchini tanlash kerak. Polimer namunasini kichik bo'laklarga bo'lib, o'lshangan miqdordagi suyuqlik quyiladi. Polimerni bo'kishi uchun bir necha soatga, ba'zan sutkaga erituvchida qoldiriladi. Bo'kib bo'lgandan so'ng, intensiv aralashtirib turgan holda biroz qizdiriladi. Aralashtirish eritmaning butun hajmi bo'yicha bir xil tashqi ko'rinishga va qovushqoqlikka ega bo'lgan aralashma hosil bo'lguncha davom ettiriladi.

Aralashtirish jarayonini tezligi rostlanuvchi aralashtirgich yordamida bajarish ancha qulay. Eritma tarkibida erimay qolgan polimer bo'lakchalarini va quyqasi bo'limgan bir jinsli gomogen aralashma bo'lishi kerak.

Eritmani qattiq moddalar va quyqadan tozalash uchun filtrlanadi. Suyiltirilgan eritmalarini Shott filtri, konsentrangan eritmalarini kichik g'ovakli sito (g'alvir) yordamida filtrlash tavsiya etiladi. Filtrlash jarayonini tezlashtirish uchun vakuum nasosdan foydalaniш mumkin. Polimer eritmasi gomogenizator vositasida gomogenlantiriladi, so'ngra gazsizlantiriladi.

8.6. Polimer eritmalarining xossalari

Amalda polimer eritmalarida makromolekulalarning o'zaro to'qna shishi ro'y bermasa, bunday eritmalarini *suyultirilgan eritma* deb qarash qabul qilingan. Polimer molekulasi uzun va qayishqoq bo'lganligi uchun molekulyar massaning o'sib borishi bilan ularning ma'lum hajmda bir-biri bilan uchrashish soni tez ortadi. Shuning uchun ham polimer eritmalarining suyulish va konsentrash chegarasi molekulyar massaga bog'liq. Molekulyar massa qancha katta bo'lsa, polimer suyultirilgan eritmasining konsentratsiyasi shuncha kichik bo'ladi.

Amalda 0,1-0,01 foizli polimer eritmalarini suyultirilgan eritma deb hisoblanadi. Polimerning suyultirilgan eritmalarini tekshirish bilan polimer makromolekulasining shaklini aniqlash, ularning tarmoqlanish darajasi va xarakteri to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni olish mumkin.

Molekulyar massani aniqlashning muhim usullari ham eritmalarining ba'zi xossalari o'chashga asoslangan. Endi eritmalarining xossalari ko'rib chiqamiz.


Osmotik bosim. Vant-Goff klassik qonuniga binoan suyultirilgan ideal eritmaning osmotik bosimi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$P = \frac{CRT}{M}$$

Bu yerda: P – osmotik bosim; C – konsentratsiya; M – erigan moddanning molekulyar massasi; R – gaz doimiyligi; T – absolyut temperatura.

Ammo polimer eritmalarini uchun Vant-Goff qonuni yuqoridagi ko'rinishda qo'llanishi mumkin emas. Chunki birinchidan, tajribaning ko'rsatishicha, yuqori molekulyar modda eritmalarini uchun osmotik bosim Vant-Goff qonuni talab qilganidan birmuncha yuqori bo'ladi. Bu holat polimer makromolekulasining qayishqoqligi tufayli eritmada o'zini bir necha qisqaroq molekula kabi to'tishi, ya'ni kinetik birlik rolini barcha molekula emas, balki uning segmenti o'ynashi bilan tushuntiriladi. Ikkinchidan, konsentratsiyaning oshishi bilan eritmaning osmotik bosimi to'g'ri chiziq bo'yicha ko'tarilmaydi.

8.3-rasmida quyi molekulyar (1) va yuqori molekulyar (2) modda eritmalarini konsentratsiyasining ortishi bilan osmotik bosimning o'zgarishi ko'rsatilgan.



8.3-rasm. Eritma konsentratsiyasining ortishi bilan osmotik bosimning o'zgarishi: 1-quyi molekulyar birikma; 2-yuqori molekulyar birikma.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, quyi molekulyar moddalar eritmasida osmotik bosimning ortishi konsentratsiyaga to'g'ri proporsional, ya'ni bunday eritma Vant-Goff qonuniga bo'ysumadi. Yuqori molekulyar birikmalarda esa osmotik bosim konsentratsiyaga nisbatan tezroq ortadi. Bunday holat, ko'pincha polimer makromolekulalarining solvatlanishi bilan tushuntiriladi. Shuning uchun Vant-Goff tenglamasida sistemaning butun hajmi (V) emas, balki effektiv hajmi olinishi, ya'ni eritmaning butun hajmidan makromolekula va u bilan bog'langan erituvchining hajmi chiqarib tashlanishi kerak. Bu holda yuqoridagi tenglama quyidagi shaklga keladi:

$$P(V - b) = CRT \quad \text{yoki} \quad P = \frac{m}{M} - \frac{RT}{V-b} \quad (1)$$

Bu yerda: m – erigan polimerning massasi; b – makromolekula va u bilan bog'langan erituvchining hajmi.

Bu tenglama osmotik bosimning konsentratsiyaga bog'liqligini juda yaxshi tushuntiradi. Tenglamadan ko'rinib turibdiki, polimer konsentratsiyasi C ning ortishi bilan sistemaning effektiv hajmi ($V-b$) kamayadi. Bu holat shunga olib keladiki, umuman osmotik bosim konsentratsiyaga nisbatan tezroq ortadi.

(1) tenglama qator globulyar oqsillar uchun osmotik bosimning konsentratsiyaga bog'liqligini juda yaxshi ko'rsatsa ham umumiy holda yuqori molekulyar eritmalar uchun qo'llanilmaydi.

Yuqori molekulyar modda molekulalarini uzun va qayishqoq deb qaralsa, osmotik bosimning konsentratsiyaga bog'liqligini bundan ham yaxshiroq tushuntirish mumkin.

Bundan oldingi qismda yuqori molekulyar moddalarning juda suyuq eritmasida kinetik birlik rolini butun molekula, konsentrangan eritmasida esa bu rolni uning ayrim bir bo‘lagi – segmenti o‘ynashi ko‘rsatilgan edi. Shuning uchun konsentratsiyaning ortishi bilan eritmadiagi kinetik birlik miqdori konsentratsiyaga nisbatan tezroq ortadi, chunki polimer qayish-qoq molekulasining shartli ravishda bo‘lishi mumkin bo‘lgan segment soni ko‘payadi. Osmotik bosim faqat eritmadiagi zarracha soniga bog‘liq bo‘lgani uchun konsentratsiya ortishi bilan eritmaning osmotik bosimi konsentratsiyaga nisbatan tezroq ortadi.

Mana shularga asoslanib Flori va Xagins polimerlarning suyultirilgan eritmasi konsentratsiyasi bilan osmotik bosimi o‘rtasidagi quyidagi nazarii nisbatni aniqladilar:

$$P = \frac{RT}{M} c + Bc^2 + Ac^3 + \dots \quad (2)$$

Bu tenglamadagi c ning kub va undan yuqori darajadagi qiymatlarini e’tiborga olmasak, quyidagi tenglamaga ega bo‘lamiz:

$$P = \frac{RT}{M} c + Bc^2 \quad (3)$$

Bu tenglamadagi B konstanta erituvchining tabiatiga bog‘liq, lekin erigan moddaning molekulyar massasiga bog‘liq emas. Agar C ning qiymati kichik bo‘lsa, tenglamaning o‘ng tomonidagi ikkinchi a’zosining qiymati nolga yaqinlashadi va ifoda Vant-Goff tenglamasi shaklini oladi. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, polimerlarning molekulyar massasini aniqlashda osmotik bosimni o‘lchash usulidan keng foydalaniladi.

Eritma qovushqoqligi. Polimer eritmalarining qovushqoqligi yuqori molekulyar birikmalarning xarakterli xossalardan hisoblanadi. Texnikada hamda ilmiy tekshirish ishlardida ko‘pincha polimer eritmalarining qovushqoqligi o‘lchanadi va bu bilan polimerda bo‘ladigan barcha o‘zgarishlar haqida boshlang‘ich ma’lumotlar olinadi. Qovushqoqlikni aniqlashning bir necha usullari mavjud. Ammo bu usullardan foydalanilganda polimer eritmalarining juda yuqori qovushqoqlikka egaligi uchun ma’lum qiyinchiliklarga uchramyz. Jumladan, qovushqoqlikni kapillyar viskozimetrlar bilan aniqlashning eng keng tarqalgan usuli faqat suyultirilgan eritmalar (bunda konsentratsiya 1 foizdan ortiq bo‘imasligi shart) uchun qo‘llaniladi.

Yuqori konsentratsiyali eritmalarining qovushqoqligini o'chash uchun odatda shariqli viskozimetrlardan foydaliladi. Bo'kkан polimerlarning qovushqoqligini bu usullar yordamida aniqlash mumkin emas. Bu holda bo'kkан polimerlarning plastik oqishi to'g'risida gapirish kerak. Plastik oqish Hepler konsistometri tipidagi asboblarda aniqlanadi.

Hozirgacha to'plangan eksperimental ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha yuqori molekulyar modda eritmalarining qovushqoqligi quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

- Polimer eritmalarining qovushqoqligi odatda quyi molekulyar birikmalar eritmalarining va kolloid eritmalarining qovushqoqligidan bir-muncha yuqori bo'ladi.
- Bunday moddalarning suyultirilgan eritmalarigina Nyuton va Puayzel qonunlariga bo'ysunadi, ya'ni ularning qovushqoqligi bosimga bog'liq bo'lmaydi.
- Yuqori molekulyar birikma eritmalarining qovushqoqligi Eynshteyn qonuniga bo'ysunmaydi va konsentratsiya ortishi bilan ortib boradi.

Nima uchun polimer eritmalar shunchalik katta qovushqoqlikka ega bo'ladi, degan masala olimlarni ko'pdan beri qiziqtirib keladi.

Avvalo polimer eritmalarining katta qovushqoqlikka ega ekanligini polimer makromolekulasingin go'yo bunday eritmalarda solvatlanishi yoki mitsella hosil qilishi bilan tushuntirganlar.

Ammo keyingi yillarda makromolekulalar nisbatan juda oz solvatlanishi ma'lum bo'ldi. Shundan so'ng eritma qovushqoqligining barcha xususiyatlari makromolekulaning zanjirsimon tuzilishi va ularning katta o'lchamli bo'lishiga bog'liq ekanligiga qat'i ishonch hosil etildi.

Tarkibida yirik zarracha yoki katta molekula bo'lgan eritmalar qovushqoqligiga gidrodinamika nuqtai nazaridan qarash mumkin. Chunki erigan polimerning uzun zanjirsimon molekulalari suyuqlikning oqishiga gidrodinamik qarshilik ko'rsatadi, suyuqlik molekulasi polimer zanjirini egib, o'z harakatini sekinlashtirishga majbur bo'ladi.

Polimer eritmalarining tenglamasidan chetga chiqish sabablari yuqorida aytiganlar bilan chambarchas bog'liq. Ma'lumki, qovushqoqlikni kapilar asboblar yordamida aniqlash qovushqoqlikni kapillyardan o'tuvchi suyuqlik tezligi bilan bog'liqligini ko'rsatuvchi Puayzel tenglamasiga asoslangan:

$$\frac{Q}{\tau} = \frac{\pi r^4 P}{8l\eta} \quad (4)$$

bunda: P – gidrostatik bosim; Q – kapillyardan tvaqt oralig‘ida oqib o‘tgan suyuqlik miqdori; r – kapillyar radiusi; l – kapillyar uzunligi; η – sistemaning absolyut qovushqoqligi.

Eritma qovushqoqligining erituvchi qovushqoqligiga nisbati nisbiy qovushqoqlik deyiladi va quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\eta_{nisbiy} = \frac{\eta}{\eta_0} = \frac{\tau}{\tau_0} \cdot \frac{P}{P_0} \quad (5)$$

bunda η_{nisbiy} – eritmaning nisbiy qovushqoqligi, η – eritmaning mutloq qovushqoqligi, η_0 – erituvchining mutloq qovushqoqligi, τ – eritmaning kapillyardan oqib o‘tish vaqt, τ_0 – erituvchining kapillyardan oqib o‘tish vaqt, P – eritmaga ta’sir etuvchi bosim, P_0 – erituvchiga ta’sir etuvchi bosim. Agar $P=P_0$ bo‘lsa, bu ifoda quyidagicha soddalashadi:

$$\eta_{nisbiy} = \frac{\tau}{\tau_0} \quad (6)$$

Agar yuqoridagi shartlar saqlansa va suyuqlik oqimi laminar bo‘lsa, η_{nisbiy} uchun olinadigan qiymat qovushqoqlik o‘lchanayotgan vaqtdagi absolyut bosimning qiymatiga bog‘liq bo‘lmaydi. P ning qiymati oqish tezligi dQ/dT ni belgilagani uchun nisbiy qovushqoqlik ham oqish tezligiga bog‘liq emas deb aytish mumkin. Haqiqatan ham ko‘philik quyi molekulyar suyuqliklar uchun shunday hol ro‘y beradi. Yuqori molekulyar birikma eritmalarida esa yuqoridagi qoidadan chetga chiqish kuzatiladi: tajribada topilgan nisbiy qovushqoqlikning qiymati bosim ortishi bilan kamayadi.

Polimer eritmalarining Puayzel tenglamasidan bunday chetga chiqishining ikki xil sababi bor: birinchidan, eritmadiagi shar shaklida chigallashib ketgan makromolekula oqish vaqtida rostlanadi va oqim yo‘nalishi bo‘yicha orientatsiyalanadi. Natijada oqimga ko‘rsatiladigan qarshilik va qovushqoqlik kamayadi.

Ikkinchidan, konsentrangan eritmalaragi makromolekulalar bir-biriga yaqinlashadi va assotsiyat hosil bo‘ladi, bu esa oqimga kuchli qarshilik ko‘rsatadi. Bosimning ortib borishi va oqimning tezlashishi bunday tuzilishni buzadi va oqimga bo‘lgan qarshilik, ya’ni qovushqoqlik kamayadi.

Temperaturaning oshishi bilan mikrobroun harakatining intensivligi ortadi va yuqorida aytilgan tuzilishning hosil bo‘lishiga qarshilik qiladi, natijada yuqori temperaturalarda Nyuton va Puayzel qonunlaridan kam


chetlanish bo'ladi. Bunda tashqari temperaturaning ortishi bilan sistemaning ichki ishqalanish koeffitsienti kamayadi. Qovushqoqlik koeffitsientining temperaturaga bog'liqligi quyidagi tenglama bilan ifodalanishi mumkin:

$$\eta = Ae^{-\frac{E}{RT}} \quad (7)$$

bunda A — doimiy qiymat; E —aktivlanish energiyasi, ya'ni bir molekulaning ikkinchi molekula ustidan harakat qilishi uchun sarflanadigan ish; R —gaz doimiyligi; T —absolyut temperatura.

T qancha katta bo'lsa, E/RT ifoda – eritmaning qovushqoqligi shuncha kam bo'ladi. Bu yerda shuni ham aytish kerakki, eritma temperaturasining ortishi doim polimer moddalar qovushqoqligining kamayishiga olib kelavermaydi. Ba'zi hollarda temperaturaning ortishi bilan qovushqoqlik ortishi ham mumkin, chunki mikrobroun harakati oqimdagи uzun molekula zanjirlarining orientatsiyalanishiga halaqt beradi.

Polimer eritmalar qovushqoqligining konsentratsiyaga bog'liqligi ham juda xarakterlidir. Bu bog'liqlik grafik ravishda 8.4-rasmida ko'rsatilgan.



8.4-rasm. Qovushqoqlikning eritma konsentratsiyasiga bog'liqligi:

1- quyi molekulyar modda 2- yuqori molekulyar modda.

Shu rasmning o'zida solishtirish uchun sxematik tarzda quyi molekulyar moddalar qovushqoqligining konsentratsiyaga bog'liqligi ham ifoda etilgan. Bunda polimerning faqat juda suyultirilgan eritmasidagina qovushqoqlikning konsentratsiya bilan to'g'ri chiziq bo'yicha bog'langanligi ko'rinish turibdi.

Bu bog'lanish Eynshteynnning mashhur viskozimetrik tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$\eta = \eta_o \left(1 + 2.5 \frac{v_1}{v_2} \right) \quad (8)$$

bunda: η_o – erituvchining qovushqoqligi; v_1 – erigan moddaning hajmi; V_2 – juda suyultirilgan eritmaning hajmi.

Konsentratsiya 0,5% dan ortishi bilan polimer eritmalar Eynshteyn tenglamasidan jiddiy chetlashadi. Aslida esa polimer eritmalariga oid asosiy tushunchalarni nazariy analiz qilishda quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo‘lishi kerak:

- erigan modda zarrachalari sharsimon shaklga ega bo‘lishi hamda u erituvchi bilan ta’sirlashmasligi kerak;
- erigan modda zarrachalari oralig‘i shunchalik katta bo‘lishi kerakki, ular orasida o‘zaro ta’sir bo‘lmisin;
- dispers fazaning hajmi sistemaning umumiy hajmiga nisbatan sezilarli bo‘lishi kerak.

Ma’lumki, sanab o‘tilgan shartlardan birinchisi polimer eritmalar uchun qo‘llanilmaydi, chunki polimer makromolekulalari cho‘zilgan shaklga ega bo‘lib, ular uzunligining ko‘ndalang kesim yuziga nisbati juda katta bo‘ladi.

Eynshteyn tenglanasi polimer eritmalar uchun qo‘llanilganda yuqorida ayтиб o‘tilgan ikkinchi shartning bajarilmasligiga eritma konsentratsiyasining bir oz ortishi bilan molekulalar orasida o‘zaro ta’sir kuchning paydo bo‘lishi sababdir. Haqiqatan, polimer molekulalarining bir-biri bilan ta’sir etish sharoitini aniqlashda kinetik birlikning issiqlik harakatida faqat ularning fazoda bir yerdan ikkinchi yerga ko‘chishini emas, balki qandaydir o‘q atrofida aylanishini ham nazarda tutish kerak. Shu bilan birga chiziqsimon molekulaning ayla-nayotgandagi ta’sir etish maydoni uning uzunligi funksiyasi bo‘lib hisoblanadi.

Bu funksiyaning ifodasi turli mualliflar tomonidan turlicha talqin etiladi. Shtaudinger molekulaning bir-biriga ta’sir etish maydonini tekis silindr shaklida deb, uni quyidagicha ifodalaydi:

$$\varphi = P \frac{l^2}{4} d \quad (9)$$

bunda l – silindrning balandligi, d molekulaning uzunligiga teng; d – diametr bo‘lib, d molekulaning ko‘ndalang kesimiga teng.

Agar molekulaning qayishqoqligi e'tiborga olinsa, makromolekulalari ta'sir maydonining shakli bundan ham murakkabroq bo'ladi, ammo funsiyaning umumiy ko'rinishi $\varphi = k l^n$ da saqlanadi.

Shunday qilib, ma'lum konsentratsiyali eritmadi polimer makromolekulasi egallagan effektiv hajm xuddi shunday konsentratsiyali eritmadi quiy whole molekulyar birikma molekulalari egallagan hajmdan boshuncha katta bo'ladi. Uzunligi l va qalinligi d bo'lgan yuqori molekulyar birikma molekulasini olaylik. Bu molekulaning ta'sir etish maydoni elli soidni tashkil etsin. Agar bunday ellipsoid ichiga ikki kichik molekulyar massaga ega bo'lgan molekulaning ta'sir maydoniga teng keluvchi ikki chi ellipsoid chizilsa, ellipsoidlar konturlari orasidagi soha ikki sistemining effektiv hajmlari farqiga teng bo'ladi.

Ravshanki, molekula uzunliklari orasidagi farq qancha katta bo'lgan effektiv hajmlar orasidagi farq shuncha katta bo'ladi. Demak, yuqorida aytilib o'tilgan Eynshteyn shartlarining ikkinchisi polimerning juda suyutirilgan eritmalarida buzila boshlaydi.

0,1-0,2 foizli eritmalarida ayrim molekulalarning bir-biriga ta'sir maydonlari bir-biri bilan kesishadi. Makromolekula eritmada dumalo shaklida bo'lib, o'zida ko'p miqdorda erituvchini saqlaydi. Polimer bilan geometrik birikkan erituvchining mana shu hajmini ham dispers faza hajmiga kiritish lozim. Shu sababga ko'ra dispers fazaning hajmi sistemaning umumiy hajmiga nisbatan birmuncha katta bo'ladi va Eynshteyn tenglamasining uchinchi sharti bajarilmaydi, shakli va katta-kichikligi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Eritmalardagi makromolekulalarni qattiq tayoqcha shaklida hisoblagan Shtaudinger suytirilgan eritmalarining qovushqoqligi bilan konsentratsiyasi orasida quyidagi bog'lanish borligini ko'rsatadi:

$$\eta_{sol} = K_m MC \quad (1)$$

bunda: K_m – har bir gomologik qator uchun o'zgarmas sondir; M – suytirilgan polimerning molekulyar massasi; C – eritmaning mol bilan ifoda qilgan konsentratsiyasi.

Bu tenglamadagi solishtirma qovushqoqlik (η_{sol}) toza erituvchiga polimer qo'shilgandagi qovushqoqlikning nisbiy ortishidan iborat.

Solishtirma qovushqoqlik son jihatdan quyidagi tenglama bilan ifodatilishi mumkin:

$$\eta_{sol} = \frac{\eta - \eta_0}{\eta_0} = \frac{\eta}{\eta_0} - 1 = \eta_{nisbiy} - 1 \quad (11)$$


Bunda: η – eritma qovushqoqligining koeffitsienti; η_0 – erituvchi qovushqoqligining koeffitsienti; η_{nisbiy} – eritmaning nisbiy qovushqoqligi.

Agar (10) tenglamaning ikkala qismi C ga bo‘linsa, quyidagi tenglamaga egabo‘lamiz:

$$\frac{\eta_{sol}}{C} = K_m M \quad (12)$$

$\frac{\eta_{sol}}{C}$ ning qiymati keltirilgan qovushqoqlik deb ataladi. Bu tenglama keltirilgan qovushqoqlik bilan polimerning molekulyar massasi orasidagi to‘g‘ri chiziqli bog‘lanishni ko‘rsatadi.

Bu tenglamadan yana shuni ko‘rish mumkinki, molekulyar massasi doimiy bo‘lgani sababli birgina polimer uchun keltirilgan qovushqoqlik konsentratsiyaga bog‘liq bo‘imasligi kerak. Bu 8.5-rasmda to‘g‘ri chiziq bilan ko‘rsatilgan. Bu tenglamani tekshirish maqsadida parafin polimer gomologik qatorning quyi a’zolari bilan Shtaudinger olib borgan ishlari u taklif etgan bu tenglamaning to‘g‘ri ekanligini tasdiqladi.



8.5-rasm. Keltirilgan qovushqoqlikning eritma konsentratsiyasiga bog‘liqligi.

Ammo Shtaudinger va boshqa olimlarning keyingi olib borgan ishlari polimer eritmalari molekulyar massasining bir oz oshishi bilan bu tenglama o‘z kuchini yo‘qotishini ko‘rsatdi.

8.5-rasmdagagi chiziqning ko‘rsatishicha, eritma konsentratsiyasining ortishi bilan keltirilgan qovushqoqlik ortadi.

Eritma konsentratsiyasining ortishi bilan keltirilgan qovushqoqlikning ortishi makromolekulalar o‘zaro ta’siri hisobiga borishi kerak.

Keyingi tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, juda ko‘p hollarda Shtau finger tenglamasidagi K_m doimiysi polimerning molekulyar massasiga bog‘liq bo‘lib, molekulyar massanening ortishi bilan kamayadi.

Shtaudinger fikricha, molekulyar massanening ortishi bilan makromolekula ko‘p tarmoqlanadi va natijada K_m o‘zgaradi. Ammo chiziqsimen molekulalarning molekulyar massasining ortishi bilan K_m ning kamayishi ham isbotlangan. Binobarin, K_m molekulyar massanening ortishi tufayli makromolekulaning tarmoqlanganligi uchun emas, balki uzunroq makromolekulalarning kuchli bukiluvchanligi va buning natijasida oqishga kam qarshilik ko‘rsatishi bilan o‘zgaradi.

Xagins gidrodinamik omil va polimer molekulasi qayishqoqligini hisobga olgan holda eritmalarining solishtirma qovushqoqligi nazariy yo‘l bilan o‘z yechimini topdi. Bunda Xagins zanjirning suyuqlik oqimiga ko‘rsatayotgan qarshiligidini zanjirning shakliga bog‘liq deb hisobladи. Agar zanjirlar tayoqcha shaklida bo‘lsa, ular suyuqlikka tartibsiz joylasib, suyuqlik harakatiga maksimal qarshilik ko‘rsatadi. Agar zanjirlar qayishqoq hamda eritmada sharsimon shaklga ega bo‘lsa, oqimiga minimal qarshilik ko‘rsatadi. Demak eritmalarining solishtirma qovushqoqligiga fuqat polimer konsentratsiyasi bilan molekulyar massasi emas, balki uning eritmadagi shakli ham ta’sir etadi.

8.7. Quyi va yuqori molekulyar birikmalar eritmalarining xossalari solishtirish

1. Monomerlar erituvchida eriganda birdaniga eriydi. Polimerlar erituvchida eriganda esa erishdan oldin bo‘kadi.

2. Monomerlarning eruvchanligi ularning molekulyar massasi ga bog‘liq emas. Polimerlarning eruvchanligi esa molekulyar massaga bog‘liq bo‘ladi, ya’ni polimerlarning molekulyar massasi ortishi bilan eruvchanligi kamayadi.

3. Monomerlarning eruvchanligi ularning tuzilishiga bog‘liq emas. Polimerlarning eruvchanligi esa tuzilishiga bog‘liq bo‘ladi, ya’ni chiziqsimon polimerlar erituvchida yaxshi eriydi, tarmoqlangan polimerlar qiyin eriydi, to‘rsimon polimerlar erituvchida erimaydi.

4. Monomer eritmalarining qovushqoqligi kichik bo‘ladi. Polimer eritmalarining qovushqoqligi katta bo‘ladi.

5. Monomer eritmalarining qovushqoqligiga ularning molekulyar massasi ta’sir qilmaydi. Polimer eritmalarining qovushqoqligiga molekulyar massasi ta’sir etadi, ya’ni molekulyar massasi ortishi bilan eritma qovushqoqligi ortadi.

6. Monomer eritmalarining konsentratsiyasi keskin o‘zgarsa ham eritma qovushqoqligi deyarli o‘zgarmaydi. Polimer eritmalarining konsentratsiyasi oz miqdorda o‘zgarsa ham eritma qovushqoqligi keskin o‘zgarib ketadi.

7. Monomer eritmalarini termodinamik barqaror bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan xossalari o‘zgarmaydi.


8. Monomerlarining konsentrangan eritmalarini vaqt o‘tishi bilan oquvchanligini yo‘qotmaydi. Polimerlarning konsentrangan eritmalarini vaqt o‘tishi bilan eruvchanligini yo‘qotadi va iviqlarga aylanadi.

8.8. Polimerlarning konsentrangan eritmalarini va iviqlari

Polimerlarning konsentrangan eritmalarini quyi molekulyar modda eritmalaridan ma’lum sharoitda iviqqa o‘tishi, ya’ni oquvchanligi va eruvchanligini yo‘qotishi bilan farq qiladi. Yuqori molekulyar modda molekulalari orasida o‘zarob bog‘larning yuzaga kelishi natijasida iviq hosil bo‘ladi. Yuqorida polimer molekulalarining eritmada assotsiat hosil qiluvchi qisqa muddatli bog‘lar yuzaga keltirishi haqida gapirgan edik. Bunday assotsiatlar suyultirilgan eritmalarida odatda juda oz vaqt yashaydi. Ammo konsentrangan eritmalarida bunday bog‘larning yashash davri uzoq bo‘lib, assotsiatlar qattiq fazada xossasiga ega bo‘ladi, ya’ni eritma iviqqa aylanib qoladi (8.6-rasm).

Makromolekula qutbli guruhlarining bir-biri bilan ta’sir etishi natijasida molekulalararo ta’sirlashish yoki vodorod bog‘lar hosil bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, iviq hosil bo‘lishi molekulalararo ta’sir kuchlarining yuzaga kelishi va bu fazoviy tuzilishdagi kuchlarning sekin-asta tartibga tushish jarayonidan iboratdir.

Ko‘pincha iviq hosil bo‘lishida bir-birlari bilan ta’sirlashayotgan molekulalarning ayrim qismlari qisman tartiblanadi. Tartiblanish darajasi yuqori molekulyar moddaning tabiatini bilan iviqning hosil bo‘lish sharoitiga bog‘liq.



8.6-rasm. Polimerlarning turli ko'rinishdagi iviqlari.



8.7-rasm. Tartibli strukturaning turlari

8.7-rasmda tartiblangan tuzilishlarning ba'zilari ko'rsatilgan. Temperatura, polimer eritmasining konsentratsiyasi, elektrolit va boshqa qator omillar tartibli tuzilishning hosil bo'lishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Odatda temperaturaning ortishi iviq hosil bo'lishiga qarshilik ko'rsatadi. Haqiqatdan mikrobronun harakati intensivligining ortishi bilan molekulalararo bog'lar va ularning yashash vaqtini kamayadi, natijada, iviq hosil bo'lishi qiyinlashadi: temperaturaning pasayishi bilan iviq hosil bo'lishi osonlashadi. Shuni aytish kerakki, eritmaning iviqqa, iviqning eritmaga o'tishi to'xtovsiz davom etadi, ya'ni kristallanish va suyuqlanish temperaturalari kabi iviqlanishning ham qat'iy belgilangan temperaturasi bo'lmaydi. Yuqori molekulyar modda eritmalarining iviqlanishiga eritma konsentratsiyasining oshishi yordam beradi, chunki bunda makromolekulalarning to'qnashish soni ortadi va iviqning ma'lum bir hajmiga to'g'ri keluvchi bog'lar soni ortadi.

Yuqori molekulyar modda eritmasi konsentratsiyasining ortishi bilan ularning iviqlanish temperaturasi ham ortadi. Masalan, jelatinaning 30-40 foizli konsentrangan eritmasi 30°C da, uning 10 foizli suyultirilgan eritmasi 22°C atrofida iviqliqa aylanadi.

Polimer eritmasining minimal iviqlanish konsentratsiyasi polimearning tabiatini bilan uning eritmadi molekula shakliga bog'liq. Masalan, agar-agarning 0,2 foizli eritmasi uy temperaturasida yaxshi iviqlanadi, kauchukning konsentrangan eritmasi uy temperaturasida iviqliqa aylanmaydi. Kauchuk eritmalarini faqat pasttemperaturalardagina (-30° dan -40°C gacha) iviqli hosil qildi. Kauchukning yomon iviqlanishi uning molekulasida qutbli guruhlarning yo'qligi bilan tushuntiriladi.

Yuqori molekulyar amfoter elektrolitlarning, masalan, oqsillarning iviqlanishiga eritma pH katta ta'sir ko'rsatadi. pH izoelektrik nuqtaga to'g'ri kelganda polimer juda yaxshi iviqlanadi, chunki makromolekula zanjirida bir xil sondagi bir-biriga qarama-qarshi zaryadlangan ion gruhi ar joylashgan, ular polimer makromolekulalari orasida bog'liq hosil qiladilar.

pH o'zgarishi bilan izoelektrik nuqtaning ikkala tomonidagi makromolekulalar bir xil zaryadga ega bo'lib qoladi, bu esa bog'liq hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaydi va iviqlanishga xalal beradi. Lekin bu eritmaga ko'p miqdorda elektrolit qo'shilsa, ionogen guruhlarning ionlanish darajasi kamayadi va qaytadan iviqlining hosil bo'lish tendensiyasi ortadi.

Yuqori molekulyar moddalar eritmasining iviqlanishiga quyi molekulyar elektrolitlar ham ta'sir ko'rsatadi.

Molekulalararo bog'larining hosil bo'lishidan tashqari ma'lum sharoitda birgina makromolekulaning turli uchastkalari orasida ham bog'lar yuzaga keladi. Bu holda globulyar iviqli hosil bo'ladi. Suyultirilgan polimer eritmasining konsentratsiyasi juda kichik bo'lgani uchun molekula zanjirlari eritmada bir-biri bilan uchrashmaydi, ya'ni molekulalararo bog'liq hosil bo'lish imkoniyati bo'lmaydi. Shuning uchun birinchi qarashda iviqli hosil bo'ishi mumkin emasdek tuyuladi. Lekin molekulaning zanjiri qayishqoq bo'ib, unda bir-biriga ta'sir eta oladigan atomlar guruhi borligidan makromolekulaning turli segmentlari orasida molekulyar bog'lar yuzaga keladi. Natijada alohida burilgan molekulalar iviqli hosil qiladi. Bunday globulyar iviqli hosil qilgan polimer molekulasining zanjiri o'z konformatsiyasini endi o'zgartira olmaydi va polimerning qovushoqligi kamayadi. Bunday globulyar iviqlar buzilmaguncha, eritma butunlay iviqlanmaydi, chunki bog'liq hosil qilishi mumkin bo'lgan guruhlarni globula ichida bog'liq hosil qilib, band bo'lib qoladi. Agar eritmani suyultirish bilan globulyar iviqli parcha-

lansa va so‘ngra sovitilsa, eritma odatdagи oquvchanligini yo‘qotib, butunlay iviqqa aylanadi. Ma’lum sharoitda tayyorlangan jelatina eritmasi globulyar iviqqa misol bo‘la oladi.

Konsentrangan jelatina eritmasi iviqning suyuqlanish temperatura-sidan past temperaturada sovitilsa, molekulalararo bog‘larning hosil bo‘lishi natijasida odatdagи oquvchanligini yo‘qotgan iviq hosil bo‘ladi. Juda suyultirilgan jelatina eritmasida molekulalar bir-birlaridan uzoqda bo‘lib, bog‘lar, asosan, molekula ichida hosil bo‘lganligi uchun eritma oquvchan holatda qoladi. Agar bu eritma sekin-asta konsentrana boshlasa, odatda qovushqoqligi kam bo‘lgan globulyar iviq hosil bo‘ladi. Agar bunday sistema qizdirilsa mikrobrooun harakati intensivligining ortishi tufayli molekulaning ayrim qismlarida hosil bo‘lgan bog‘lar uziladi va globulyar iviq qovushoq oddiy jelatina eritmasiga aylanib qoladi. Bu eritma sovitilsa, odatdagи oquvchanligini yo‘qotgan iviq hosil bo‘ladi.

Iviqning eng muhim xususiyatlaridan biri uning mexanik xossa-sidir. Yuqori molekulyar birikma eritmalarida molekulalararo ta’sir kam bo‘lganligi uchun polimer oqish qobiliyatiga ega. Polimerlarning ivig‘i mustahkam fazoviy tuzilishga ega bo‘lganligi uchun siljitim kuchlanishining ma’lum qiymatigacha oquvchanlikka ega bo‘lmaydi. Siljitim kuchlanishidan quyida iviqlar o‘zlarini elastik jismdek tutadi.

Siljitim kuchlanishining kritik miqdori molekulalararo bog‘ning mustahkamligi va soniga bog‘liq. Agar bog‘lar mustahkam bo‘lmasa, mexanik aralashtirish yoki chayqash tuzilishni buzadi va iviq suyuqlikka aylanadi. Tashqi kuchning olinishi natijasida eritma ba’zan yana o‘z-o‘zidan ivib qolishi ham mumkin. Agar iviq mustahkam bo‘lsa, ya’ni kimyoviy bog‘lar natijasida hosil bo‘lsa, kuchli mexanik energiya ta’sirida buziladi va avvalgi holatiga qaytib kelmaydi.

Iviqning xossasiga konsentratsiya juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Ma’lum hajm birligidagi iviq o‘zida juda kam molekulalararo bog‘ tutsa, u odatda juda elastik bo‘ladi. Molekulalararo bog‘lar ko‘p bo‘lgan iviqlar esa kam elastik bo‘ladi, chunki polimer zanjirlari orasidagi bog‘lar qancha ko‘p bo‘lsa, tashqi kuch ta’sirida makromolekula shaklining o‘zgarish imkoniyati shuncha chegaralangan bo‘ladi.

Relaksatsion jarayon iviqlarda polimereritmalarida nisbatan katta tezlik bilan boradi. Iviqlardamolekulalararobog‘larning mustahkamligi tufayli butun molekulaning siljishi bilan bog‘liq bo‘lgan relaksatsion hodisa ro‘y bermaydi. Relaksatsion hodisalar zanjirlararo bog‘larning ayrim qisqa qismlarining qayta joylashishi natijasida sodir bo‘ladi. Shuning uchun

ham iviqlarning strukturalangan eritmalarga nisbatan elastikligi doimo katta bo‘ladi.

Agar iviq hosil qiluvchi bog‘lar mustahkam bo‘lib, temperatura iviq yo‘qotilguncha oshirilganda ham saqlanib qolsa, iviq temperaturao‘zgarishi bilan shishasimon holatdan yuqori elastik holatga o‘tadi va relaksatsion hodisaning hammasi yuzaga keladi. Aksincha, bunday bog‘lar ko‘p bo‘lmasa, temperaturaning ko‘tarilishi bilan bog‘lar soni kamayib boradi. Ma’lum temperaturada bu bog‘lar hosil qilgan fazoviy tuzilish yo‘qolsa, iviq buziladi va polimerning qovushoq eritmasiga aylanadi. Bu hodisa iviqlarning suyuqlanishidan iborat bo‘lib, odatda juda kichik temperatura intervalida sodir bo‘ladi.

Iviqning o‘ziga xos xususiyatlardan biri erituvchi chiqarib yuborilganda ham o‘zining ichki tuzilishini saqlab qolishidir. Masalan, bir-biridan faqat turli miqdorda erituvchi tutishi bilan farqlanuvchi ikki iviq pasttemperaturada quritsa va so‘ng bu ikki iviq erituvchida bo‘ktirilsa, o‘zining avvalgi shakliga qaytib keladi.

Ba‘zi iviqlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega, masalan, molekulyar to‘r bo‘shliqlaridagi suyuqlik ikkinchi suyuqlik bilan siqib chiqariladi. Agar ikkinchi olingen suyuqlik birinchisi bilan aralashadigan bo‘lsa, jarayon iviqni ikkinchi suyuqlikka tushirish bilan amalgalashadi. Agar suyuqliklar o‘zaro aralashmasa, jarayon ikkala suyuqlikni o‘zida erita oladigan uchinchi suyuqlik vositasida bajariladi. Masalan, suvli iviqdan suvni spirt bilan siqib chiqarish mumkin, u keyin qandaydir uglevodorod, jumladan, benzoł bilan ham almashtirilishi mumkin. Ko‘pincha yangi tayyorlangan yuqori molekulyar modda ivig‘i vaqt o‘tishi bilan tarkibidagi erituvchini chiqarib yuborib, o‘z hajmini kamaytiradi. Natijada suyuq va iviqlarning makrofaza hosil bo‘ladi. Bu hodisa *sinerezis* deb ataladi. Sinerezis hodisasing sodir bo‘lish sabablaridan biri shuki, iviq hosil bo‘lishda sistema muvozanatga kelmagan bo‘ladi. Ivish hodisasi sekin-asta borganligi uchun iviqlarning hosil bo‘lish vaqticha cho‘zilib ketishi ham mumkin. Bunda iviqlar uzoq vaqt o‘z tuzilishini bog‘larni ko‘paytirish tomoniga qarab o‘zgartiradi va vaqt o‘tishi bilan iviqlarning hajmi kamayadi. Bu esa iviqlarning ortiqcha erituvchi hosil bo‘lishi va uning toza holda ajralib chiqishiga olib keladi. Bunday hodisa polimerlarning kichik konsentratsiyali eritmalardan iviq tayyorlashda oson sodir bo‘ladi. Bu holda polimer molekulasi diffuziyalangan ko‘p miqdordagi erituvchini saqlab turadi, go‘yo iviq bilan erituvchi o‘zaro muvozanatda bo‘ladi. Ammo vaqt o‘tishi bilan, ya’ni bog‘lar sonining ortishi bilan to‘r o‘zida ortiqcha erituvchini tutib turolmay qoladi va uni siqib chiqaradi.

Agar yuqori molekulyar modda erituvchida to‘la erimasa, iviq sovitilishi bilan sinerezis hodisasi yuz berishi mumkin. Bundan tashqari iviqdagi sodir bo‘ladigan kimyoviy o‘zgarishlar ham sinerezisiga olib keladi. Bunga sellyuloza ksantogenatining suvdagi eritmasi misol bo‘ladi. Bunda ksantogenatning parchalanishi natijasida sinerezis sodir bo‘ladi.

Sinerezis vaqtida iviq hajmining kamayishi iviqning boshlang‘ich konsentratsiyasiga bog‘liq. Iviqning boshlang‘ich konsentratsiyasi qancha kam bo‘lsa, sinerezis vaqtida iviq hajmi shuncha ko‘p o‘zgaradi. Odatda temperaturaning ortishi iviqning cho‘kishi uchun zarur bo‘lgan molekulalar qayta joylashishini osonlashtiradi, ya‘ni sinerezisning sodir bo‘lishiga yordam beradi. Lekin temperaturaning haddan tashqari oshirilishi iviqning suyulishiga ham olib keladi. Tashqi bosim tabiiy ravishda sinerezis hodisasining sodir bo‘lishiga yordam beradi. Sinerezis hodiasi biologiya, meditsina, texnika va sut sanoatida, sintetik smolalar ishlab chiqarishda juda muhim ahamiyatga ega.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Yuqori molekulyar birikmalar bilan quyi molekulyar birikmalar eritmalarining farqi nimada?
2. Yuqori molekulyar birikmalar eritmasiga fazalar qoidasi qanday tatbiq etiladi?
3. Polimerning biror erituvchidagi eritmasini hosil qilish imkoniyati qanday baholanadi?
4. Nima uchun polimerlar avval bo‘kadi, keyin eriydi?
5. Bo‘kish darajasi va bo‘kish kinetikasi?
6. Polimer eritmalarining osmotik bosimi qanday topiladi?
7. Eruchchalikka polimer va erituvchining tabiatini qanday ta’sir ko‘rsatadi?
8. Qanday jarayon solvatlanish deyiladi?
9. Qanday jarayon gidratlanish deyiladi?
10. Polimerning suyultirilgan eritmalarining konsentratsiyasi qanday bo‘ladidi?
11. Nisbiy qovushqoqlik nima va u qanday topiladi?
12. Polimer eritmasi qovushqoqligini kapillyardan o‘tuvchi suyuqlik tezligi bilan bog‘liqligini ko‘rsatuvchi Puayzel tenglamasini izohlang.
13. Polimerlarning erish jarayoniga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
14. Quyi va yuqori molekulyar birikmalarning eruchchanligi va eritmalarini.
15. Polimerlarning konsentrlangan eritmalarining o‘ziga xosligi.
16. Iviqlar nima va qanday hosil bo‘ladi?
17. Sinerezis hodisasi qachon sodir bo‘ladi?

IX BOB.

POLIMERLARNING MOLEKULYAR MASSASI VA POLIDISPERSLIGI

9.1. Polimerning o‘rtacha molekulyar massasi

Yuqori molekulyar birikmalar polidispers bo‘lgani tufayli ularning molekulyar massasi, yuqorida aytib o‘tilganidek o‘rtacha qiymatda olinadi. Odatda ikki tipdagi: o‘rtacha adadiy M_n va o‘rtacha vazniy M_w molekulyar massa aniqlanadi.

Polimerning ma’lum konsentratsiyali eritmasidagi makromolekulalari sonini aniqlash bilan o‘rtacha adadiy molekulyar massa topiladi. O‘rtacha adadiy molekulyar massa qiymati quyidagicha ifodalanadi:

$$\bar{M}_n = \frac{M_1 \cdot N_1 + M_2 \cdot N_2 + \dots + M_n \cdot N_n}{N_1 + N_2 + \dots + N_n} = \frac{\sum M_i \cdot N_i}{\sum N_i}$$

Bunda \bar{M}_n – o‘rtacha adadiy molekulyar massa, M_1, M_2, \dots, M_n – ayrim makro-molekulalarning molekulyar massasi, N_1, N_2, \dots, N_n – masalasi M_i bo‘lgan molekulalar soni.

Osmotik bosim va kimyoiy usullar yordamida topilgan molekulyar massa o‘rtacha adadiy molekulyar massa bo‘ladi. Nur tarqalishi va sedimentatsion muvozanat bo‘yicha molekulyar massani aniqlash usullari polimerlarning o‘rtacha massaviy molekulyar massasi to‘g‘risida ma’lumot beradi, chunki bu usullar bilan o‘rganiladigan polimerlarning xossalari faqat konsentratsiyaga emas, balki polimer molekulalarining massasiga ham bog‘liq. O‘rtacha massaviy molekulyar massa quyidagicha ifodalanadi:

$$\bar{M}_w = \frac{M_1 \cdot G_1 + M_2 \cdot G_2 + \dots + M_n \cdot G_n}{G_1 + G_2 + \dots + G_n} = \frac{\sum M_i \cdot G_i}{\sum G_i} = \frac{\sum M_i^2 \cdot N_i}{\sum M_i \cdot N_i}$$

Bunda \bar{M}_w – o‘rtacha massaviy molekulyar massasi, M_1, M_2, \dots, M_n – ayrim makro-molekulalarning molekulyar massasi, G_1, G_2, \dots, G_n – shu makromolekulalarning massasi.

O'rtacha vazniy molerulyar massa umumiy tarzda quyidagicha ifodalanadi:

$$\bar{M}_z = \frac{\sum M_i^2 \cdot G_i}{\sum M_i \cdot G_i} = \frac{\sum M_i^3 \cdot N_i}{\sum M_i^2 \cdot N_i}$$

Shunday qilib, qo'llanilgan usulga qarab, molekulyar massaning o'rtacha qiymatini ifodalaymiz. Bu o'rtacha qiymatlar monodispers mahsulot uchun o'zaro teng, ya'ni $M_n = M_w$. Ammo polidispers mahsulotlar uchun molekulyar massaning o'rtacha adadiy qiymati o'rtacha massaviy qiymatiga nisbatan doimo kichik bo'ladi, chunki o'rtacha massaviy molekulyar massa polidisperslik ortib borishi bilan ortib boradi.

Alovida fraksiyalarning molekulyar massalari bir-biridan qancha ko'p farq qilsa hamda bu fraksiyalarning o'zaro nisbatlari qancha katta bo'lsa, o'rtacha adadiy va o'rtacha vazniy molekulyar massalar orasidagi farq shuncha katta bo'ladi. Shuning uchun ko'pincha yuqori molekulyar birikmalarning polidispersligini ifodalash uchun M_w/M_n nisbatdan foydalilaniladi, bu nisbat polidisperslik ko'rsatkichi yoki polidisperslik koefitsienti deb ataladi.

O'rtacha adadiy va o'rtacha vazniy molekulyar massalarni solishtirish uchun tekshirilayotgan mahsulotning polidisperslik darajasi haqida fikr yuritiladi. Yuqori molekulyar birikmaning polidispersligi ma'lum bo'lsa, M_w va M_n lar annqlanadi. M_w va M_n qiymatlar orasidagi farq makromolekulalarning tarmoqlanganligini ko'rsatadi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan M_w va M_n lardan tashqari yana o'rtacha viskozimetrik molekulyar massadan ham foydalilaniladi:

$$M_v = \left[\frac{\sum w_i M_i^\alpha}{\sum w_i} \right]^{1/\alpha}$$

Bunda α – eritmadiagi molekula shaklini ifodalovchi koefitsient.

Ideal qayishqoq molekulalar uchun $\alpha = 1/2$, chegarali qayishqoq molekulalar uchun $\alpha > 1/2$. Shuning uchun viskozimetrik usulda topilgan o'rtacha molekulyar massa umumiy holda o'rtacha adadiy va o'rtacha vazniy molekulyar massalarning hech biriga teng bo'lmaydi, lekin $\alpha = 1$ bo'lganda u o'rtacha vazniy molekulyar massaga teng bo'ladi. Ko'pchilik polimerlar uchun α ning qiymati 1 va 1/2 orasida bo'ladi. Shuning uchun

viskozimetrik usulda topilgan o‘rtacha molekulyar massa M_w va M_n o‘rtasidagi oraliqda bo‘lib, M_w ga yaqinroq bo‘ladi.

9.2. Polimerlarning molekulyar massasini aniqlash usullari


O‘rtacha adadiy molekulyar massani aniqlash. Molekulyar massani osmotik bosim orqali aniqlash. Suyultirilgan eritmalarning osmotik bosimini o‘lchash polimerlarning o‘rtacha son molekulyar massasini aniqlashning keng tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi.

Polimer eritmalari osmotik bosimining tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$P = \frac{RT}{M} C + bC \quad \text{yoki} \quad \frac{P}{C} = \frac{RT}{M} + b$$

Bunda P -osmotik bosim; C - konsentratsiya; M - erigan modda molekulyar massasi; R - gaz doimiyligi; T – absolyut temperatura; b - erituvchining tabiatiga bog‘liq bo‘lgan konstanta.


Bu tenglama grafik usulda polimer molekulyar massasini osonlikcha aniqlashga imkon beruvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasidan iboratdir. Polimerning bir necha suyultirilgan eritmasi (masalan, 100 sm³ erituvchidagi 0,5 gramm polimer) uchun osmotik bosim topiladi va olingan natija π ning P / C ga bog‘liqligi shaklida grafikka qo‘yiladi (9.1- rasm).



9.1-rasm. Yuqori molekulyar modda eritmalari uchun π/C ning C ga bog‘liqligi


Bu bog'lanish odatda to'g'ri chiziq bilan ifodalanadi va to'g'ri chiziq ordinata o'qi bilan kesishguncha ekstrapolyatsiya qilinadi. Ordinata o'qida kesilgan qism RT/M teng. b to'g'ri chiziqning ordinata o'qi bilan kesishishida hosil bo'lgan tangens burchagi bilan aniqlanadi. b ning topilgan qiymati tenglamaga qo'yiladi va molekulyar massa π/C ning $C \rightarrow 0$ ga o'tish qiymatidan hisoblab chiqariladi.

9.2-rasmda polimetilmetakrilatning turli erituvchilardagi eritmalar uchun C ning π/C ga bog'liqligi ko'rsatilgan.



9.2-rasm. Polimetilakrilatning turli erituvchilardagi eritmalar uchun π/C ning C ga bog'liqligi. 1 - xloroformda; 2 - dioksanda; 3 - benzolda; 4 - tetragidrofuranda; 5 - toluolda; 6 - atsetonda; 7 - dietilketonda; 8 - m-ksiloldagi eritmalarida.

Rasmdan ko'rinish turibdiki, erituvchining tabiatiga C ning π/C ga bog'lanish xarakteriga birmuncha ta'sir etadi, ammo π/C ning so'nggi qiymati, ya'ni $C \rightarrow 0$ bo'lgandagi qiymati barcha erituvchilar uchun bir xil.



9.3-rasm. Osmometr.

Osmotik bosim maxsus adabiyotlarda to'la yozilgan turli osmometrlar yordamida o'lchanadi. Bunday osmometrlardan biri 9.3-rasmida sxematik

tarzda berilgan. Ikki kamera: ularning birida erituvchi, ikkinchisida eritma bor. Ular *V-V'* yarim o'tkazgich membrana yordamida bir-biridan ajratilgan. A va B nay kameralar bilan birlashtirilgan bo'lib, osmotik bosimni o'lhash uchun xizmat qiladi.

Naylardagi suyuqliklarni bir xil balandlikda saqlash uchun zarur bo'lgan B naydagi suyuqlikka tushayotgan tashqi bosimning qiymati eritmaning osmotik bosimiga teng. Osmotik bosimni o'lhashning bunday usuli odatda 0 dinamik muvozanat usuli 0 deb ataladi. Boshqa bir usulda esa yarim o'tkazgich membrana orqali erituvchining eritmaga o'tishi bilan naylardagi suyuqlik balandliklari o'zgaradi. Bubalandliklar orasidagi farqqa to'g'ri keluvchi gidrostatik bosim eritmaning osmotik bosimiga teng. Osmotik bosimni o'lhashning bu usuli "statistik muvozanat usuli" deb ataladi.

Osmotik bosim kichik (o'rtacha adadiy molekulyar massasi 500000dan kam yoki eritma juda suyultirilgan) bo'lganida suyuqlikning balandligi aniqlanmaydi, balki suyuqlik tortiladi. Bunda balandliklar orasidagi farq aniqroq o'chanadi va molekulyar massa 1000000 yetganda ham (bu qiyamat shu usul uchun eng yuqori chegara) o'lhashni davom ettirish mumkin.

Osmometriyada ishlataladigan membranalar to'la ma'nodagi yarim o'tkazgich emas. Polimerlarni o'tkazmaydigan, lekin erituvchini kerakli tezlikda o'tkazadigan membranalarni tanlash nihoyatda qiyin. Polimerning membrana orqali diffuziyalanishi osmometriya usulini chegaralab qo'yadi va bu usulni qo'llash mumkin bo'lgan molekulyar massaning quyi chegarasini (30000 atrofida) belgilab beradi.

Shunday qilib, o'rtacha adadiy molekulyar massani topishning osmometrik usuli 40000-1000000 molekulyar massa intervalida qo'llanishi mumkin. Molekulyar massani bu intervalda topish usulni hozirgacha mavjud bo'lgan barcha usullar orasida eng anig'i hisoblanadi.

Qoldiq guruhlarni aniqlash usuli bilan molekulyar massani topish. Agar chiziqsimon polimer zanjiri oxirlarida miqdori kimyoviy usullar yordamida aniqlanishi mumkin bo'lgan guruhlar bo'lsa, kimyoviy tahlil ma'lumotlari asosida polimerning o'rtacha adadiy molekulyar massasini hisoblab chiqarish mumkin:

$$Mn = \frac{Z}{n_2}$$

Bunda Z – har bir makromolekuladagi qoldig‘i; guruhlar soni; $n_2 - 1$ gramm namunadagi qoldiq guruhlarning gramm-ekvivalent soni.

Bu usul yordamida molekulyar massasi 20000 gacha bo‘lgan polimerlarning molekulyar massasini aniqlash mumkin.

Molekulyar massasi juda yuqori bo‘lgan polimerlardagi qoldiq guruhlar konsentratsiyasi shunchalik kamayib ketadiki, uni bu usul yordamida aniq o‘lchab bo‘lmaydi. Bunday kamchilikdan qat’iy nazar, bu usul kondensatsion usul bilan olingen polimerlarning molekulyar massasini aniqlashda juda muhim rol o‘ynaydi. Kondensatsion usul bilan olingen polimerlar tarkibida ko‘pincha kislotali yoki ishqoriy xarakter hamda kuchli reaksiyon qobiliyatga ega funksional guruhlar bo‘ladi. Misol tariqasida poliefirlarning karboksil guruhlarini yoki poliamidlarning amin guruhlarini keltirish mumkin. Bunday guruhlar, ayniqsa, titrlash bilan juda oson aniqlanadi. Chiziqsimon kondensatsion polimerlarning molekulyar massasi odatda 20000 dan kam bo‘ladi. Shuning uchun bunday polimerlarning molekulyar massalarini ushbu usul bilan aniqlash ancha qulaydir. Qoldiq guruhlarni aniqlash usuli bilan faqat molekulyar massalargina aniqlanmay, balki polimerning tarmoqlanganlik darajasi ham aniqlanadi.

Masalan, polimer tarmoqlangan zanjirga ega bo‘lsa, kimyoviy analiz yordamida qoldiq guruhlarning umumiyligi sonini va osmometriya usulida polimerning o‘rtacha son molekulyar massasini o‘lchash bilan bitta makromolekulaga to‘g‘ri keluvchi qoldiq guruhlar sonini hisoblab chiqarish mumkin. Shunday usul bilan topilgan qoldiq guruhlar soni polimerning tarmoqlanish darajasi o‘lchami bo‘lib hisoblanadi. Juda kam polimerlarninggina molekulyar massasi bu usul bilan aniqlanadi.

Kam qo‘llanilishiga qaramay bu usul qator afzallikkarga ega. Birinchidan, bu usul oddiy bo‘lgani uchun murakkab va qimmatbaho asboblar talab etilmaydi. Ikkinchidan, bir necha konsentratsiyalardagina o‘lchab olingen qiymatlarni ekstrapolyatsiya qilishning o‘zi kifoya. Cheksiz suyultirishgacha o‘lchashning hojati yo‘q. Uchinchidan, bu usulni molekulyar massasi 20000 dan kam bo‘lgan namunalar uchun qo‘llash qulay.

O‘rtacha vazniy molekulyar massani aniqlash. Sedimentatsiya yordamida molekulyar massani aniqlash. Ma’lumki, suspenziyadagi zarrachalar vaqt o‘tishi bilan o‘zining og‘irlilik kuchi ta’sirida cho‘kadi, ya’ni sedimentatsiya hodisasi yuz beradi. Sedimentatsiya tezligini o‘lchab, suspenziyadagi zarracha massasini hisoblab chiqarish mumkin. Polimer mak-

romolekulasi massasi nisbatan juda kichik bo'ladi. Shuning uchun yerga tortish kuchidan o'n yoki yuz marta ortiq markazdan qochish kuchi maydoni hosil qilingandagina bu zarrachalarning sedimentatsiyasini kuzatish mumkin. Buning uchun "muvozanat" va "tezlik" ultrasentrifugasidan foydalaniladi. Bu ikki ultrasentrifuga orasidagi asosiy farq hosil bo'layotgan markazdan qochuvchi kuchning qiyamatidan iborat. Markazdan qochuvchi kuch "muzozanat" ultrasentrifugasida og'irlilik kuchidan 20000 marta, "tezlik" ultrasentrifugasida esa bir necha 100 marta ortiq bo'ladi. Molekulyar massani "muvozanat" ultrasentrifuga yordamida aniqlashda polimer eritmasi makromolekulalarining maxsus idishda sedimentatsiyalanish tezligi bilan diffuziyalanish tezligi orasida muvozanat qaror topguncha sentrifuga ishlatalidi. Sedimentatsion muvozanat olingandan so'ng kuzatilayotgan konsentratsiya gradienti (aylanish o'qidan turli masofadagi polimer eritmasi konsentratsiyasining o'zgarishi) monoxromatik nurning absorbilanish yoki sinish ko'rsatkichining o'zgarishi bilan o'lchanadi. Birinchi usulda konsentratsiya absolyut birliklarda o'lchanadi va molekulyar massa quyidagi tenglamaga binoan hisoblab chiqariladi:

$$M_w = \frac{2RTIn\frac{c_2}{c_1}}{(1-vp)W^2(x_2^2 - x_1^2)}$$

Bunda W – sentrifuganing burchak tezligi, radian/sek; v – erigan moddaning parsial solishtirma hajmi; p – erituvchining zichligi; x_1 va x_2 – aylanish o'qigacha bo'lган masofa, sm; c_1 va c_2 – x_1 va x_2 nuqtalardagi konsentratsiya.

Muvozanat ultrasentrifugasi yordamida o'lchanadigan molekulyar massalar 5000-100000 intervalda bo'ladi, bunda tekshirilayotgan eritmalarining konsentratsiyasi 0,01 foizdan oshmasligi kerak.

Bu usul bilan sedimentatsion muvozanatni aniqlash uchun juda ko'p vaqt talab etiladi. Masalan, namunaning molekulyar massasi 10^5 dan ko'p bo'lsa, muvozanat qaror topishi uchun bir necha kundan boshlab, bir necha haftagacha vaqt kerak bo'ladi. Shuning uchun molekulyar massasi yuqori bo'lган polimerlar uchun "tezlik" ultrasentrifugada sedimentatsiya tezligini o'lhash qulay. Bu o'lhashlar faqat bir necha soat vaqtini oladi. Molekulyar massa quyidagi tenglama bilan topiladi:

$$M = \frac{RTS}{(1-vp)D}$$

Bunda T – absolyut temperatura; R – gaz doimiyligi; v – eritilgan mod-danining porsial solishtirma hajmi; S – sedimentatsiya konstantasi.

Diffuziya konstantasi D bosh asbobda aniqlanadi. Bu tenglamadan foydalanilganda B va O ning konsentratsiyaga bog'liqligini hisobga elish shart. Shuning uchun bu qiymatlar eritmaning turli konsentratsiyalariida aniqlanadi va qolgan qiymatlari aniqlangan qiyatlarni nol konsentratsiyagacha ekstrapolyatsiya qilib topiladi.

Bu tenglama bo'yicha hisoblab chiqarilgan molekulyar massa aralashgan o'rtacha molekulyar massadir, chunki sedimentatsiya va diffuziya doimiyligi alohida-alohida aniqlanadi.

Molekulyar massani nur yoyish usuli bilan aniqlash. Ma'lumki, yorug'lik nuri tiniq muhitdan o'tganda qisman tarqaladi. Toza suyuqliklar uchun bu tarqalish suyuqlik zichligining issiqlik fluktuatsiyasi bilan bog'liq. Polimerlarning suyultirilgan eritmasida nur tarqalishining bu effektlari konsentratsiya fluktuatsiyasi bilan yuzaga keladi, bu esa o'z navbatida, sinish ko'rsatkichining o'zgarishiga olib keladi.

Erituvchi zichligining fluktuatsiyasi ham bo'ladi, lekin u juda kichikdir. Demak yuqorida aytilganlar va Eynshteyn nazariyasiga asoslanib, tarqalgan nur intensivligining molekula qiymati hamda shakliga bog'liqligini ko'rsatdi.

Tushayotgan nuring to'ljin uzunligi polimer molekulasi o'chamidan kichik bo'lgan holni ko'raylik. Bu holda erigan modda molekulalarining nur tarqalishining nuqtaviy markazi deb qarash mumkin, qarash burchagining qandayligidan qat'iy nazar. tarqalgan nur bir xil intensivlikka ega bo'ladi. Bunda molekulyar massa tarqalgan nuring absolyut intensivligini hisoblab chiqarish bilan topiladi.

Odatda tarqalgan nur intensivligi τ loyqalik qiymati bilan ifodalanadi. Yorug'lik nuri ma'lum konsentratsiyali eritmadan o'tayotganda nuring tarqalishi natijasida nur kuchsizlanadi. Nuring kuchsizlanish koeffitsienti loyqalik qiymatiga teng:

$$\tau = \frac{HC}{\frac{1}{RT} \left(\frac{\partial}{\partial C} \right)}$$

Bunda τ – eritmaning loyqaligi; $\partial/\partial C$ – konsentratsiya o'zgarishi bilan osmotik bosimning o'zgarishi; C – konsentratsiya.

$$H = \frac{32\pi^3 n^2}{3N_0 \lambda^4} \left(\frac{\partial \pi}{\partial C} \right)^2$$

bu formuladagi λ - nurning to'lqin uzunligi; N_0 -Avagadro soni; $\partial \pi / \partial C$ - konsentratsiya o'zgarishi bilan eritma sinish ko'rsatkichining o'zgarishi.

Bu tenglamadan τ ning qiymati osmotik bosim va konsentratsiya gradientiga teskari bog'liqligi ko'rinish turibdi.

Polimer eritmasining osmotik bosimini quyidagi tenglama bilan ifodalash mumkinligi ko'rsatib o'tilgan:

$$\pi = \frac{RT}{M} C + BC^2$$


Bundan $\frac{\partial \pi}{\partial C} = \frac{RT}{M} + BC$

$\frac{\partial \pi}{\partial C}$ ifodani $\tau = \frac{HC}{\frac{1}{\tau} \left(\frac{\partial \pi}{\partial C} \right)}$ ga qo'ysak,

$$\frac{HC}{\tau} = \frac{1}{M} + \frac{2BC}{RT}$$


Bu tenglama to'g'ri chiziq tenglamasidan iborat. HC / τ va C ni koordinatalarga qo'ysak, polimerning molekulyar massasini grafik usulda to'lish mumkin (9.4-rasm).

Rasmda ko'rsatilganidek grafik tuzib, HC / τ ning $C \rightarrow 0$ dagi $1/M$ ga teng bo'lgan qiymati topiladi. Amalda HC / τ ni hisoblab chiqarish uchun τ ning bir necha konsentratsiyadagi qiymati bilan $\partial \pi / \partial C$ ni o'lchash shart. Polimer eritmalari uchun τ (nurning kuchsizlanish koeffitsienti) juda kichik bo'lgani uchun eritmadan o'tayotgan nur intensivligining qancha kamayganligini o'lchash o'rniغا, odatda, tushayotgan nurga nisbatan 90° burchak ostida tarqalayotgan nur intensivligi aniqlanadi. Buning uchun fotoko'paytgichli fotometrlar ishlataladi, $\partial \pi / \partial C$ ning qiymati $n - n_o / C$ ning qiymati bilan almashtirilishi mumkin, chunki $Cn - n_o$ ayirmaga proporsional.



9.4-rasm. Yuqori modda eritmalarida $H \frac{c}{t}$ ning C ga bog'liqligi.

Polimerlarning polimerlanish darajasi 500 dan kichik bo'lgan, ya'ni polimerning har bir molekulasi nur tarqalishining nuqtaviy manbai deb qaralgan taqdirdagina bu usul bilan molekulyar massasini topish mumkin. Agar polimer molekulasining o'lchami bilan tushayotgan nurning to'lqin uzunligi teng bo'lsa, birgina makromolekulaning turli nuqtalarini turlicha nur tarqatadi. Tarqalgan nurlarning intensivligi interferensiya tufayli kamayadi va makromolekularning turli nuqtalarida singandan keyin tarqalayotgan nurlar orasidagi faza farqi ortishi bilan kuzatish burchagi θ ertib boradi.



9.5-rasm. Polimer molekulasining o'lchami bilan nurning to'lqin uzunligi teng bo'lgan makromolekulaga tushgan nurning tarqalishi.

9.5-rasmida yorug'lik nuri tushayotgan polimer makromolekulasi ko'rsatilgan; makromolekulaning P_1 va P_2 nuqtalarida nur tarqaladi. $\theta = 0$ bo'lganda polimerga tushayotgan nurning fazasi makromolekulan-

ing qanday nuqtasidan sinib tarqalayotganidan qat'i nazar, qaytayotgan nurlarning fazalari bilan bir xil bo'ladi.

Makromolekulaga tushayotgan nur intensivligi makromolekulada singandan keyin tarqalayotgan nur intensivligidan ortiq bo'ladi. Burchak asimmetriyasini bilish $HC/\tau = 1/M + 2BC/RT$ tenglamaga tuzatishlar kiritish imkonini beradi, bu esa molekulyar massaning aniq qiymatlarini olishga imkon beradi. Bundan tashqari, burchak asimmetriyasi eritmadi polimer makromolekulasining shakli to'g'risida ham ma'lumotlar beradi.

9.3. Vizkozometrik usul bilan molekulyar massani aniqlash

Suyultirilgan eritmalarda qovushqoqliknin o'lchash orqali polimerlarning molekulyar massasini topish eng oddiy va keng tarqalgan usul hisoblanadi. Shtaudingerning polimer molekulyar massalari bilan suyultirilgan eritma qovushqoqliklari orasidagi bog'lanishni aniqlash ustida olib borgan ishlari bu usuldan foydalanishning boshlanishiga sabab bo'ldi:

$$\frac{\eta_{sol}}{c} = KmM; \text{ bundan } M = \frac{\eta_{sol}}{K_m c}$$

Bunda $C=100 \text{ sm}^3$ hajmdagi grammida ifodalangan konsentratsiya.

Agar eritmaning ma'lum konsentratsiyadagi solishtirma qovushqoqligi eksperimental aniqlangan hamda K_m ma'lum bo'lsa, bu tenglamadan polimerning molekulyar massasi hisoblab chiqariladi.

Molekulyar massani bu tenglamadan aniqlash uchun zarur bo'lgan K_m ning qiymatini qandaydir boshqa usul, masalan, osmometrik yoki qoldiq guruhlarni aniqlash usuli bilan polimer molekulyar massasini o'lchash orqali topish mumkin.

Juda ko'p tekshirishlar Shtaudinger tenglamasi bilan faqat ma'lum chegaradagi molekulyar massalarni (500 dan 100000 gacha) aniqlash mumkinligini ko'rsatdi.

Yaxshi natija olish uchun qovushqoqlik juda suyultirilgan eritmalarda o'lchanishi kerak, ya'ni eritmaning konsentratsiyasi nolga intilishi hamda K_m doimiyligi berilgan erituvchi uchun ma'lum bo'lishi kerak. Ammo bu shartlarning bajarilishiga qaramay, real hollarda polimer makromolekulasingin tayoqsimon emasligi va uning erituvchi molekulasi bilan ta'sirlashishi natijasida K_m ning qiymati qisman o'zgaradi.

Shtaudinger tenglamasining to'liq tahlili hamda bu tenglamaning salbiy tomonlari tegishli mavzuda berilgan. Bu tenglama faqatgina qattiq tayoqsimon zarrachalar uchun chiqarilganligi uchun ham noto'g'ri natija olinadi. Real polimer molekulalari esa o'zining qayishqoqligi tufayli eritmada turli konformatsiyalarda bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham tajribadan qoniqarli natijalar olish maqsadida tenglamaga o'zgartirishlar kiritish taklif qilingan. Shtaudinger tenglamasiga doimiy qo'shimcha a'zo kiritiladi va tenglamadagi η_{sol}/C -ni xarakteristik qovushqoqlik $[\eta]$ ishlataladi:

$$[\eta] = K_m M + y$$


y – erituvchitabiatigabog'liq.

Xarakteristik qovushqoqlik quyidagi formuladan topiladi:

$$[\eta]_{\lim c \rightarrow 0} = \eta_{sol}/C$$

Xarakteristik qovushqoqlikni eksperimental aniqlash uchun η_{sol}/C ning C ga bog'liqlik grafigini chizib η_{sol}/C ning qiymatini $C_o \rightarrow 0$ gacha ekstrapolyatsiya qilish kerak (9.6-rasm). Bu to'g'ri chiziqning ordinata o'qidan kesgan bo'lagi xarakteristik qovushqoqlikning qiymatidir.


Xarakteristik qovushqoqlik polimer alohida-alohida makromolekulagacha disperslangan cheksiz suyultirilgan eritmaning qovushqoqligini ko'rsatadi. Shuning uchun η ning qiymati alohida makromolekulaning oqimga ko'rsatgan gidrodinamik qarshiligini belgilaydi, deb hisoblash mumkin.



9.6-rasm. Xarakteristik qovushqoqlikni aniqlash grafigi.

Makromolekula qancha uzun bo'lsa, ularning oqimga ko'rsatuvchi gidrodinamik qarshiligi shuncha ko'p bo'ladi. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, xarakteristik qovushqoqligil bilan erigan polimer zanjirining uzunligi orasida bog'lanish bo'lishi kerak.

Haqiqatan ham bir xil kimyoviy tuzilishga ega bo'lib, molekulyar massalari farq qiladigan polimer eritmalarini uchun xarakteristik qovushqoqlikning qiymati turlicha bo'ladi. Agar polimerning molekulyar massasi katta bo'lsa, qovushqoqlik ham katta bo'ladi. 9.7-rasmda divinil kauchugining benzoldagi turli fraksiyalari eritmalarining qovushqoqligi keltirilgan.



9.7-rasm. Divinil kauchugning benzoldagi eritmalarini turli fraksiya qovushqoqligi: x - 20°Cda; o - 40°Cda, Δ -60°Cda polimerlangan namunalar.

Xarakteristik qovushqoqlikka erituvchining tabiatini ham katta ta'sir ko'rsatadi. Qovushqoqlikning tabiatini haqidagi hozirgi zamon fikrlariga binoan zanjirlar turli erituvchilarda turli konformatsiyaga ega bo'lishi mumkin, mana bu hol turli erituvchilardagi polimer eritmalarini qovushqoqligining turlicha bo'lishiga sabab bo'ladi. Agar erigan polimer zanjiri bir erituvchida sharsimon shaklda, ikkinchi erituvchida chiziqsimon shaklda bo'lsa, birinchi holdagi gidrodinamik qarshilik ikkinchi holdagi gidrodinamik qarshilikka nisbatan kam, ya'ni birinchi erituvchidagi polimer eritmasining xarakteristik qovushqoqligi ikkinchi erituvchidagi polimer erituvchisi qovushqoqligiga nisbatan kam bo'ladi.

Bu tenglamadan molekulyar massani aniqlash uchun tenglamadagi K va α konstantalarni topish zarur. 9.1-jadvalda K va α si ma'lum bo'lgan to'g'ri chiziq tenglamalariga misollar keltirilgan.

Qo'shimcha a'zoli to'g'ri chiziq tenglamalari Shtaudinger tenglamasiga qaraganda bir xil molekulyar massa intervalini o'z ichiga olsa ham, birmuncha aniq natijalar beradi. Bunday tenglamalarning eng katta kamchiligidan biri Shtaudinger tenglamasi uchun xarakterli bo'lgan universal doimiylikning yo'qligidir.

Hozirgi vaqtida molekulyar massani topish uchun ko'pchilik hollarda quyidagi umumiyoq ko'rinishga ega bo'lgan empirik tenglamadan foydalaniadi:

$$[\eta] = K_m M^\alpha$$

Bunda K_m – bir polimergomologik qatordagi polimerlarning ma'lum erituvchidagi eritmasi uchun doimiy koeffitsient;

α – eritmadagi makromolekula shaklini xarakterlovchi qiymat.

Agar $\alpha=1$ bo'lsa, bu tenglama Shtaudinger tenglamasiga o'xshash tenglamaga o'tadi. Polimerlar molekulyar massasini $[\eta] = K_m M^\alpha$ tenglama yordamida aniqlash uchun polimerning biror erituvchidagi eritmalarini uchun K_m va aning qiymatini bilish zarur. To'g'ri chiziqli viskozimetrik tenglama tarkibiga kiruvchi bu koeffitsientlarning qiymati ko'pchilik polimerlar uchun ma'lum.

9.1-jadval.

Chiziqsimon polimerlarning viskozimetrik usulda molekulyar massasi topiladigan tenglamalar

Polimer	Erituvchi	Temperatura °C	Tenglama
Sellyuloza	Mis-ammiak eritmasi	25	$[\eta] = 0,85 * 10^{-4} * M^{0.81}$
Atsetil sellyuloza	Atseton	25	$[\eta] = 1,49 * 10^{-4} * M^{0.82}$

Atsetobutiratsellyuloza	Atseton	25	$[\eta] = 1,37 \cdot 10^{-4} \cdot M^{0.83}$
Poliizobutilen	Diizobutilen	20	$[\eta] = 3,6 \cdot 10^{-4} \cdot M^{0.64}$
Poliizopren	Toluol	—	$[\eta] = 5,02 \cdot 10^{-4} \cdot M^{0.67}$
Butadienstirol sopolimeri	Toluol	30	$[\eta] = 5,4 \cdot 10^{-4} \cdot M^{0.66}$
Polistirol	Toluol	30	$[\eta] = 1,49 \cdot 10^{-4} \cdot M^{0.62}$
Poimetilmekrilat	Benzol	25	$[\eta] = 1,49 \cdot 10^{-4} \cdot M^{0.76}$
Polivinilatsetat	Atseton	50	$[\eta] = 2,8 \cdot 10^{-4} \cdot M^{0.67}$
Polivinil spirt	Suv	50	$[\eta] = 5,9 \cdot 10^{-4} \cdot M^{0.67}$
Poli- ε -amino-kaprolaktam	40%li H_2SO_4	—	$[\eta] = 24 \cdot 10^{-4} \cdot M^{0.54}$
Naylon	Chumoli kislota	—	$[\eta] = 11 \cdot 10^{-4} \cdot M^{0.072}$

Tajriba yo‘li bilan molekulyar massa quyidagicha topiladi: 0,5; 0,2; 0,1; 0,05 foiz konsentratsiyali polimer eritmalari tayyorlanadi va avvalgi bobga keltirilgan quyidagi formula bo‘yicha bu eritmalarining nisbiy qovus iyoqligi aniqlanadi:

$$\eta_{nisbiy} = \frac{\tau}{\tau_0}$$

Birinchi konsentratsiyadagi eritmaning nisbiy qovushqoqligini katta rezervuarli Ubbeloid viskozimetrida o‘lchash qulay. Viskozimetr rezervuari tekshirilayotgan eritmani o‘zida turli konsentratsiyalargacha suyultirilishiga xizmat qiladi.

Olingan ma’lumotlar asosida η_{sol} va η_{sol}/C hisoblab chiqariladi. So‘ngra η_{sol}/C ning C ga bog‘liqlik egri chizig‘i chiziladi va u ordinata o‘q bilan kesishguncha ekstrapolyatsiya qilinadi. Shunday qilib, topilgan xarakteristik qovushqoqlik qiymatidan molekulyar massa hisoblab chiqariladi.

Molekulyar massani topishdan avval K_m va α konstantalarni bilish kerak. Ammo bir qator hollarda, masalan, chiziqsimon polimerlarni sintez qilishda bu konstantalar noma'lum bo'ladi. Bunday hollarda eng avval K_m va α ni aniqlab olish lozim. Bu konstantalarning qiymatlari polimerni bir necha fraksiyalarga bo'lish va uning ayrim fraksiyalari xarakteristik qovushqoqligi asosida topiladi. Bu fraksiyalarning molekulyar massasi osmotik bosim yoki nur tarqalishi usullari vositasida aniqlanadi.

9.4. Polimerlarning polidispersligi va molekulyar massaviy taqsimlanishi

Yuqori molekulyar birikmalarning past molekulyar moddalardan farqqluvchi asosiy xususiyatlaridan biri ularning katta molekulyar massa ega bo'lishidir. Molekulyar massa polimerlar uchun eng muhim konstanta bo'lib, har bir yuqori molekulyar birikmaga to'la ta'rif berish uchun zarurdir.

Polimerlarni qayta ishlash va ularni ekspluatatsiya qilish jarayoni vaqtida sodir bo'luvchi o'zgarishlarni molekulyar massa orqali aniqlash mumkin. Molekulyar massa moddaning oquvchanlik temperaturasi chegarasi – bo'kish va eruvchanlik kabi xossalarni belgilaydi. Molekulyar massasining qiymati polimerlarning mexanik xossalariiga, jumladan, pishiqligi, deformatsiyalanishi va elastikligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Past molekulyar birikmalarning molekulyar massasi haqidagi oddiy va aniq tushunchalar yuqori molekulyar birikmalarda murakkablashadi. Chunki bu sinf moddalari o'ziga xos xossalarga, jumladan, polidisperslikka ega.


Polidisperslikni o'rganish katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Polidisperslik polimerlanish yoki polikondensatlanish reaksiyalari mexanizmiga, uningtugallanishiga, polimerning qayta ishlanish usuliga, uning destruksiyasiga va eskirishiga bog'liq.

Tajribalarda polidisperslik polimerni fraksiyalarga ajratish yo'li bilan aniqlanadi. Fraksiyalarga ajratish ikki tipga bo'linadi: preparativ fraksiyalash, bunda fraksiyalar ajratib olinib, ularning xossalari tekshiriladi; analitik fraksiyalash, bunda alohida fraksiyalar ajratib olinmay turib taqsimlanish egri chizig'i olinadi.

Fraksiyalab cho'ktirish, fraksiyalab eritish, fraksiyalab taqsimlash va boshqalar preparativ fraksiyalash deyiladi. Turbidimetrik titrlash, ul-

trasentrifugalash sedimentatsion muvozanatni aniqlash, nur tarqalishini o‘rganish kabilar analitik fraksiyalashning eng muhim usullari hisoblanadi.

Yuqorida aytilgan usullarning deyarli barchasi polimerlarning eruvchanligiga asoslangandir. Ma’lumki, polimerga ma’lum miqdorda eritvchi quyilsa, past molekulyar massaga ega bo‘lgan polimer gomologlari birinchi navbatda eritmaga o’tadi. Agar polimer eritmasiga cho’ktiruvchi qo’shilsa, yuqori molekulyar massaga ega bo‘lgan fraksiyalar avval cho’kadi. Fraksiyalar sonining ortishi bilan polimerni ajratish aniqligi ortadi. Odatda polimerlar yigirma-o‘ttiz fraksiyaga bo‘linadi. Shuni esda tutish kerakki, eritib hamda cho’ktirib fraksiyalarga ajratish orqali tarkibida bir xil uzunlikka ega bo‘lgan molekulalar bor fraksiyalarni ajratib olish mumkin emas, chunki zanjir uzunliklari orasidagi farqning kamayishi bilan eruvchanlik orasidagi farq juda kamayib ketadi.



9.8-rasm. Polimerning molekulyar massa jihatidan taqsimlanishi.


Polimerning polidispersligi odatda grafik shaklda beriladi, chunki bu usul fraksiyalash natijalarini juda yaxshi ko’rsatadi (9.8-rasm).

Fraksiyalashda olingen ma’lumotlar bo‘yicha molekulyar massaning taqsimlanish egri chizig‘ini chizish uchun ordinata o‘qiga har bir fraksiya og‘irligining polimer og‘irligiga nisbati m_i/m , absissa o‘qiga shu fraksiyaning molekulyar massasi M_i qo’shiladi.

Bunda har bir fraksiyaga to‘rt burchak to‘g‘ri keladi. U M_{i-1} dan M_i gacha molekulyar massaga ega bo‘lgan makromolekulalarning nisbiy massa qismini bildiradi.

9.9-rasmdako‘rsatilgan integral taqsimlanish egri chizig‘i deb ataladigan egri chiziq shu polimer gomologlarining og‘irlik qismlarini nisbiy


taqsimlanishini ko'rsatadi. Integral taqsimlanish egri chizig'i differensial lanadi va bu differensial bilan M , $1/m$, dm_i/dM koordinatalar yordamida differensial taqsimlanish egri chizig'i chiziladi. Eksperimental ma'lumotlarga asoslanib tuzilgan differensial taqsimlanish egri chizig'i integral egri chiziq kabi polimerning molekulyar massasi jihatidan taqsimlanishini juda yaxshi ko'rsatadi.



9.9-rasm. Fraksiyalanishning grafik orqali ifodalanishi. 1. Taqsimlanishning differensial egri chizig'i; 2. Taqsimlanishning integral egri chizig'i.


Bu misolda o'rtacha polimerlanish darajasi 800 ga teng.

9.10-rasmda turli polimerlar uchun differensial taqsimlanish egri chiziqlari berilgan. Odatda taqsimlanish egri chizig'i bitta maksimumga ega, ammo ikkita maksimumga ega bo'lgan hollar ham ma'lum. Masalan, ma'lum sharoitda olingan politsiklogeksilmekratilatning taqsimlanish egri chizig'i ikkita maksimumga ega (9.11-rasm).



9.10-rasm. Nitrosellyuloza va polistirolning molekulyar massa jihatidan taqsimlanishi:

1. Nitrosellyuloza; 2. Polistirol.



9.11-rasm. Polisiklogeksilmekatrilatning taqsimlanish egri chizig'i.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Polimerlarning molekulyar massalarini boshqa moddalarnikidan qanday farqlash mumkin?
2. Polimerlarda turli xil molekulyar massalarning bo'lishi va ularning bir-biridan farqlanishi nimaga bog'liq?
3. Polimerlarning qovushqoqligi asosida qaysi molekulyar massani aniqlash mumkin bo'ladi?
4. Polimerlarning molekulyar massalari va molekulyar-massaviy taqsimlanishining ahamiyati nimalardan iborat?
5. Polimerlar dispersligi nima? Polidisperslik polimerlarning fizik-mexanik xossalariiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
6. O'rtacha adadiy, o'rtacha massaviy va o'rtacha vazniy molekulyar massalar nima?
7. Nima uchun polimerlarning molekulyar massasi o'rtacha qiymatda olinadi?
8. O'rtacha adadiy va o'rtacha massaviy molekulyar massa qiymati qanday usullar yordamida aniqlanadi?
9. O'rtacha vazniy molekulyar massani qanday usullar yordamida aniqlanadi?
11. Osmometriya usulining mohiyati qanday?
12. Molekulyar massani turli usulda aniqlashning chegarasi qanaqa?
13. Viskozimetrik usul bilan molekulyar massa qanday aniqlanadi?
14. Sedimentatsiya hodisasi nima?
15. Molekulyar massani aniqlashning turli usullarini afzalliklari va kamchiliklari nimadan iborat?

X BOB. POLIMERLARNING MUHIM TURLARI

10.1. Sellyuloza va uning hosilalari

Sellyuloza tabiatda eng ko‘p tarqalgan tabiiy polimerdir. U barcha o‘simliklar hujayralarining asosiy qismini tashkil qiladi. Daraxt va o‘simliklar og‘irligining 60% i sellyulozadan iborat. Paxta, zig‘ir, kanop tolalari esa asosan sellyulozadan iborat bo‘ladi (ularning tarkibida 10 foiz va hatto bundan ham kam boshqa moddalar bo‘ladi). Sanoatda sellyuloza asosan daraxtdan olinadi va u yog‘och sellyulozasi deb ataladi.

Olingan sellyuloza sulfit sellyuloza deb ataladi. Uning tozaligi 94-98% atrofida bo‘ladi. Eng toza sellyuloza sanoatda paxta lintidan olinadi. Lint tarkibida 96 foizgacha sellyuloza bo‘ladi. Lintdan toza sellyuloza olish uchun u ishqorning 1.5 foizli eritmasida 3-10 atmosfera bosimi ostida 3-6 soat qaynatiladi va gipoxlorit eritmasi yoki vodorod peroksid bilan oqartiriladi. Bunday usul bilan tozalangan paxta lenti tarkibida 98-99% sellyuloza bo‘ladi. U tozalash jarayonidan keyin ham o‘zining dastlabki tola shaklini saqlaydi. Sanoatda qayta ishlash uchun zarur bo‘lgan sellyulozaning tozaligi 94% dan yuqori bo‘lishi shart. Sellyulozaning barcha xossalari polimerlanish darajasi va makromolekulalarining o‘zaro joylashishiga bog‘liq.

Sellyuloza oddiy sharoitda shishasimon holatda bo‘lib, uning yuqori elastik holatga o‘tish temperaturasi parchalanish temperaturasidan baland. Shuning uchun qizdirilganda 200° C atrofida yumshashga ulgurmay parchalanib ketadi. Sellyuloza organik erituvchilarining hech birida erimay, faqat mis-ammiak eritmasi va to‘rtlamchi ammoniy gidroksidlarda qisman eriydi. Sellyuloza mineral kislotalar va rux vismut, surma, titan, simob va qo‘rg‘oshin xloridlarning to‘yingan eritmalarida ham eriydi. Lekin bu erituvchilar ta’sirida makromolekulalar destruksiyanib, sellyulozaning molekulyar massasi ancha kamayib ketadi.


Yog‘och va paxta lintidan ajratib olingan sellyulozadan sanoatda har xil yangi polimerlar sintez qilinadi. Masalan, sellyulozani ishqor eritmasida eritib, undan ishqoriy sellyuloza olinadi. Unga uglerod sulfid ta’sir ettirilsa, sellyuloza ksantogenati hosil bo‘ladi. Sellyuloza ksantogenati sun’iy tola va tiniq parda olish uchun ishlatiladi. Yog‘och sellyulozasidan

olingen bu tolalar gidrat sellyuloza tolasi yoki viskoza deb yuritiladi. Bu sellyulozadan tayyorlangan pardalar esa sellofan deyiladi.

Agar sellyulozani rux xlorid eritmasi bilan aralashtirib, yuqori bosimda presslansa, u fibraga aylanadi. Bu fibralar pishiq va mustahkam bo'lib, suvda yomon bo'kishi tufayli ulardan turli buyumlar tayyorlanadi.

Bulardan tashqari sellyulozaga turli kislotalar ta'sir ettirib, murakkab va oddiy efirlar olinadi. Masalan, sellyulozaga nitrat kislota ta'sir ettirilib, nitroSELLYULOZA, sirkalangidrid ta'sir ettirilib esa atsetatsellyuloza olinadi. Bu efirlar asosida sanoatda sintetik tolalar, pardalar va plastmassalar olinib, ulardan turli gazlamalar to'qiladi va buyumlar tayyorlanadi.

NitroSELLYULOZA. NitroSELLYULOZA sellyulozaning nitrat kislota bilan hosil qilgan murakkab efiri bo'lib, eng birinchi plastmassadir. Sellyulozani nitratlashdan oldin aktivlash lozim. Aktivlash tolalardagi chigallarni yozish va sellyulozaning tarkibida atigi 1,5% nam qolguncha quritishdan iborat. Odatda tolaning chigali turli mashinalarda yoziladi. Nitrolash uchun boshlang'ich xomashyo sifatida paxta lenti olinadi. Unga nitrolovchi aralashma, ya'ni nitrat kislota, azot oksidlari va sulfat kislota aralashmasi ta'sir ettiriladi. Reagentlarning o'zaro nisbatli olinadigan nitroSELLYULOZA oldiga qo'yiladigan talabga muvofiq bo'ladi. Agar nitroSELLYULOZA plastmassa (SELLYULOID) tayyorlash uchun mo'ljallangan bo'lsa, aralashma quyidagi nisbatda tayyorlanadi: nitrat kislota 18-21%, azot oksidlari 5% dan kamroq, sulfat kislota 55-60% atrofida va suv 16,5-20,0%. Tutunsiz porox olishda ishlataladigan nitroSELLYULOZANI hosil qilish uchun ishlataladigan aralashmaning tarkibi: 20-30% nitrat kislota, 60-70% sulfat kislota va 5-10% suvdan iborat. Bunday tarkibdagi aralashmadan oldin reaktorga 1 qism sellyulozaga 13-16 qism nitrolovchi aralashma to'g'ri keladigan qilib, faqat nitrolovchi aralashma quyiladi va 35-45°C da yaxshilab qoriladi. So'ngra har 1 qism aktivlashtirilgan sellyulozaga 27-34 qism nitrolovchi aralashma hamda sellyulozaga reaktorga birdaniga solinadi va 25 minut qoriladi. So'ngra nitrolangan sellyulozaga sentrifuga yordamida nitrolovchi suyuqlikdan ajratib olinadi. Odatda reaksiya natijasida sellyulozaning sulfoefirlari ham hosil bo'ladi, biroq bunday efirlar beqarorligi tufayli parchalanib ketadi, natijada sulfat kislota hosil bo'ladi. Sulfat kislota sellyulozaga va uning efirlarini destruksiyaga uchratadi. Shuning uchun ham olingen nitroSELLYULOZA stabillash maqsadida oldin qaynoq suv bilan yuviladi, bunda sulfoefirlar parchalanib ketadi. Endi u nitrolovchi suyuqliklardan sovuq suv bilan yaxshilab yuvib tashlanadi. NitroSELLYULOZANING hosil bo'lish reaksiyasi quyidagicha ifodalanadi:



Bunda $x + y = 3$ bo'lib, uning qiymati nitrolovchi aralashmadagi nitrat kislotaning miqdoriga bog'liq. Nitrosellyuloza nam holda saqlanadi va uzoq masofalarga jo'natiladi. Undagi namlik 30% gacha bo'laadi. Uning tarkibidagi suv halaqtit bergen vaqtida darhol spirt bilan yuvib tashlanadi. Quruq nitrosellyuloza shiddatli yonish va portlash xususiyatiga ega bo'lib, uni saqlash va ishlatish qiyin. Shuning uchun uni saqlash va ishlatishda xavfsizlik texnikasi tadbirlariga rioya qilish talab qilinadi.

Sanoatning turli tarmoqlarida ishlatiladigan nitrosellyuloza azot miqdori va efirlanish darajasiga qarab, bir necha xilga bo'linadi. Masalan, tutunsiz porox olish uchun efirlanish darjasini (γ) 250-270 va tarkibida 11,5-14,5% azot bo'lgan nitrosellyuloza, sun'iy tola va kinolenta tayyorlash uchun efirlanish darjasini 200-240 va tarkibida 11,0-12,3 % azot bo'lgan nitrosellyuloza, plastmassalar (sellyuloid) tayyorlash uchun esa efirlanish darjasini 180-200 va tarkibida 10,5-11,0% azot bo'lgan nitrosellyuloza ishlatiladi.

Nitrosellyuloza oq tolasimon yengil polimer bo'lib, atseton, spirt, etilatsetat kabi suyuqliklarda yaxshi eriydi. U mexanik xossalari hamda suvni shimmasligi jihatidan sellyulozaning boshqa efirlaridan ancha ustun turadi. Lekin nitrosellyulozaning asosiy kamchiligi uning yonuvchanligidir. Keyingi vaqlarda nitrosellyuloza qo'llaniladigan ko'pgina sohalarda, jumladan, kinolenta, tola, lak tayyorlashda sellyulozaning boshqa efirlari ishlatilmoqda.

Hozirgi vaqtida nitrosellyulozadan asosan tutunsiz porox va plastmassalar tayyorlanadi. Sellyuloid boshqa plastmassalarga nisbatan anchaarzon va tashqi ko'rinishi jihatidan ham chiroyli. Sellyuloiddan turli shakl va hajmdagi listlar, turli diametr va uzunlikdagi trubalar, o'lchov asboblarida ishlatiladigan sinmaydigan oynalar, hisoblash mashinalarining mexanizmlari, shkalalar, o'yinchoqlar, galantereya buyumlari va musiqa asboblarining qismlari tayyorlanadi.

Nitrosellyulozadan a'lo sifatlari lakklar ham tayyorlanadi. Uning ba'zi muhim xossalari 10.1-jadvalda keltirilgan.

Izotrop nitrosellyuloza (sellyuloid)ning fizik-kimyoviy, mexanik va elektrik xossalari.


O'rtacha molekulyar massasi	150000-200000
Yonuvchanligi	juda tez yonadi
Solishtirma og'irligi, g/sm ³	1,40-1,60
Tarkibidagi azot miqdori, %	10,8-11,2
Efirlanish darajasi, γ	180-200
Issiqqa chidamliligi, Martens bo'yicha, °C	50
Cho'zilishga mustahkamligi, kg/sm ²	500-800
Nisbiy cho'ziluvchanligi, %	20-30
Qoldiq cho'ziluvchanligi, %	10-15
Elastiklik moduli, kg/sm ²	10000-12000
Qattiqligi, Brinel bo'yicha, kg/sm ²	6-10
Dielektrik doimiysi	5,5-6,0
Dielektrik isroflar burchak tangensi	0,025-0,5

Atsetilsellyuloza $[C_6H_7O_2(OH)_x(OCOCH_3)_y]$; $x + y = 3$ yoki $x=0$ va $y=3$. Atsetilsellyuloza sellyulozaning sirkal kislota bilan hosil qilgan murakkab efirdir. Sanoatda sellyulozani atsetillash uchun zarur bo'lgan sirkal kislota yoki uning angidridi quyidagi usullar bilan olinadi:

a)suyultirilgan etil spirit eritmasini turli bakteriyalar ta'sirida achitish natijasida sirkal kislota eritmasi hosil bo'ladi;


b)yog'ochni quruq haydash natijasida 10% sirkal kislota hosil bo'ladi;

c)sirkal kislota sanoatda asetilenden olinadi. Buning uchun oldin asetilenga Kucherov reaksiyasiga muvofiq suv ta'sir ettirib, sirkal aldegid olinadi:




Bu reaksiya simob tuzlari katalizatorligida sodir bo'ladi. Agar asetilen 50°C da simob oksid eritilgan sulfat kislota orqali o'tkazilsa, sirkal aldegid hosil bo'ladi. So'ngra sirkal aldegid turli metall (marganes, temir, kumush,

vanadiy va boshqalar) oksidlari katalizatorligida 60°C da havo kislorigi bilan oksidlansa, sirkal kislota hosil bo'ldi:



Sirkal kislota suvni o'ziga tortuvchi turli moddalar, jumladan, fosfor oksidlari ta'sir ettirilsa, sirkal angidrid hosil bo'ldi:



Sellyulozani sirkal angidrid bilan atsetillashdan oldin aktivlashga to'g'ri keladi. Buninguchun sellyulzoa alohida-alohida tolalargacha titildi. So'ngra uning ustiga $40\text{--}50^{\circ}\text{C}$ li sirkal kislota quyiladi.

Atsetillash gomogen va geterogen sharoitda olib boriladi. Atsetil sellyulozani gomogen sharoitda sintez qilish uchun 1 g sellyulozani aktivlashga $40\text{--}50^{\circ}\text{C}$ temperaturali sirkal kislotadan 1 ml sarf bo'ldi. Agar atsetillash metilenxlorid ishtirokida olib borilsa, har 1 g sellyulozani aktivlash uchun 0,4 ml sirkal kislota sarf bo'ldi.

Atsetil sellyulozani geterogen usul bilan sintez qilishda har 1 g sellyulozani aktivlash uchun $45\text{--}50^{\circ}\text{C}$ temperaturadagi sirkal kislotadan 13 ml sarf bo'ldi. Lekin aktivlash uchun olingan sirkal kislotaning deyarli hammasi sentrifuga yordamida ajratib olinadi va qaytadan aktivlash jarayonida ishlataladi. Gomogen usulda olingan atsetilsellyuloza atsetillovchi aralashmada reaksiyaning oxirigacha erigan holda bo'ldi, u turli moddalar ta'sirida cho'ktirib ajratib olinadi.



Geterogen usulda hosil bo'lgan atsetilsellyuloza reaksiyon muhitda eri may, o'zining dastlabki tola shaklini saqlab qoladi. Sirkal kislota ishtirokida sellyulzoa quyidagicha atsetillanadi. Aktivlangan sellyulzoa atsetilyat-orga solinadi va ustiga atsetillovchi aralashma qo'shiladi hamda yaxshilab aralashtiriladi. Atsetillovchi aralashmaning tarkibi: 3 qism sirkal angidrid, 4 yoki 6 qism sirkal kislota va 0,01 qism sulfat kislota. Sellyulzoa bilan atsetillovchi aralashma o'zaro 1:10 nisbatda bo'lib, atsetillash jarayoni $35\text{--}40^{\circ}\text{C}$ da 47 soat davom etadi. Reaksiya oxirida triatsetilsellyuloza hosil bo'ldi. Triatsetilsellyuloza aralashmada eriydi va aralashma quyuq qiyomsimon holatga o'tadi. Hosil bo'lgan qiyomsimon eritma 8-10% li sirkal kislota suvning ustiga qoyilsa, triatsetilsellyuloza cho'kmaga tushadi va u filtrlash yo'li bilan ajratib olinadi. Uni yuvib, sirkal kislota sulfat qoldiqlari tozalanadi.

Odatda triatsetilsellyulozani qisman gidrolizlab, ikkilamchi atsetilsellyulozaga aylantiriladi. Buning uchun reaksiya oxirida olingan triatsetilsellyulozaning qiyomsimon eritmasiga suv va sulfat kislota qo'shiladi. Suvni shu miqdorda qo'shish kerakki, natijada eritmadi sirka kislota konsentratsiyasi 92-95% gacha kamaysin. Sulfat kislota esa dastlabki sellyulozaga nisbatan 15% miqdorda qo'shiladi. Hosil bo'lgan reaksiyon aralashma 40-45°C atrofida 12-14 soat saqlanadi, bunda triatsetilsellyuloza tarkibidagi atsetilguruhlarning bir qismi gidrolizlanib, ikkilamchi atsetilsellyuloza hosil bo'ladi.

Hosil bo'lgan ikkilamchi atsetil sellyuloza ham reaksiyon muhitda erigan holda bo'lib, unga 8-15 % li sirka kislota eritmasi quyilsa, u cho'kma holida ajralib chiqadi.


Atsetillashda erituvchi sifatida metilenxlorid ishlatilsa, 100 g sellyulozaga 300 ml sirka angidrid, 500-600 ml metilenxlorid va 1 g sulfat kislotadan iborat aralashma qo'shiladi. Bu reaksiya ham po'lat reaktorda 40-50°C temperaturada 5-6 soat davom etadi. Bu xildagi atsetillashda sirka angidrid va metilenxlorid aralashmasi uch qismga bo'linadi hamda sellyuloza bilan birin-ketin aralashtiriladi. Bu usulda hosil bo'lgan triatsetilsellyuloza ham reaksiya oxirida qiyomsimon holatga o'tadi. Undan ikkilamchi atsetilsellyuloza olish uchun sirka kislotaning konsentratsiyasi 87 foizga kelguncha suv quyiladi va sulfat kislota ishtirokida 0,5-0,7 atm bosimi ostida 57- 58°C da qizdiriladi. Oradan 3-5 soat o'tgach eritma sovitiladi va sirka kislotaning konsentratsiyasi 82 foizgacha kamaytiriladi. So'ngra eritma atmosfera bosimida 50°C da yana 6-7 soat qizdiriladi, natijada ikkilamchi atsetilsellyuloza hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan ikkilamchi atsetilsellyulozani ajratib olish maqsadida metilenxlorid bug'latiladi va yig'ib olinadi, qolgan eritma sirka kislotaning 10-12 foizli eritmasiga quyiladi. Hosil bo'lgan cho'kma ikkilamchi atsetilsellyuloza suv bilan yaxshilab yuviladi va quriladi.

Ikkala usul bilan sellyulozani atsetillash reaksiyasi quyidagicha ifodalananadi:




Hosil bo'lgan atsetilsellyulozada $\gamma = 300$ bo'ladi.

Triatsetillyulozaning gidrolizlanib, ikkilamchi atsetil sellyulozaga aylanishi quyidagicha ifodalanadi:



Formulada $x + y = 3$ bo'lib, sanoatda ishlab chiqariladigan ikkilamchi atsetilsellyuloza uchun $x = 0,6\text{-}0,4$ va $y = 2,4\text{-}2,6$ ga teng, ya'ni bu efirda $\gamma = 240\text{-}260$.

Oxirgi vaqtida sellyulozani keten bilan atsetillash usuli ham kashf etildi. Bu usulga muvofiq sirka kislota bilan aktivlangan sellyulozaga keten ta'sir ettirilsa, sellyuliza efiri hosil bo'ladi.



Bunda keten sirka kislota bilan birikib, sirka angidridga aylanadi. Hosil bo'lgan sirka angidrid sellyulozani atsetillaydi. Triatsetilsellyuloza va ikkilamchi atsetilsellyulozaning muhim xossalari 10.2-jadvalda keltirilgan.

10.2-jadval.

Izotrop atsetilsellyulozaning fizik-kimyoviy, mexanik va elektrik xossalari.

O'rtacha molekulyar massasi	Triatsetilsellyuloza	Ikkilamchi atsetilsellyuloza
	200000-400000	00000-400000
Kristallarning suyuqlanish temperaturasi, °C	200	-
Solishtirma og'irligi, g/sm³	1,29-1,30	1,35-1,38
Suyuqlanish temperaturasi, °C	270-290	230-240
Parchalanish temperaturasi, °C	250	250
Issiqqa chidamliligi, °C	200	200
Cho'zilishga mustahkamligi, kg/sm²	500-7004	00-500
Nisbiy cho'ziluvchanligi, %	15-25	40-50

Elastiklik moduli, kg/sm ²	15000-200001	0000-15000
Qattiqligi, Brinel bo'yicha, kg/sm ²	20-30	10-15
Dielektrik doimiysi	2,1-2,5	3,5-7,5
Dielektrik isroflar burchak tangensi	0,002-0,003	0,02-0,06
Efirlanish darajasi, γ	300	240-260
Bog'langan sirka kislota miqdori, %	62,5	54-56

Triatsetilsellyuloza fizik-mexanik xossalari jihatidan ikkilamchi atsetilsellyulozadan ancha yuqori turadi. Triatsetilsellyuloza suvgaga chidamli hamda yaxshi dielektrik xossalarga ega. Shuning uchun ham u elektronika sanoatida keng ishlataladi.



Odatda tola olishda $\gamma=240-260$, plastmassalar olishda $\gamma=220-250$ va kinoplyonkalar olishda $\gamma=250-270$ bo'lgan atsetilsellyuloza efirlari ishlataladi. Shuni ham aytish kerakki, atsetilsellyulozaning ko'p xossalari uning olinish usuliga ham bog'liq. Triatsetilsellyulozani gidrolizlab olingan ikkilamchi atsetilsellyuloza ($\gamma=220-250$) atsetonda yaxshi eriydi. Lekin sellulozani geterogen usulda atsetillab olingan atsetilsellyuloza ($\gamma=220-250$) atsetonda aslo erimaydi. Gomogen usulda olingan ikkilamchi atsetilsellyulozaning makromolekulasi tarkibida atsetil guruhlarning taqsimlanishi va joylashishi bir tekisda bo'lsa, geterogen usulda olingan efirda atsetil guruhlarning polimer zanjiri bo'ylab taqsimlanishi butunlay boshqacha bo'ladi, ya'ni makromolekulaning ba'zi qismlaridagi gidroksil guruhlarning hammasi atsetil guruhlarga o'rinn al mashgan, ba'zi qismlaridagi gidroksil guruhlar esa deyarli al mashmay qolgan bo'ladi. Shu sababli bunday efirlar atsetonda erimaydi.

Atsetobutiroselluloza. $[C_6H_7O_2(OH)_x(OCOCH_3)_y(OCOC_3H_7)_z]_n; z+y+ +x=3$


Atsetobutiroselluloza sellulozaning sirka va yog' (butil) kislotalar bilan hosil qilgan aralash efridir. Butil kislota kraxmal, qand, glitsserinlarning turli bakteriyalar ta'sirida achishidan hosil bo'ladi. Butil kislota angidridi ham sirka kislota angidridi kabi kislotaga turli suv yutuvchi birikmalar ta'sir ettirib olinadi.

Atsetobutiroselluloza olishda ham metilenxlorid erituvchi sifatida ishlataladi. Lekin bu reaksiyon muhitda ikki organik kislota ishtirok qilgani uchun reaksiya sharoiti atsetillash sharoitidan farq qiladi.

Sellyuloza efirlash oldidan sirka kislota bilan aktivlanadi. Buning uchun 1 g sellyulozaga 0,5 g sirka kislota qo'shib, 40-50°C da 2 soat aralashtiriladi. Atsetobutiroselluloza uch bosqichda olinadi. Oldin reaktorga aktivlangan sellyuloza solinadi va uning ustiga metilen xlorid, butil angidrid va perxlorat kislotadan iborat 15°C temperaturadagi aralashma qo'shiladi. Aralashmaning tarkibida 275 qism metilen xlorid, 145 qism butilangidrid va 0,15 qism perxlorat kislota (katalizator) bo'ladi. 100 qism sellyulozaga bu aralashmadan 167 qism qo'shiladi. Aralashma 15-17°C da 2 soat qorishtiriladi. So'ngra unga tarkibida 100 qism metilenxlorid, 175 qism butil angidrid va 0,15 qism perxlorat kislota bo'lgan aralashmadan yana 183 qism qo'shiladi va qorish davom ettiriladi, 3 soat o'tgach, reaksiyon aralashma 5-8°C gacha sovitiladi va 105 qism yangi aralashma (aralashmaning tarkibi: 100 qism metilenxlorid, 50 qism butil angidrid, 0,23 qism perxlorat kislota va 75 qism sirka angidrid) qo'shiladi. So'ngra reaksiyon aralashma 35-40°C gacha qizdiriladi va sellyuloza tolalari erib, qiyomsimon aralashma hosil bo'lguncha qorishtirish davom ettiriladi. Odatda, reaksiyaning uchala bosqichi 10-11 soat davom etadi. Bu xil atsetillashning reaksiya tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:



Hosil bo'lgan triefirning xossalalarini yaxshilash maqsadida qisman gidrolizlanadi. Bu jarayon 60 % li sirka kislota ishtirokida 20-25°C da olib boriladi. Gidroliz tamomlangandan keyin eritmadi metilenxlorid bug'latiladi va sovuq suv qo'shish bilan atsetobutiroselluloza cho'ktiriladi. Hosil bo'lgan tola holidagi efir suv bilan yaxshilab yuvilib quritiladi. Qisman gidrolizlangan atsetobutirosellulozaning formulasini quyidagi-cha ifodalash mumkin:



Pardalar tayyorlash uchun ishlataladigan atsetobutirosellulozada $y = 1,64$; $x = 0,53$; $z = 0,83$ bo'lsa, plastmassalarga ishlataladigan efirda $y = 0,81$; $z = 0,55$; $x = 0,64$ bo'ladi. Atsetobutirosellulozaning muhim xosalari 10.3-jadvalda keltirilgan.

10.3-jadval.

Izotrop atsetobutirosellulyulozaning fizik-kimyoviy, mexanik va elektrik xossalari.


O'ttacha molekulyar massasi	150000-250000
Solishtirma og'irligi, g/sm ²	1,20-1,30
Suyuqlanish temperaturasi, °C	160-200
Issiqqa chidamliligi, Martens bo'yicha, °C	40-50
Cho'zilishga mustahkamligi, kg/sm ²	600-700
Nisbiy cho'ziluvchanligi, %	40-50
Qoldiq cho'ziluvchanligi, %	10-15
Elastiklik modulii, kg/sm ²	2000-3000
Qattiqligi, Brinel bo'yicha, kg/sm ²	7-10
Dielektrik doimisi	2,5-3,0
Dielektrik isroflar burchak tangensi	0,002-0,003
Suvni shimishi, %	1,0-2,5
Boz'langan sirka kislota miqdori, %	40-42
Boz'langan butil kislota miqdori, %	25-26
Sirka kislota bo'yicha efirlanish darajasi, γ	160-165
Butil kislota bo'yicha efirlanish darajasi, γ	50-55
Parchalanish temperaturasi, °C	200-230

Atsetobutirosellulyuloza o'zining qator xossalari jihatidan atsetatsel-sellyulozadan ancha farq qiladi. U suvni kam shimadi, plastik turli materiallar sirtiga yaxshi yopishadi va plastifikatorlar bilan yaxshi aralashadi. Shuning uchun undan tayyorlangan pardalar elektroizolyator sifatida ishlataladi. Undan olingan plastmassalardan ham turli elektroizolyatorlar tayyorlanadi. Bundan tashqari, atsetobutirosellulyulozadan turli laklar ham tayyorlanadi. Bu laklar suv ta'siriga yaxshi bardosh berishi, metall sirtlariiga yaxshi yopishishi tufayli sanoatning turli tarmoqlarida ishlatalmoqda.


Etilsellulyuloza. $[C_6H_7O_2(OH)_x(OC_2H_5)_y]_n$; $y+x=3$.

Etilsellulyuloza sellulyulozaning oddiy efirlaridan bo'lib, ishqoriy sellulyuloza bilan etilxloridning o'zaro ta'sirlanishi natijasida hosil bo'ladi. Etilxlorid quyidagi usullar bilan olinadi.


a) etil spirtidan etilxlorid olish. Bu usulga muvofiq etil spirt oldin gaz holdagi vodorod xlorid bilan to'yintiriladi va avtoklavga solib, rux xlorid ishtirokida qizdiriladi. Natijada etilxlorid hosil bo'ladi. Uning hosil bo'lish reaksiyasi quyidagicha ifodalanadi:



b) etilenden etilxlopid olish. Sanoatda etilxlorid etilenga vodorod xlorid biriktirish bilan olinadi. Reaksiya 150-200°C da temir xlorid ishtiroki-da sodir bo'ladi:



Etilsellyuloza odatda yog'och sellyulozasidan olinadi. U paxta sellyulozasiga nisbatan g'ovak bo'lib, kichikroq molekulyar massaga ega. Shuning uchun reaksiya tezroq va bir tartibda sodir bo'ladi. Sanoatda etilsellyuloza sellyuloza va etilxloriddan quyidagicha olinadi. Oldin sellyulozani merserizatsiyalab, ishqoriy sellyuloza olinadi. Buning uchun tarkibida 8-10 % namlik bo'lgan sellyulozaga natriy gidroksidning 50% li eritmasidan solib, Verner qorg'ichida aralashтирiladi. Odatda 1 g sellyulozaga 3 g ishqor eritmasi olinadi. Hosil bo'lgan ishqoriy sellyulozani avtoklavga solib, ustiga efirlovchi aralashma quyladi. Bu aralashma 49-50% etilxlorid va 44-51% benzoldan iborat. Efirlash reaksiyasi ekzotermik reaksiya bo'lib 80-130°C temperatura va 14-16 atm bosimda 10-12 soatdavom etadi:



Hosil bo'lgan etilsellyulozaning efirlanish darajasi $\gamma = 270-260$. Bu reaksiyada sellyulozaiing bir elementar bo'g'iniga 11-15 mol etilxlorid olish kerak. Chunki sellyuloza efrining hosil bo'lish reaksiyasi bilan bir qatorda qo'shimcha reaksiyalar ham sodir bo'ladi. Etilxloridning ishqor bilan gidrolizlanib, etil spirt hosil qilishi va etil spirtning etil efirga aylanishi shunday reaksiyalar jumlasidandir.

Hosil bo'lgan laksimon eritma (etilsellyulozaning organik suyuqlik-dagi eritmasi) 80-100°C temperaturali suvgaga ohista quyladi. 1 l etilsellyuloza eritmasiga 20 l issiq suv to'g'ri kelishi zarur. Cho'kmaga tushgan

etilsellyuloza ishqor va natriy xloriddan tozalab yuviladi va vakuum ostida 105°Cda quritiladi.

Etilsellyuloza oq yoki sarg'ish rangli qattiq polimer bo'lib, ko'p xossalari efirlanish darajasi va molekulyar massasiga bog'liq. Uning efirlanish darajasi ortgan sari erish qobiliyati ortadi, yumshash temperaturasi esa kamayadi. U sellyulozaning boshqa efirlariga nisbatan elektr tokini kam o'tkazadi, sovuqqa va issiqqa yaxshi bardosh beradi, ishqor va kislotalar ta'siriga barqaror va metall, yog'och hamda gazlamalarga yaxshi yopishadi. Bundan tashqari, etilsellyuloza ko'p plastifikatorlar bilan yaxshi aralashadi. Etilsellyulozaping xossalari 10.4-jadvalda keltirilgan.

10.4-jadval.


Izotrop etilsellyulozaning fizik-kimyoviy, mexanik va elektrik xossalari.

O'rtacha molekulyar massasi	150000-200000
Solishtirma og'irligi, g/sm'	1,13-1,15
Suyuqlanish temperaturasi, °C	160-170
Shishaylanish temperaturasi, °C	0-20
Parchalanish temperaturasi, °C	170-180
Mo'rtlanish temperaturasi, °C	-10-30
Issiqqa chidamliligi, Martens bo'yicha, °C	60-80
Nisbiy issiqqlik sig'imi, kal/grad/gramm	0,4-0,6
Cho'zilishga mustahkamligi, kg/sm ²	550-700
Nisbiy cho'ziluvchanligi, %	20-30
Elastiklik moduli, kg/sm ²	2000-2500
Qatiqligi, Brinel bo'yicha, kg/sm ²	8-10
Dielektrik doimiysi	1,5-2,0
Dielektrik isroflar burchak tangensi	0,005-0,02
Efirlanish darajasi, γ	240-260
Etoksil guruhi miqdori, %	29,5-41,0

Etil sellyuloza sanoatning turli tarmoqlarida ishlataladi. U yaxshi dielektrik hamda suvga chidamli bo'lganidan undan turli xil radiodetallar va kondensatorlar yasaladi; sovuqqa chidamliligi, elastikligi, mustahkamligi tufayli plastmassalar o'rniда ishlataladi; eruvchanligi va metall, yog'och hamda gazlamalarga yaxshi yopishadigan bo'lgani uchun undan lok va emallar olinadi.


Karboksimetilsellyuloza. $[C_6H_7O_2(OH)_x(OCH_2COOH)_y]_n$; $x+y=3$.

Karboksimetilsellyuloza ishqoriy sellyulozaga monoxlorsirka kislota ta'sir ettirib olinadi. Xlorsirka kislota sanoatda toza sirkasi kislotani xlorlab olinadi:



Karboksimetilsellyuloza olish uchun xlorsirka kislotaning natriyli tuzi va sulfat sellyuloza ishlataladi. Sanoatda karboksimetilsellyuloza olish uchun oldin sellyuloza 20 foizli ishqor eritmasida odatdag'i temperaturada merserizatsiyalanadi va maydalanadi, tolalarga ajratiladi. Keyin unga 35-40°C temperaturada xlorsirka kislotaning natriyli tuzi ta'sir ettirilsa, karboksimetilsellyuloza hosil bo'ladi. Reaksiya vaqtida reaksiyon aralashma doimo qorishtirib turiladi.

Karboksimetilsellyulozaning hosil bo'lish reaksiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:



Formuladax $y=3$ bo'lib, sanoatda ishlataladigan efirda $y=0,5-1,2$, ya'ni $y=50-120$ bo'ladi. Odatda karboksimetilsellyulozaning natriyli tuzi sintez qilinadi, u oq yoki sarg'ish rangli qattiq moddadir. Karboksimetilsellyuloza sellyulozaga nisbatan gigroskopik bo'lib, oddiy sharoitda 12% gacha suv shimiadi. Umuman, karboksimetilsellyulozaning barcha xossalari uning efirlanish darajasiga bog'liq. Masalan, efirlanish darajasi 50 va undan ortiq bo'lgan karboksimetilsellyuloza ishqorlarning suyultirilgan eritmasida eriydi.

Karboksimetilsellyuloza neft quduqlarini qazishda ishlataladigan eritmalar uchun stabilizator sifatida ishlataladi. Bu efigning tuzi suvda eruvchan bo'lganligi uchun kraxmalning o'rniда ham ishlatalmoqda. Bu efig tuzining eritmalarini to'qimachilik sanoatida yigirilgan iplarni oxorlashda, qimmatbaho rudalarni metallar bilan boyitishda, yelimplar ishlab chiqarishda juda keng ishlatalmoqda.

10.2. Tabiiy ipak, jun, charm: tarkibi, tuzilishi, xossalari

Tabiiy polimerlar o'simliklар va hayvonlar organizmida hosil bo'ladi. O'simliklarda polisaxaridlar – selluloza va kraxmal hosil bo'lsa, hayvonlarda asosan turli xildagi oqsillar hosil bo'ladi. Jumladan, tabiiyipak, jun va charmning asosiy tarkibiy qismi oqsildir.

Tabiiyipakniipakqurtihosilqilishligihammagama'lum (10.1-rasm).

Pilla iplari – ikki, bir-biriga parallel joylashgan elementar iplardan tashkil topgan. Elementar iplar (fibroindan tashkil topgan) seritsin qatlami bilan bir-biriga yelimlangan (10.2-rasm).



10.1-rasm. Tabiiy ipak hosil qiluvchilar.



10.2-rasm. Ipak tolasi.

Pilla ipining ko'ndalang kesimi ikkita aylanma burchakli uchburchak va ularni qoplagan seritsin qatlamidan tashkil topgan. Pillalarni chuvatganda, bir nechta pilla iplari yelimlanib, bitta ip hosil qiladilar. Bu ipni – xom ipak deydilar. Seritsin iplarga qattiqlikni beradi, shu sababdan keyin maxsus ishlov berib, seritsinni ajratadilar.

Pilla ipining xossalari. Ipak – pillani chuvatish natijasida olinadigan iplar. Pilla ipining uzunligi 1500 m ga etadi. Pillaning ustki va ichki qatlamlari tortilmaydi, shuning uchun tortilgan ipning o'rtacha uzunligi 600-900 m. Pilla ipining uzish yuki 10 kN, nisbiy uzish yuki 27-31,5 kN/teks. Ipakning uzilishdagi uzayishi 22% ga etadi. To'liq uzayishining taxminan 60% ini yo'qoluvchi deformatsiya tashkil qiladi. Shuning uchun tabiy ipakdan to'qilgan gazlamalar uncha g'ijimlanmaydi.

Normal sharoitda tolalarning gigroskopikligi 11%. Qaynatilgan pilla iplari oq, bir oz sarg'ishroq rangda bo'ladi. Kamyoviy turg'unligi jihatidan tabiiy ipak jundan afzal turadi. Kiyimlarni kamyoviy tozalashda ishlatiladigan suyultirilgan kislota va ishqorlar, organik erituvchilar tabiiy ipakka ta'sir qilmaydi.

Tabiiy ipak faqat kontsentrlangan ishqorlarda qaynatilganda eriydi. Fibroin seritsinga qaraganda ancha turg'un oqsil: sovun-sodali eritmalar da qaynatilganda seritsin eriydi, fibroin esa erimaydi. Bo'yagan tabiiy ipak tolalariga suv uzoq ta'sir etib turganda, ularda oqish dog' paydo bo'lib, buyumlarning ko'rkaligini buzadi. Ho'l holatda tabiiy ipakning pishiqligi 5-15% pasayadi.

Tabiiy ipak tolalari 110°C dan yuqori temperaturada pishiqligini yo'qtotadi. To'g'ri tushayotgan quyosh nurlari ta'sirida ipak boshqa tabiiy tolalarga qaraganda tezroq yemiriladi. Quyosh nurlari 200 soat mobaynida tushib turganda ipakning pishiqligi 50% pasayadi.

Tabiy ipak xuddi junga o'xshab yonadi, yovvoyi ipak qurti (eman qurti) ipagini tolasi tut qurti ipagini tolasidan ancha dag'al bo'ladi. Uning pillalari deyarli tortilmaydi, shuning uchun faqat kalava ip olishda ishlatalindi.

Tabiiy jun. Har qanday junning asosiy tarkibiy qismi keratin oqsilidir. *Keratin* – α -spiral yoki β -struktura konformasiyasiga ega bo'lган parallel polipeptid zanjirlaridan tuzilgan fibrillyar oqsildir. Keratin suvda, ishqor va kislotalarning suvli eritmasida erimaydi, fermentlar ta'siri va gidrolizza chidamli. Keratin tarkibida barcha aminikislotalar uchraydi, boshqa fibrillyar tuzilishli oqsillardan sistein qoldiqlarining ko'pligi bilan ajralib turadi.

Keratin polipeptid zanjirining birlamchi strukturasining molekulyar massasi 10000-50000 bo'lib, unda davriylik kuzatilmaydi. Sut emizuvchilar keratinning asosiy struktur elementi chetlarida nospiral bo'lakchalari bo'lган uchta tikilgan α -spiral polipeptid bo'laklaridan iborat. Suvda erimasligi, elastikligi va boshqa fizik-mexanik xossalari ko'plab disulfide bog'larining mavjudligi bilan izohlanadi. Eng mustahkam va qattiq keratin tarkibida 18% gacha sistein mavjud bo'ladi.

Jun tolasi – yo'g'onligi va tuzilishiga qarab quyidagi tiplarga bo'lindi: momiq, oraliq tola, dag'al to'q va o'lik tola.

Momiq – eng ingichka buramdar (jingalak) tola bo'lib, ko'ndalang kesimi doira shakliga ega. Momiq ikki qatlamdan: tashqi – tangachali va ichki qobiq qatlamlaridan tashkil topgan. Tangachali qoplam bir-birining orasiga o'rnatilgan, chetlari notejis bo'lган halqachalar (tangachalar)dan tashkil topgan. Qobiq qatlam – duksimon.

Oraliq tolada – tangachali va qobiq qatlamdan tashqari, yana uchinchi qatlami bor – o'zak. Bu qatlam tolasining o'rtasida bo'lib, uzuq-uzuq joylashadi. Bo'sh o'zak qatlami-kirib qolgan plastinkali hujayralardan

tashkil topgan. Hujayralar oralig‘i havo, moy va boshqa moddalar bilan to‘ldirilgan.

Dag‘al tuk- momiqsimon, ancha dag‘al va yo‘g‘onroq bo‘lib, deyarli buramdar (jingalak) bo‘lmaydi. U uch qatlamdan: plastinasimon tangachali qatlam, qobiq va yaxlit, yaxshi rivojlangan o‘zak qatlamidan tashkil topgan.

O‘lik tola – eng dag‘al, yo‘g‘on va buramlari (jingalak) bo‘limgan tola. Uni tangachali qatlami katta-katta plastinkalaridan tashkil topgan. Qobiq qatlami tor doirasimon, o‘zak esa juda rivojlangan bo‘ladi.

Dag‘al tuk va o‘lik tolaning ko‘ndalang kesimi noto‘g‘ri oval shakkida bo‘ladi.

Junni yigirish jarayoni uchun jun tolalarining uzunligi va buram dorligi katta rol o‘ynaydi.

Jun tolasining xossalari. Jun tolalarining uzunligi 20 dan 450 mm gacha. Uzunligi jihatidan bir jinsli jun qisqa tolali (55 mm gacha) va uzun tolali (55 mm dan uzun) xillarga bo‘linadi. Junning buram dorligi (jingalakligi) 1 sm tolaga to‘g‘ri keladigan buramlar soni bilan ifodalanadi. Tola qancha ingichka bo‘lsa, 1 sm tolaga shuncha ko‘p buram to‘g‘ri keladi. Buramning balandligiga qarab, jun normal, yuqori va qiya buramli xillarga bo‘linadi.

Yuqori buramli kalta tolali jun yo‘g‘on va tukli apparat tizimida olin-gan ipi (movut ip) tayyorlash uchun ishlataladi. Qiya buramli uzun tolali jundan ingichka va silliq taralgan ip tayyorlashda foydalananadi. Junning yo‘g‘onligi (ingichkaligi) tolaning tipiga bog‘liq bo‘ladi hamda kalava ip va gazlamalarning xossalariiga katta ta’sir qiladi. Momiqning ingichkaligi 30 mkm gacha, dag‘al tolani – 50-90 mkm, o‘lik tolani – 50-100 mkm va bundan ingichka bo‘ladi.

Jun tolalarining pishiqligi ularning yo‘g‘onligi va tuzilishiga bog‘liq. Masalan, o‘lik tola yo‘g‘on, lekin bo‘sh bo‘ladi. Ingichkaligi 20 mkm bo‘lgan momiq tolalarning uzish yuki 7 kN, ingichkaligi 50 mkm bo‘lgan dag‘al tolalarniki esa 30 kN gacha. Tolalarning nisbiy uzish yuki 10,8-13,5 kN/teks. Ingichka jun dag‘al jundan pishiqrq bo‘ladi. Bunga sabab shuki, dag‘al tolalarning o‘zak qatlami asosan havo bilan to‘lgan bo‘ladi. Natijada tolalarning yo‘g‘onligi ortadi, lekin pishiqligi oshmaydi.

Quruq-tolalar uzilish paytida 40% uzayadi. To‘liq uzayishining ancha (7% gacha) ulushini qayishqoq va yuqori elastik deformatsiyalar tashkil qiladi, shuning uchun jun buyumlar uncha g‘ijimlanmaydi va ko‘rinishini

yaxshi saqlaydi. Mayin junli qo'y juni oq, bir oz sarg'ish, dag'al va yarim dag'al jun kulrang, malla, qora rangda bo'lishi mumkin.

Junning tovlanuvchanligi tangachalarning o'lchami va shakliga bog'liq bo'ladi. Zich yotgan yirik tangachalar junni ancha tovlantiradi. Mayda va tolalardan ko'chgan tangachalar uni xiralaشتiradi.

Bosiluvchanlik – bosish jarayonida junning kigizsimon to'shamma hosil qilish xususiyati. Ingichka, qayishqoq, serburam junning bosiluvchanligi yuqori bo'ladi.

Normal sharoitda mayin junning namligi 18%, dag'al junniki – 15%. Boshqa tolalarga nisbatan junning gigroskopikligi yuqori: u namni sekin shimib, sekin ketkazadi. Issiqlik va namlik ta'sirida tola 60% gacha va undan ham ko'p uzayadigan bo'lib qoladi. Ho'llab dazmollaganda cho'ziluvchanligi o'zgartirish va kirishish xususiyatiga ega bo'lgani uchun junni dazmolab qisqartirish, cho'zish, dekatirovka qilish mumkin.

Kiyimni kimyoviy tozalashda qo'llaniladigan barcha organik erituvchilar ta'siriga jun yaxshi chidaydi. Jun amfoter xossalariга ega, ya'ni kislotalar bilan ham, ishqorlar bilan ham ta'sirlashishi mumkin.

Qaynatilganda jun o'yuvchi natriyning 2% li eritmasida erishi mumkin. Suyultirilgan (10% gacha) kislotalar ta'sirida junning pishiqligi bir-muncha oshadi. Kontsentrlangan nitrat kislota ta'sirida jun sarg'ayadi, kontsentrlangan sulfat kislota ta'sirida ko'mirga aylanadi.

Quruq jun tolalari 110°C va undan yuqori haroratda pishiqligini yo'qotadi.

Junning yorug'likka chidamligi o'simlik tolalarinikiga qaraganda yuqori. Quyosh nurlari 1120 soat mobaynida to'g'ri tushib turganda jun tolalarining pishiqligi 50% pasayadi.

Jun yondirilganda tolalar bir-biriga yopishib qoladi, alangadan chiqarilganda yonishdan to'xtaydi, tolalarning uchlari dumaloqlanib, qorayib qoladi, kuygan pat hidi keladi.

Tabiiy charm. Tabiiy charmning asosiy tarkibiy qismi kollagen oq-silidir. *Kollagen* fibrillyar oqsil bo'lib, hayvonot dunyosida eng ko'p tarqalgan, barcha oqsillar massasining deyarli 30% ni tashkil etadi. Kollagen molekulasining uzunligi 300 nm, qalinligi 1,5 nm bo'lib, har birining molekulyar massasi taxminan 100000 ga teng bo'lgan uchta α -zanjirdan iborat. Har bir α -zanlir glisinning miqdori ko'pligi bilan va oltingugurt tutgan aminikislotalarning kamligi bilan xarakterlanadi. Boshqa oqsillardan farqli ravishda 3- va 4-gidroksiprolin hamda 5-gidroksilizinnig miqdori ham ko'p. Yana bir o'ziga hosligi – α -spiralning konformatsion

asosini tashkil etuvchi glisin-X-Y (X va Y glisindan boshqa aminokislotalar) aminokislotalar uchligining mavjudligidir. Bu uchlik butun zanjirning taxminan 90% ni tashkil etadi va zanjir o‘rtasida joylashgan.

Tabiiy charm qo‘y, echki, cho‘chqa, buzoq, bug‘u, los va boshqa hayvonlar terisiga maxsus ishlov berish yo‘li bilan olinadi. Bunday ishlov turli tuman fizik va kimyoviy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Ular teriga mayinlik, qayishqoqlik, elastiklik, nam ta’siriga chidamlilik xossalari beradi.

Ishlovdagi asosiy jarayon terini oshlash hisoblanadi. Ishlatiladigan oshlash moddalarining xiliga qarab oshlashning ushbu asosiy usullari bo‘ladi: xrom bilan (xrom tuzlarining suvdagi eritmalari bilan) oshlash; alyuminiy bilan (alyuminiy tuzlari eritmalari bilan) oshlash; qizil ya’ni tannin bilan (lub po‘stloqlari ekstraktlari bilan) oshlash; yog‘ bilan (to‘ymagan alifatik kislotali yog‘lar bilan) oshlash. Sintetik oshlash moddalari (sintanlar) dan va bir nechta oshlash moddalarning aralashmasidan ham foydalanish mumkin. Xrom bilan oshlangan charmning qirqilgan joyi zangori-yashil rangda, tannin bilan oshlanganligi qo‘ng‘ir qizg‘ish rangda bo‘ladi. Yog‘ bilan oshlanganda hamma yo‘nalishda yaxshi cho‘ziladigan mayin charm hosil bo‘ladi. Masalan, qo‘lqop tikiladigan eng yupqa, mayin va cho‘ziluvchan charm – layka terini yog‘ bilan oshlab olinadi.

Tabiiy charmning o‘ng va teskari qatlamlari bo‘ladi. Charm o‘ngidagi tabiiy naqsh meriya deb ataladi. Mutaxassislar ana shu meriya xarakteriga qarab charmning qanday hayvon terisidan olinganligini aniqlashadi. Par-dozlash usuliga va hosil bo‘lgan sirtga qarab tabiiy charmlar ushbu xil-larga bo‘linadi: silliq charmlar-tabiiy meriyali charmlar; qirqma charmlar – qirqma meriyali (charmning o‘ngiga maxsus qizdirilgan plita yordamida tushiriladigan meriyalar) charmlar; bosma charmlar-badiiy relefli bosma naqshli charmlar; tukli charmlar-sirti tukli charmlar (velyur, zamsha). Tannin bilan oshlab olingen charmlarda eng chuqur va turg‘un bosma naqsh hosil qilish mumkin.

Palto, kalta palto, kurtka, pidjak, bosh kiyimi tikish uchun asosan qo‘y, cho‘chqa, buzoq terisini xrom bilan oshlab olingen charm hamda los, bug‘u, cho‘chqa terisini yog‘ bilan oshlab olingen zamsha ishlatiladi.


Charmni turlari. Kiyimlik tabiiy charm assortimenti quyidagilarni o‘z ichiga oladi. Kiyimlik shevret – cho‘ziladigan g‘ovak charm; qo‘y terisini xrom bilan oshlab olinadi. Meriyasi voronkasimon relefli bejirim naqshdan iborat. Opoyoq (buzoq terisi) – mayda meriyali, silliq, mayin, elastik, bejirim charm. Yosh buzoqlar terisini xrom bilan oshlab olinadi. Yuzi taxminan 70 dm.

Yupqa buzoq terisi – buzoq terisini xrom bilan oshlab olinadigan charm. Opoyoqda meriyasining yirikligi, qalinqroqligi va yuzi kattaligi (120-130 dm) bilan farq qiladi. Velyur – sirti tukli zich charm. Buzoq, cho'chqa terisini xrom bilan oshlab olinadi. Buzoq terisi sirtida tuk hosil qilish uchun terining teskari tomoni silliqlanadi, o'ngida nuqsonlari ko'p bo'lgan cho'chqa terisining esa o'ngi silliqlanadi. Velyur sirtida kollagen (tabiiy oqsil) tolalardan iborat bo'lgan quyuq, zich, yaxshi bo'yalgan tuklar bo'ladi.

Spilk – zich, dag'al, tukli (velyur tipidagi) charm; qalin cho'chqa terisi va qoramol terisini bir-biriga yopishtirib va silliqlab olinadi. Zamsha – mayin, elastik, cho'ziluvchan charm. Yog' bilan oshlab olinadi; sirtida yaltiroq, kalta, quyuq tuklar bo'ladi. Zamshani los, bug'i, echki terisidan olishda o'ng qatlami sidirib tashlanadi, qo'y terisidan olishda esa teskari qatlamiga ishlov beriladi. Zamsha havoni yaxshi o'tkazadi, namlik ta'siriga yaxshi chidaydi, uni issiq (60°C gacha) suvda sovunlab yuvish mumkin.

10.3. To'yingan va to'yinmagan poliuglevodorodlar, galogenli, kislorodli polimerlar


Polietilen




Etilenni polimerlash yo'li bilan olinadi. Etilenning o'zi esa quyidagi usullar bo'yicha olinadi:

1) Etilenning tabiiy gaz, neft va uning tarkibidagi gazlardan olinishi. Neftni qayta ishlash natijasida olinadigan birikmalar va bunda chiqadigan gazlar etilen va uning hosilalarini hosil qilishda eng arzon xomashyo hisoblanadi. Shuning uchun ham sanoatda etilen, asosan, ana shu usul bilan olinadi.

2) Etilenning etil spiritidan olinishi. Bu usul klassik usullardan biri bo'lib, etil spiritni alyuminiy oksidi bilan sulfat kislota ishtirokida $160-180^{\circ}\text{C}$ da katalitik degidratlab olinadi.



3) Etilenni asetilenden olish. Asetilenni palladiy katalizatori ishtiroki-da 180-200°C da katalitik gidrogenlab, etilen hosil qilinadi:



Etilenni polimerlash sharoiti: 100 MPa bosimda, 100-300°C temperaturada, kislorod (0,05÷0,1%) katalizatorligida. Polietilen sintezi quyi, yuqori va o'rtacha bosimda olib boriladi. 10.5-jadvalda turli usulda olin-gan polietilennig xossalari keltirilgan.

10.5-jadval. *Turli usulda olingan polietilennenning xossalari.*

Sintez rejimlari	Suyuqlanish temperaturasi, (${}^T_{suyuq}$, C)	Zichligi ,g / sm ²
Yuqori bosimda	110÷125	$920 \cdot 10^3 \div 950 \cdot 10^3$
Sigler usulida	135÷141	$953 \cdot 10^3 \div 957 \cdot 10^3$
Filips usulida	142÷144	$960 \cdot 10^3 \div 966 \cdot 10^3$

Yuqori bosimdagi polietilen (YBPE) ning zichligi 916-930 kg/m³ ga teng bo'lib, u quyi zichlikdagi polietilen (QZPE) deb ataladi.

Quyi bosimdagi polietilen (QBPE)ning zichligi 0,94-0,95 g/sm³, u yuqorizichlikdagi polietilen (YZPE) deb ataladi.

UB nurlar va quyosh radiatsiyasi to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilganda destruksiyaga uchraydi. Polietilen kislota va ishqor eritmalariga, suvg'a, spirtga, benzinga, moyga, erituvchilar ta'siriga chidamli. Polietilennenning o'zidan atrof-muhitga insonlar hayoti uchun xavfli moddalar ajralmaydi. Havo kislorodi, quyosh nuri ta'sirida, qizdirilganda oksidlanadi (termoooksidlanish destruksiyasi).

Normal yoki quyi bosimda olingan polietilen molekulyar massasi va zichligining kattaligi hamda kristallik darajasining yuqoriligi, mustahkamligi, erituvchilar ta'siriga barqarorligi jihatidan o'rtacha olingan polietilenden ancha ustun turadi. Polietilen suv o'tkazmaslik xususiyati jihatidan guttaperchadan qolishmaydi. Shuning uchun undan suv ostida ishlatiladigan maxsus kabellar yashashda foydalilanadi. Polietilennenning ajoyib xususiyatlaridan biri uning yaxshi dielektriklidir. Shu sababli u


elektrotexnikada ishlataladi. Polietilen ishlataladigan asosiy sohalardan yana biri undan xilma-xil diametrli trubalar ishlab chiqarishdir. Ulardan suv va erituvchilarni uzoq masofalarga oqizish maqsadlarida foydalanish yaxshi natijalar bermoqda. Polietilen trubalar metall trubalarga nisbatan 6-8 marta yengil. So'nggi yillarda polietilenden sintetik tola olish usullari ham ishlab chiqildi. Bunday tolalar o'ziga namlikni deyarli yutmaydi, shunning uchun faqat texnika maqsadlarida ishlataladi. Kimyoviy barqarorligi, fizik-mekanik, va dielektrik xossalari polietilenni sanoatning ko'p sohalarida ishlatalishiga asos bo'lmoqda. Polietilen polimer pardalar (qishloq xo'jaligi, qadoqlash buyumlari), kabellar tayyorlashda, radiotexnikada, kimyoviy va yengil sanoatda, tibbiyotda va boshqa sohalarda ishlataladi (10.3-rasm).



10.3-rasm. Polietilening ishlatalishi.

Polietilen bezarar polimer bo'lsa ham, undan tayyorlangan buyumlarning qadoqlash, oziq-ovqat va boshqa mayda narsalar joylashtirish va tashish uchun haddan ziyod ko'p ishlatalishi ekologik muammolrni keltirib chiqarmoqda. Buning sababi polietilindan tayyorlangan buyum va materillar chiqindilarining yer yuzida to'planib qolayotganligidir. Natijada ko'plab mamlakatlarda polietilen idishlarning ishlatalishida cheklovlar qo'yilmoqda.

Polipropilen



Poli- α -olefin guruhga kiruvchi karbozanjirli polimerlar (polibutilen, poliiizobutilen, poli-4-metilpenten)ning birinchi vakilidir. Propilen polimerlanish xususiyati jihatidan etilenden farq qiladi. U initsiatorlar

ishtirokida yaxshi polimerlanmay, faqat dimer, trimer, tetramer kabi moy-simon moddalar hosil qiladi.

Sanoatda polipropilenni Sigler-Natta $\text{Al}(\text{C}_2\text{H}_5)_2\text{Cl} + \text{TiCl}_4$ katalizatorlari ishtirokida eritmada 1-3 MPa bosim ostida 70-90°Cda uzlusiz polimerlab olinadi.


Polipropilen - yengil, qattiq, shaffof polimer, yaltiroqlik va yuqori mexanik xossalarga ega (egilishga mustahkamligi bo'yicha termoplastlar ichida eng yaxshisi).

Normal haroratda polipropilen aromatik va xlorlangan uglevodorodlarda bo'kadi, 80 °C dan yuqori haroratda, ularda eriydi. Polipropilen suv, tuz, kislota va ishqor eritmalari ta'siriga chidamligi bo'yicha polietilenga o'xshaydi. 70°C dan yuqori haroratda 98% H_2SO_4 va 50% HNO_3 jar ta'sirida parchalanadi. Polipropilendan olingan buyumlar tashqi mexanik ta'sir bo'lmaganda, 150°C gacha o'z shaklini saqlab qoladi. Ular qaynoq suvgaga chidamli va 120-135°C da sterilizatsiya qilish mumkin.

Elektr xossalari polietilenga o'xshash. Plyonka gaz va bug'larni o'tka-zuvchanligi kam. Yuqori kuchlanishli kondensatorlarning dielektrligi yuqori kuchlanishli kabellarni izolatsiya qilish uchun ishlatiladi.

Polipropilenni polietilenga qaraganda ikkita kamchiligi bor: yuqori haroratlarda oson oksidlanishi va sovuqqa chidamliligi past.

Polipropilen polietilen ishlatiladigan barcha sohalarda ishlatilishi mumkin. U asosan, har xil qalnlikdagi pardalar ishlab chiqarish uchun sarflanadi. Ulardan elektrotexnika va radiotexnikada keng foydalaniladi. Bunday mahsulotlar uchun zarur polipropilenni daplen va xostalen kabi nomlari ham bor. Polipropilendan pishiq tola olish uchun uning molekulyar massasi 40000-50000 va kristallik darajasi 80-90% atrofida bo'lishi shart.




10.4 -rasm. Polipropilennenning ishlatilishi.

Polipropilen qadoqlashda – polipropilenli plyonkalar (dunyoda eng ko‘p tarqalgan qadoqlash usuli) sifatida ishlataladi. Polipropilen tolalarda – yuqori mustahkamlik va ajoyib elastik xossalariiga egaligi uchun tola olishda ishlataladi (10.4-rasm). Polipropilen mashinasozlikda – yuqori mustahkamlikka ega (undan muzlatkichlar, chang yutgichlar, ventilyatorlar, amortizatorlar, deraza, o‘rindiq, bumper qismlari va avtomobil kuzovlarining qismlari ishlab chiqariladi va b.).


Polipropilen elektronika va elektrotexnikada – yuqori elektroizolyatsiya xossalariiga ega (lampochkaning patroni, o‘chirgich qismlari, televizor korpusi, telefon apparatlari). Polipropilentibbiyotda – issiqqa chidamli, turli sharoitlarda qaynoq sterilizatsiya (ingolyatorlar, bir martalik shpritslar va b.) qilish mumkin.

Poliizopren




Poliizopren 2-metil-1,3-butadien (izopren) ni polimerlanish natijasida hosil bo‘ladi. Shuni ayтиб о‘tish kerakki, tabiiy kauchuk va guttapercharlar ham izoprenning polimerlaridir. Izopren $CH_2 = C(CH_3) - CH = CH$ to‘yinmagan C_nH_{2n-2} qatordagi uglevodorod, diyen birikma. Izopren dastlab 1860-yilda tabiiy kauchukni parchalash natijasida olingan. Hozirgi vaqtida izopren quyidagi yo‘llar bilan olinadi:


1) Sanoatda izopren izopentan-amilen aralashmasini oksidli katalizatorlar, ko‘pincha, xrom (III)-oksid ishtirokida degidrogenlab olinadi:



2) Izopentan yoki izopentenni xlorlab, dastlab 2-xlor-2-metilbutan hosil qilinadi, so‘ngra ulardan vodorod xlorid ajratilib, izopren olinadi:



3) Diollarni degidratlashdan ham izopren olish mumkin:




Qo'shbog'ning mavjudligi va holati, yon guruhlarning tabiatи va joylashuvi, asosiy zanjirdagi bog'larning mustahkamligi va yon guruhlarning turi sintetik kauchuklarning kimyoviy xossalariни belgilaydi. To'yinmagan sintetik kauchuklar vodorod galogen, karbon kislotalar, nitrobirikmalarни biriktiradi, kislotalar ta'sirida sikllanadi, oltingugurt, peroksid, malein angidrid, dinitrobirikmalar bilan tikeladi.

O₂ va O₃ ta'siri ostida oksidlanishi yorug'lik va qizdirish natijasida tezlashadi va destruksiyaga uchrashi va tikelishi mumkin.

Poliizopren sanoatning barcha tarmoqlarida ishlatiladi. Undan 50000 ga yaqin turli buyumlar yasaladi. Ulardan eng ahamiyatlisi havo va yer transportlarining shinalaridir. Kauchulkardan turli uy-ro'zg'or buyumlari, oyoq kiyimlari, transportyor lentalar, har xil hajmdagi idishlar yasaladi. Kauchuk turli aggressiv muhit ta'siriga barqaror bo'lgani tufayli, undan yasalgan asboblarning kimyo sanoatida ahamiyati katta. Hozirgi zamон sanoatining o'sishi, iqtisodiyotning rivojlanishi va turmush farvonligi mamlakatda ishlab chiqariladigan kauchukning miqdoriga ham bog'liq.

Polivinil spirit



Polivinil spirit vinil spiritning polimeri bo'lsa ham, u vinilasettatdan olinadi, chunki vinil spirit o'ta beqaror modda bo'lgani uchun oddiy sharoitda uchramaydi. Shu sababli polivinil spirit sintez qilish uchun avval vinilasettni polimerlab, so'ngra gidrolizlanadi.

Polivinilasetat gidrolizi uchun turli aromatik va alifatik sulfokislotalar, shuningdek, metall oksidlari ishlatish mumkin.


Polivinil spirit mustahkam, kislota va ishqorlar ta'siriga chidamli, turli bakteriya va mikroblar ta'sirida parchalanmaydigan bo'lgani tufayli sanoatning ko'p tarmoqlarida keng ko'lamda ishlatilmoqda. Undan sintetik tolalar ham olinadi. Bunday tolalar jun tolalardan 10-20 marta, paxta tolasidan 4-5 marta pishiq. Polivinil spirit tolalarni suvda erimaydigan qilish uchun tayyor tolalarni 230-240°C da oz vaqt qizdiriladi. Natijada makromolekula zanjiridagi guruhlар kislorod ishtirokida oksidlanib, polimer to'rsimon holatga o'tadi. Bunday sintetik tolalar karolon, kanibion, kursmana nomlari bilan dunyoga ma'lum. Polivinil spirit to'qimachilik

sanoatida ham katta ahamiyatga ega. U turli tabiiy tolalar va tayyor gazlamalarni oxorlashda ko'p ishlataladi.

Polivinil spirt eritmasi yuqori adgeziyaga (yopishqoqlikka) ega bo'lgani uchun uning asosida tayyorlangan yelimlar turli materiallarni o'zaro yopishtirib, ularni suv, organik asosda olingan loklar, bo'yollar ham sanoat ahamiyatiga ega. Hozir polivinil spirtdan suyuqliklar va kislotalar ta'siriga chidamliligin oshiradigan har xil buyumlar, pardalar, naylar tayyorlanmoqda. U turli kimyoviy reaksiyalar uchun emulgator sifatida ham ishlataladi.

Vinol polivinilspirdan olinadi. Bu tola barcha sintetik tolalar ichida eng arzoni hisoblanadi. Yorug'lik ta'siriga yaxshi chidaydi, ishqalanishga chidamliligi jihatidan paxtadan ikki barobar ustun turadi. Vinol alangaga tutilganda issiqdan kirishadi, suyuqlanadi va sariq alanga berib ohista yonadi. Sanoatimiz svuda eriydigan tola –vinol ham ishlab chiqaradi. Vinol sof holda ham, paxta, jun, viskoza, shtapel tolalarga aralashtirilgan holda ham maishiy gazlamalar tayyorlash uchun ishlataladi. Savdo nomlari: vinol, mtilan, vinilon, kuralon, vinalon, mevlon.

Polivinilxlorid



Polivinilxloridni vestolit, djeon, nippion, lukovil, korvik, sikron, xostalit, xelvik, norvik va b. nomlari ham mavjud. Polivinilxlorid vinilxloridni organik erituvchilarda yoki suspenziyada, emulsiyada, massada radikal initsiatorlar ishtirotkida polimerlab olinadi.

Polivinilxlorid sanoat miqyosida birinchi marta 1935-yilda Germaniyada ishlab chiqilgan. O'tgan davr ichida dunyoda ishlab chiqariladigan polimerlar salmog'ining 25% ni polivinilxlorid tashkil qiladi.

Polivinilxlorid quyidagi usullar bilan olinadi:

Vinilxloridradikal initsiatorlar (peroksidlar, azodinitril) ishtirotkida 30-70°Cda avtoklavda polimerlanadi.

Suspenziyada radikal initsiatorlar ishtirotkida 30-70 °C va 0,4-1,2 Mn/m² hajmi 10-25m³ bo'lgan reaktorlarda vinilxlorid polimerlanadi.

Emulsiyada vinilxlorid radikal initsiatorlar ishtirotkida 40-60°C va 0,5-0,8 Mn/m² 2-5 soat vaqt oralig'ida polimerlanadi.

Polivinilxlorid chiziqli tuzilishga ega, oq qattiq modda. Texnik polivinilxloridning molekulyar massasi 16000-30000, zichligi 1350-1460 kg/m³, shishalanish temperaturasi 87-95°C, 150°C da parchalanadi. Polivinilxlorid yetarlicha mustahkam, yaxshi dielektrik xossalarga ega. Ketonda, murakkab efirlarda, xlorlangan uglevodorodlarda eriydi, namlikka, kislota, ishqor, tuz eritmalari, sanoat gazlari (masalan, NO_2 , Cl_2 , O_3 , HF), benzin, kerosin, yog‘lar, spirtlar ta’siriga yaxshi bardosh beradi; oksidlalishiga bardoshli, yonmaydi.

Polivinilxloridning issiqqa chidamliligi yuqori emas (50-80 °C); qizdirilganda 100°C dan yuqorida HCl ajratib parchalanadi. O_2 , HCl , ba’zi tuzlar, UB-, β - yoki γ -nurlanishda, kuchli mexanik ta’sirlar natijasida parchalanishi tezlashadi. Issiqqa chidamliligini oshirish uchun maxsus termostabilizatorlar qo’shiladi (Pb , Ca/Zn asosidagi birikmalar). Polivinilxlorid – plastiklar ichida eng ko‘p tarqalgandir.

Polivinilxlorid iqtisodiyotning turli tarmoqlarida juda ko‘p miqdorda ishlatiladi (10.5-rasm). Sun’iy charm, qurilish materiallari (lenoleum) har xil apparatlarning ehtiyyot qismlari, naychalar, ma’lum miqdorda tola ham olinadi. Polivinilxlorid turli maqsadlarda ishlatish uchun quvurlar, nasoslar uchun ehtiyyot qismlar va yuqori harorat sharoitida ishlatish uchun chidamli bo‘lgan buyumlar tayyorlashda ishlatiladi. Polivinilxlorid asosida tayyorlangan plastmassalar – plyonkalar, tolalar, plastifikatlar, sun’iy charm mahsulotlari vinilplastlar xalq xo‘jaligining hamma tarmoqlarida keng ishlatilmoqda.

Ular yuqori kimyoviy turg‘un, elektr o‘tkazuvchanligi quyi va issiqlikka chidamliligi juda quyi. Ishqalanganda, tolalar yuqori elektrostatik zaryadga ega bo‘lib, bu xususiyat davolovchi matolar ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Mikroorganizmlar ta’siriga chidamli, yonmaydi.




10.5-rasm. Polivinilxloridning turli sohalarda ishlatilishi.


Polivinilxloriddan tibbiyotda: ichki a'zolar va qon uchun konteynerlar, kateterlar, ovqatlantirish trubkalari, jarrohlik qo'lqoplari va maskalar kabi tibbiyot mahsulotlari; transportda va qurilishda: qoplamalar, trubalar, kabel izolyatsiyasida, qotiruvchi materiallar, salon uchun bezaklar, asboblar va eshiklar uchun panellar maishiy buyumlarda: o'yinchoqlar, mebel, pol uchun qoplamalar (egiluvchan PVX), oyoq kiyimlar, kredit kartochkalar, sport va yoritgich uskunalari, koptoklar, kiyimlar, sumkalar va ryukzaklar va tish pastasi uchun tyubiklar olinadi.

Past haroratlarda ishlataladigan filtr va issiq izolyatsion materiallarni ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Boshqa tolalar bilan aralashmada yuqori zichlikka ega bo'lgan matolar ishlab chiqarishda, sun'iy teri, gilam va shu kabilar tayyorlash uchun ishlataladi. Savdo nomlari: xlorin, saran, vin'on, rovil, teviron.

Politetraftoretilen




Politetraftoretilen yoki teflon tetraftoretilenni yuqori bosimda va turli sharoitda polimerlash natijasida hosil bo'ladi. Tetraftoretilen radikal hosil qiluvchi initsiatorlar ishtirokida radikal mexanizm bo'yicha oson polimerlanadi. Polimerlanishni suspenziyada ham, emulsiyada ham 40-80°C temperaturada olib borish mumkin:



Teflon juda kichik sirt tarangligiga ega, suvda, yog'larda va ko'pchilik organik erituvchilarda ho'llanmaydi. Ishqor, kislota va hattoki, nitrat va xlorid kislota aralashmasi (zar suvi), xlor va ko'pchilik oksidlovchilar ta'sirida parchalanmaydi. Uncha yuqori bo'limgan haroratda ishqoriy metallar ham teflon bilan ta'sirlashmaydi. Teflon bilan faqat erkin holdagi ftor F₂ va xlor (III)-ftorid ClF₃ ta'sirlashadi. Kimyoviy barqarorligi teflo-nning tuzilishi bilan tushuntirish mumkin:


Zanjirdagi uglerod ftor atomlari bilan o'rab olingan, ular mumkin bo'lgan oksidlovchi moddalarga kirishni ta'qilaydi.

Teflondan kimyo sanoati uchun turli asboblar (stanok, reaktor, jo'mrak, membrana, nasos va b), elastik naylar, turli diametrдagi trubalar yasaladi. Teflondan turli poroplastlar ham tayyorlash mumkin.




Poroplastdan yasalgan filtrlar agressiv suyuqliklarni tozalashda katta ahamiyatga ega. Poroplastlarni istalgan materialning sirtiga yopishtirish mumkin. Teflonning inertligidan foydalanib, oziq-ovqat sanoati uchun zarur turli asbob-uskunalar yasalmoqda. Undan yasalgan idishlar va pardalar dorishunoslik sanoatida ham ishlataladi. Teflondan yasalgan turli sun'iy a'zolar kishi organizmining qismlari o'rniда ishlatalishi mumkin. Teflonni kamchiliklari: teflonni yopishtirish qiyin; termik parchalanish natijasida hosil bo'lgan mahsulotlar sog'liq uchun xavfli; shularning ichida eng xavflisi perftorizobutilen (oktaftorizobuten) – juda zaharli gaz, fosgenden 10 marta zaharliroq. Teflonning har xil markalari uchun destruksiyaning boshlanish temperaturasi 260°C dan 327°C gacha; 450°C dan yuqori temperaturada teflondan ko'p miqdorda toksik moddalarning ajralishi boshlanadi.

Polixloropren



2-xlor-1,3-butadien (xloropren) uning polimerlanishi natijasida polixloropren hosil bo'ladi:



U to'yinmagan poliuglevodorodlarning galogenli hosilalaridan biridir. Reaksiya sharoitiga va usuliga qarab 4 xil polixloropren olinadi:

1) α -polixloropren, xloroprenning benzoldagi eritmasi oddiy sharoitda 35-40% gacha polimerlanganda hosil bo‘ladi. Polimer chiziqsimon organik erituvchilarda eriydi;

2) ω -polixloropren, β -polixloroprenni polimerlash davom ettirilganda hosil bo‘ladi. Polimer donador, elastikmas. Uning makromolekulalari juda tarmoqlangan, erituvchilarda erimaydi. Polimerlarning ω -holatga o‘tishi uchun uni sanoatda qayta ishlashda ko‘p qiyinchiliklar tug‘diradi;

3) β - polixloropren xloroprenni 60°C da havosiz joyda polimerlanganda elastik, hech qanday erituvchida erimaydigan polimer holida hosil bo‘ladi;

4) μ -polixloropren, xloroprenni 25°C da uzoq vaqt davomida polimerlanganda elastik, hech qanday erituvchida erimaydigan polimer holida hosil bo‘ladi.

Bu to‘rttalal xloroprenning hosil bo‘lish reaksiyasini quyidagi umumiy tenglama bilan ifodalash mumkin. Sanoatda olinadigan polixloroprenni tashqi ko‘rinishi jihatidan kauchukka o‘xshaydi. Molekulyar massasi 100000-300000 atrofida bo‘lib, xlorlangan uglevodorodlarda bir oz eriydi.

Polixloropren yuqori temperaturada barqaror va ishqalanish vaqtida oz yemiriladi. Shuning uchun undan transportyor lentalari, tasmalar tayyorlanadi. U alanga ta’sirida yonmaydi va shu sababli elektr kabbalarni qoplash uchun ko‘p miqdorda sarflanadi. Polixloropren gazlarni o‘tkazmaydigan, agressiv muhit ta’siriga chidamli bo‘lgani uchun u kimyo sanoati uchun turli apparatlar, rezina shimdirligian brezent va boshqa materiallar yasashda ham ishlatiladi. Polixloroprendan avtomashina, samolyot va qishloq xo‘jalik mashinalarining g‘ildiraklari uchun shinalar ham tayyorlanadi.

10.4. Fenolformaldegid va karbamid smolalar

Fenolformaldegid smolalar fenol va formaldegidni kondensatlash natijasida hosil bo‘ladi (10.6-rasm). Sanoatda fenol olish uchun izopropilbenzol kislород bilan oksidланади va bunda hosil bo‘lgan gidroperoksid parchalansa, fenol hosil bo‘ladi. Reaksiyada katalizator sifatida sulfat kislota ishlatiladi. Reaksiya natijasida fenol bilan bir qatorda aseton ham hosil bo‘ladi.



10.6-rasm. Fenolformaldegid smola.

Fenol oddiy sharoitda och binafsha rangli kristall bo'lib, 43°C da suyuqlanadi va 183°C da qaynaydi. Kondensatlash uchun olingan fenol va formaldegidning miqdoriy nisbatlariga hamda reaksiya sharoitiga qarab, fenol-formaldegid smolalar ikki guruhga bo'linadi:

1. *Termoplastik smolalar*: Bular uzoq vaqt saqlanganda ham, 250°C gacha qizdirilganda hamerish va suyuqlanish qobiliyatini yo'qotmaydi. Bu guruhga kiruvchi smolalartexnikada novolak smolalar deb ham ataladi.

Novolak smolalarga formaldegid yoki geksametilentetraamin aralashdirib qizdirilsa qotib, suyuqlanmaydigan holga o'tadi.

2. *Termoreaktiv smolalar*: Bu guruhga kiruvchi smolalar uzoq saqlansa, ozgina qizdirilsa yoki ularga kislota va ishqorlar ta'sir ettirilsa, suyuqlanmaydigan va erimaydigan bo'lib qoladi. Bu smolalar texnikada rezol smolalar deb ham ataladi. Rezol smolalar ham o'z navbatida, yana uch turga bo'linadi. Birinchi bosqich(A bosqich) da olingan smolaning molekulyar massasi ancha kichik (200 dan 13000 gacha) bo'lib, aseton, spirt va ishqor eritmalarida qizdirilganda yaxshi eriydi. Bu smolalar rezollar deyiladi. Ikkinci bosqich (B bosqich) da olingan smolalar rezitollar deb ataladi. Ular rezollarni uzoq saqlash yoki ozgina isitish natijasida hosil bo'ladi. Rezitollar spirt va asetonda yaxshi bo'kadi, lekin oz eriydi. Ular 100-170°C gacha qizdirilsa, cho'ziluvchan elastik holatga o'tadi.

Ammo sovigandan so'ng mo'rtlanib, maydalanib ketadi. Rezitollar erimaydigan va suyuqlanmaydigan yuqori molekulyar smolalar bilan rezollarning aralashmasidan iboratdir. Ularning tarkibida ozgina fenol va oksibenzil spirt bo'ladi. Uchinchi bosqich (C bosqich) da olingan smola tiniq, hech qanday suyuqlikda erimaydigan bo'lib, mexanik xossalari yaxshiliqi tufayli sanoat ahamiyatiga ega. Ular rezitlar deb ataladi. Bu


smolalar kislota va ishqor eritmaları, turli organik suyuqlıklar va issiqlik ta'siriga yaxshi bardosh beradi. Fenol molekulasıda vodorod atomlarining uchtasi o'rın almashinish reaksiyasiga kirisha oladi. Shuning uchun reaksiyaga olingen moddalarning nisbiy miqdoriga qarab turli birikmalar hosil bo'ladi.

Reaksiyaga 2 mol fenol va 1 mol formaldegid olinsa oldin dioksidifenilmetanning quyidagi uchta izomeri hosil bo'ladi:



2,2-dioksifenilmetan; 2,4-dioksifenilmetan; 4,4-dioksifenilmetan.

Agar reaksiya paytida formaldegid miqdori fenolga nisbatan ko'proq yoki teng bo'lsa, quyidagi fenol spirtlar hosil bo'ladi:



o-oksibenzil spirt; p-oksibenzil spirt;




2,4-dimetilolfenol.


Fenol formaldegid smolalar yuqorida keltirilgan birikmalarni o'zaro polikondensatlash orqali hosil bo'ladi.

Novolak smolalar. Polikondensatlashda formaldegidga nisbatan fenol mo'iroq olinsa, novolak smola hosil bo'ladi. Reaksiya formaldegidning suvdagi eritmasida va kislotalar ishtirokida boradi. Bu smolalar tuzilishi jihatidan dioksidfenilga o'xshaydi.

Smolaning umumiy sxematik formulasi quyidagicha ifodalanadi:



Smola molekulasida metilen bog'lari bilan bir qatorda dimetilen efiri bog'lari ham uchraydi. Smolaning molekulyar massasi 200 dan 1300 gacha bo'ladi. Ularning eruvchanligi har xilligidan foydalanib, fraksiyalarga ajratish mumkin. Novolak smola olishda odatda 7 qism fenolga 6 qism formaldegid aralashtiriladi. Smolaning molekulyar massasi va fraksion tarkibi fenol va fernaldegidning miqdoriga nisbatiga bog'liqidir. Fenol bilan formaldegid 7 : 6 nisbatda olinsa, smolaning molekulyar massasi 500-700, 2:1 nisbatda olinganda esa 230-250 bo'ladi. Novolak smolalardan asosan turli yelimplar tayyorlanadi.




Novolak smolalar spirt, dioksan, benzol va boshqa organik erituvchilarda eriydi. Ular 70-80°C da suyuqlanadi.

Agar novolak smolaga formaldegid qo'shib qizdirilsa, u rezol smola aylanadi.

Rezol smolalar. Polikondensatlash uchun fenolga qaraganda formaldegid mo'lroq olinsa, rezol smola hosil bo'ladi. Reaksiya fenol va formaldegidning suvdagi eritmasini ishqor yoki kislotalar ishtirokida isitilganda sodir bo'ladi. Hosil bo'lgan smola suvda erimasligi tufayli tez ajralib chiqadi. Odatda, polikondensatlanishga 7 mol formaldegid va 6 mol fenol, katalizator sifatida esa ammiak olinadi. Agar katalizator sifatida o'yuvchi natriy yoki o'yuvchi kaly olinsa va reaksiya 55-65°C da olib borilsa, smola tarkibida formaldegid ko'proq bo'ladi.

Polikondensatlanishning natijasida quyidagi birikma hosil bo'ladi:




Rezol smola tarkibida metilen boshqalar bilan bir qatorda dimetilene-fir bog'lari, erkin fenol, gidroksil va metilol guruqlar ham bo'ladi.

Rezitol smolalar. Rezol smola uy temperaturasida qanchalik uzoq saqlanmasin, uning eruvchanligi, ya'ni undagi metilol guruhlarning miqdori deyarli o'zgarmaydi. Agar smola qizdirilsa, metilol guruqlar fenol yadrosidagi vodorod atomlari bilan o'zaro ta'sir etib, rezol rezitolga aylanadi. Rezitol yarim tiniq, rangli, qovushqoq modda bo'lib, issiq holda

tolaga o'xshab cho'ziladi. Sovigan rezitol juda mo'rt bo'lib, osonlik bilan maydalaniб ketadi.

Rezit smolalar. Rezol yoki rezitol smolalar 180-200°C da qizdirilsa, ular suyuqlanish va erish qobiliyatini yo'qotib, qotib qoladi. Bunda smola tarkibidan ancha suv ajralib chiqadi va metilol guruhlarning miqdori kamayadi, rezit tarkibida oddiy efir bog'lari rezitoldagiga nisbatan ko'proq bo'ladi. Rezit formulasi quyidagicha ifodalanadi:



Rezit smola ham reaksiyaga olingan fenol va formaldegidning nisbiy miqdori, katalizatorning tabiatи va qotish sharoitiga qarab turlicha bo'ladi. Bosim fenol va 7 qism formaldegiddan 1 foiz ammiak katalizatorligida hosil qilingan rezit bakelit deb ataladi.

Karbolit deb ataluvchi rezit shunday tayyorlanadi: oldin 7 mol fenol va 6 mol formaldegid 0,5 foiz rux asetat ishtirokida isitiladi. So'ngra unga bakelitdagи miqdorga yetguncha yana formaldegid qo'shiladi va sulfo-kislotalar ta'sirida rezitga aylantiriladi. Karbolit sariq bo'lib, bakelitdan yengilroq va ishqor ta'sirida tezroq o'zgaradi.

10.6-jadval.

Izotrop holdagi rezit smolaning fizik-kimyoviy, mexanik va elektrik xossalari

O'rtacha molekulyar massasi, birinchi bosqichda	1500
Zichligi, g/sm ³	1,25-1,30
Shishalanish temperaturasi, °C	40-50
Parchalanish temperaturasi, °C	<200
Mo'rtlanish temperaturasi, °C	20
Issiqbardoshligi, Martens bo'yicha, °C	110-120



Cho'zilishga mustahkamligi, kg/sm ²	500-600
Nisbiy cho'ziluvchanligi, %	10-20
Qoldiq cho'ziluvchanligi, %	5-10
Elastiklik moduli, kg/sm ²	5000-6000
Qattiqligi, Brinel bo'yicha, kg/sm ²	45-50
Dielektrik doimiysi	4,5-5,5
Dielektrik isroflar burchak tengensi	0,06-0,1

Rezitlardan asosan plastmassalar olinib, ulardan sanoatda va turmushda turli buyumlar yasaladi. Rezitlardan mashinalarning turli qismlari, idishlar, elektr asboblari ham yasaladi, chunki rezitlar qattiq va mustahkam bo'lib, elektr tokini yomon o'tkazadi.



Karbamid (mochevinafomaldegid) smolasi. Karbamid smolasi formaldegid bilan karbamid (mochevinan)ning suvdagi aralashmalarini kislotali yoki ishqoriy muhitda kondensatlanishi natijasida hosil bo'ladi.

Sanoatda mochevinan asosan ammiakka karbonat angidrid biriktirish bilan olinadi. Reaksiya avtoklavda 130°C da bosim ostida olib boriladi. Mochevinan karbonat kislotaning diamididir. U oddiy sharoitda rangsiz kristall bo'lib, 133°C da suyuqlanadi. Smolaning ikkinchi komponenti – formaldegid oddiy temperaturada gaz bo'lib, -20°C da suyuqlanadi va 92°C da kristallanadi. Hosil bo'lgan smolaning tarkibi va xossalari reaksiya uchun olingan formaldegid va mochevinanining miqdoriy nisbatiga hamda kondensatlanish sharoitiga bog'liq.

Odatda smola uch bosqichda hosil bo'ladi. Kondensatlanish neytral yoki kuchsiz ishqoriy sharoitda 40°C da boshlanib, birinchi bosqichda suv va spirtda eriydigan kristall mono- va dimetilolmochevinan hosil bo'ladi:



Bu reaksiyada 1 mol mochevinanaga 2 mol formaldegid olinadi. Reaksiyaning ikkinchi bosqichida pH=5,5 bo'lib, temperatura 75-80°C dan past bo'lmasligi shart. Bunday sharoitda birinchi bosqichda hosil bo'lgan mono- va dimetilolmochevinan o'zaro kondensatlanib, suvda eriydigan temoreaktiv smola hosil bo'ladi:



Amalda reaksiya natijasida molekulyar massasi 1000 dan kam bo‘lgan juda ko‘p birikmalar ham hosil bo‘ladi. Ammo hozirgacha kondensatlashda qaysi birikmadan qancha hosil bo‘lishi aniqlangan emas. Reaksiyaning bu bosqichida hosil bo‘lgan smola suvda, spirtda yaxshi eriydi. Tegishli sharoitda u to‘rsimon holatga o‘tib, suyuqlanmaydigan va erimaydigan bo‘lib qoladi.

Mochevinaformaldegid smolasining tiniq va yaxshi sifatli bo‘lishi uchun asosan metilolmochevina hosil bo‘lishi shart. Reaksiyaning ikkinchi bosqichida hosil bo‘lgan termoreaktiv smola suv yoki spirt ishtirokida to‘rsimon holatga o‘tadi. Agar suv yoki spirt ishtirok etmasa, metilenmochevina hosil bo‘ladi. Bu smolaning sifatini yomonlashtiradi. Kondensatlanishning oxirgi bosqichida smola turli katalizatorlar (ammoniy xlorid, oksalat kislota, ammiak va hokazolar) ishtirokida sovuqda suyuqlanmaydigan va erimaydigan qattiq holatga o‘tkaziladi.

Mochevinaformaldegid smolasining ba’zi xossalari 10.6-jadvalda keltirilgan.

10.6-jadval.

Izotrop mochevinaformaldegid smolasining fizik-kimyoviy, mexanik va elektrik xossalari.

O‘rtacha molekulyar massasi birinchi bosqichda	1000-1500
Zichligi, g/sm ³	1,5
Shishalanish temperaturasi, °C	0-20
Parchalanish temperaturasi, °C	<200
Mo‘rtlanish temperaturasi, °C	-30
Issiqbardoshligi, Martens bo‘yicha, °C	100
Cho‘zilishga mustahkamligi, kg/sm ²	600-800
Nisbiy cho‘ziluvchanligi, %	40-50
Qoldiq cho‘ziluvchanligi, %	0-5
Elastiklik moduli, kg/sm ²	5000-6000


Qattiqligi, Brinel buyicha, kg/sm ²	35-40
Dielektrik doimiysi	7,0-8,0
Dielektrik isroflar burchak tangensi	0,03-0,1

Mochevinaformaldegid smolasi tiniq bo'lib, ultrabinafsha nurlar ni yaxshi o'tkazadi. Lekin u quyosh nuri, kislород va suv bug'i ta'siriga barqaror emas. Yuqori temperatura (130-150°C) va yuqori bosimda (300-400 atm) olingen smolada bunday kamchiliklar bo'lmaydi. Hozir mochevinaformaldegid smolasidan asosan turli yelimlar tayyorlanadi. U qipiқ va payraxalarga aralashdirib, yog'och plastiklari olishda ham ko'p ishlatilmoqda.


10.5. Poliefirlar va poliamidlar

Polietilentereftalat $\text{HO}(-\text{CH}_2 - \text{CH}_2 - \text{O} - \text{OC} - \text{C}_6\text{H}_4 - \text{CO} - \text{O} -)_n\text{H}$


Polietilentereftalat tereftal kislotaning dimetil efrini etilenglikol bilan qayta efirlab olinadi. Tereftal kislotasi va etilenglikollar quyidagi usullardan biri bo'yicha sintez qilinadi. Tereftal kislotani alkilbenzollardan olish mumkin. Reaksiyaning birinchi bosqichida *p*-toluol kislotasi, so'ngra esa tereftal kislotasi hosil bo'ladi:



Polietilentereftalatni sintez qilishda tereftal kislotaning dimetil efi ri ishlataladi. Tereftal kislotasi olish paytidagi birinchi bosqichda, ya'ni *p*-toluol kislotasi hosil bo'lgandan so'ng reaksiyon aralashmaga metil spirit qo'shilsa, tereftal kislotanting dimetil eftiri hosil bo'ladi:





Tereftal kislotaning dimetil eftiri oq kristall modda bo'lib, 141°C da suyuqlanadi. Sanoatda etilenglikol asosan, etilendan sintez qilinadi. Buning uchun oldin etilenni xlorli suv bilan qizdirib, etilenxlorigidrin olinadi. So'ngra u suytirilgan ishqor eritmasida isitilsa, etilenglikol hosil bo'ladi:




Etileni katalizator ishtirokida oksidlal, etilen oksidga aylantirish va unga suv biriktirib ham etilenglikol olish mumkin. Bu reaksiya yuqori temperatura va bosim ostida boradi. Etilenglikol rangsiz suyuqlik bo'lib, 197°C da qaynaydi, -150°C da esa qotadi. Tereftal kislota dimetil efrining etilenglikol bilan polikondensatlanishi ikki bosqichda ketadi.

Birinchi bosqichda tereftal kislotaning dietilol hosilasi olinadi. Bu reaksiya 200°C ga yaqin temperaturada sodir bo'ladi va katalizator sifatida qo'rg'oshin oksid, natriy alkogolyat kabi birikmalar ishlataladi:



Jarayonning ikkinchi bosqichida birinchi bosqichda hosil bo'lgan birikma polikondensatlanadi. Bu jarayon yuqori temperaturada vakuumda metall oksidlari katalizatorligida sodir bo'ladi. Natijada molekulyar massasi katta polietilentereftal hosil bo'ladi:



Polikondensatlanishning har ikkala bosqichi ham quyidagicha olib boriladi. Reaktorga katalizator, dimetiltereftalat va undan ikki hissa ortiq etilenglikol solinadi. Oldin aralashmani 195°C da bir necha soat davomida qorishtiriladi. Bu vaqtida hosil bo'lgan metil spirit aralashmadan ajratib olinadi, so'ngra temperaturani 280°C gacha ko'tarib, reaktorda vakuum hosil qilinadi. Bunda reaksiyaga kirishmay qolgan etilenglikol ajralib chiqadi va reaktorda yuqori molekulyar polietilentereftalat qoladi.

Reaktordagi poliefir suyuq holda bo'lib, tiniq va sarg'ish bo'ladi. Suyuqlangan polietilentereftalat sekin-asta sovutilsa, u kristallannadi. Uning ba'zi xossalari 10.7-jadvalda keltirilgan.

Polietilentereftalat asosan tola shaklida ishlataladi. Polietilentereftalat pardalar boshqa pardalarga nisbatan 7-8 marta mustahkam va yuqori temperatura hamda quyosh nuri ta'siriga chidamli, elektr tokini juda yorlon o'tkazishi tufayli turli xil lentalar, kondensatorlar, fotoplyonkalar va boshqa buyumlar tayyorlashda ko'p ishlataladi.

Izotrop holdagi polietilentereftalatning fizik-kimyoviy, mexanik va elektrik xossalari.

O'rtacha molekulyar massasi	20000-50000
Kristallarning suyuqlanish temperaturasi, °C	95-100
Zichligi, g/sm ²	1,39
Suyuqlanish temperaturasi, °C	260-270
Shishalanish temperaturasi, °C	100-110
Parchalanish temperaturasi, °C	<300
Mo'rtlanish temperaturasi, °C	-60
Issiqbardoshligi, Maptens bo'yicha, °C	250
Cho'zilishga mustahkamligi, kg/sm ²	1750
Nisbiy cho'ziluvchanligi, %	50-70
Elastiklik moduli, kg/sm ²	30000-35000
Qattiqligi, Brinel bo'yicha, kg/sm ²	40-50
Dielektrik doimisi	3,1-3,2
Dielektrik isroflar burchak tangensi	0,003

Poliamid polimerlar. Poligeksametilenadipinamid geksametilendiamin bilan adipin kislötaning o'zarो ta'siridan olinadi. Uni birinchi marta 1936-yilda Karozers olgan. Geksametilendiamin amalda quyidagi usullar bilan olinadi:

a) oldin adipin kislota dinitrili olinadi, so'ngra u qaytarilsa, geksametilendiamin hosil bo'ladi.

b) furfuoldan tetragidrofuran olinadi va u xlorlansa, 1,4-dixlorbutan hosil bo'ladi. 1,4-dixlorbutan yuqoridagi usullar bilan adipin kislota dinitriliga va so'ngra geksametilendiaminga aylantiriladi.

Geksametilendiamin oddiy sharoitda och binafsha rangli kristall, 40°C da suyuqlanadi va 205°C da qaynaydi. Adipin kislota quyidagi usullar bilan sintez qilinadi:



a) fenololdin siklogeksanolgacha qaytariladi, keyin kislород vositasida siklogeksanongacha, so'ngra esa nitratkislota vositasida adipin kislötagacha oksidlanadi.

b) tetragidrofuranga ikki molekula uglerod (IV)-oksid biriktirilsa ham adipin kislota hosil bo'ladi.

Geksametilendiamin bilan adipin kislotaling o'zaro polikondensatlanishi natijasida poligeksametenadipinamid hosil bo'ladi. Buning uchun oldin kislota va diamindan tuz olinadi. Bu tuz AG tuzi ham deyiladi. AG tuzi adipin kislota va geksametilendiaminning ekvimolekulyar nisbatdagi aralashmasini metil spirtda qaynatish bilan hosil qilinadi. AG tuzi asosida polimer olish uchun oldin uning suvdagi 50-60 foizli eritmasi tayyorlanadi. Eritmaga stabilizator sifatida 0,2-0,5 foiz sirkal kislota yoki adipin kislota ham qo'shish zarur.

Bu aralashma bosim ostida 260-280°C gacha qizdiriladi, reaksiya vaqtida hosil bo'lgan suv bug'lari haydab turiladi. Suv bug'lari tamom bo'lgach, sistema oldin oddiy bosimda, so'ngra esa vakuumda qizdiriladi.

Reaksiyaning birinchi bosqichida AG tuzining polikondensatlanishi natijasida quyi molekulyar poliamid hosil bo'ladi. U vakuumda qizdirilganda esa yuqori molekulyar massaga ega bo'lgan polimer hosil bo'ladi:



Poligeksametenadipinamid rangsiz tiniq modda bo'lib, ko'p organik erituvchilar va ishqor eritmasi ta'siriga yaxshi bardosh beradi. Ammo kuchli kislotalarda oddiy temperaturada erib, temperatura ortishi bilan gidrolizga uchraydi. Poligeksametenadipinamid juda pishiq bo'lib, dielektrik xossaga ega. U oson kristallanishi, issiqqa chidamliligi va suyuqlanish temperaturasi jihatidan boshqa poliamidlarga nisbatan archa yuqori turadi.

Poligeksametenadipinamidning ba'zi xossalari 10.8-jadvalda keltirilgan.

10.8-jadval.

Izotrop poligeksametenadipinamidning fizik-kimyoviy, mexanik va elektrik xossalari.

O'rtacha molekulyar massasi	15000-25000
Kristallarining suyuqlanish temperaturasi, °C	260-265
Zichligi, g/sm ³	1,14
Suyuqlanish temperaturasi, °C	260-270
Shishalarish temperaturasi, °C	30

Parchalanish temperaturasi, °C	<300
Mo'rtlanish temperaturasi, °C	-30
Issiqbardoshligi, Martens bo'yicha, °C	55-60
Cho'zilishga mustahkamligi, kg/sm ²	800
Nisbiy cho'ziluvchanligi, %	800-100
Qoldiq cho'ziluvchanligi, %	40-60
Elastiklik moduli, kg/sm ²	30000
Qattiqligi, Brinel bo'yicha, kg/sm ²	670-700
Dielektrik doimiysi	4,6
Dielektrik isroflar burchak tangensi	0,04

Bu xossalardan tashqari poligeksametenadipinamid ishqalanishga, chirituvchi bakteriyalar va kuya ta'siriga barqaror bo'lib, o'zining pishiqligini suv ta'sirida yo'qotmaydi. Poligeksametenadipinamidning bu xossalari undan sintetik tola olish imkoniyatini beradi. Shuning uchun poligeksametenadipinamiddan sanoatda asosan tola olinadi. Undan olinigan tola turli mamlakatlarda turlicha ataladi, masalan, naylon 66, naylon 10, anid, perlon, igamid A.

Poligeksametenadipinamiddan har xil qalinlikdagi pardalar ham olinadi. Bu pardalar ultrabinafsha nurlarni yaxshi o'tkazganliklari tufayli parniklarda oyna sifatida hamda sun'iy charm, kinolentalar sifatida ishlatalmoqda.

Poligeksametenadipinamiddan olingan lak, yelim va pardalar metallarga yaxshi yopishadi va turli mikroblar ta'siriga barqaror bo'ladi. Shuning uchun ulardan elektrsimsilar, kabellar, sun'iy teri va quvurlarni chiringdan saqlashda foydalaniлади.

Poligeksametenadipinamiddan mashinalarning turli detallari, meditsina asboblari, samolyot va avtomashinalarning ba'zi qismlari kabi texnikada zarur buyumlar ham tayyorlanadi.

Poli-ε-kaprolaktam $H[-NH(CH_2)_5CO -]_nOH$ Poli-ε-kaprolaktamni birinchi marta 1889-yilda Gabriel va Meos ε-aminokapron kislotadan sintez qildi. Bu poliamidning monomeri ε-kaprolaktam amalda quyidagi usullar bilan olinadi. Fenolni gidridlab siklogeksanolga aylantiriladi. Siklogeksanolni esa oksidlab, siklogeksanon olinadi va unga gidroksilamin biriktiriladi. Bunda siklogeksanonoksim hosil bo'ladi. Siklogeksanonoksim esa sulfat kislota ta'sirida ε-kaprolaktamga aylanadi.

Bu poliamid tiniq, rangsiz granula yoki lenta shaklida bo‘ladi. Poli- ϵ -kaprolaktamning ba’zi xossalari 10.9.-jadvalda keltirilgan.

10.9-jadval.

Izotrop polikaprolaktamning fizik-kimyoviy, mexanik va elektrik xossalari.

O’rtacha molekulyar massasi	15000-25000
Kristallarining suyuqlanish temperaturasi, °C	220-225
Zichligi, g/sm ³	1,13
Suyuqlanish temperaturasi, °C	230-250
Shishalanish temperaturasi, °C	10
Parchalanish temperaturasi, °C	<250
Mo’rtlanish temperaturasi, °C	-20
Issiqbardoshligi, Martens bo'yicha, °C	40-50
Cho'zilishga mustahkamligi, kg/sm ²	150-400
Nisbiy cho'ziluvchanligi, %	100-300
Qoldiq cho'ziluvchanligi, %	5000-8000
Elastiklik moduli, kg/sm ²	300-320
Qattiqligi, Brinel bo'yicha, kg/sm ²	3,6
Dielektrik doimiysi	0,02-0,03

Poli- ϵ -kaprolaktamning mexanik xossalari yuqorida ko‘rib o‘tilgan boshqa poliamidlarning xossalariiga o‘xshaydi. U ham ko‘pchilik organik moddalarida, ishqor eritmalarida erimaydi.

Poli- ϵ -kaprolaktam ham asosan tola sifatida ishlataladi. Bundan tashqari poliamid parda, yelim va laklar tayyorlashda, mashinasozlik sanoatida metallar o‘rnida, radio-texnikada, tibbiyot va jarroxlikda, samolyot va avtomashina sanoatida va kundalik turmushimizda juda ko‘p ishlatalmoqda.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Tabiiy charm nimalardan olinadi?
2. Charmga maxsus ishlov berganda teriga qanaqa xususiyatlar beradi?
3. Qanaqa terilar bilan teri oshlanadi?

4. Mereya deb nimaga aytildi?
5. Pardozlash usuliga va hosil bo‘lgan sirtga qarab charmlar necha xillarga bo‘linadi?
6. Kiyimlik tabiiy charm assortimenti nimalarni o‘z ichiga oladi?
7. Tabiiy mo‘yna nima?
8. Teri tuzilishi nimalardan iborat?
9. Tuk qatlami necha tipdagi tuklardan iborat?
10. Teri to‘qimasi nimadan iborat?
11. Jun qatlaming asosiy sifat ko‘rsatkichlari nimalardan iborat?
12. Mo‘ynaning xossalarni birma-bir ta’riflang?
13. Oshlangan terilarga qo‘yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?
14. Momiq mo‘yna terilar assortimentiga nimalar kiradi?
15. Poliakrilonitrilni sintez qilish maqsadida qaysi moddalardan foydalanildi?
16. Yuqori, o‘rtacha va quyi bosim ostida sintez qilingan polietilen polimerlari bir-biridan qanday farqlanadi?
17. Poliakrilonitril qanday fizik va mexanik xossalarga ega bo‘ladi?
18. Polietilenden olinadigan mahsulotlar qanday yuqori afzalliklarga ega bo‘ladi?
19. Poliefirlar va poliamidlarning xossalari asosan ularning qaysi xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi?
20. Amid guruhidagi vodorod atomlarini sekin-asta alkil radikallarga almashtirish bilan ularni qanday holatga o‘tkazish mumkin bo‘ladi?
21. Vinilxlorid asosan qaysi usullar bilan olinadi?
22. Polimerlash uchun ishlataladigan vinilxloridni qanday holatda saqlash kerak?
23. Polivinilxlorid qanday fizik va mexanik xossalarga ega bo‘ladi?
24. Polivinilxloriddan sanoatda qo‘llaniladigan qanday mahsulotlar ishlab chiqariladi?

11.1. Plastmassalar haqida tushuncha. Plastmassalarning tarkibi va turlari

Plastik massalar yoki plastmassalar tarkibida asosiy bog'lovchi moddasi biror polimer hamda qo'shimchalardan iborat aralashmadir. Qo'shimchalar sifatida to'ldiruvchilar, barqarorlashtiruvchilar, plastifikatorlar, bo'yoqlar va boshqa moddalar bo'lishi mumkin. Plastmassa termini XIX asrning oxirlarida paydo bo'ldi. Odatdagi sharoitda qattiq shishasimon yoki kristall holatda bo'ladi.

Polimer komponentning turi, olish va qayta ishlash vaqtida sodir bo'ladijan fizik-kimyoviy jarayonlarning xarakteriga ko'ra plastmassalar prinsipial farqlanuvchi ikki xil turga bo'linadi: termoplastik plastmassalar yoki termoplastlar va termoreaktiv plastmassalar yoki reaktoplastlar. Plastmassalar orasida termoplastlarning salmog'i ko'proq. Termoplastlar chiziqli va tarmoqlangan polimerlar, sopolimerlar va ularning aralashmlari asosida tayyorlanadi, isitilganda suyuqlanadi, sovitilganda yana qattiq holatga o'tadi. Ularni ko'p marta qayta ishlash mumkin. Termoplastlar tayyorlash uchun eng ko'p qayishqoq zanjirli polimerlar, sopolimerlar qo'llaniladi – polietilen, polipropilen, polivinilxlorid, polistirol, polimetilmetakrilat, politetraftoretilen, polivinilasetallar, chiziqli poliamidlar va poliefirlar. Termoplastlarni qayta ishlash oson, suyuqlanish va yumshash temperaturasi past, fizik-kimyoviy va mexanik xossalari keng miqyosda o'zgaradi. Sintez qilish sharoitlari, tarkibi, kimyoviy va fazoviy tuzilishi, kristallik darajasi va sopolimerlarining tarkibini boshqarib, zichligi va suyuqlanish temperaturai, pishiqligi, qattiqligi, elastikligi, issiqbardoshligi, termobarqarorligi, elektr qarshiligi va boshqa xossalari har xil bo'lgan granulasimon yoki kukunsimon termoplastlar olish mumkin.

Reaktoplastlar to'rsimon tuzilishga o'ta oladigan suyuq yoki isitilganda qovushqoq oquvchan holatga o'tuvchi polimerlar va oligomerlar asosida tayyorlanadi. Ular dastlab chiziqli yoki tarmoqlangan tuzilishga ega bo'ladi, yuqori temperaturada qayta ishlash vaqtida o'zaro yoki qotiruvchi modda vositasida makromolekulalararo reaksiyalar natijasida to'rsimon qattiq polimerga aylanadi. Reaktoplastlarni bir marta qayta ishlash mumkin, shundan so'ng ular suyuqlanmaydi va erimaydi. Reaktoplastlar tayyorlash uchun eng ko'p qo'llaniladigan polimerlar – fenolformaldegid smolasi yoki fenoplast, mochevinoformaldegid smolasi yoki aminoplast,

tereftal smolasi, poliimid smolasi, poliuretanlar. Ishlab chiqarish hajmiga ko‘ra fenolformaldegid smolasi asosida tayyorlanadigan fenoplastlar termoreaktiv plastmassalar ichida yetakchi o‘rinni egallaydi. Fenoplastlarning quyidagi turlari ishlab chiqariladi. Tekstolit – fenolformaldegid smolasi shimdirligani va yuqori temperaturada presslangan ip gazlama. Voloknit – fenolformaldegid smolasi shimdirligani paxta va gazlama chiqindilar. Getinaks – fenolformaldegid smolasi shimdirlib presslangan qog‘oz. Shishaplast – fenolformaldegid smolasi shimdirlib presslangan shisha tola yoki shisha mato. Karbolit – fenolformaldegid smolasi shimdirlib presslangan yog‘och qipig‘i. Fenoplastlar mexanik jihatdan pishiqlari, korroziyaga chidamli, yaxshi elektroizolyator.

Reaktoplastlarning termoplastlarga nisbatan afzalligi – bog‘lovchining qovushqoqligi, ho‘llanish va shimdirlilish xossasini kengroq boshqarish imkoniyati, issiqbardoshligi, termobarqarorligi va mexanik mustahkamligining yuqoriyoqligi; kamchiligi esa – yuqori temperaturada qotirish jarayonida ekzotermik effektlar, uchuvchan moddalarining ajralib chiqishi natijasida hajmiy torayishning sodir bo‘lishi, buyum shaklining o‘zgarishi va ularning mo‘rtligidir. Yana reaktoplastlardan buyum tayyorlash vaqtiga va mehnati ko‘proq, qotirishning so‘nggi bosqichlarida qayta shakl berish imkoniyati yo‘q. So‘nggi yillarda tarkibida termoplastik va reaktoplastik yoki elastoplastik polimerlar bo‘g‘inlarini saqlagan termoreaktoplastlar, termoelastoplastlar ishlab chiqarish rivojlanmoqda.

11.2. Plastmassalar tarkibiy qismlarining vazifalari

Plastmassalar tarkibiga kiruvchi va uning asosiy qismini tashkil etuvchi modda polimerdir. Polimer bog‘lovchi, konstruksiya yoki asos hosil qiluvchi, plastmassaning ekspluatatsion xossasini belgilovchi moddadir.

Plastmassalarning ikkinchi komponenti kukunsimon, tolali, pardali yoki to‘qimadan iborat to‘ldiruvchidir. To‘ldiruvchining vazifasi – plastmassa tannarxini kamaytirish va mexanik pishiqligni oshirishdan iborat. To‘ldiruvchi sifatida bor, koalin, kvars, aerosil, tola, ip, gazlama, qog‘oz, yog‘och qipig‘i va boshqa materiallar qo‘llaniladi. Mustahkamlovchi element sifatida gazlama, to‘rsimon mato va trikotajning qo‘llanilishi plastmassaning mustahkamligini ko‘p marta oshiradi. To‘ldiruvchi sifatida gazlarning, masalan havoning qo‘llanilishi yengil va yumshoq fenoplastlarning olinishiga imkon beradi.

Plastifikatorlar va elastiklik beruvchi qo‘srimchalar (suyuq kau-chuklar, oddiy oligofirlar) plastmassa buyumlarining elastikligini (qa-

yishqoqligini) oshirish uchun qo'shiladi. Plastifikator polimerda erishi natijasida gomogen aralashma hosil qilishi va ekspluatatsiya jarayonida ajralib chiqmasligi kerak. Masalan, qoplama materiallar tayyorlash uchun mo'ljallangan PVX-kompozitsiyalarga plastifikator sifatida dibutilftalat yoki dioktiftalat ko'shiladi. Qotiruvchi moddalar reaktoplastlar tarkibiga qo'shiladi va ularning makromolekulalari bilan reaksiyaga kirishib, choklanish sodir bo'ladi, to'rsimon tuzilish hosil bo'ladi va plastmassa qotadi. Masalan, aminoplastlarga qotiruvchi sifatida urotropin, epoksid smolalariga esa di- va poliaminlar qo'shiladi.


Rangli plastmassa tayyorlash uchun tarkibiga bo'yovchi moddalar qo'shiladi. Reaktoplastlarni texnologik xossalarni boshqarish uchun suyuqlantiruvchi yoki quyuqlantiruvchi va moylovchi moddalar qo'shiladi.

11.3. Plastmassalarning xossalari va qo'llanilishi

Termoplast va reaktoplastlarning fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalari polimer, to'ldiruvchi va modifikasiyalovchi qo'shimchalarning turi va miqdoriga ko'ra juda keng chegarada o'zgarishi mumkin. To'ldirilmagan plastmassalarning qisqa vaqtli qayishqoqlik moduli shishasimon amorf namunalar uchun 4 GPa dan shishalanish temperaturasi past bo'lgan kristall namunalar uchun 0,015 GPa gacha o'zgarishi mumkin, cho'zilishdagi mustahkamligi esa mos ravishda 150-200 MPa dan 10 MPa gacha o'zgaradi. To'ldirilmagan plastmassalarning zichligi 0,85-1,50 g/sm³ oralig'ida bo'ladi, faqat ftoroplastlar uchun bu qiymat 2,3 g/sm³ gacha yetishi mumkin. Plastmassalarning dielektrik va issiqlik-fizik xossalari ham keng miqyosda o'zgaradi. Plastmassalarga to'ldiruvchi qo'shilganda ularning xossalari keskin o'zgaradi. Yengil va yumshoq fenoplastlardan mustahkamlik xossalari bo'yicha konstruksion metallardan ham ustun bo'ladigan bor, shisha, organoplastiklarga olish mumkin.

Plastmassalarning asosiy afzalliklari – xomashyoning yetarli miqdorda borligi, oson, yuqori samarador, kam energiya sarflovlchi, chiqindisiz usullar bilan qayta ishlash mumkinligi, murakkab shaklli va hajmdor tayyor va yarim mahsulotlar ishlab chiqarish mumkinligi, zichligi kichikligi, agressiv muhit, vibrasiya va zarba ta'siri, radiatsion nurlanish va atmosfera ta'siriga chidamliligi, yuqori optik va dielektrik xossalari, rang berishning osonligi. Plastmassalarning kamchiliklari – destruksiyaga moyilligi, yonuvchanligi, katta kengayish koeffisienti, issiqbardoshligi va termobarqarorligining pastligi, kuch ta'sirida siljish, relaksatsiya qo'mayilligi va yorilishi.


Plastmassalarni konstruksion, himoyalovchi, elektrotexnik, dekorativ, friksion va antifriksion maqsadlarda sanoat, qurilish va qishloq xo‘jaliqning barcha sohalarida qo‘llaniladi (11.1-rasm). Plastmassalar ishlab chiqaruvchi zamonaviy sanoat turli xildagi bog‘lovchi va to‘ldiruvchilar kiritilgan materiallarning keng assortimentiga ega. Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha plastmassalar ishlab chiqarish sur’atlari metallar ishlab chiqarishdan yuqoridir.



11.1-rasm. Plasrmassalarning turli sohalarda ishlatalishi.

11.4. Termoplastik plastmassalarni qayta ishlash usullari

Hozirgi vaqtida plastmassa buyumlar turli-tuman usullar bilan ishlab chiqarilmoqda. Bunda mahsulotlar ishlab chiqarish usuli polimerning turi, uning dastlabki holati hamda buyumning konfiguratsiyasi va o‘lchamlari bilan belgilanadi. Termoplastik plastmassalar quyidagi usullar bilan qayta ishlanadi: bosim ostida quyish, ekstruderlash, kalandrlash, vakuumda va pnevmo qoliplash, puplash, purkash va boshqalar. Bosim ostida quyish termoplast avtomatlarda amalga oshiriladi (11.2-rasm). Granulasimon yoki kukunsimon xomashyo aggregatning bunkeri orqali qizdiriluvchi ishchi silindrga tushib suyuqlanadi, puansonning aylanma va ilgarilama harakati tufayli quyish kanaliga yetkaziladi, suyuqlanma bosim bilan pressformaga to‘ldiriladi va sovuqda qotib, buyum sifatida shakllanadi, pressformadan chiqarib olinadi.




11.2-rasm. Plastmassalarni bosim ostida quyishqurilmalari.


Ekstruderlash usuli bilan polimer pardalar, quvurlar ishlab chiqariladi. Termoplast suyuqlanmasi ekstruderning tirkishidan uzlusiz siqib chiqariladi, mahsulot havoda yoki suvda sovitiladi va kerakli uzunlikda kesib olinadi (11.3-rasm).

Kalandrlash usulida yuqori elastik holatdagi polimer gorizontal yoki vertikal joylashgan bir nechta vallar orasidan tortib o'tkaziladi, qalin parda yoki qatlamlı material shakllantiriladi va rulonlarga o'raladi.

Shisha plastiklardan katta o'lchamli buyumlar kontakt shakllantirish usuli bilan, kichik o'lchamli buyumlar esa presslash usuli bilan tayyorlanadi. Vakuum va pnevmoqoliplash usullari bilan tekis yarimmahsulotdan relyefli va devorlari uncha qalin bo'limgan buyumlar tayyorlanadi. Hajmli buyumlar (suyuqlik idishlari) polimerning naysimon suyuqlanmasini puflash usuli bilan ishlab chiqariladi.



*11.3-rasm.
Ekstruderlash usuli
bilan polietilen
parda (plyonka) olish.*



11.4-rasm. Termoplastik polimerlardan buyum tayyorlash usullari klassifikatsiyasi.

Plastmassalarni qayta ishlash usullarining ko‘pligi qandaydir sinflashni taqozo etadi. Turli usullarni guruhlarga birlashtirishning to‘g‘ri yo‘lini Mak-Kelvi taklif etgan. Unga ko‘ra qayta ishslash jarayonida faqat fizik hodisalar ro‘y beradigan usullar birinchi guruhga, kimyoviy reaksiyalar natijasida mahsulot shakllanadigan usullar ikkinchi guruhga, jarayonda ham fizik, ham kimyoviy o‘zgarishlar sodir bo‘ladigan usullar uchinchi guruhga birlashtirilgan. Tahminan shunday yondashuv bilan sinflanishni Van-Krevelen taklif etgan, u qo‘srimcha ravishda polimerning dastlabki holatini (eritma, suyuqlanma yoki qattiq modda) hisobga olgan. Lekin Van-Krevelen taklif etgan sinflash usuli fenoplastlar, mustahkamlangan kompozitsion polimer materiallar va reaktoplastlar ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olmagan (11.4-rasm).


Mak-Kelvining texnologik jarayonlarni guruhlash prinsipidan foydalaniib, Van-Krevelen sxemasi bilan kengaytirib, mavjud barcha usullarni dastlabki polimerning holati, tarkibi, buyum shakllanishida sodir bo‘ladigan fizik-kimyoviy jarayonlarni hisobga olib sinflash mumkin (11.4-rasm).

11.5. Termoreaktiv plastmassalarni qayta ishlash usullari


Reaktoplastlar asosan issiqda presslash usuli bilan qayta ishlanadi. Ma’lum hisoblangan massadagi xomashyo issiq qolipga joylashtiriladi va bosim ostida birnecha daqqaq ushlab turiladi, to‘liq qotgandan so‘ng qolipdan chiqarib olinadi. Termoreaktiv materiallar bosim ostida qoliplash, kontakt shakllantirish, bosim ostida qatlamlı presslash usullari bilan ham ishlab chiqariladi. Termoreaktiv materiallarni qayta ishlash usullari ham shu tarzda sinflarga ajratilishi mumkin (11.5-rasm).

Reaktoplastlarni qayta ishlashda ko‘proq qaynoq preslash usuli qo‘llaniladi (11.6-rasm).

Qaynoq preslash qurilmasining matrisasi harakatlanmaydi. Puanson esa gidravlik bosim bilan pastga harakatlanadi. Har ikkalasi yuqori temperaturaga ega. Ular orasida joylashgan termoreaktiv plastmassa yuqori temperaturada 2-4 minut ichida avval syuyqlanadi, so‘ngra qotadi.



11.5-rasm. Termoreaktiv polimerlardan buyum tayyorlash usullari klassifikatsiyasi.



11.6-rasm. Reaktoplastdan qaynoq preslash usuli bilan buyum tayyorlash.


Nazorat savollari va topshiriqlar.

1. Plastmassalarning turlari va ularning farqlanuvchi jihatlari.
2. Penoplastlarning qanday turlarini bilasiz?
3. Termoplastlar qanday polimerlar asosida tayyorlanadi?
4. Reaktolastlar qanday polimerlar asosida tayyorlanadi?
5. Reaktoplastlarning termoplastlarga nisbatan afzalligi va kamchiligi.
6. Plastmassa tarikibiga kiruvchi polimer, to'ldiruvchi, barqarorlashtiruvchi va plastifikatorning vazifasi.
7. Havo plastmassalarning to'ldiruvchisi sifatida bo'lishi mumkinmi? Qanday hollarda?
8. Termoplastik va termoreaktiv plastmassalarni qayta ishlashning qanday usullarini bilasiz?
9. Bosim ostida quyish usulining mohiyati va qurilmaning ishlash prinsipi qanday?
10. Ekstruderlash usulining mohiyati va qurilmaning ishlash prinsipi qanday?
11. Kalandrlash usulining mohiyati va qurilmaning ishlash prinsipi qanday?
12. Pnevmo va vakuum qoliplash usulining mohiyati va qurilmaning ishlash prinsipi qanday?
13. Qaynoq preslash usulining mohiyati va qurilmaning ishlash prinsipi qanday?
14. Plastmassalarni qayta ishlash usullarini sinflashning Mak-Kelvi va Van-Krevelen sxemasi izohlang.
15. To'qimachilik va qog'oz texnologiyalarida polimerlarning ahamiyati.


12.1. Tabiiy kauchukning tarkibi va tuzilishi, xossalari

Tabiiy kauchukning kimyoviy tuzilishini, asosan, Garriyes o'rgangan bo'lib, izopren molekulalaridan tashkil topganligi aniqlangan. Buning uchun kauchuk ozonlash reaksiyasiga uchratilgan, so'ngra hosil bo'lган modda parchalanganda izopren oksidlanishi natijasida hosil bo'ladigan levulin aldegidi olingan.

Tabiiy kauchuk izopren polimeri hisoblanadi. Kauchuk molekulasi hosil bo'lishida izopren quyidagicha tuzilgan polimer zanjiriga birikadi:



Kauchuk molekulasi chiziqli tuzilishga ega. Tabiiy kauchukdagi metilen guruhlari- CH_2 -qo'shbog'dan bir tarafda joylashib, sis-holatdagi stereoregular tuzilishdagi molekulalar hosil qiladi:



Kauchuk molekulalari kuchli darajada egilgan, buralgan holda bo'la-di, kauchuk cho'zilganda molekulalar to'g'rilanadi va kauchuk namunasi uzunlashadi. Molekulaga ta'sir to'xtatilsa, ichki issiqlik harakati natijasi-da bo'g'inlar dastlabki buklama holatiga qaytadi, kauchuk o'chamlari qisqaradi.

Tabiiy kauchuk tropik mamlakatlarda o'sadigan ba'zi daraxtlarning sutsimon shirasi *lateksdan* olinadi. Masalan, Janubiy Amerikada o'sadi-gan gevoya (12.1-rasm), gvaulla daraxtlari va Markaziy Osiyoda o'sadi-gan ko'k sag'iz, tog' sag'izi o'simliklari ana shunday daraxtlar jumlasiga kiradi. Janubiy amerikaliklar gevoya daraxtining shirasini – "kaocho" daraxtning "ko'z yoshi" deganlar, shundan kauchuk nomi kelib chiqqan.

Lateks – kauchukning suvdagi kolloid eritmasi. Qizdirilganda yoki kislotalar ta'sir ettirilganda lateks koagullashadi, uni suyuqlikdan ajratiladi va quritiladi. Kauchuk uglerod (IV)-sulfidda, benzin, benzolda eriydi. Kauchukning muhim xususiyati uning elastikligi va suv o'tkazmasligida.



12.1-rasm. Gevea daraxtidan kauchuk olish.


Olingen lateks qayta ishlanib, xom – texnik kauchuk hosil qilinadi. Uning tarkibida 93-94% kauchuk, 2,4-2,9% oqsil, 0,3% kul, 0,3% qand moddalari va 2,5-3% smola bor. Toza tabiiy kauchuk yuqori molekulali to‘yinmagan uglevodorod, tarkibi $(C_5H_8)_n$ molekulyar massasi 150 mingdan 500 minggacha boradi, zanjirining uzunligi 10000-40000 Å, ko‘ndalang kesimi 1,5-3 Å gacha. Tabiiy kauchuk molekulasingin bu kataligi va shakli uning eng muhim xususiyati elastikligini ko‘rsatadi. Tabiiy kauchuk yog‘ va aromatik uglevodorodlarda va ularning hosilalarida, masalan, benzin, benzol, xloroformlarda erib, yopishqoq eritma yelim hosil qiladi.

Tabiiy kauchuk to‘yinmagan birikma bo‘lgani uchun vodorod, galogenlar, oltingugurt va kislorod bilan reaksiyaga kirishadi. Natijada uning eruvchanligi, mustahkamligi, elastikligi va boshqa fizik, mexanik xossalari o‘zgaradi. Xom kauchuk oltingugurt bilan reaksiyaga kirishib yuqori sifatlari rezinaga aylanadi. Tabiiy kauchuk, odatda, amorf holatda bo‘ladi, lekin vaqt o‘tishi bilan kristallanishi mumkin. Yuqori elastikligi, suv va gaz o‘tkazmasligi, elektroizolyatsion xususiyati va yemiruvchi muhitlarga chidamliligi tufayli kauchuk texnika va turmushda ko‘p ishlatiladi. Indoneziya, Malayziya, Tailand, Hindiston, Xitoy, Shri Lanka va Vyetnamda tabiiy kauchuk ko‘p ishlab chiqariladi.

12.2. Sintetik kauchuklarning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, olinishi va xossalari

Sintetik kauchuklarning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalari tabiiy kauchuknikidan tubdan farqlanishi mumkin. Shuning uchun ham ba'zi sintetik kauchuklarning xossalari tabiiy kauchuknikidan afzaldir. Masalan, kauchuk sintez qilinganda uni sovuqqa chidamli, gaz o'tkazmaydigan, benzin hamda yog' ta'siriga chidamli qilish mumkin.

Sanoat miqyosida sintetik kauchuk dastlab 1923-yilda S.V. Lebedev usuli bilan olingan. U divinilni polimerlab olinadi. Katalizator (natriy metali) ishtirokida boradigan polimerlanish jarayonini ushbu sxema bilan ifodalash mumkin.



butadien 1,3 sintetik butadien kauchuk

(polibutadien)

Dunyo miqyosida ishlab chiqariladigan sintetik kauchuklar va ular asosidagi rezinaning 50% dan ortig'i shina ishlab chiqarishga sarflanadi. Rezina keng temperatura oralig'ida elastikligi, amortizatsiya xususiyati, ishqalanishga chidamliligi, suv va gazni kam o'tkazishi va boshqa xossalariiga ko'ra konstruksion material sifatida turli sohalarda keng qo'llaniladi. Tabiiy va sintetik xillarga bo'linadi.


Sintetik kauchuk – sun'iy yo'l bilan rezina olinadigan yuqori polimer material (elastomer). Sintetik kauchuk turli birikmalarni polimerlab va sopolimerlab olinadi. Suyuq kauchuklar, ularning suvdagi dispersiyasi (sintetik latekslar), shuningdek, polimerlanish jarayonida yog', qorakuya va b. to'ldiruvchilar qo'llab olinadigan kauchuk ham sintetik kauchukdir. Ba'zi sintetik kauchuklarni olishda uglevodorodlarning bifunksional hoslalarini polikondensatlash usuli qo'llaniladi.

Sintetik kauchuk olish 2 asosiy jarayon: monomer (kauchogen)lar tayyorlash va ularni polimerlash yoki polikondensatlashdan iborat. Butadien, stirol, izopren, xloropren, izobutilen, akrilonitril (vinil sianid) va boshqa kauchogenlar sifatida ishlatiladi. Kauchogenlarning o'zi esa neft krekingi gazi, tabiiy va yo'lakay gazlar, etil spirtidan olinadi. Kauchogenlarni polimerlash jarayonida monomerlar katalizator (masalan, natriy metali) ishtirokida (monomerning o'zi yoki eritmasi, suvli emulsiyasi) qizdiriladi. Polimerlashda emulsiya polimer suspenziyaga, ya'ni sintetik lateksga aylangach, koagulyatsiyalanadi. Ajralib chiqqan kauchuk yuvib

quritiladi. Hozirda sintetik kauchukning 20 ga yaqin turi ishlab chiqariladi. Bulardan butadien kauchuk, butadien-nitril-akril kauchuk, butil kau-chukning sanoatdag'i ahamiyati katta. Sintetik kauchukning ko'p turlari tabiiy kauchuk singari vulkanizatsiyalanib, yuqori elastik yoki qattiq materialga aylanadi. Asosi kremniy, uglerod, kislorod atomlari zanjiridan iborat. Kauchukka o'xshash elastik materiallar (issiqqa chidamli silikon kauchuk) yoki uglerod va oltingugurt atomlaridan iborat polisulfid kau-chuk, polifosfonitrilxlorid, polidixlorfosfezen va ayrim polixlorvinil smo-lalar ham sintetik kauchukka kiradi. Sintetik kauchuk yog' va b. organik moddalarga (masalan, butadien - nitril kauchuklar), issiq va sovuqqa (ma-salan, kremniy organik kauchuklar) chidamli bo'lishi kerak.


Ba'zi sintetik kauchuklar texnik xossalari (masalan, issiqqa, erituvchi-larga, yemiruvchi muhitlarga va ishqlanishga, yorug'lik va ozon ta'siriga chidamliligi, gaz o'tkazmasligi va b.)ga ko'ra, tabiiy kauchukdan afzal. Sintetik kauchuklardan 50 mingga yaqin nomda mahsulotlar ishlab chiqariladi. Birinchi sintetik kauchukni 1879-yil G.Busharda (Fransiya) olgan; sanoat miqyosida ishlab chiqarishni S.V.Lebedev (Rossiya) 1932-yilda yo'lga qo'ydi. Sintetik kauchuk olish iqlim va geografik sharoitlarga bog'liq bo'l maganaligi, mehnat unumdarligining yuqoriligi va arzon xo-mashyo bazasining mavjudligi tufayli katta iqtisodiy foyda beradi. Kau-chuk shina, amortizatorlar, yelimlar, sanitariya-gigiyena mahsulotlari va b. ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Juhon miqyosida har yili 16,5 mln.tonna kauchuk (4,5 mln.tonna tabiiy va 12 mln.tonna sintetik kauchuk) ishlab chiqariladi. Kauchuk xalq xo'jaligidagi katta ahamiyatga ega, uni avtomo-bil, aviatsiya, elekrotexnika sanoatida, tibbiyotda keng qo'llaniladi.

Butadien kauchugining tuzilishi stereonoizchil bo'lganligi, tarkibida 1-4 birikish bilan bir qatorda 1-2 birikish ham uchrashligi tufayli uning xossalari tabiiy kauchuknidan yomonroq. Keyinchalik Sigler-Natta katalizatorlari yordamida sintez qilingan divinil kauchugi stereoisochil tu-zilishi, faqat sis-izomerlardan iborat:



Divinil kauchukning xossalari, masalan, yedirilishga chidamliligi, elastikligi, tabiiy kauchuknidan ham yaxshi.


Butadien-stirol kauchuk – butadien-1,3 ni stirol bilan emulsion poli-merlanish orqali olinadi.



Bu kauchuk yuqori mustahkamligi, gaz o'tkazmasligi bilan ajralib turadi. Avtomobil shinalari uchun protektorlar, kabellar ishlab chiqarishda va oyoq kiyim sanoatida ham ishlatiladi. Undan sanitariya va gigiena predmetlari olinadi. Kamchiligi yog'larga va organik erituvchilarga chidamsiz.

Butadien-nitril kauchugi butadien-1,3 va akrilonitrilning polimerlanish reaksiyasi orqali olinadi. U yog'ga, benzinga va yuqori temperaturaga chidamliligi bilan ajralib turadi. Lateks ko'rinishda qog'oz ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Xloropren kauchuk – xloroprenni emulsion polimerlanishi orqali olinadi.



Xloropren kauchugi yuqori temperaturaga, benzin va yog'ta'siriga chidamli. U kabel ishlab chiqarishda, benzin va neftni haydovchi trubalar olishda ishlatiladi.


Kauchuk – plastik material. Kauchuk – yuqori elastik mahsulot, juda kichik kuch ta'sirida qaytar deformatsiyaga uchrab, 100 % cho'zilishi mumkin. Sintetik kauchuklar – amorf yoki kuchsiz kristallanishi mumkin bo'lgan. yuqori qayishqoqlik va zanjirning nisbatan kichik molekulalararo ta'sirlashishi keng temperatura oralig'ida ularning yuqori konformatsion harakatchanligini izohlaydi. Uning asosiy kamchiligi qizdirilganda yumshaydi va elastikligini yoqotadi. Sovutilganda mo'rtlashadi va shaklini yoqotadi, juda past temperaturada elastikligini yo'qotadi. Kauchuk rezina ishlab chiqarish uchun xomashyo bo'ladi.

12.3. Rezina aralashmasi va uni qayta ishlash

Kauchukka qotiruvchi (oltingugurt) qo'shilganda qattiq holga o'tishi, ya'ni vulkanlanishi chiziqsimon tuzilishdagi polimerning to'rsimon tuzilishga aylanganligini ko'rsatadi. To'rsimon tuzilishli polimerlar erituvchilarda erimaydi, qizdirilganda suyuqlanmaydi.

Vulkanlash – kauchukni oltingugurt bilan qo'shib qizdirib rezinaga aylantirish jarayoni. Oltingugurt polimerdag'i qo'shbog'larga birikib,

kauchuk molekulalarini «tikib qo'yadi». Natijada rezina-to'ldirgichli fazoviy tuzilishga ega polimer hosil bo'ladi. Rezina xom kauchukka nisbatan yanada elastik va temperatura, erituvchilar ta'siriga chidamli (benzinda erimaydi). Bu rezinadagi chiziqli makromolekulalar orasida molekulalararo kuchlardan tashqari kimyoviy bog' kuchlari ham mavjudligi bilan izohlanadi (12.2-rasm). Kauchukni vulkanlashda tarkibida 32% gacha oltingugurt tutgan mahsulot *ebonit* deb ataladi. Ebonit-qattiq, izolyatorlik xususiyatiga ega modda. Ebonit elektrotexnikada izolator sifatida ishlataladi. Uning organik erituvchilarda eruvchanligi chiziqsimon tuzilgan yuqori molekulyar birikma ekanligidan dalolat beradi. Kauchukning vulkanlanish reaksiyasi:



12.2-rasm. Kauchukning (a) va rezinannig (b) tuzilishi.

Rezina quyidagi asosiy guruhlarga bo‘linadi:
umumiylarda ishlatiladigan rezina. Bunday rezina (shina, oyoq kiyimi, pol qoplamlari, transportyor tasmalari, qayish, qistirma, zichlagich, amortizator, maishiy buyumlar va h.k.);
– 50 dan +150°C gacha temperaturada ishlatishga mo‘ljallangan rezina;
– 150°C dan yuqori temperaturada uzoq vaqt ishlatishga (mashina, elektr dvigatel, samolyot detallariga mo‘ljallangan) issiqqa chidamli rezina;


– 50°C dan past temperaturada ishlatishga mo‘ljallangan sovuqqa chidamli rezina, benzin, kerosin, neft, moy, turli uglevodorodlar uchun uzoq vaqt ishlatishga mo‘ljallangan (shlang, zichlagich, turli idishlar va h.k.) moy-benzinga chidamli rezina;

turli yemiruvchi muhitlar ta’siriga chidamli rezina. Bunday rezinadan ishlangan buyumlar kislota, ishqor, tuzlar, bug‘, ozon, erituvchilar, suv va h.k. uchun mo‘ljallanadi; gaz to‘ldirilgan (g‘ovak) rezina radiatsiya ta’siriga chidamli rezina rentgen apparati detallari, radioaktiv izotoplar bilan ishlaydiganlarning himoya kiyimlarini tayyorlashda qo‘llaniladi; dielektrik rezinaning dielektrikligi kichik, elektr qarshiligi katta, asosan, turli kabellar tayyorlashda ishlatiladi.

Rezinaning xossasini belgilovchi asosiy material kauchukdir. Kauchuk rezinaning 10-98% ini tashkil etadi. 150-180° da ishlatiladigan buyumlar butil kauchukli yoki etilen sopolimerli rezinadan tayyorlanadi. Bunday rezina ozonga va yemiruvchi muhit ta’siriga chidamlidir. Molekulalararo ta’sirlashish kuchi kichik, molekulyar zanjirchasi egiluvchan kauchuklar dan sovuqqa chidamli rezina ishlanadi. 300°C va undan yuqori temperaturali ishlarda elementorganik kauchuklar (kremniy organik va alyuminiy organik) asosida tayyorlangan rezina qo‘llaniladi. Mineral to‘ldirgichli rezina yaxshi dielektrik hisoblanadi. Kauchukka asetilen tipidagi yuqori strukturali qurum qo‘sib elektr o‘tkazuvchi rezina hosil qilish mumkin. Nurdan saqlovchi rezina olish uchun ko‘pincha ftorli va butadiene-nitrilli kauchuklar ishlatiladi.

Kauchulkarni vulkanizatsiyalash maqsadida oltingugurt, organik peroksidlar (masalan, benzoil peroksid, dikumal peroksid), alkilfenol-formaldegid va epoksid smolalari, diazobirkimlar, diaminlar va boshqa bifunksional birikmalar ishlatiladi. Radiatsion vulkanizatsiya ham qo‘llanmoqda. Vulkanizatsiyani tezlashtirish maqsadida rezina tarkibiga maxsus tezlatgichlar va ularning faollashtiruvchilari qo‘siladi. Oltingugurt bilan vulkanizatsiyalashda tezlatgich sifatida sulfenamidlar, dikarbamidlar,

difenilguanidin kabi birikmalardan foydalaniładi. Qurum, kolloid silikat kislota, bor, kaolin, metall oksidlari, silikatlar, baritlar rezina to'ldirgichlar sifatida ko'plab ishlatiladi. To'ldirgichlar rezinaning bikirligini oshiradi. Bugungi kunda rezina turli sohalarda qo'llaniladigan konstruksion materialdir (12.3-rasm).



12.3-rasm. Rezinani sanoatda qo'llanilishi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:


1. Tabiiy kauchukning tarkibi va tuzilishi qanday?
2. Sanoat miqyosida sintetik kauchuk ishlab chiqarish qachondan boshlangan?
3. Nima uchun butadien va divinil kauchukning tarkibi bir xil, lekin xossalari turlicha? Ularni tabiiy kauchuk bilan solishtiring.
4. Qanday kauchuklar sopolimerlanish reaksiyalari asosida olinadi?
5. Turli sintetik kauchuklarning o'ziga xos xossalari.
6. Rezina qanday tayyorlanadi va qayta ishlanadi?
7. Vultaranish reaksiyasining mohiyati nimada?
8. Kauchuk va rezinaning tuzilishi va xossalari solishtiring.
9. Nima uchun rezina ba'zi sohalarda almashtirib bo'lmaydigan material?

XIII BOB. KIMYOVIY TOLALAR

13.1. Tolalarning sinflanishi

Ba'zi yuqori molekulyar birikmalar kimyoviy tolalar olish uchun qo'llaniladi.

Barcha tolalar ikki sinfga bo'linadi: tabiiy va kimyoviy (13.1-rasm). Tabiiy tolalar tabiiy sharoitda hosil bo'ladi. Kimyoviy tolalar o'z navbatida ikkita turga bo'linadi: sun'iy va sintetik. Sun'iy tolalar tabiiy tolalarni, asosan paxta sellyulozasini, kimyoviy qayta ishlab hosil qilinadi. Sintetik tolalar sintetik polimerlardan hosil qilinadi.




13.1-rasm. To'qimachilik tolalarining sinflanishi.

Tabiiy tolalarning manbalari 13.2-rasmida keltirilgan.

Paxta – bir yillik g'o'za o'simligidan olinadigan tola. G'o'za o'simligi ko'plab namlikni talab qiluvchi, issiqlikni sevuvchi o'simlik hisoblanadi (13.3-rasm). Issiq joylarda o'sadi. Ushbu o'simlikning ko'pgina turlari

ma'lum, lekin ikkita turi sanoat ahamiyatiga ega: o'rta tolali va ingichka tolali. Paxta tolasiga ishlov berib ip olinadi. Ipdan matolar tayyorlanadi (batist, markizet, surup, bo'z, satin), shuningdek trikotaj, tikuv iplari va boshqalar.


Zig'ir janubiy Rossiyada qadimdan o'stiriladi. Zig'ir tolasini olish uchun - zig'ir o'simligidan foydalilaniladi (13.4-rasm).



13.2-rasm. Tabiiy totalarning manbalari.



13.3-rasm. Paxta.



13.4-rasm. Zig'irning ba'zi navlari.

Zig‘ir iplari uzunligi 4 sm bo‘lgan o’simlikning poyasidan olinadigan mustahkam tolalardan iborat. Bu tolalar lub tolalar ichida o‘zining yuqori pishiqligi, moslashuvchanlik va sorbsion xususiyatlariga egaligi bilan ajralib turadi.

13.2. Tola hosil qilish texnologiyasi

Sun’iy tola olish mumkinligi haqidagi dastlabki fikrni birinchi bo‘lib XVII asrda ingliz olimi R.Guk aytgan, lekin faqat XIX asrdagina sanoatda sun’iy ipak olingan.

Sellyuloza tolalar ichida eng oldin (1890-yilda) nitrat ipak, so‘ngra mis ammiak va viskoza ipak olingan. Birinchi Jahon urushi oxirida atsetat ipak olingan. Rossiyada viskoza ipak ishlab chiqaradigan birinchi zavod Mitishchida qurilgan. 1913-yilda bu zavodda 136 t viskoza tola ishlab chiqarilgan. Hozirgi vaqtida kimyoviy tolalar ishlab chiqarish kimyo sanoatining yirik tarmog‘iga aylandi. Barcha to‘qimachilik tolalarning 30% chasi kimyo zavodlarida sun’iy yo‘l bilan olinadi. Kimyoviy tolalar junga qaraganda 3 marta ko‘p, tabiiy ipakka qaraganda 100 marta ko‘p ishlataladi. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda kimyoviy tola va iplar aynimaydigan bo‘yoq va boshqa kimyoviy materiallardan foydalanishning ahamiyati beqiyosdir. Kimyoviy tolalar sun’iy va sintetik xillarga bo‘linadi. Sun’iy tolalar ishlab chiqarishda xomashyo sifatida yog‘och sellyulozasi, paxta chiqindilari, shisha, metallar va boshqalar, sintetik tolalar ishlab chiqarishda esa gazlar hamda toshko‘mir va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlataladi. Sun’iy tolalarning kimyoviy tarkibi ular olinadigan dastlabki tabiiy xomashyoning kimyoviy tarkibidan farq qilmaydi. Sintetik tolalar kimyoviy sintez reaksiyalar natijasida, ya’ni quyi molekulyar moddalar molekulalarni yiriklashtirib, ularni yuqori molekulyar birikmalarga aylantirish natijasida olinadi. Bunday tolalar tabiatda tayyor holda uchramaydi.

Kimyoviy tola olishning usullari. Kimyoviy tola asosan ikki usulda olinadi.

1. Suyuqlanmadan tola olish.
2. Eritmadan tola olish.

Agar polimerning suyuqlanish temperaturasi parchalanish temperaturasidan kichik bo‘lsa, bunday polimerlarning suyuqlanmasidan tola olinadi. *Suyuqlanmadan tola olish uchun quyidagi texnologik o‘zgarishlar amalga oshiriladi.*

1. Monomerlardan polimerlar hosil qilinadi. Polimerlanish jarayoni 60-70% gacha olib boriladi.
2. Hosil bo‘lgan aralashmadan monomer va oligomerlar ajratib olinadi. Buning uchun aralashma issiq suvda yuviladi.
3. Ajratib olingan polimer quritish shkaflarida quritiladi.
4. Quritilgan polimer suyultirish pechiga yuboriladi.
5. Suyultirilgan polimer filtrlanadi.
6. Tayyor bo‘lgan suyuqlanma havosizlantiriladi va yigirish mashinasiga uzatiladi.
7. Yigirish mashinasida suyuqlanmay yana filtrlanadan o‘tkaziladi va sovitish shaxtasida suyuqlanma sovitilib tola hosil qilinadi.
8. Hosil bo‘lgan tola moylanib bobinagao‘raladi.
Bu usulda poliefir, poliamid tola olish mumkin.
Eritmadan tola olish ikki usulda amalga oshiriladi:
 - 1) Quruq usulda
 - 2) Ho‘l usulda.

Agar polimer eritmasining qaynash temperaturasi kichik bo‘lsa, quruq usulda tola olinadi. Buning uchun quyidagi texnologik jarayonlar amalga oshiriladi.

 1. Polimerning 20-25% li eritmasi tayyorlanadi.
 2. Hosil bo‘lgan polimer uch bosqichda fitrlanadi.
 3. Filtrlangan polimer havosizlantiriladi.
 4. Havosizlantirilgan eritma yigirish mashinasiga uzatiladi. Yigirish mashinasida eritma yana fitrlanib, fil`eradan o‘tkaziladi va quritish shaxtasiga yuboriladi.
 5. Quritish shaxtasida tola shaklidagi eritmada erituvchisi bug‘lantiriladi.
 6. Hosil bo‘lgan tola moylanib bobinaga o‘raladi.
Bu usulda diatsetat, triatsetat va nitron tolalarini olish mumkin.

Agar polimer eritmasining qaynash temperaturasi yuqori bo‘lsa, ho‘l usulda tola olinadi.

Buning uchun quyidagi texnologik jarayonlar amalga oshiriladi.

 1. Polimerning 10-12% li eritmasi tayyorlanadi.
 2. Hosil bo‘lgan polimer uch bosqichda fitrlanadi.
 3. Filtrlangan polimer havosizlantiriladi.
 4. Havosizlantirilgan eritma yigirish mashinasiga uzatilib, fil`eradan o‘tkaziladi va cho‘ktirish vannasiga tushiriladi.
 5. Cho‘ktirish vannasida tola shaklidagi eritmada erituvchisi vanda erib, polimer cho‘kadi va gel hosil qiladi.

6. Cho'ktirish vannasidaga gel tola yuvish vannasiga o'tkaziladi.
7. Yuvilgan tola plastifikatsiya vannasida cho'ziladi. Plastifikatsiya vannasidan chiqqan tola quritish pechlarida quritiladi, moylanib bo'binalarga o'raladi.

Tola olishning asosiy bosqichlari.

Iplarni shakllantirishning zamonaviy usullari, bu – maxsus fil'era teshiklaridan polimer eritmalarini bosim ostidan o'tkazishdan iboratdir. Turli kimyoviy tolalarni olish usullarida farq bo'lganligiga qaramay, ularda ko'p o'xshashlik bor. Uni umumiy sxemasi 5 ta asosiy bosqichlardan iborat:

1. Xomashyo olish va dastlabki ishlov berish.
2. Yigiruv eritma yoki suyuqlanmasini tayyorlash.
3. Ipni shakllantirish.
4. Pardozlash.
5. To'qimachilik ishlov berish.

I. Xom-ashyo olish va dastlabki ishlov berish. Sun'iy tola va ip olish uchun xomashyoni kimyoviy sanoat korxonalarida tabiatda hosil bo'ladi-gan moddalarni (yog'och, chigit va boshqa) ishlov berib oladilar.

Xomashyoga dastlabki ishlov berish uchun uni tozalashdan yoki kimyoviy ishlov berishdan o'tkazadilar, ya'ni polimer birikmalarining kimyoviy aylanishidir.

Sintetik tola va iplarni xomashyosini kimyoviy korxonalarda oddiy moddalardan sintez yo'li bilan oladilar. Xomashyoga dastlabki ishlov berilmaydi.

II. Yigiruv eritmasi va suyuqlanmasini tayyorlash. Iplarni olganda qattiq polimerdan uzun, ingichka iplarni shakllantirish kerak, ya'ni polimer makromolekulalarini tartibli - orientirli joylashtirish kerak. Buning uchun polimerni eritma yoki suyuqlanma holatiga o'tkazish lozim, natijada molekulalararo aloqalar bo'shashadi va makromolekulalarning harakat imkoniyati oshadi.

Eritma asosan sun'iy va ayrim sintetik (PAN, PVS, PVX) iplarni olishda qo'llaniladi. Suyuqlanma esa sintetik (PA, PE va PO) tola va iplarni olishda qo'llaniladi. Yigiruv eritmasi yoki suyuqlanmasini bir necha bosqichda tayyorlaydilar. Bir tekisdagi iplarni olish uchun turli partiyadagi polimerlarni aralashtiradilar. Polimerlarni aralashtirilishi eritma yoki quruq holatda o'tkaziladi. Keyin eritma yoki suyuqlanmani turli chiqindilardan tozalash uchun filtratsiya bajariladi, ya'ni eritma

yoki suyuqlanma bir necha bor filtrlardan (zich gazlama, kvars qatlami va boshqa) o'tkaziladi. Eritmadagi havo pufakchalarini yo'qotish uchun uni bir necha soat vakuumda saqlaydilar, chunki havo pufakchalari fil'era teshigiga tushsa, ipni uzilishiga olib kelishi mumkin. Suyuqlanmaga bu-naqa ishlov berilmaydi, chunki polimerlarning suyultirilgan massasida havo pufakchalari bo'lmaydi.

III. Iplarni shakllantirish – yigiruv eritmasi yoki suyuqlanmasini fil'era teshikchalaridan o'tkazish, tizilib chiqayotgan oqimi qotirish va shakllanadigan iplarni maxsus naychalarga o'rashdan iborat bo'ladi.

Shakllantirishning bir necha usuli bor:


- a) suyuqlanmadan;
- b) eritmadan quruq;
- c) eritmadan ho'l usullar bilan.

Suyuqlanmadan ip shakllantirganda fil'eradan o'tayotgan ip oqimi havo oqimi yoki inert gaz bilan puflaydigan shaxtada sovutiladi (13.5-rasm). Eritmadan quruq usulda shakllantirishda polimerlar oqimi bilan ishlov beriladi, natijada eritma bug'ga aylanadi, polimer esa qotadi. Eritmadan ho'l usulda shakllantirishda fil'eradan o'tayotgan iplar oqimi cho'ktirish vannasidagi eritmaga tushadi, natijada vannada polimerlarning eritmadan ajralishining fizik-kimyoviy jarayoni sodir bo'ladi(13.6-rasm).

Shakllantirish jarayoni to'qimachilik iplarni ishlab chiqarishda muhim bosqichlaridan hisoblanadi, chunki bunda ipni tuzilish elementlari hosil bo'ladi. Eritmada yoki suyuqlanmada makromolekulalar juda egilgan shaklda bo'ladi. Shakllantirganda ipni tuzilish elementlarini tartiblanish darajasi yuqori bo'lmaydi, shu sababli qo'shimcha ishlov berish kerak. Shakllantirganda bir nechta uzun elementar iplardan tashkil topgan kompleks iplarni yoki tolalarni olish mumkin. Kompleks ip olganda teshiklari ko'p bo'lmagan fil'era qo'llaniladi: 15-100 gacha. Tayyor elementar iplarni tutami bobinaga o'raladi. Tola olganda teshiklari ko'p bo'lgan fil'era(13.7-rasm) qo'llaniladi: 1000-5000, ayrim holda 15000 gacha, oxirgisi har xil usulda shakllantirishda ishlatiladi. Bir nechta fil'eradan chiqadigan elementar iplarni bitta tutamga birlashtiradilar va maxsus mashinalarda alohida kesmalarga kesiladi. Tola uzunligi vazifasiga qarab 50-150 mm bo'ladi.


IV. Pardozlash. Kimyoviy tola va iplar shakllantirgandan keyin to'qimachilik materiallarini ishlab chiqarish uchun to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilmaydi. Ularni pardozlash kerak. Viskoza, oqsilli, ayrim sintetik iplar chiqindi va iflosliklardan tozalanadi. Bu operatsiya suvda yoki turli

eritmalarida yuvish orqali bajariladi. Keyinchalik to‘q va ochiq ranglarga bo‘yaladigan tola va iplar oqartirgichlar bilan ishlov berib oqartiriladi.



13.6-rasm. Eritmadan iplarni quruq usulda (a) va ho‘l usulda (b) shakllantirish: 1-filtr; 2-fil`era; 3-iplar; 4-bug‘lantirish shaxtasi yoki cho‘ktirish vannasi; 5-qabul qilish g‘altagi.

13.5-rasm. Suyuglanmadan iplarni shakllantirish: 1-maydalangan polimerlar bunkeri; 2-eritish kamerasi; 3-yigirish golovkasi; 4-fil`era; 5-shamollatish shaxtasi; 6-iplar; 7-yigirish shaxtasi; 8-yigirish diskii; 9-qabul qiladigan g‘altak.



13.7-rasm. Fil`erada tola shakllanishi: 1-yigiruv eritmasi; 2-fil`era; 3-tola.

Sintetik iplarni dastlabki tuzilishini o'zgartirish uchun cho'zish va termoishlov operatsiyalari bajariladi. Cho'zganda molekulalararo aloqalar sustlashadi, makromolekulalar va ularni agregatlari to'g'rilanadi, orientatsiyasi ip o'qiga qarab o'zgaradi va tartibli tuzilish hosil bo'ladi. Natijada iplar pishiq, ammo kam cho'ziluvchan bo'ladi. Makromolekulalarga biroz egilgan shaklni berish uchun, cho'ziluvchanlikni oshirish maqsadida, termoishlov bajariladi. Ho'l usul bilan shakllantirgan va suyuqliklar bilan ishlov berilgan iplar quritiladi.

V. To'qimachilik ishlov berish. Bu jarayondan maqsad iplarni birlashtirish, ularni pishiqligini oshirish (pishitish orqali), ip hajmini orttirish (qayta o'rash yordamida), olingan iplarni sifatini baholash (navlash). Kimyoviy tola va iplarni assortimentini kengaytirish va yaxshilashni asosiy yo'nalishi yangi tola va iplar yaratish emas, balki bor bo'lgan tolalarni modifikatsiyalash, ya'ni ularga maxsus xossalar berish.

Modifikatsiyaning usullari ko'p, ammo ularni ikki guruhgaga bo'lish mumkin: fizik (tuzilish) va kimyo modifikatsiyasi.

Fizik jihatdan modifikatsiya – tola va iplar tuzilishini, kattaligini, ularni ko'ndalang va bo'ylama shakllarini o'zgartirishdan iborat bo'ladi.

Kimyo modifikatsiyasi – tolani tashkil qiladigan polimerlarning kimyoviy tarkibini o'zgartirishdan iborat. Natijada tola xossalarini keskin o'zgartirish mumkin (issiqqa chidamli, suv yutmaydigan, ko'p karrali deformatsiyaga chidaydigan va boshqa).


13.3. Sun'iy tolalar va ularning xossalari

Gidratsellyulozali tola va iplar. Ularni ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida turli daraxtlar va paxta lantidan olinadigan sellyuloza qo'llaniladi. Kimyoviy tarkibi bo'yicha gidratsellyuloza tabiiy sellyulozaga o'xhash bo'ladi, ammo fizik tuzilishi bo'yicha jiddiy farq qiladi: polimerlanish darajasi kichik (300-800), makromolekulalar joylashishi va orientatsiyasi bir muncha boshqa. Kristallanish darajasi – 40-50%. Shu sababli xossalari bir muncha boshqa bo'ladi. Gigroskopikligi, ob-havoga chidamliligi, yumshoqligi, yoyilishga chidamliligi yaxshi, ammo pishiqligi ho'l holatda bo'lganda past. Gidratsellyulozadan oddiy viskoza, pishiq viskoza, siblon, mtilon va mis-ammiak tola va iplari olinadi.

Viskoza tolalar. Viskoza tolalar ho'l usulda olinadi. Bunda xomashyo sifatida archa, qarag'ay, oq qarag'ay, qora qayin yog'ochidan olinadigan yog'och sellyulozasi ishlatiladi.

Sellyuloza-qog'oz kombinatlarida yog'och 7 mm gacha kattalikdag'i payrahalarga maydalanadi va ishqor eritmasida qaynatiladi. Natijada kulrang sellyuloza massasi hosil bo'ladi. Bu massa oqartiriladi va karton listlari tarzida presslanadi. Karton listlari sellyuloza-qog'oz kombinatidan kimyoiy tolalar kombinatiga keltiriladi, bu yerda bir soat mobaynida merserizatsiyalanadi, shunda ishqorli sellyuloza hosil bo'ladi va sellyulozasiz birikmalar ajraladi. Sellyuloza massasi olish uchun siqilgandan so'ng listlar maydalanadi va dastlabki yetiltiriladi, ya'ni 12-30 soat mobaynida 20-25°C temperaturada tutib turiladi. Bunda ishqorli sellyuloza havo kislorodi bilan oksidlanadi, sellyuloza molekulalari kaltalashadi.

Keyin ishqorli sellyuloza ksantogenlanadi, ya'ni unga uglerod sulfid bilan ishlov beriladi, natijada kuchsiz ishqorda ham eriydigan sellyuloza ksantogenati hosil bo'ladi. Sellyuloza ksantogenati 4-5% li o'yuvchi natriy eritmasida eritilganda qovushqoq yigiruv eritmasi – viskoza hosil bo'ladi. Yigiruv eritmasi viskoza fil era teshikchalaridan o'tib ip shakllantiriladi va babilalarga o'raladi (13.8-rasm).



13.8-rasm. Viskoza tola va iplar.

Profillangan tolalar gazlama asosli sun'iy mo'yna olish uchun ishlatiladi. Profillangan kesimli to'qimachilik viskoza ipidan olingan sun'iy mo'yna tabiiy mo'ynaga o'xshash ko'rinish beradigan optik effektga ega bo'ladi.

Mtilon – modifikatsiyalangan junga o'xshash viskoza tola bo'lib, gilamlarni tukli qilish uchun ishlatiladi.

Viskoza tolalarni uzunasiga mikroskop ostiga qo'yib qarasak, bo'ylama chiziqlari bo'lgan silindr shaklida ko'rinishadi. Bo'ylama chiziqlar yigiruv eritmasi notejis qotganda paydo bo'ladi. Sutrang tolalarda qora nuqtalar bo'ladi, bu nuqtalar titan(IV)-oksid qo'shilgani natijasidir. Tolalarning ko'ndalang kesimi tilingan ko'rinishda bo'ladi. Tolalarning uzunligi har xil bo'lishi mumkin.

Elementar tolalarning chiziqli zichligi 0,27-0,66 teks, ko'ndalang kesimi 25-60 mkm. Viskoza iplarning yo'g'onligi ularni hosil qiladigan elementar tolalarning yo'g'onligi va soniga bog'liq bo'ladi.

Tolalarning pishiqligi sellyuloza molekulalarining joylashuviga bog'liq bo'ladi. Normal viskoza tolalarning pishiqligi tabiiy ipaknikidan quyi, juda pishiqligi viskoza tolalarniki esa ancha yuqori. Oddiy tolalarning nisbiy uzish yuki 19,8 kN/teks; juda pishiqligi tolalarniki 45 kN/teksgacha. Ho'l holatda pishiqligi 50-60% gacha pasayadi.

Normal tolalarning uzishdagi uzayishi 22% ga, juda pishiqligi tolalarniki 6-10% ga yetadi. To'liq uzayishning anchagini (70%) gacha ulushini qoldiq deformatsiya tashkil qiladi. Shuning uchun viskoza tolalardan tayyorlangan buyumlar ancha g'ijimlanuvchan bo'ladi. Viskoza tolalar keskin tovflanib turadi, sutrang tolalar esa tovflanmaydi.

Normal sharoitda tolalar tarkibida 11% nam bo'ladi. Viskoza tolalarning kimyoviy tarkibi va yonishi paxtaga o'xshaydi, lekin kislotalar, ishqorlar ta'siriga sezgirroq bo'ladi va tezroq yonadi. Normal namlikdagi tolalar 120°C gacha isitilganda ham xossalari o'zgarmaydi.

Polinoz tola viskoza shtapel tolaning bir xili bo'lib, xossalari jihatidan uzun tolali paxta tolalarining xossalariya yaqin turadi. Polinoz tolalar ishlab chiqarish jarayoni oddiy viskoza tolalar olish jarayoniga o'xshaydi. Polinoz tolalar ko'ndalang kesimi bo'yicha strukturasining bir tekisligi jihatidan boshqa tolalardan farq qiladi. Polinoz tolalar oddiy viskoza shtapel tolalarga qaraganda cho'zilishga pishiqligini bo'ladi, kamroq uzayadi (cho'ziluvchanligi kam), qayishqoqligi katta, ho'l holatda pishiqligini kamroq yo'qotadi, ishqorlar ta'siriga yaxshiroq chidaydi.

Polinoz tolalarning asosiy ko'rsatkichlari: chiziqli zichligi 0,166-0,126 teks, uzishdagi uzayishi 12-14%, ho'l holatda pishiqligini yo'qotishi 20-25%. Polinoz tolalarning qimmatli xossalari ularni uzun tolali a'lo navli paxta o'mniga ishlatishga va viskoza tolalardan tayyorlanadigan buyumlar ishlab chiqarishga imkon beradi.

Ko'yaklik va plashlik gazlamalar, mayin trikotaj polotnolar, g'altak ipler ishlab chiqarishda polinoz tolalardan sof holda ham, paxta bilan aralashtirib ham foydalanish mumkin. Kirishinaydigan va kam kirishadigan gazlamalar ishlab chiqarishda uzun tolali paxta o'mniga polinoz tolalami ishlatish mumkin. Bunday tolalardan tayyorlangan buyumlar kirishmaydi, ko'r kam, shoyiga o'xshab tovflanib turadi.

Mis-ammiak tola. Bunday tola paxta sellyulozasidan tayyorlanadi. Paxta momig'ini mis-ammiak reaktivida eritish yo'li bilan yigiruv eritma-

si olinadi. Bunday tola ho‘l usulda olinadi: cho‘ktirish vannasiga suv yoki kuchsiz ishqor solinadi.

Mis-ammiaktolaning ko‘ndalang kesimi deyarli dumaloq, bo‘ylama ko‘rinishi silindr shaklida. Viskoza tolalarga qaraganda ingichkaroq, mayinroq, kamroq tovlaniadi va ho‘l holatda pishiqligini kamroq (40-50%) yo‘qotadi. Mis-ammiak tolalarining kimyoviy xossalari va yonishi viskoza tolalarnikiga o‘xshaydi.

Mis-ammiak tolalar uncha ko‘p ishlatilmaydi, chunki viskoza tolalarni ishab chiqarishga qaraganda ularni ishlab chiqarishga ko‘proq mablag‘ sarflanadi.

Atsetilsellyuloza tola va iplar. Bularni olish uchun asosan paxta chiqindilari qo‘llaniladi. Tri- va diatsetat sellyuloza olish uchun tabiiy sellyuloza sirka angidridi, sirka kislotsasi va sulfat kislota bilan ishlov beriladi. Atsetat va uchatsetat iplari polimer eritmalaridan quruq usul yordamida shakllantiriladi. Bu tolalarni gigroskopikligi past, pishiqligi katta emas, issiqqa chidamsiz (atsetat 140-150 °C, uchatsetat 180-190°C yumshaydi). Qayishqoqligi yuqori bo‘lsa, berilgan shaklni saqlaydi, yuv-ganda kam kirishadi, mikroorganizmlar ta’siriga, quyosh nuriga chidamlı bo‘ladi.

Atsetat tola. Atsetat tola olishda xomashyo sifatida paxta chiqindilari ishlatiladi. Paxta chiqindilari muzlatilgan sirka kislota muhitida atsetat angidrid bilan ishlanadi. Bunday reaksiya atsetillash deb ataladi. Suv yoki suyultirilgan sirka kislota qo‘sish natijasida oq cho‘kindi hosil bo‘ladi. Bu cho‘kindi yuviladi, spirt va atseton aralashmasida eritiladi. Hosil bo‘lgan yigiruv eritmasidan quruq usulda tolalar shakllantiriladi.

Atsetat tolanning tuzilishi viskoza tolanning tuzilishiga o‘xshaydi, lekin unda chuqurroq yo‘llar bo‘ladi. Atsetat tolanning kimyoviy tarkibi kimyoviy bog‘langan sellyulozadan iborat, shuning uchun ularning xossalari viskoza va mis-ammiak tolalarining xossalardan farq qiladi (13.9-rasm).

Normal atsetat tolanning pishiqligi viskoza tolanning pishiqligidan bir oz pastroq. Normal atsetat tolanning nisbiy uzish yuki $R = 10,8-13,5 \text{ kN/teks}$. Ho‘l holatda 3% gacha pishiqligini yo‘qotadi. Uzishdagi uzayishi 22-30% gacha yetadi. Atsetat tolanning qayishqoqligi viskoza va mis-ammiak tolaniqidan ancha katta. Shuning uchun atsetat gazlamalar kamroq g‘ijimlanadi.



13.9-rasm. Atsetat toladan tayyorlangan gazlama va atsetat ip.


Atsetat tolalarning gigroskopikligi 6-8%. Ular spirt va atsetonda eriydi, 140 °C gacha qizdirilganda suyuqlanadi (boshqa barcha o'simlik tolalari kuchli qizdirilganda ko'mirga aylanadi). Tolalar sariq alanga chiqarib sekin yonadi. Natijada tolaning uchi dumaloqlanib qotib qoladi. Atsetat tolalarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, ular ultrabinafsharang nurlarni o'tkazadi.

Uchatsetat tola. Uchatsetat tola butunlay atsetillangan sellyulozadan ishlab chiqarilishi bilan atsetat toladan farq qiladi. Juda qayishqoqligi, pishiqligi ($R = 11-12 \text{ kN/teks}$), atsetonga chidamliligi bilan atsetat toladan ustun turadi. Uchatsetat tolalarning gigroskopikligi pastroq (32%), ho'l holatda pishiqligini kamroq (17-20%) yo'qotadi. Bunday tolalar 170°C gacha qizdirishga chidaydi. Uchatsetat va atsetat tolalar gazlamalar va trikotaj buyumlar tayyorlashda keng ishlatiladi.

13.4. Sintetik tolalar va ularning xossalari

Tolalarning xossalari kompleks baholanganda, odatda, gigienik, fizik-mekanik va texnologik xossalari hisobga olinadi (13.10-rasm).

Poliamid tola va iplar. Poliamidlar – keng tarqalgan geterozanjirli polimerlar (neft va ko'mirdan olinadi). Makromolekulalari ($-CONH-$) guruhi bilan bog'langan bir necha ($-CH_2-$)_n guruhlariidan tashkil topgan. Poliamidlarni polimerlanish darajasi katta emas (150-200). Kristallanish darajasi 40-60% bo'ladi.



13.10-rasm. Tolalar xossalalarining sinflanishi.

Poliamiddan tola olish uchun oldin u yuqori temperaturada suyuqlantiriladi va bosim ostida turli diametrli fil' eralardan o'tkaziladi. Hosil bo'lgan tola izotrop holda bo'ladi, cho'zish natijasida esa anizotrop holatga o'tadi. Bunda makromolekulalar tartiblanib, tolaning pishiqligi ortadi. Bu tolalar sanoat tarmoqlarida, texnikada va turmushda ko'p ishlataladi (13.11-rasm).



13.11-rasm. Poliamid tolalar, iplar va undan tayyorlangan gazlama.

Eng keng tarqalgan geterozanjirli poliamid tola -kapronyiki *poli-ε-kaprolaktam* tolalari. Bu tipdagi tola Germaniyada dederon, perlon, Chexiyada silon, Polshada stilon, AQSh da neylon-6, Italiyada lilion deb

ataladi. Kapron olishdagi dastlabki xomashyo – benzol va fenol (toshko‘mirni qayta ishlab olinadigan mahsulotlar)ni kimyo zavodlarida qayta ishlab kaprolaktam olinadi.

Sintetik tolalar zavodida kaprolaktamdan kapron smolasi olinadi, u suyuqlangan holatda fil’ eraga kirib, undan ingichka oqimlar tarzida chiqadi va havoda qotadi. Endigina qotgan tolalar cho‘ziladi, buraladi, issiq suv va bug‘da termik ishlanib tuzulishi o‘zgarmaydigan qilinadi. Issiqlikni izolyatsiyalash xossalari yuqori bo‘lgan ichi bo‘sh kapron tola, profilangan va ko‘p kirishadigan (30-35%) tola olish usullari ishlab chiqilgan. Kapron tola va iplar juda pishiq bo‘ladi. nam holatda pishiqligi deyarli o‘zgarmaydi. Cho‘ziluvchanligi yuqori, uning qayishqoq qismi ko‘proq bo‘ladi. Yoyilishga chidamli (paxtadan 10 baravar, jundan – 20, viskozadan 50 baravar ortiq).

Kamchiligi – namni deyarli yutmaydi, gigroskopikligi 3,5-5%, bu materialni gigienik xossalariiga ta’sir etadi. Issiqa chidamsiz (200°C da eriy boshlaydi), quyoshga ham chidamsiz. Juda silliq tolalar – yigirishga qiyin, boshqa tolalar bilan aralashtirilishi yomon, foydalanganda material sirtiga chiqishi mumkin. Shuning uchun shakllantirgandatolaning ko‘ndalang kesimini o‘zgartiradilar. Kapron, anid, enant, shelon, trilobal, kaprilon va boshqa.

Anid (nyylon) va *enant* ishlab chiqarish jarayonlari kapron ishlab chiqarish jarayonlaridan uncha farq qilmaydi. Poliamid tolalar silindr shaklida bo‘lib, ularda mikroskop ostida ko‘rinadigan g‘ovak va darzlar bor; ko‘ndalang kesimi dumaloq yoki uch yoqli (profilangan) bo‘lishi mumkin. Poliamid tolalarga xos xossalari: yengil, qayishqoq, uzilishga pishiqligi yuqori, ishqalanish va egilishga chidamli, kimyoviy turg‘un, sovuqqa, mikroorganizmlar ta’siriga chidamli, mog‘ormaydi.

Uzilishga pishiqligi jihatidan kapron po‘latdan 2,5 barobar ustun turadi. Kapron tolalar faqat kontsentrlangan kislotalar va fenolda eriydi. Ular yashil alanga berib yonadi, shunda tolalarning uchi qo‘ng‘ir rangda dumaloqlanadi. Gigroskopikligining pastligi va issiqa uncha chidamasligi kapron tolalarning kamchiligidir. Anid va enantning xossalari kapron xossalariiga o‘xshaydi. Poliamid tolalarning asosiy ko‘rsatkichlari 13.1-jadvalda keltirilgan.

Poliamid tolalarning xossalari.


Tola	Nisbiy (uzish) kuchi, $\kappa\text{N/reks}$	Uzilishdagi uzayishi, %	Gigroskopligi, %	Yumshash darajasi, °C
Kapron				
	45-70		3,5-4	170
	20-25			
Anid	45-70	20-25	3,5-4	235
Enant	40-65	18-23	2-4	200

Kapron kompleks iplar, shtapel tolalar, monotola (yakka tola) tarzi-da ishlab chiqariladi. U paypoq va trikotaj ishlab chiqarishda, tikuvchilik iplari, gazlamalar, paypoqlar, trikotaj, g'altak iplar, yoqalar, arqonlar, baliq ovlash to'rlari va hokazolar tayyorlashda keng ishlatiladi. Anid va enant asosan texnik maqsadlarda qo'llaniladi, lekin keng iste'mol mollari tayyorlashda ham ishlatilishi mumkin. Yengil ko'ylyaklik va bluzkabop gazlamalar to'qish uchun modifikatsiyalangan poliamid tola-shelondan foydalaniadi.

PA tolasining ajralib turadigan xususiyatlari ishqlanishga barqaror va o'zining pishiqligini suv ta'sirida yo'qotmaydi. PA tolalar ko'p kimyoviy reagentlar, chirituvchi bakteriyalar va kuya ta'siriga barqaror, ko'p bo'yoqlar bilan bo'yaladi.

Savdo nomi: kapron, anid, naylon, nimeks, perlon, dederon.

Poliefirtola va iplar. Poliefirlar makromolekulalarini elementar bo'g'lnlari ($-\text{COO}-$) guruhi yordamida birlashadi. Keng tarqalgan polimer polietilentereftalat yoki lavsandir:




Zvenolar soni 85-120. Polietilentereftalat asosan tola shaklida ishlatiladi. Polietilentereftalat tolalari olish uchun maydalangan quruq poliefir yigirish mashinasi bunkerida qizdiriladi. So'ngra suyuqlangan polimer azot atmosfera bosimi ostida fil'era teshiklaridan o'tkaziladi. Hosil bo'lgan tolalar maydalaniadi va qizdirib cho'ziladi. Cho'zilish jarayonida tolalarning uzunligi olti hissa uzayadi, natijada makromolekulalar orien-tirlanib, polimerning mexanik xossalari yaxshilanadi.

Poliefir tola o'zining ba'zi xossalari va ko'rinishi jihatidan poliamid tolalarga o'xshab ketadi. Lekin uning elastiklik moduli juda kattadir. Shuning uchun bu toladan to'qilgan kiyim-kechaklar g'ijimlanmaydi.


Bundan tashqari, poliefir tolalari quyosh nurlari ta'siriga yaxshi bardosh beradi, yuqori temperaturada ham o'zining mexanik xossalarni saqlaydi. Polietilentereftalatning bu xususiyatidan foydalnib, undan maxsus kiyimlar, baliq ovlashda ishlatiladigan to'r, kord kabi buyumlar tayyorlanadi.

Lavsan juda pishiq, yuqori elastik bo'ladi. Yoyilishga chidamliligi bo'yicha faqatgina poliamidlardan qolishadi, ammo quyosh nuriga juda chidamli, kislota, ishqor va boshqa eritmalarga chidamli. Gigroskopikligi past, shu sababli nam holatda mexanik xossalari o'zgarmaydi. Lavsan tolalari yumshoq, hajmli va issiq bo'ladi (13.12-rasm).

Lavsan neftni qayta ishlash mahsulotlaridan ishlab chiqariladi. Bunday tola AQShda dakron, Germaniyada Ianon, Angliya va Kanadada terilen, Polshada elana deb ataladi.



13.12-rasm.
Poliefir (lavsan)
ip, undan
tayyorlangan
matolar.



Lavsan tuzilishi va fizik-mexanik xossalari jihatidan kapronga o'xshaydi: nisbiy uzish yuki 40-55 kN/teks, uzilish paytidagi cho'ziluvchanligi 20-25%. U ho'l holatda xossalarni o'zgartirmaydi, yengil, qayishqoq, sovuqqa, kuyaga chidamli, chirimaydi. Kaprondan farqli ravishda lavsan kontsentrlangan kislota va ishqorlar ta'sirida yemiriladi.

Lavsanning gigroskopikligi juda past—0,4%. Shuning uchun gazlamalar to'qishda shtapel tola tarzidagi lavsanga tabiiy va viskoza shtapel tolalar aralashtiriladi. Ayniqsa, uni junga aralashtirib ishlatish keng rasm bo'lgan.

Sof lavsan g'altak iplar, to'r, texnik gazlamalar, sun'iy mo'yna, gilam va shu kabilar tayyorlash uchun ishlatiladi.

Issiqqa chidamliligi jihatidan lavsan kaprondan ustun turadi: yumshash darajasi 235°C. Lekin maxsus ishlov (termofiksatsiya)dan o'tka-zilmagan lavsanli gazlamalar 140°C dan ortiq darajada va juda ho'llab dazmollanganda kirishishi va rangi aynishi, natijada gazlamalarda ketmas dog'lar paydo bo'lishi mumkin.

Alangaga tutilganda lavsan avval suyuqlanadi, so'ngra tutovchi sarg'ish alanga berib ohista yonadi.

PE tolasining noyobligi uning ho'l holatdagi fizik-mexanik xususiyatlarning deyarli to'liq o'zgarmasligidadir, eng yuqori issiqlikka chidamliligi, biostabilligi, kimyoviy barqarorlik, yorug'likning ta'siriga chidamliligi, mikroorganizmlar, gilam hasharotlari, mog'or ta'siriga barqaror. To'qimachilik PE iplari uy-ro'zg'or uchun ishlatiladigan mato va trikotaj ishlab chiqarish, sintetik mo'ynalar va gilamlar uchun keng qo'llaniladi. Savdo nomi: lavsan, dakron, trevira, poliester.

Poliuretan tolalar. Chiziqli zichligi 2 dan 125 teksgacha bo'lgan kompleks poliuretan iplar – spandeks ishlab chiqariladi. Spandeks tolalari boshqa sintetik tolalarga o'xshaydi, lekin fizik-mexanik xossalariga ko'ra elastomerlar jumlasiga kiradi, ya'ni ularning elastik tiklanish ko'rsatkichlari yuqori. Spandeks iplarining nisbiy uzish yoki 6-8 kN/teks (rezina iplarindan ikki marta katta), uzilishdag'i uzayishi 600-800%, yoki olingandan keyin darhol elastik tiklanishi 90%, 1 minutdan keyin tiklanishi esa 95%.

Spandeks iplarining gigroskopikligi kichik (1-1,5%), ishqalanishga yaxshi chidaydi, issiqlikka bardosh beradi, yaxshi bo'yaladi. Ular sport buyumlari, korsetlar va elastik davolash buyumlari uchun gazlamalar, trikotaj va lentalar tayyorlashda ishlatiladi.

Barcha poliuretan tolalarning o'ziga xos xususiyati ularning yuqori elastikligiligi hisoblanadi – ularning cho'zilishga mustahkamligi 800%, moslashuvchan va elastik deformatsiyaning ulushi esa 92-98% gacha. Bu xususiyati ulardan foydalanish sohasini belgilaydi. Ushbu tolalarni ishlatish bilan ayollar tualetlari, sport kiyimlari, paypoq mahsulotlari uchun mato va trikotaj mato ishlab chiqariladi.

Poliakrilonitril tola va iplar. O'zbekistonda 93% akrilonitril, 5% metilakrilat va 2% itakon kislotasi aralashmasidan polimerlanish usulli bilan poliakrilonitril – nitron tolalari ishlab chiqariladi. Polimerlanish darajasi 750-1000. Nitron tolalari pishiq, cho'ziluvchan, quyosh nuriga juda chidamli, issiqqa chidamli (13.13-rasm). Kamchiligi gigroskopikligi past, qattiq, yoyilishga chidamsiz. Junga o'xshash bo'ladi, issiqlikni kam

o'tkazadi, tez kir bo'lmaydi va juda oson tozalanadi. Ko'p holda junni almashtirib ishlatadilar (gilam, sun'iy mo'yna chiqarganda). Modifikatsiyalab bo'yалиш qobiliyatini, gidrofilligini, elastikligini, yoyilishga chidamliligin oshiradilar.

Nitron toshko'mir, neft yoki gazni qayta ishlash mahsulotlaridan olinadi. Bunday tolalar Shvetsiya va Shveytsariyada akril, Polshada anilana, Yaponiyada beslon, ekslan, kashmilon, bonnel, Germaniyada vetro-lon deyiladi. Bunday tolalar kapron va lavsanga qaraganda mayinroq va tovlanuvchanroq. Ishqalanishga chidamliliği jihatidan nitron hatto paxtadan ham past turadi.



13.13-rasm. Poliakrilonitril iplar.

Nitronning uzilishga pishiqligi kapron va lavsannikidan ikki marta kichik, uzilishdagi uzayishi 16-22%, gigroskopikligi juda past - 1,5%. Nitronning ba'zi qimmatli xossalari bor: kiyim tozalashda ishlatiladigan mineral kislotalar, ishqorlar, organik erituvchilar, bakteriyalar, mog'or, kuya ta'siriga chidamli. Issiqni saqlash xossalari jihatidan nitron jundan ustun turadi.

Nitronning yumshash temperaturasi 200-250°C. Nitron alangaga tutilganda suyuqlanadi va sekin sargish alanga berib, chaqnab-chaqnab yonadi. Ustki trikotaj kiyimlar tikishda nitron sof holda, ko'ylaklik va kostyumlik gazlamalar to'qishda jun, paxta va viskoza tolalarga aralashtirib ishlatiladi.

Polivinilxlorid tola va iplar. Yaxshi cho'ziladi (30-40%), pishiqligi yuqori, kimyoiy moddalarga juda chidamli, issiqlikka chidamsiz (90-100°C yumshayadi). Meditsinada, maxsus kiyim va texnik vazifa uchun ishlatiladi. Modifikatsiyasi vinitron va soviden.

Polivinilxlorid tolalar. Xlorin etilen yoki asetilendan ishlab chiqariladi. Polivinilxlorid tolalar Fransiyada rovil, termovil, Germaniyada PTs, Yaponiyada tolon deb ataladi.

Xlorin qayishqoq, suv, kislota va ishqorlar, oksidlovchilar ta'siriga chidamli, chirimaydi, mog'ordan shikastlanmaydi. Issiqni saqlash xossalari jihatidan xlorin jundan qolishmaydi. Uning uzilishdagi uzayishi 18-24%, gigroskopikligi juda past - 0,1%. Xlorin yorug'lik ta'siriga uncha chidamaydi.

Xlorinning asosiy kamchiligi - issiqliq chidamsizligi. Xlorin 60 °C da butunlay kirishadi, 90°C da esa yemiriladi. Xlorin yonmaydi va alangani avj oldirmaydi. U alangaga tutilganda jizg'inak bo'lib kuyadi, dudning hidi anqiydi.

Kiyimni quruq kimyoviy tozalashda xlorin trixloretilen va perxloretilenda erishi mumkin. Ishqalanganda elektr zaryadlarini yig'ish xususiyatiga ega bo'lgani uchun xlorin davolashda ishlatiladigan kiyimlar tikishda qo'llaniladi. Polivinilxlorid tolalar relefli shoyi gazlamalar, gilam, sun'iy mo'yna, texnik gazlamalar tayyorlashda ham ishlatiladi.

Polivinil spirtli tola va iplar. Polimerlanish darajasi 1200-1600. Iplarni ho'l usul bilan shakkantiradilar. Keng tarqalgan - vinol. Pishiq, yoyilishga, quyoshga, kimyoviy moddalarga, ko'p karrali deformatsiyaga chidamli. Vinol elastik va issiqliq chidamli bo'ladi. Vinolni o'ziga xos xususiyati gidrofilligi, ya'ni namni yaxshi yutish qobiliyati (paxtaga yaqin) bor (13.14-rasm). Tolalar yaxshi bo'yaladi. Paxta va jun bilan aralashma holda ko'p qo'llaniladi. Polivinil spirlarni suvda eriydigan turlari - meditsinada (xirurgik choklarni biriktirish uchun), yengil gazlama, gipyur va to'r buyumlarni ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Polivinil spirt tolalar. Polivinil spirt tolalarga: vinol, letilan (Rossiya); vinal, vinilon, vinilan, vulon (Yaponiya); mevlon (AQSh) kiradi. Vinol polivinil spirtdan olinadi. Bu tola barcha sintetik tolalar ichida eng arzoni hisoblanadi.

Gigroskopikligi (5-8%) jihatdan vinol paxtaga yaqin turadi. Nisbiy uzish yuki 30-40 kN/teks, uzayishi 30-35%, ho'l holatda pishiqligini 15-25% yo'qotadi. Yumshash darajasi 220-230°C da issiqlidan kirisha boshlaydi. Yorug'lik ta'siriga yaxshi chidaydi, ishqalanishga chidamliligi jihatidan paxtadan ikki barobar ustun turadi. Vinol alangaga tutilganda issiqlidan kirishadi, suyuqlanadi va sariq alanga berib ohista yonadi. Vinol sof holda ham, paxta, jun, viskoza, shtapel tolalarga aralashtirilgan holda ham maishiy gazlamalar tayyorlash uchun ishlatiladi.

Letilan - suvda erimaydigan sariq rangli polivinil spirt tola. Mikroblarga chidamli bo'lgani uchun meditsinada va shaxsiy gigiena buyumlari tayyorlashda ishlatiladi.



13.14-rasm. Polivinil spirtli PVS tolasi.

Poliolefin tola va iplar. Polietilen va polipropilenning polimerlanish darajasi - 1500-5000. Bu tolalarni pishiqligi yuqori va uzayishi ko‘p bo‘ladi. Kimyoviy moddalarga juda chidamli. Yoyilishga chidamliligi, poliamidlarga qaraganda, pastroq bo‘ladi. Issiqlikka chidamsiz (80°C da pishiqlikni ko‘p yo‘qotadi). Gigroskopikligi nolga teng. Iplari ko‘p elektrylanadi, zichligi past, shuning uchun suvda cho‘kmaydi. Asosan texnik maqsad uchun qo‘llaniladi, aralashma holatda ustki kiyim, poyabzal va bezash gazlamalari ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.

Poliolefin tolalar. Poliolefin tolalarga polietilen va polipropilenden tayyorlangan tolalar kiradi. Poliolefinlarni sintez qilish uchun dastlabki xomashyo sifatida neftni qayta ishlash mahsulotlari-propilen va etilenden foydalilanadi.

Poliolefin tolalarning issiqlik va yorug‘lik ta’siriga chidamliligini oshirish uchun polimerga maxsus moddalar – ingibitorlar qo‘shiladi. Polipropilenden kompleks iplar, hajmdor burama iplar, shtapel tolalar, monotolalar ishlab chiqariladi. Polietilenden to‘qimachilik iplari va monotolalar olinadi. Poliolefin tolalarning asosiy ko‘rsatkichlari 13.2-jadvalda keltirilgan.

Poliolefin tolalarning fizik-mexanik xossalari yaxshi bo‘lishi bilan birga kimyoviy turg‘unligi va mikroorganizmlarga chidamliligi ham ancha yuqori. Ular gigroskopik emas (0%), boshqa barcha tolalarga qaraganda zichligi juda past. Shuning uchun poliolefin tolalar cho‘kmaydigan

va chirimaydigan arqonlar tayyorlashda ishlataladi. Ulardan plashlik va bezak gazlamalar, gilam tuklari, texnik materiallar ham ishlab chiqariladi.


13.2-jadval.

Poliolefin tolalarning xossalari.

Tola	Nisbiy (uzish) kuchi, kN/teks	Uzilishdag'i uzayishi, %	Suyuqlanish darajasi, °C.	Zichligi, g/sm ³
Polietilen	60-70	10-12	130-135	0,94 – 0,96
P o i p r o - pilen	25-45	15-30	170	0,91

Shisha tola va metall iplar. Shisha tolalar olish uchun silikat shisha parchalari elektr pechlarda 1370°C temperaturada suyuqlantiriladi. Tez aylanib turadigan baraban fil' eradan chiqayotgan suyuq shisha oqimlarini ishlatalib ketadi va 30 m/s tezlikda cho'zadi. Havoda soviganda ingichka (1-20 mkm) shisha iplar hosil bo'ladi. Shisha iplar pishiq, egiluvchan, yorug'likni yaxshi o'tkazadi, yorug'lik va olov ta'siriga yaxshi chidaydi, elektr, issiqlik, tovushni izolyatsiyalash xossalari yuqori (13.15-rasm). Bunday tolalar kimyoviy turg'un bo'lib, faqat ftorid kislotada eriydi. Tolalarning gigroskopikligi past – 0,2 %.

Shisha tolalari bo'yash uchun suyuq shisha massasiga xrom, kobalt, marganes, temir, oltin va boshqa birikmalar qo'shiladi. Shisha tolalarning rangi barcha ta'sirlarga yaxshi chidaydi. Shisha tolalar texnik maqsadlar-da, bezak gazlamalar olish uchun ishlataladi.



13.15-rasm. PVX qoplangan shisha tola



13.16-rasm. Kumush toli elektrromagnit mato

Metall iplar misdan yoki mis qotishmalaridan qilingan simni asta-sekin cho'zish yoki yassi alyuminiy lenta (folga)ni qirqish yo'li bilan olinadi. Ip

sirtida turg‘un yaltiroqlik hosil qilish uchun unga yupqa oltin yoki kumush qatlami surkaladi (13.16-rasm). Ba’zi metall iplar rangli pigmentlar va yupqa sintetik himoya plenkasi bilan qoplanadi. Metall iplarning asosiy xillari: voloka – dumaloq metall ip; lyushchenka – pilta ko’rinishidagi yassi ip; kanitel – spiralsimon voloka yoki plyushchenka; mishua – voloka yoki plyushchenkadan burab tayyorlangan ip; pryadevo – plyushchenka qo’shib pishitilgan paxta yoki ipak ip; alyunit (lyureks) – kumushrang yoki turli rangdagi yelim qoplangan yassi ip. Pishiqligini oshirish uchun alyunitni bir yoki ikkita ingichka sintetik ipga qo’shib pishitish mumkin.

Metall iplar pogonlar, daraja nishonlari, zarhal buyumlar tayyorlash, yaltiroq gazlama – parcha to‘qish, shuningdek, gazlamalarni bezash uchun ishlataladi.


Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Tola olishning umumiyligi sxemasi necha bosqichdan iborat?
2. Xomashyo olish va dastlabki ishlov berish qanday bajariladi?
3. Yigiruv eritmasi yoki suyuqlanmasi qanday tayyorlanadi?
4. Ip qanday shakllantiriladi?
5. Qanday tolalar suyuqlanmadan olinishi mumkin?
6. Qanday tolalar eritmadan olinadi?
7. Eritmadan tola olishning “ho‘l” va “quruq” usullarining mohiyati nimada va ular qanday holatda qo’llaniladi?
8. Nima uchun tolani cho‘ziltirilganda uning mustahkamligi ortadi?
9. Nima sababdan tolalarga buram beriladi?
10. Tolani pardozlashdan maqsad nima?
11. Tolaga ishlov berish bosqichi nima uchun bajariladi?
12. Tolalar nima uchun modifikatsiyalanadi?
13. Fizik modifikatsiyaning mohiyati nimada?
14. Kimyoviy modifikatsiyada nimalar o‘zgaradi?
15. Tola, ip va gazlamalarning qanday kompleks xossalarni bilasiz?
16. Sun’iy tolalarga nimalar kiradi va ularning xossalari nimalardan iborat?
17. Sintetik tolalar va ularning xossalari nimalardan iborat?
18. Tabiiy va kimyoviy tolalar qanday usullar bilan aralashtiriladi?
19. Tabiiy va kimyoviy tolalarning xossalarni qiyosiy tahlil qiling.
20. Aralash tolali materiallarning o‘ziga xosligi nimalardan iborat?
21. O‘zbekistonda qanday kimyoviy tolalar ishlab chiqariladi?

XIV BOB. TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT UCHUN POLIMERLARNING OLINISHI VA XOSSALARI


14.1. To'qimachilik, tikuv, charm va mo'yna buyumlari ishlab chiqarishda polimerlarning ahamiyati, xossalari

To'qimachilik, tikuv, charm va mo'yna buyumlarining asosini tabiiy va kimyoviy polimerlar tashkil etishi avvalgi bo'limlarda aytib ketildi. Chiziqli polimer makromolekulasining fazoviy tuzilishi ikki xil chegaraviy holatlar oralig'ida bo'lishi mumkin. Bu holatlarning biri fibrillyar, ikkinchisi globulyar deb ataladi (14.1-rasm).



Fibrillyar polimerlarda molekulaclararo bog'larning energiyasi va ulushi ichki molekulyar bog'lardan ko'proq bo'ladi. Globulyar polimerlarda esa aksincha. Masalan, sellyulozada molekulaclararo vodorod bog'larining roli va ahamiyati beqiyosdir. Kovalent bog'ning energiyasi 200-400 kJ/mol bo'lsa, vodorod bog'ning energiyasi 30-35 kJ/mol ekanligi ma'lum. Lekin, makromolekulalar aro minglab bunday bog'lar yetarli mustahkamlikni ta'minlaydi (14.2-rasm).

Real polimerlarning fibrillarlik yoki globulyarlik darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Bir narcha aniqki, to'qimachilik tolalari fibrillyar polimerlardan hosil bo'ladi, ip va mato shakllanishini ta'minlaydi. Molekulaclararo vodorod bog'lari ipning yigirilishi va qog'oz varag'inining shakllanishiga imkon yaratadi. Lekin ipning yigirilish va undan mato to'qilish jarayonida mustahkamlik yetarli emas ekan. Shu yerda kimyoning vazifasi boshlanadi.



14.2-rasm. Sellyulozaning molekulalararo vodorod bog'lari.

To‘qimachilik texnologiyasi, jumladan, ip yigirish va to‘qish jarayonlarida polimerlarning eritmalari keng qo‘llaniladi. Yigirish jarayonida iplarning uzilishini kamaytirish, jarayon unumtdorligini oshirish maqsadida tolalarni polimerning 1-2% li eritmasi bilan boyitiladi. Bunda polietilenglikol, polivinil spirit, natriy karboksimetilsellyuloza kabi suvda eriydigan polimerlardan foydalaniлади.

Polimer eritmasi tolalar yuzasida yupqa parda hosil qilgan holda kalta va shikastlangan tolalarni yelimlaydi, mashina mexanizmlaridan o‘tish jarayonlarini osonlashtiradi. Natijada tolaning uziluvchanligi kamayadi, yigirish unumtdorligi ortadi. Tolalar yuzasidagi polimerlar keyingi pardozlash jarayonlarida suvga eritib, chiqarib yuboriladi. Yelimlovchi va yog‘lovchi reagentlar bilan to‘qishga mo‘ljallangan ip oxorlantiriladi. Bu jarayon tolalarni bir-biriga bog‘lanishini ta’minlanishi bilan bir qatorda ajralib chiqib qolgan tolachalarni umumiyl massaga birlashtiradi hamda iplarni mashina mexanizmlaridan uzilmasdan, silliq o‘tishini ta’minlaydi.

To‘quvchilik texnologiyasining muhim jarayonlardan biri oxorlashdir. Mato to‘qish uchun mo‘ljallangan tabiiy tolalarning iplari polimerlarning eritmalari bilan oxorlanadi. *Oxorlashdan maqsad* – iplarga yupqa plyonka qoplash yo‘li bilan ularni silliqligini va pishiqligini oshirish hamda to‘quvchilik jarayonida ip uzilishlari sonini kamaytirishdir.

Iplarni qoplovchi polimer eritmasi - *oxor* deyiladi. Oxorlangan iplar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi:

- Uzilishga qarshiligi yuqori;
- Cho‘zilishi kam;
- Egiluvchanligi yuqori;
- Ishqalanishga chidamligi yuqori;
- Tukdorligi kam;
- Yemirilishga chidamligi yuqori.

Oxorlash jarayonidan keyin iplarni uzilishga bo‘lgan qarshilik kuchi 10-20% ga ortadi, lekin bu omil oxorlashning asosiy maqsadi hisoblanmaydi.

Oxorlash jarayonida quyidagi asosiy ishlar bajariladi:

- Oxor tayyorlash (kimyoviy jarayon).
- Iplarga oxorni singdirish.
- Quritish.
- Qurigan iplarni to‘quv g‘altagiga o‘rash.

Oxorlash jarayoni uchun foydalilanayotgan oxorlash materiallariga bog‘liq holda to‘quvchilik jarayonida tanda ipini muqobil xususiyatini ta‘minlash uchun oxorlanish miqdori asosiy omil hisoblanadi.

Lekin vodorod bog‘lanish muammoni ham keltirib chiqaradi. Paxta matosining oson g‘ijimlanuvchanligi hammamizga ma’lum. Buning sababi shundaki, mato bukilish deformatsiyasiga uchraganda, vodorod bog‘lari uziladi, tolalar siljiydi, deformatsiya ta’siri to‘xtaganda, yangi molekulalararo bog‘lar paydo bo‘ladi. Bu yangi bog‘lar tolalarni dastlabki holatiga qaytishiga yo‘l qo‘ymaydi, ya’ni deformatsiya qaytmas bo‘ladi. Shuning uchun makromolekulalarni ozroq kovalent bog‘lari orqali bog‘lash maqsadida kimyoviy ishlov berishga to‘g‘ri keladi.

Tikuv buyumlarining shakl saqlovchi detallarini tayyorlashda, buyumlarga olovbardosh, gidrofob yoki gidrofil, leofob va boshqa maxsus xossalalar berishda sintetik polimerlarning polimerlarning qo‘llanilishi so‘nggi yillarda kengayib bormoqda. Buni keyingi bo‘limda muhokama qilamiz.

Poyabzal ishlab chiqarishda ham kimyoning ahamiyati beqiyosdir. Poyabzal tagligi asosan sintetik polimerlardan olinayotganligini hisobga olganda yangi polimer materiallarini yaratish, borlarini modifikatsiya qilish bu sohaning eng muhim vazifalaridan biridir. Hozirgi zamon to‘qimachilik va yengil sanoat materiallari tarkibi - turli tolalar, polimerlar, to‘qimalar, modifikatsiyalovchi moddalarni saqlovchi kompozitsiyadan iborat. Quyish usuli bilan hosil qilinuvchi materiallar ichida termoelastoplastlar alohida o‘rin egallaydi. Zamonaviy polimer materiallar ko‘pincha elastomer va termoplastik polimer – termoelastoplastlar (TEP) ishlab chiqarilmoqda. TEP – kauchuklarning elastikligi va termoplastlarning termoplastligiu yg‘unlashgan alohida guruh sintetik materiallaridir. Yuqori temperaturada qayta ishlangan vaqtida ular termoplastlar kabi oquvchan, ekspluatatsiya jarayonida esa elastoplastlar kabi xossalarni namoyon qiladi.

TEP hosil qiluvchi gomopolimerlar (bloklar) termodinamik moyil emas. Shuning uchun ular ikki fazali sistema hisoblanib, ikki xil shishalanish holatini namoyon qiladi. Kauchuk bloklari uzliksiz elastik fazani tashkil etadi, qattiq termoplast bloklari esa yo‘naltirilgan fazoviy tugunlar

– domenlarni tashkil etadi. Domenlardagi molekulalararo bog‘lar hisobiga tikilish yoki vulkanlanishsiz yuqori mustahkamlik vujudga keladi. Yuqori temperaturada makromoleklalarning issiqlik harakati natijasida bog‘lar bo‘shashadi va blok sopolimer oquvchanlik namoyon etadi. TEP ning bosim ostida quyish jarayoni $150\text{--}200^{\circ}\text{C}$ atrofida sodir bo‘ladi. Ahamiyatlisi, TEP uchun oreintasion effekt amal qiladi. Shuning uchun bosim ostida quyish usuli bilan olingan buyumlarning mustahkamligi presslash usuli bilan olingan buyumlarnikiga nisbatan yuqoriroqdir. Domenlar vulkanlangan rezinadagi oltingugurt ko‘priklariga o‘xshash biriktiruvchi tugunlar vazifasini bajaradi.


Termoplastlar plastiklik, yuqori mustahkamlik va sovuqbardoshlik ega. Lekin yuqori temperaturalarda yumshashi natijasida deformatsiyaga uchraydi va chidamliligi kamayadi. TEP asosidagi materiallar, masalan poyafzal tagliklari, har qanday ob-havo sharoitida va turli yuzaga nisbatan yuqori ishqalanish koeffitsientiga ega. TEP asosida termoplastlarni qayta ishslashda qo‘llaniladigan bosim ostida quyish, shprislash, puflash kabi yuqori tezlikdagi usullar bilan buyum ishlab chiqarish mumkin. Bunday polimerlarning yana bir muhim jihatlaridan biri, ishlab chiqarish chiqindilarini ko‘pmarta qayta ishslash imkoniyati borlidigidir. Boshqacha aytganda TEP asosida buyumlar ishlab chiqarish chiqindisiz, foydalanilgan TEP buyumlari ularni tayyorlash uchun xomashyo bo‘lishi mumkin.

Hozirgi vaqtida TEP olishning bir nechta usullari ma’lum. Ulardan biri monomerlarni boshqarib turiluvchi sharoitda sopolimerlanish reaksiyalariga asoslangan bo‘lsa, ikkinchisi birinchi polimerga ikkinchi polimer monomerlarini payvand sopolimerlashdan iboratdir.

14.2. Kimyoviy pardozlash jarayonlarida polimerlarning ahamiyati, xossalari

Matolarni kimyoviy pardozlash jarayonlarida (yelimsizlantirish, oqartrish, bo‘yashga tayyorlash, bo‘yash, maxsus xossa beruvchi apretlash) turli funksional aktiv moddalar, jumladan, yuqori molekulyar birikmalar dan foydalaniladi. Polimerlarning o‘ziga xos xossalardan unumli foydalanigan holda kimyoviy ishlov berish jarayonlarini tashkil etish maxsus matolar va buyumlarning (issiqbardosh, olovbardosh, shakl saqlovchi, gidrofob, yog‘-moylarga chidamli va b.) sifatini ortishiga olib keladi. Jumladan, matoning tabiiy polimerlari bilan sintetik polimerlarning payvand sopolimerlarini sintez qilish kimyoviy bog‘langan kompozitsion matoning hosil qilish imkonini beradi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, paxta

matosining sellyulozasiga va tabiiy ipakning oqsil makromolekulalariga radikal initisiator yordamida vinil va akril polimerlarini payvanlash mumkin ekan. Kaliy persulfatning tabiiy tola makromolekulalaridagi gidrosil va aminoguruuhlar bilan ta'sirlashuvi natijasida aktiv markazlar hosil bo'ladi, ular ishtirokida zanjirning o'sishi sodir bo'ladi.




14.3-rasm. MMA bilan kollagen payvand sopolimerlanishi tezligining DAK (a), MMA (b) konsentratsiyasiga va temperaturaga (c) bog'liqligi.

Paxta-kollagen-poliakrilat kompozision matosi asosida shaklsaqlovchi tikuv buyumlari, bor, azot, fosfor saqlovchi antipirenlnarni akril emulsiyasi vositasida matoga bog'lab olovbardosh materiallar olingan.

Xom teri chiqindilariga ishqor eritmasi bilan ishlov berish natijasida teri tarkibidagi kollagen ajratib olinadi. Ishqor konsentratsiyasi 3% dan

va temperatura 60°C dan yuqori bo‘lganda olingan eritma qovushqoqligi kichik bo‘lib, kollagen namunasining mustahkamligi past va mo‘rt bo‘lar ekan. Shu sababli terilardan kollagen eritib olish ishqorning 2-3% li eritmasida, 60°C dan past bo‘lgan temperaturada amalga oshirildi. Elektrolitlarni yo‘qotish maqsadida kollagen eritmasi sirka kislotasi bilan neytrallangandan so‘ng dializ qilindi. Kollagennenning akril monomerlari bilan payvand sopolimerlanishi kaliy persulfat (PK) ishtirokida suvda va azoizomoykislotasining dinitril efiri (DAK) ishtirokida organik eritmalarda amalga oshirildi.

Kollagennenning payvand sopolimerlanish kinetikasi metilmekratrilat (MMA) va akril kislotasi (AK) misolida o‘rganib chiqildi. Sopolimerlanish tezligining monomerlar konsentratsiyasiga va initsiator konsentratsiyasiga bog‘liqligi, konversiyaning kichik qiymatlarida, chiziqli xarakterga ega. Bu esa reaksiyalar tartibini aniqlashga imkoniyat yaratadi (14.3 va 14.4-rasmlar).



14.4-rasm. AK bilan kollagen payvand sopolimerlanishi tezligining PK (a), AK (b) konsentratsiyasiga va temperaturaga (c) bog‘liqligi.


Logarifmik bog'liqliklar bo'yicha sopolimerlanish tezligining monomer, initsiator bo'yicha tartibi va aktivlanish energiyasi hisoblab chiqilgan. Reaksiyalari tartibining olingan qiymatlari DAK bo'yicha 0,78 va PK bo'yicha 0,86, polimer zanjirlarning biomolekulyar uzilish holatlari uchun qabul qilingan qiymatdan farq qiladi. Bunday holat payvandlangan initsiatorning bitta molekulasidan yuzaga keluvchi va darhol umumiyl makromolekulyar tugun hosil qiluvchi "qardosh" o'suvchi zanjirlarning uzilishi bilan izohlanadi. Zanjirlarning "qardoshlik" uzilishi reaksiyaning kinetik tartibini initsiatorning konsentratsiyasi bo'yicha 0,5 emas, 1 bo'lishini yuzaga keltirishi lozim. Biz ko'rib chiqayotgan holda, reaksiya tartibi PK va DAK konsentratsiyasi kollagen bilan o'zaro ta'sirda ishtirok etayotgan initsiatorning ulushi bilan moslashmoqda. Reaksiya tartibi MMA bo'yicha – 1,4 va AK bo'yicha – 1,2 radikal polimerlanish jarayonlariga xos bo'lган holatdir. Monomerlar bo'yicha reaksiya tartibining yuqorilashgan qiymatlari monomer molekulalarining kollagen bilan reaksiyalarida, jarayonni inisiirlashda va zanjirning o'sishida ishtirok etayotganligini ko'rsatadi.

Payvand sopolimerlanish reaksiyasining temperatura koeffitsienti 1,3–1,7 oralig'ida joylashgan. Jarayonning umumiyl aktivlanish energiyasi tezlik konstantasi logarifmining temperatura teskari qiymatiga bog'liqligi bo'yicha aniqlangan: $tg\alpha = E/19,12$. Umumiyl aktivlanish energiyasi AK uchun (38,2 kJ/mol) va MMA uchun (45,4 kJ/mol) monomerlarning gomopolimerlanish energiyasiga nisbatan anchagina past. Bu holat shundan dalolat beradiki, payvand sopolimerlanish energetik jihatdan afzalroq sharoitlarda amalgalashgan oshar ekan. Umumiyl aktivlanish energiyasi qiymatining pastligi initsiatorning kollagen makromolekulasi bilan o'zaro ta'siri natijasida aktiv markazlar hosil bo'lishi energiyasining anchagina pastroq ekanligi sabablidir.

Kollagenden farqli ravishda AKning fibroin bilan polimerlanish jarayoni geterogen fazada amalgalashgan oshadi. Avvalo, hom ipak seritsindan sovun-sodali eritmada ajratib olinadi. Sopolimerlanish sistemasida fibroin tolalari, AK va PK ning suvdagi eritmasi mavjud. AK ning fibroin bilan payvand sopolimerlanishi tezligining AK, PK konsentratsiyasiga va temperaturaga bog'liqligi aniqlangan (14.5-rasm).

Reaksiya tartibining olingan AK bo'yicha – 1,8 va PK bo'yicha – 0,95 qiymatlari radikal polimerlanishdan farq qiladi. AK ning fibroin bilan payvand sopolimerlanishi reaksiyasining haroratga bog'liqligi egri chizig'iga ko'ra umumiyl aktivlanish energiyasi – 54,5 kJ/mol ni tashkil

etib, u oddiy radikal polimerlanishdagidan past ekan. Bu holda, aktivlanish energiyasining qiymati kollagen bilan payvand sopolimerlanishdagidan yuqori. Demak, akril monomerning kollagenga payvand polimerlanishi, ya'ni gomogen jarayonda, energetik jihatdan afzalroq sharoitlarda amalga oshar ekan.



14.5-rasm. AK ning fibroin bilan payvand sopolimerlanishi tezligining PK (a), AK (b) konsentratsiyasiga va temperaturaga (c) bog'liqligi.

Jarayon initsirlash tezligini aniqlash uchun radikal "tuzoq" usulidan foydalananilgan. Payvand sopolimerlanishning induksion davrini initsiatorning va radikal tuzoqning turli xil konsentratsiyalarida aniqlab ko'rildi. Aktiv markaz hosil bo'lishi tezligi logarifmining PK konsentratsiyasi logarifmiga bog'liqligi chiziqli xarakterga ega va uning qiyalik burchagini tangensi 1 ga teng.

Aktiv markazlar hosil bo'lishi va sopolimerlanish tezliklarini bilgan holda, polimer zanjirlarini o'sish va uzilish tezlik konstantalari nisbatini hisoblab topish mumkin:

$$\frac{K_r}{K_o^{0.5}} = \frac{V_p}{V_{in}^{0.5} \cdot M}$$

Olingen natijalar tekshirilgan sistemalarda jarayonlar bir xilda emasligini ko'rsatdi (14.1-jadval). Kollagenning payvand sopolimeri uchun konstantalar nisbati qiymati yuqoriligining sababi shuki, bu sistemada, jarayon gomogen fazada amalga oshadi. Polimer zanjirlarning o'sish tezligi ularning uzilish tezligidan anchagini yuqori, ayniqsa, jarayonning boshlang'ich bosqichlarida.

14.1-jadval.

**Sopolimerlanishda o'sish va uzilish tezlik konstantalarining
nisbati $K_r/K_o^{0.5}$. T = 60°C, initsiator PK.**

Polimer	Monomerlar		
	AK	MMA	AN
Kollagen	0,0196	0,0165	0,0086
Fibroin	0,0091	0,0079	0,0064

Fibroin yuzasida sopolimerlanish jarayonida o'sish va uzilish tezliklari konstantalari nisbatining past bo'lishi, chamasi, K_o qiymatining yuqoriligini ko'rsatadi. Initsiator bo'yicha reaksiya tartibining yuqori, 1 ga yaqinligi va payvandlangan polimerlar zanjiri molekulyar massasining kichikligi ana shu bilan izohlanadi, bu esa, keyingi bo'limlarning muhokama predmetidir.

Kollagen, tabiiy ipak fibroini, PK, AK, MMA, ANlarning IQ va PMR-spektrlari tahlil qilindi. Monomerlardagi C=C va C=O bog'larning, akrilonitrilning C≡N, efirlarning C—O, polimerlar va monomerlarning C—N, birlamchi va ikkilamchi aminoguruuhlarning N—N va O—N bog'larning valent va deformatsion (simmetrik va asimmetrik) tebranishlarining yutilish chiziqlari yuqori aniqlikda topildi.

Kollagenning IQ-spektrlarida 1549 va 1656 sm^{-1} ($\delta_{\text{N-H}}$), ikkilamchi aminoguruuhlar uchun 1549 sm^{-1} da, birlamchi aminoguruuhlar uchun – 1656 sm^{-1} , 2929, 3070 va 3356 sm^{-1} ($v_{\text{N-N}}$, $v_{\text{O-N}}$, $v_{-\text{CN}_2-}$) dagi yutilish chiziqlari aniqlangan.

$\delta_{-\text{CN}_2-}$ yutilish chiziqlari 1403 va 1452 sm^{-1} da, $v_{\text{C-N}}$ esa, 1241 va 1082 sm^{-1} da aniqlangan.

Fibroinning IQ-spektrlarida, 2926–3444 sm^{-1} ($v_{\text{N-N}}$, $v_{\text{O-N}}$), 1541 va 1640 sm^{-1} ($\delta_{\text{N-H}}$)da, 1401 sm^{-1} ($\delta_{-\text{CN}_2-}$), 1229 va 1161 sm^{-1} ($v_{\text{C-N}}$), 632–697 sm^{-1}

(peptid guruhining skeleti) da yutilish chiziqlari aniqlangan. Tekshiruvdan o'tkazilgan monomerlarda, $1620\text{--}1660\text{ cm}^{-1}$, $1703\text{--}1732\text{ cm}^{-1}$ (C=O AK va MMA) 2240 cm^{-1} ($\text{C}\equiv\text{N}$ AN) sohalardagi qo'shbog'larning xarakteristik valent tebranishlari aniqlanadi.

PK spektrlarda 1059 cm^{-1} dagi kuchli yutilishlar chizig'i S=O simmetrik valentli tebranishlarga tegishli bo'ladi. Ehtimol, $2136\text{--}2570\text{ cm}^{-1}$ sohadagi chiziqlar guruhi, kumulirylanmagan qo'shbog'lar O=S=O ga tegishlidir, lekin $558\text{--}690\text{ cm}^{-1}$ sohalarda $-\text{SO}_4^{2-}$ ioniga tegishli bo'ladi. $1262\text{--}1295\text{ cm}^{-1}$ dagi duplet, ehtimol, peroksid $-\text{O}-\text{O}-$ bog'larining tebranishlari natijasida yuzaga keladi.

Kollagenning PK bilan o'zaro ta'sirlashuv mahsulotida, peptid guruhga tegishli (14.2-jadval) yangi signalning paydo bo'lishi kuzatiladi. Kutilganidek, PK O-O bog'lari signalining intensiviligi sezilarli kamayadi. Bir vaqtدا, kollagenni C-N va C-H bog'larining yutilish chiziqlari intensivligi ham kamayadi, peptid guruhning N-H yutilish chizig'i siljiydi.

14.2-jadval.

Kollagenning PK bilan o'zaro ta'siridagi IQ-spektrlar yutilish chiziqlari holati va intensivligining o'zgarishlari.

Yutilish chizig'i, cm^{-1}	Tebranish turi	Atomlar, bog'lar	Aniqlangan o'zgarishlar
524		NCO	Yangi yutilish chizig'inining paydo bo'lishi
1241	valent	C-N	intensivlik kamayishi
1262	valentli	O-O	intensivlik kamayishi
1334	simmetrik deformasiyon	CN	intensivlik kamayishi
1567	deformasiyaon	NH	intensivlik kamayishi, siljish
1637	deformasiyon	NH	siljish
2997	valent	NH	siljish

Aniqlangan o'zgarishlar payvand sopolimerlanish aktiv markazlari ning hosil bo'lishida peptid guruhining yoki CN guruh protonining ishtirok etayotganligini isbotlaydi.

Bundan tashqari, yutilish chizig'i intensivligining kamayishi va siljishi ko'rinishidagi eng katta o'zgarishlar, birlamchi aminoguruhga emas, balki peptid guruhining azot va vodorod atomlari o'rtasidagi bog'larga tegishlidir.

Bu yerda, shuningdek, PK bog'lari valent tebranishlarining yutilish chiziqlari jadalligi ancha kamayadi. Peroksoguruh bog'lari tebranishlarining yutilish chizig'i yo'qolib ketadi. Intensivlik va yutilish sohasining o'zgarishlari, fibroinning bog'lari uchun ham kuzatiladi. Fibroinning birlamchi aminoguruhi yutilish chiziqlari siljiydi, peptid guruhning tebranishlari esa deyarli o'zgarmaydi. Ehtimol, fibroinning PK bilan o'zaro ta'sirida, asosan fibroin tarkibidagi lizin va argininning birlamchi aminoguruhlari reaksiyaga kirishishi mumkin.


Fibroinning PK bilan o'zaro ta'sirida tajiqotlari natijalari, yuqoridagi tizimning natijalaridan farq qiladi (14.3-jadval).

14.3-jadval.

Fibroinning PK bilan o'zaro ta'siridagi IQ-spektrlar yutilish chiziqlari holati va intensivligining o'zgarishlari.

Yutilish chizig'i, sm ⁻¹	Tebranish turi	Atomlar, Bog'lar	Aniqlangan o'zgarishlar
450–707		SO ₄ ²⁻	chiziqlar sonining ko'payishi
1262	Valent	O–O	intensivlik kamayishi
1350	simmetrik deformasion	CN	intensivlik kamayishi
1563	deformasion	NH ₂	siljish


Adabiyot manbalarining tahlili va spektroskopik izlanishlarning natijalari bo'yicha, tabiiy polimerlarning makromolekulalarini radikal initiatiorlar bilan o'zaro ta'siridagi aktiv markazlarning hosil bo'lish reaksiyasini quyidagi sxemalar bilan ifodalash mumkin:




Payvandlangan zanjirlarning aktiv markazlari tabiatи va ularning o'sish va uzilish reaksiyalarini aniqlash uchun sopolimerlarning IQ-spektrlari va polimerlar, monomerlar va payvandlangan sopolimerlarning PMR-spektrlari tadqiq qilindi.

Sopolimerlarda, 1113, 1273, 1329, 1362 sm⁻¹ (kollagen-AK) va 953, 1019, 1281, 1337 sm⁻¹ (kollagen-MM) da, ehtimol yangi v_{S N} bog'lar-

ning (14.6-rasm) valent tebranishlariga tegishli bo‘lgan yangi yutilish chiziqlari paydo bo‘ladi. Fibroin sopolimerlarining spektrlarida, yangi yutilish chiziqlari 1720–1731 sm⁻¹ (C=O) da paydo bo‘ladi, C–N bog‘lar valent tebranishlarining yutilish chiziqlari 1226–1374 sm⁻¹ sohasida paydo bo‘ladi (14.7-rasm).





14.6-rasm. Kollagenning MMA (a) va AK (b) bilan IQ-spektridagi C–N bog‘lar valent tebranishlarining yutilish chiziqlari.




14.7-rasm. Fibroinning MMA (a) va AK (b) bilan IQ-spektridagi C–N bog‘lar valent tebranishlarining yutilish chiziqlari.



Tadqiqotlar natijalari asosida, funksional-aktiv monomerlarning tabiiy polimerlarga payvand sopolimerlanish reaksiyasini quyidagi sxemalar bilan ifodalash mumkin:




Payvandlangan polimer zanjirlarning o'sishi:



Konversiyaning kichik darajalarida, eruvchi sopolimer hosil bo'ladi. Bu holda, zanjirning uzilishi, disproporsiya mexanizmi yoki zanjirni initiator radikaliga uzatish mexanizmi bo'yicha sodir bo'ladi:



Konversiyaning yetarlicha chuqur darajadalarida to'rsimon erimaydigan polimerlar hosil bo'ladi. Bu holda, zanjirming uzilishi, rekombinatsiya mexanizmi bo'yicha sodir bo'ladi:



Taqdim etilgan sxemalarda, tabiiy polimerlarga payvand sopolimerlanish jarayonining eng ehtimoliy reaksiyalari tasvirlangan. Kollagen va fibroinning oqsil makromolekulalariga, sintetik polimerlar azot atomlari bo'yicha payvandlanadi.

Initiatorning bir xil konsentratsiyasida initsirlash markazlarining soni o'zgarmaydi va monomerlar konsentratsiyasi oshishi bilan, har bir faol markazga birlashuvchi molekulalar soni ortib boradi. Albatta, bu, payvandlangan zanjirlarning polimerlanish darjasи va molekulyar massasining proporsional oshishiga olib keladi. Sopolimerlarning tuzilishi, ko'proq, initiator konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi. Konversiyaning yetarlicha katta darajalarida, initiator konsentratsiyasining oshishi bilan, polimer gel-fraksiyasining ulushi ortib boradi.

Funksional-aktiv monomerlarning to‘qimachilik matolari yuzalarida polimerlashtirilishi, yangi materiallar olish uchun xizmat qiladi. Kollagen-poliakril kompozitsiya asosida shakl saqllovchi to‘qimachilik buyumlari detallarini tayyorlash uchun pardali material olingan. Material bir qator xossalarga ega: shaklning yuqori chidamliligi va mexanik mustahkamligi; kollagen, poliakrilat va asos tolalarining payvandlanishi sababli ho‘l ishlovlarga chidamliligi; komponentlarning plastik massasi tarkibi va ularni qoplash ketma-ketligini o‘zgartirib, materialning elastik-mustahkamlik xususiyatlarini o‘zgartirish imkoniyati; kompozitsiyani tayyorlash soddaligi va lokal qoplash imkoniyati mavjudligi.

14.3. Qog‘oz, matbaa, qadoqlash materiallari texnologiyasi va jarayonlarida polimerlarning ahamiyati va xossalari

Sellyuloza-qog‘oz mahsulotlarini ishlab chiqarish doimiy oshib bormoqda va hozirgi vaqtida dunyo bo‘yicha 403 mln. tonnadan ortiq qog‘oz va karton ishlab chiqariladi. 2025-yilga qadar dunyo bo‘yicha karton-qog‘oz mahsulotlari iste’molining o‘rtacha o‘sishi 2,1% ni tashkil qiladi, ishlab chiqarish esa 500 mln. tonnagacha o‘sadi. Birinchi navbatda Xitoy, Hindiston, Janubiy Amerika, Sharqiy Evropada qog‘oz, karton, selluloza-kompozitsion materiallarni ishlab chiqarish va iste’mol qilishning eng jadal o‘sishi kuzatilmoqda.

Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda qog‘oz va karton mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoj taxminan 120 ming tonnani, sellulozada 36 ming tonnani tashkil qiladi. Mahalliy bosma bozori har yili taxminan 110 ming tonna qog‘oz sarflaydi. Bunda O‘zbekiston qog‘oz sanoati korxonalarining ulushi faqtina 10-12% ni tashkil qiladi, qog‘ozning qolgan qismi asosan Rossiyanadan import qilinadi.

Bugungi kunda butun dunyoda yog‘och resurslari taqchilligi chuqurlashib bormoqda, selluloza massasini mahalliy xomashyodan ishlab chiqarishni ta’minalash jiddiy muammosi yuzaga keldi. O‘zbekiston Paxta, ipak, jun va kimyoviy tolali materiallarning yirik yetkazib beruvchisi hisoblanadi. Paxta sellulozasi – yuqori sifatli qog‘oz ishlab chiqarishga eng mos keladigan xomashyo hisoblanadi. Paxta sellulozasidan – yuqori sifatli qog‘oz olinadi. Bu qog‘oz yuqori darajada yuza silliqligi va shimuvchanlikka ega. Biroq, sanoat ko‘lamida toza paxta sellulozasidan qog‘oz ishlab chiqarish texnologiyasi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas. Lekin, qog‘oz massasiga to‘qimachilik va kimyo sanoati chiqindilarini

qo'shish xomashyo resurslaridan samarali va oqilona foydalanish, yuzaga kelgan matbaa materiallari tanqisligini bartaraf qilish, qimmatbaho paxta sellyulozasini tejash, qog'oz tannarxini pasaytirish, tashqaridan qog'oz olib kirishga bo'lgan ehtiyojni sezilarli pasaytirish muammosini hal qilishga imkon beradi.

Muqobil va ikkilamchi xomashyodan qog'oz olish bo'yicha tadqiqotlarni tizimlashtirish, sanoat va maishiy chiqindilardan yangi qog'oz kompozitsiyasini olish asoslarini yaratish, turli tolalarning o'zaro, polimerlar va bo'yoqlar bilan ta'sirlashuvi qonuniyatlarini va nazariy asoslarini belgilash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Qimmatbaho paxta xomashyosini tejash maqsadida qog'oz massasi tarkibida korxonalarda yuzaga keladigan tolali chiqindilardan foydalanish, qoniqarli fizik-mexanik xossalarga ega bo'lgan qog'oz ishlab chiqish, bosma-texnik xossalari aniqlash asosida qog'ozni ofset bosma uchun joriy qilish sellyuliza-qog'oz va matbaachilik sanoatlarida zarur hisoblanadi.

Qog'oz va matbaachilik sanoatlari uchun qog'oz ishlab chiqarishda bir qator istiqbolli yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda, shu jumladan, kamyoviy tola qo'shib qog'oz olish texnologiyasini ishlab chiqish, yangi polimer yelimlovchi moddalar kiritish yo'li bilan tolali chiqindilarga ega bo'lgan qog'ozning sifatini yaxshilash va mustahkamlikni oshirish.

Boshlang'ich tolali suspenziya va tayyor qog'oz mustahkamligining o'zaro bog'liqligi qog'oz varag'ining mexanik xususiyatlarini texnologik prognozlashda katta qiziqish uyg'otadi. Kamyoviy tolalarning tabiati, miqdori, chiziqli zichligi, uzunligi va paxta lenti sellyulozasi (PLS) maydalinish darajasining qog'oz xossalariiga ta'siri tadqiq qilindi.

Fizik-mexanik va mustahkamlik ko'rsatkichlarini baholash qog'oz tarkibiga chiziqli zichligi kamroq bo'lgan sintetik tola chiqindilarini (STCH) qo'shishning maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Chiziqli zichligi kamroq bo'lgan tolalar sellyuliza makromolekulalari orasida minimal masofali qog'ozning zichroq tuzilmasini hosil qiladi, bu esa kuchliroq mexanik ilakishishga olib keladi va natijada mustahkamlik xossalari eng yaxshi bo'lgan qog'oz olinadi.

Ma'lum uzunlikdagi (2-10 mm) STCH dan foydalanish kerak. Tolalar bir xil uzunlikka ega bo'lishi kerak, chunki tolalar uzunligi bir xilligidan bir oz farqlanish ham dispergirlashda pufak hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin. Kaltaroq va uzunligi bo'yicha bir xil bo'lgan tolalardan foydalanishda qog'ozning shakllanish jarayoni yaxshilanadi. Shuning uchun, sifatli qog'oz tayyorlash uchun qog'oz massasi tarkibiga uzunligi bo'yicha bir xil, 12 mm dan uzun bo'lmagan STCH ni tavsiya qilinadi.

Ofset bosma uchun qog'ozlarni tayyorlashda qog'oz massasiga STCH kiritishda PLS ning optimal maydalanishi 60 °SHR ni tashkil qilishi kerak. Ma'lum maydalanish darajasigacha sellyuloza va STCH asosidagi qog'ozlar mustahkamlik tavsifnomalarining oshishi kuzatiladi, yana maydalash xossalarning yomonlashuviga olib keladi. Fraksiyalarning maydalish darajasi chegarasi tolali massanining tabiatiga bog'liq holda belgilanishi kerak.

Tolali massaning ham nam, ham quruq holatda mustahkam ilakishini ta'minlash uchun qog'oz kompozitsiyasiga MNCH kiritish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirildi. PAN tolalarni modifikatsiyalash tabiiy ipak chiqindilari eritmasi bilan ishlov berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Yangi molekulyar bog'larning kompozitsion qog'ozning fizik-mexanik xossalariiga ta'sirini aniqlash uchun ishlov berilmagan nitron chiqindilari qo'shilgan qog'ozlarning xossalari solishtirma tadqiq qilindi (14.4-jadval).

Xossalarni solishtirish shuni ko'rsatadiki, tadqiq qilinayotgan ko'rsatkichlarning o'zgarish tavsifida sezilarli farqlar mavjud. Sintetiktolaning miqdori oshganda kompozitsion qog'ozning uzilish uzunligi deyarli toza PLS asosida tayyorlangan qog'oz bilan bir xil darajada qoladi. Qog'oz kompozitsiyasiga MNCH 20% gacha qo'shilganda qog'ozning mustahkamlik ko'rsatkichlari bor-yo'g'i ~5% ga pasayadi.

14.4-jadval.

Tajribaviy qog'ozlar fizik-mexanik xossalaring kompozitsiya tarkibiga bog'liqligi.

Ko'rsatkichlar	Variantlar								
	Ishlov berilmagan NCH					Modifikatsiyalangan PAN tolalar			
	1	2	3	4	5	6	7	8	9
Qog'oz massa-sida NCH miqdori, %	0	5	10	15	20	5	10	15	20
Qog'oz massa-sida PLS miqdori, %	100	95	90	85	80	95	90	85	80
Uzilish uzunligi, m	3682	3585	3471	3314	2949	3634	3626	3678	3506
Uzish kuchlanishi, N	31,0	31,0	32,0	26,0	15,0	31,0	31,8	30,4	30,0
Sinish, i.b.s.	44	48	54	64	66	44	45	42	40
Kullilik, g	4,0	4,3	4,6	4,6	4,9	4,3	4,6	4,7	4,9

PAN tolalarini modifikatsiya qilishda foydalilaniladigan tabiiy ipak chiqindilari o‘zining tarkibida turli xil qutbli funksional – gidroksil, karboksil, aminoguruuhlar va boshqa guruhlarga ega. Tabiiy ipak makromolekulalari vodorod va kovalent bog‘lar hisobiga nitron tolalari bilan bog‘lanadi. Ular sellyuloza bilan qo‘sishma vodorod va kovalent bog‘lar hosil qiladi. Shunday qilib, tabiiy ipakning oqsil makromolekulalari sellyulozani sintetik tolalar bilan bog‘lovchi komponent vazifasini bajaradi.

Qog‘ozga zaruriy mexanik mustahkamlik berish uchun polimerli yelimlovchi moddalar – akril emulsiyasi, butadien-stirol sopolimeri lateksi va poliakrilamiddan foydalanildi. Polimer yelimlashni qo‘llash qog‘oz g‘ovakligining kamayishiga va uning mexanik mustahkamligi ortishiga olib keladi, bu yangi vodorod va kovalent bog‘larning hosil bo‘lishidan dalolat beradi.

Qog‘oz massasiga sintetik polimer kiritish qog‘ozda sillqlik ko‘rsatichi yaxshi bo‘lgan bir jinsli tarkib olishga imkon berdi. Aniqlandiki, akril emulsiyasidan foydalanib olingan qog‘oz yuqori oqligi (6%) va sillqligi (21%) bilan farqlanadi. Kristalliligi va bir jinsliligining ortishi bilan qog‘ozning fizik-mexanik xossalari (15-20%) yaxshilanadi. Oqlik, sillqlik kabi ko‘rsatkichlarning rang tavsifnomalari, nusxaning optik zichligi, bo‘yoq qabul qilishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. To‘qimachilik sanoatida polimerlar qanday ahamiyatga ega?
2. Oxorlash nima va bunda qanday eritmalar qo‘llaniladi?
3. Tikuv buyumlari ishlab chiqarishda polimerlar qanday ahamiyatga ega?
4. Paxta matolarining gijimlanmasligi uchun nima qilish kerak?
5. Charm va mo‘yna buyumlari ishlab chiqarishda qaysi polimerlardan foydalaniladi?
6. Matolarni kimyoviy pardozlash jarayoni qanday amalga oshiriladi?
7. Tolani pardozlashdan maqsad nima?
8. Qog‘oz ishlab chiqarishda sintetik polimerlarning qo‘llanilishi.
9. Kaliy persulfatning tabiiy tolaga ta’siri qanday?
10. Nima sababdan matolarga maxsus xossalari berishda payvand sopolimerlanishdan foydalaniladi?
11. Sopolimerlanish tezligining monomerlar konsentratsiyasiga va initsiator konsentratsiyasiga bog‘liqligi.

GLOSSARIY

<i>O'zbekcha nomi</i>	<i>Inglizcha nomi</i>	<i>Ruscha nomi</i>	<i>Ma'nosi</i>
<i>Alkogoliz</i>	<i>Alcoholysis</i>	Алькоголиз	Reaksiyaning spirtli muhitda olib borilishi.
<i>Anion</i>	<i>Anion</i>	Анион	Manfiy zaryadlangan ion.
<i>Anionli polimerlanish</i>	<i>Anionic polymerization</i>	Анионная полимеризация	Metallar va ularning amidlari, metall-organik birikmalar, yuqori valentli metall oksidlari va elektronodonor moddalar ishlatalidigan reaksiyalar.
<i>Karbozanjirli polimerlar</i>	<i>Carbose-derived polymers</i>	Карбоценные полимеры	Asosiy zanjiri faqat uglerod atomidan iborat bolgan polimer.
<i>Blok sopolimer</i>	<i>Block copolymer</i>	Блок-сополимер	Makromolekulaning asosiy zanjirida bir manomerning o'nlab bo'g'inlari, so'ngra ikkinchi manomerning o'nlab bo'g'inlari joylashadi.
<i>Bosituvchan-lik</i>	<i>Verticality</i>	Прессование	Bosish jarayonida junning kigizsimon to'shamal hosil qilish jarayoni.
<i>Bosqichli polimerlanish</i>	<i>Phase polymerization</i>	Ступен-чатая полимеризация	Manomer molakulasidagi bior vodorod atomi ikkinchi molekulasiga siljishi natijasida monomer molekulalari o'zaro birikib, polimer hosil qilish jarayoni.
<i>Chekli bo'kish</i>	<i>Limited swelling</i>	Ограниченое набухание	To'rsimon polimerlarga tegishli bo'lib, erituvchini cheklangan miqdorda qabul qiladi.
<i>Cheksiz bo'kish</i>	<i>Unlimited swelling</i>	Неограниченное набухание	Chiziqsimon polimerlarga tegishli bo'-lib, jarayon to'liq erish bilan yakunlanadi.
<i>Destruksiya</i>	<i>Destruction</i>	Деструкция	Makromolekulalardagi kimyoviy bog'larining uzilishi natijasida ularning polimerlanish darajasi yoki molekulyar massasining kamayishi bilan kechadigan jarayon.

<i>Differansialtermik analiz</i>	<i>The Differentiation and thermal analysis</i>	Дифференциальный термический анализ	Polimerlarning issiqbardoshlik yoki termobarqarorligi differansial-termik analiz orqali aniqlanadi.
<i>Eritma</i>	<i>Solution</i>	Раствор	Ikki yoki bir necha tarkibiy qismlardan tashkil topgan suyuq yoki qattiq homogen sistema
<i>Geterozanjirli polimerlar</i>	<i>Heterocyclic polymers</i>	Гетероциклические полимеры	Polimer molekulasining asosiy zanjirida ugleroddan tashqari boshqa element atomlari ham boladi.
<i>Faza</i>	<i>Phase</i>	Фаза	Sistemaning boshqa qismlaridan chegaralangan hamda mustaqil tarkib va termodinamik potensialga ega bolgan moddalar.
<i>Fazoviy polikondensatsianish</i>	<i>Spatial polycondensation</i>	Пространственная поликонденсация	Tarkibida uch va undan ortiq funktsional guruh bo'lgan moddalar polikondensatlanib fazoviy polimerlar hosil bolishi.
<i>Fizikaviy destruksiya</i>	<i>Physical destruction</i>	Физическая деструкция	Issiqlik, quyosh nuri, yuqori energiyali nurlanishlar va mexanik ta'sirdan bora-digan jarayon.
<i>Gomopolikondensatsianish</i>	<i>Homopolytical condensation</i>	Гомополиконденсация	Bir moddaning ikki xil funktsional guruhlari o'zaro reaksiyaga kirishib, polimer hosil qilish jarayoni.
<i>Gomopolimer</i>	<i>Homopolymer</i>	Гомополимер	Bir xil tarkibli monomerlardan hosil bo'ladigan makromolekula.
<i>Ingibitor</i>	<i>Inhibitor</i>	Ингибитор	Reaksiya tezligini pasaytiradigan moddalar yoki manfiy katalizatorlar.
<i>Initiator</i>	<i>The initiator</i>	Инициатор	Biroz qizdirilganda radikal hosil qiluvchi moddalar. Aktiv markaz hosil qilish uchun ishlatalidi.
<i>Iviqlar</i>	<i>Jells</i>	Студии	Yuqori molekulyar modda molekulalari orasida o'zaro bog'larning yuzaga kelishi natijasida iviq hosil bo'ladi.
<i>Karbo-zanjirli polimerlar</i>	<i>Carbose-derived polymers</i>	Карбоцепные полимеры	Asosiy zanjiri faqat uglerod uglerod atomidan iborat bolgan polimer.
<i>Katalitik polimerlanish</i>	<i>Catalytic polymerization</i>	Каталитическая полимеризация	Ionli polimerlanish reaksiyalarning katalizator ishtirokida borishi.

<i>Katalizator</i>	<i>Accelera-Tor</i>	Катализатор	Reaksiya tezligini o'zgartiradigan, lekin reaksiya natijasida kimyoviy jihatdan o'zgarmaydigan moddaga aytildi.
<i>Kation</i>	<i>Cation</i>	Катион	Musbat zaryadlangan ion.
<i>Kationli polimerlanish</i>	<i>Cationic polymerization</i>	Катионная полимеризация	Kuchli kislotalar va Fridel-krafts katalizatori ishtirokida boradigan reaksiyalar.
<i>Kauchuk</i>	<i>Rubber</i>	Каучук	("Kau" – daraxt va "uchu" – oqmoq) rezina va rezina buyumlari tayyorlashda ishlataladigan elastik material.
<i>Konformatsiya</i>	<i>Conformation</i>	Конформация	Polymer zanjirining issiqlik harakati tufayli hosil bo'ladigan izomerlari
<i>Kristallanish</i>	<i>Crystallization</i>	Кристаллизация	Suyuqlikni qattiq modda holatiga o'tishi
<i>Lateks</i>	<i>Latex</i>	Латекс	Kauchukning suvdagi kolloid eritmasi.
<i>Makromolekula</i>	<i>Macromolecules</i>	Макромолекула	Polymerlar molekulasi juda katta molekulyar massaga ega bo'lgani uchun makromolekula deb ataladi.
<i>Makromolekulalararo reaksiyalar</i>	<i>Macromolecular reactions</i>	Макромолекулярные реакции	Polimer molekulyar massasining ortishi yoki kamayishiga, ya'ni makromolekularning uzayishi yoki qisqarishiga olib keluvchi barcha jarayonlar.
<i>Meriya</i>	<i>Meriya</i>	Мерия	Charm o'ngidagi tabiiy naqsh.
<i>Mexanikkimyoviy jarayonlar</i>	<i>Mechanical-chemical processes</i>	Механохимические процессы	Mexanik kuchlar ta'sirida sodir bo'ladigan jarayonlar.
<i>Monomer</i>	<i>Monomer</i>	Мономер	Polymerlar sintezi uchun olingan dastlabki moddalar.
<i>Oksidlanish destruksiysi</i>	<i>Oxidation Destruction</i>	Окислительная деструкция	Polimer asosiy zanjirining uzilishi bilan birga funksional guruhlarning o'zgarishi.
<i>Payvand sopolimerlash</i>	<i>Graft copolymerization</i>	Привитая сополимеризация	Chiziqsimon polimer makromolekulasining yoniga boshqa chiziqsimon polimer zajirini ulanishi.
<i>Polikondensatlanish</i>	<i>Polymerization</i>	Поликонденсация	Molekulasi tarkibida bir necha funksional atomlar guruhi tutgan moddalarning o'zaro bir-biri bilan bosqichma-bosqich birikishi natijasida YuMB va QMB hosil bo'lishi bilan boradigan jarayonlar.

<i>Polimer</i>	<i>Polymer</i>	Полимер	Juda katta molekulyar massaga ega bo'lgan va tarkibida takrorlanib keluvchi ko'plab ayrim bo'lakchalar bo'lgan moddalar.
<i>Polimerning qayishqoqligi</i>	<i>The flexibility of the polymer</i>	Гибкость полимера	Makromolekula zanjirni bo'g'inlarning issiqlik temperaturasi yoki tashqi kuch ta'sirida o'z holatini o'zgartirish qobiliyatidir.
<i>Polimeranalologik o'zgarishlar</i>	<i>The polymer analogical transformation</i>	Полимер-аналогичные превращения	Polimer tarkibidagi funksional guruhlari boshqa guruhlar bilan almashtrish reaksiyalarini.
<i>Polimerlarnish</i>	<i>Polymerization</i>	Полимеризация	O'nlab, yuzlab, minglab monomerlarning o'zaro birikish.
<i>Polimerlanish darajasi</i>	<i>The degree of polymerization</i>	Степень полимеризации	Takrorlanadigan oddiy bo'g'inlar sonini ko'rsatadigan kattalik.
<i>Polimerning bo'kishi</i>	<i>Swelling of the polymer</i>	Набухание полимера	Erituvchi molekulalarini polimerning ichki qatlamlariga singishi natijasida massasi va hajmining ortishiga aytildi.
<i>Qattiq (modda)</i>	<i>Solid</i>	Твердое (вещество)	Moddaning agregat holati, gaz va suyuqlikdan farq qilib, mexanik mustahkamlikka, aniq hajmiy o'lcham va shaklga ega. Qattiq modda zarrchalari erkin harakat qila olmaydi, faqat tebranma harakat qilishi mumkin. Zich joylashgan qattiq moddaning hajmini o'zgartirish deyarli mumkin emas.
<i>Qaynash</i>	<i>Boiling</i>	Кипение	Suyuqliknin o'zgarmas temperaturada intensiv gaz holatiga o'tishi.
<i>Radiatsion destruksiya</i>	<i>Radiation degradation</i>	Радиационная деструкция	Polimerlarda rentgen va γ -nurlar ishtirokida boradigan radioliz.
<i>Reaktoplastlar</i>	<i>Reacto-plasts</i>	Реактопласти	To'rsimon tuzilishga o'ta oladigan suyuq yoki isitilganda qovushqoq oquvchan holatga o'tuvchi polimerlar va oligomerlar.
<i>Regulyatorlar</i>	<i>Regulators</i>	Регуляторы	Polimerlarning o'rtacha molekulyar massasini nazorat qilib turuvchi moddalar.

<i>Sedimentat-siya hodisasi</i>	<i>Sedimenta-tion</i>	Седимен-тация	Suspenziyadagi zarrachalarning vaqt o'tishi bilan o'zining og'irlik kuchi ta'sirida cho'kishi.
<i>Sinerezis</i>	<i>Sinerezis</i>	Синерезисъ	Iviq vaqt o'tishi bilan tarkibidagi erituvchini chiqarib yuborib, o'z hajmini kamaytiradi. Natijada suyuq va iviqsimon makrofaza hosil bo'lishi.
<i>Sopolimerlanish</i>	<i>Sopolime-ryzation</i>	Сополиме-ризация	Ikki va undan ortiq tur monomerlarning birgalikda polimerlanish jarayoni.
<i>Statik sopolimerla-nish</i>	<i>Static copolymer-ization</i>	Статичес-кая сополи-меризация	Sopolimer makromolekulasida bo'g'inlar joylashuvi tartibsiz bo'lsa.
<i>Suyuqlik</i>	<i>Liquid</i>	Жидкость	Moddaning agregat holati, o'z shakliga ega emas, u qanday idishga solinsa, o'sha idish shaklini oladi, idishning butun hajmini egallash uchun suyuqlik gazlar kabi kengaymaydi. Uni siqish amalda qiyin. Zarrachalar orasidagi masofa ularning o'lchamlaridan kichik, lekin zarrachalar orasida ayrim bo'shlqlar mavjud. Shu bo'shlqlar hisobiga suyuq modda zarrachalari bir joydan ikkinchi joyga siljyidi, ya'ni suyuqlik oqish xossasiga ega.
<i>Termik destruksiya</i>	<i>Thermal destruction</i>	Термичес-кая деструкция	Inert atmosfera yoki vakuumda yuqori temperatura ta'sirida polimerlarning parchalanishi.
<i>Termomexanik egrisi</i>	<i>Thermomechanical curve</i>	Термомеха-ническая кривая	Polimer deformatsiyasining temperaturaga bog'liqlik grafigi.
<i>Valentlik</i>	<i>Valensy</i>	Валентноть	Biron kimyoiy element atomining muayyan sondagisini biriktirib oluvchi xususiyati
<i>Vodorod ko 'rsatkich</i>	<i>Gidrogen ion exponent</i>	Водород-ный показатель	Eritmadagi vodorod ionlari konsentratsiyasining manfiy o'nli logarifmi.
<i>Vulgonlash</i>	<i>Vulcaniza-tion</i>	Вулканиза-ция	To'yinmagan polimerlarning reaksiyalari orasida kauchuk makromolekulalarini polifunktional guruuhlar yordamida «tikish».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miziyyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. 80 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 14-dekabrdagi PF-5285-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Charm-poyabzal va mo‘ynachilik sohalarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 3-maydagi PQ-3693 sonli Qarori.
5. Charles E. Carraher Jr. Introduction to Polymer Chemistry. CRC press USA, 2003, 2012.
6. John W. Nicolson. The chemistry of polymers. 2006, British library.
7. M.A. Asqarov, M. Yoriev, N. Yodgorov. “Polimerlar fizikasi va kimyosi”. –T.: 1993. 312 b.
8. M.A. Asqarov, I.I. Ismoilov. “Polimerlar fizikasi va kimyosi” – T.: 2004, 416 b.
9. Sh.M.Mirkomilov, N.I.Bozorov, I.I.Ismoilov “Polimerlar kimyosi”. T: 2013. 260 bet.
10. Кулезнев В.Н., Шершнев В.А. Химия и физика полимеров. Москва: “Высшая школа”, 1988.
11. Т.М.Бабаев. Юкори молекуляр бирикмалар. - Тошкент.: Фан ва технология, 2016. 612 бет.
12. Рашидова С.Ш., Кудышкин В.О. Введение в химию высокомолекулярных соединений. Учебное пособие. – Т.: “Навруз”, 2014, 194 с.
13. Кабанов В.А., Зубов В.П., Семчиков Ю.Д. Комплексно-радикальная полимеризация. – Москва: “Химия”, 1987, 254 с.
14. Исмоилов И.И., Рафиков А.С. Донорно-акцепторный механизм полимеризации. Т.: ТошКТИ, 2003, 232 с.
15. Тагер А.А. Физика-химия полимеров. 2007.
16. Семчиков Ю.Л. Высокомолекулярные соединения. – М: “Высшая школа”, 2005.
17. <http://www.lex.uz> - Узбекистон Республикаси қонун хужжатлари маълумотлари миллый базаси.
18. <http://www.gov.uz> - Узбекистон Республикаси Хукумат портали.
19. <http://www.aza.uz> – Узбекистон миллый ахборот агентлиги сайти.
20. <http://www.edu.uz> – Узбекистон Республикаси Олий ва урта маҳсус таълим вазирлиги сайти.
21. <http://www.chemport.ru>
22. <http://www.anchem.ru>
23. <http://www.rushim.ru>

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI.....3

I BOB. "POLIMERLAR FIZIKASI VA KIMYOSI" FANINING MAZMUNI, PREDMETI, ASOSIY TUSHUNCHALARI

1.1. Polimerlarning tirik tabiatdagi roli va ularning kimyoviy materiallar sifatida ahamiyati.....	6
1.2. Yuqori molekulyar birikmalar kimyosidagi asosiy tushunchalar.....	8
1.3. Polimerlar haqidagi fanning rivojlanish tarixi	12
1.4. Polimerlar fizikasi va kimyosi fanini rivojlantirishda O'zbekiston olimlarining xizmatlari	13
1.5. Polimerlarning kelib chiqishi, kimyoviy tarkibi, tuzilishiga qarab sinflanishi	15
1.6. Sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan eng muhim polimerlarning kimyoviy tarkibi va tuzilishi	20
Nazorat savollari va topshiriqlar.....	23

II BOB. POLIMERLAR SINTEZI. POLIMERLANISH REAKSIYALARI

2.1. Polimerlar sintez qilishning asosiy turlari.....	24
2.2. Radikal polimerlanish. Termik, fotokimyoviy, radiatsion, kompleks-radikal polimerlanish.....	27
2.3. Radikal polimerlanishni initsirlash, initsiatorlar.....	31
2.4. Radikalpolimerlanish reaksiyalarining mexanizmi. Ingibitorlar	34
2.5. Ionli polimerlanish: kation va anion polimerlanish. Katalizatorlar	38
2.6. Ion-koordinatsion polimerlanish va uning mexanizmi	45
2.7. Polimerlanish jarayonining texnologik usullari.....	49
Nazorat savollari va topshiriqlar.....	53

III BOB. POLIMERLANISH KINETIKASI VA TERMODINAMIKASI

3.1. Radikal polimerlanish kinetikasi. Polimerlanish reaksiyalarining monomer va initsiator bo'yicha tartibi	55
3.2. Polimerlanish bosqichlari tezliklarining konstantalari.....	59
3.3. Aktivlanish energiyasi.....	60
3.4. Polimerlanish termodinamikasi	65

IV BOB.SOPOLIMERLANISH REAKSIYALARI

4.1. Sopolimerlanish reaksiyalarining ahamiyati va mohiyati.....	71
4.2. Sopolimerlanish reaksiyalarining turlari	72
4.3. Sopolimerlanish konstantlari	74
4.5. Blok sopolimerlar.....	82
4.6. Tabiiy tolalar va to'ldiruvchilar yuzasida payvand sopolimerlanish	87
Nazorat savollari va topshiriqlar:.....	92

V BOB. POLIKONDENSATLANISHREAKSIYALARI

5.1. Polikondensatlanish reaksiyalarining ahamiyati va mohiyati.	93
Polikondensatlanish reaksiyalarining turlari.....	
5.2. Polikondensatlanishning yo'nalishi, polikondensatlanishga temperaturaning ta'siri	100
5.3. Polikondensatlanish kinerikasi.....	101
5.4. Polikondensatlanish reaksiyalarining amaliy usullari.....	110
Nazorat savollari va topshiriqlar:.....	113

VI BOB. POLIMERLARNING KIMYOVIY XOS SALARI

6.1. Polimerlar kimyoviy reaksiyalirining turlari. Funksiyal guruhlarning kimyoviy xossalari	114
6.2. Polimerlarni kimyoviy modifikatsiyalash. Polimeranalogik va ichki molekulyar o'zgarishlar	117
6.3. Makromolekulalararo reaksiyalar	128
6.4. Polimerlanish darajasining kamayishiga olib keluvchi reaksiyalar. Destruksiya ..	134
6.5. Kimyoviy destruksiya	136
6.6. Fizikaviy destruksiya	143
6.7. Polimerlarni barqarorlashtirish usullari	153
Nazorat savollari va topshiriqlar:.....	155

VII BOB.POLIMERLARNING STRUKTURASI VA FIZIK-MEXANIK XOS SALARI

7.1. Polimerlar fizikaviy xossalaring o'ziga xosligi	156
7.2. Polimerlar makromolekulasining qayishqoqligi	157
7.3. Amorf polimerlarning uch fizik holatlari	163
7.4. Polimerlarning termomexanik analizi	165
7.5. Polimerlarni plastifikatsiyalash	169
7.6. Polimerlarning kristall holati	178
7.7. Polimerlarning mexanik xossalari, issiqbardoshligi va termobarqarorligi	193
7.8. Differensial-termik analiz	195
Nazorat savollari va topshiriqlar:.....	196

VIII BOB. POLIMERLARNING ERITMALARI

8.1. Polimerlar eritmalarini nazariysi	197
8.2. Polimerlar eruvchanligining termodinamik mezoni	201
8.3. Polimerlar eruvchanligiga ta'sir etuvchi omillar.....	203
8.4. Polimerlarning bo'kishi	206
8.5. Polimer eritmalarini tayyorlash va tozalash	209
8.6. Polimer eritmalarining xossalari	210
8.7. Quyi va yuqori molekulyar birikmalar eritmalarining xossalarni solishtirish.....	219
8.8. Polimerlarning konsentrlangan eritmalarini va iviqlari.....	220
Nazorat savollari va topshiriqlar:.....	225

IX BOB.POLIMERLARNING MOLEKULYAR MASSASI VA POLIDISPERSLIGI

9.1. Polimerning o'rtacha molekulyar massasi	226
--	-----

9.2. Polimerlarning molekulyar massasini aniqlash usullari	228
9.3. Vizkozometrik usul bilan molekulyar massani aniqlash.....	236
9.4. Polimerlarning polidispersligi va molekulyar massaviy taqsimlanishi	241
Nazorat savollari va topshiriqlar:.....	244

X BOB. POLIMERLARNING MUHIM TURLARI

10.1. Sellyuloza va uning hosilalari.....	245
10.2. Tabiiy ipak, jun, charm: tarkibi, tuzilishi, xossalari.....	258
10.3. To'yingan va to'yinmagan poliuglevodorodlar, galogenli, kislorodli polimerlar.	263
10.4. Fenolformaldegid va karbamid smolalar	273
10.5. Poliefirlar va poliamidlar	280
Nazorat savollari va topshiriqlar:.....	285

XI BOB. POLIMERLARNI QAYTA ISHLASH. PLASTMASSALAR

11.1. Plastmassalar haqida tushuncha. Plastmassalarning tarkibi va turlari	287
11.2. Plastmassalar tarkibiy qismlarining vazifalari	288
11.3. Platmassalarning xossalari va qo'llanilishi	289
11.4. Termoplastik plastmassalarni qayta ishlash usullari	290
11.5. Termoreaktiv plastmassalarni qayta ishlash usullari	293
Nazorat savollari va topshiriqlar:.....	295

XII BOB. KAUCHUK VA REZINA

12.1. Tabiiy kauchukning tarkibi va tuzilishi, xossalari	296
12.2. Sintetik kauchuklarining kimyoviy tarkibi, tuzilishi,	298
olinishi va xossalari.....	298
12.3. Rezina aralashmasi va uni qayta ishlash.....	300
Nazorat savollari va topshiriqlar:.....	303

XIII BOB. KIMYOVIY TOLALAR

13.1. Tolalarning sinflanishi.....	304
13.2. Tola hosil qilish texnologiyasi	306
13.3. Sun'iy tolalar va ularning xossalari	311
13.4. Sintetik tolalar va ularning xossalari.....	315
Nazorat savollari va topshiriqlar:.....	325

XIV BOB. TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT UCHUN POLIMERLARNING OLISHI VA XOSSALARI

14.1.To'qimachilik, tikuv, charm va mo'yna buyumlari ishlab chiqarishda polimerlarning ahamiyati, xossalari.....	326
14.2. Kimyoviy pardozlash jarayonlarida polimerlarning ahamiyati, xossalari.....	329
14.3. Qog'oz, matbaa, qadoqlash materiallari texnologiyasi va jarayonlarida polimerlarning ahmiyati va xossalari	339

GLOSSARIY	343
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:	348

M.A.Askarov, A.S.Rafikov, D.O.Abdusamatova

POLIMERLAR FIZIKASI VA KIMYOSI

Muharrir Olim Jumaboyev

Musahhih H.Safaraliyev

Dizayner N.Ablayev

Sahifalovchi H.Safaraliyev

2020-yil 25-oktabrda chop etishga ruxsat berildi.

Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. «Times New Roman» garniturasi.

Bosma tabog'i 11. Adadi 100 dona. Buyurtma № 8/10.

«Excellent Polygraphy» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
100190, Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, Jangox kochasi
12 uy,13 xonadon.

978-9943-6248-1-8

A standard linear barcode representing the ISBN 978-9943-6248-1-8.

9 789943 624818